O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

Maqsud Abdirasulovich Bebitov, Dilorom Tajiyevna Yaqubova,
Jurayev Boxodir Turdaliyevich.

O‘ZBEKISTON TOPONIMLAR TARIXI

(*O‘quv qo‘llanma*)

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2024

UO‘K 001: 91. 433

KBK 8787. X 11.

Maqsud Abdirasulovich Bebitov, Dilorom Tajiyevna Yaqubova,

Jurayev Boxodir Turdaliyevich.

O‘zbekiston toponimlar tarixi. O‘quv qo‘llanma – “Bekshox print servis” nashriyoti. – Termiz: 2024. – 257 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston toponimlar tarixi fanining asosiy tarkibiy qismlari bo‘yicha hozirgi zamon tushunchalari bayon qilingan. O‘zbekiston toponimlar tarixining fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari belgilangan, sohaga oid ilmiy tadqiqotlar tarixi, fanning asosiy xususiyatlari va tadqiqot metodlari aniqlangan. Qo‘llanmada fan haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o‘rganish, fan bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qo‘llanmada fanning asosiy nazariy va metodologik jihatlari bilan birga respublika va viloyatlar toponimiyasining umumiy tavsif berilgan. O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarning bakalavr 60220300-Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) talabalari, 70220301-Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi mutaxassislariga mo‘ljallab tayyorlandi.

TAQRIZCHILAR:

Sh.S.G‘afforov *– t.f.d., Samarqand Davlat universiteti professori.*

T.R.Pardayev *- t.f.d., Termiz Davlat universiteti professori.*

B.S.Nazirov *- DTPI Tarix va falsafa kafedrasi dotsenti.*

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2024 yil “07” Maydagi “149”-sonli buyruq)

“Bekshox print servis” nashriyoti.



KIRISH

Toponimka so‘zi joynomlari – har qanday geografik ob’ektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanonim, agroonim va boshqalardan tarkib topadi[1]. Hozirda geografik ob’ektlarning nomlarini o‘rganadigan fan bu – toponomika hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichidan boshlab biz yashayotgan dunyoni nomlar dunyosi deb atash mumkin, chunki deyarli har bir real ob’ekt, insonning o‘zidan tortib, tabiat ob’ektlarigacha o‘z nomiga ega. Shunday qilib, qadimgi toponimlar o‘z-o‘zidan shakllanganga o‘xshaydi, chunki biz ularning yaratuvchilarini va yaratilish tilini bilmaymiz.

Geografik nomlar qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan, ularning kelib chiqishi ibtidoiy jamiyatda yotadi. Ularni yaratishda inson bir joyni boshqa joydan, xoh daryo, xoh tog‘, xoh ko‘l bo‘lsin, farqlash zaruratidan kelib chiqqan. Ibtidoiy odam katta lug‘atga ega emas edi, shuning uchun ismlarni belgilash jarayonida uning imkoniyatlari cheklangan edi. U ko‘pincha daryo, ko‘l va dengiz suvini va tog‘ni - tepalik, tepalik- tog‘ tizmasi yoki shunchaki tepalik deb atagan. Insoniyat tsivilizatsiyasining boshlanishida ham shunday bo‘lgan.

Geografik nomlar ma’lum tarixiy davrlarda vujudga kelgan. Ular tarixiy voqealarning xronologik dalilidir. Toponimlar muayyan tarixiy voqealarga qarab vaqt o‘tishi bilan shakl, mazmun va tarqalish jihatdan o‘zgarib turdi. Urushlar, aholining ko‘chishi, etnik aloqalar toponimikada o‘z izini qoldiradi. Har bir tarixiy davr o‘ziga xos geografik nomlar bilan tavsiflangan. Toponimlar muayyan tarixiy sharoitlarda paydo bo‘lgan, ularning kelib chiqishi ma’lum hududlarda yashagan yoki yashayotgan xalqlarning ijtimoiy hayoti va tillari bilan chambarchas bog‘liq. Tarixiy sharoitlar, tillar va xalqlar o‘zgardi, hatto ularning hududlari ham shuning uchun insonning geografik muhiti o‘zgardi.

Geografik nomlar inson bilishining uzoq va murakkab rivojlanishi jarayonida shakllangan bo‘lib, odamlarning atrofdagi barcha tabiiy narsalarga munosabatini,

[1] Ahmadaliev Yu.I. “Toponimika va geografik terminshunoslik”. – F.: 2018 – 10 b.

atrof-muhit ob’ektlarini nomlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichida edi.

Toponimlar jamiyat tomonidan va jamiyatning o‘zi uchun yaratilgan, shuning uchun ularni o‘rganish bilan tarix fani shug‘ullanadi.

Har qanday geografik nom tarixiy bo‘lib, har bir xalqning madaniy yodgorligi hisoblanadi. Geografik nom tasodifiy emas jamiyat tomonidan beriladi. Toponimlarda hududlarda insonlar o‘troqlashuvining tarixiy bosqichlari, odamlarning xo‘jalik faoliyati, qadimiy migratsiya va millatlararo aloqalar, tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, geografik o‘zgarishlar, hudud belgilari, shu jumladan hozirda yo‘qolib ketgan belgilari tasvirlangan.

Toponimlar xuddi ko‘zgudek tabiiy muhitning rang-barangligini, landshaftlarning rang-barangligini aks ettiradi. Ular ko‘pincha boy va xilma-xil ilmiy ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ular tabiiy va boshqa ob’ektlarning tashqi shakllari, o‘ziga xos belgilari, miqdori va sifati, ichki tuzilishi va mohiyati, tegishliligi, joylashishi va boshqa muhim belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi.

Qadimgi nomlarning manbalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega, ular ham geografik ob’ektlar, ham millat nomlari va kishi nomlari edi. Inson turli nomlanish usullaridan foydalanadigan yagona ob’ektdir. Insonning tabiiy ob’ektlarga nisbatan munosabati nomlarining xilma-xilligi bilan bog‘liq. Bu erda insonning toponimlarga nisbatan ko‘p qirrali yondashuvga ham e’tibor qaratish lozim.

Millatlar, elatlar, qabilalar, qabila birlashmalari, urug‘lar va boshqa elatlar nomlarining kelib chiqishi va faoliyati fanning etnonimika bo‘limi tomonidan o‘rganiladi. Etnonimika etnonimlar tarixini o‘rganganligi sababli, uning ma’lumotlari etnik tarix muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Etnonimiya man’balaridan tarixchilar, etnograflar, demograflar, tilshunoslar, antropologlar, arxeologlar etnik ko‘chish yo‘llarini, madaniy va lingvistik aloqalarni, etnik guruhlar hayotiga oid barcha masalalarni o‘rganishda foydalanadilar. Etnonimlar qadimiy atamalar haqida juda ko‘p qimmatli tarixiy va lingvistik ma’lumotlarni beradi.

Toponimik tizim ko‘p asrlar davomida saqlanib qolgan turli xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyati elementlarining aksidir. Toponimlar o‘tgan avlodlarning real merosi sifatida bizgacha muhim tarixiy voqealarni, ma’naviy madaniyat unsurlarini, jumladan, ananaviy marosimlarni, diniy e’tiqodlarni o‘zgarishsiz olib kelgan. Tarixning har qanday davrida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va jamiyatning ma’naviy qiyofasi jamiyatning moddiy asosiga bog‘liq.

Binobarin, toponimikaning moddiy va ma’naviy madaniyatning qimmatli merosi sifatida shakllanishi ma’lum tarixiy ma’noga ega. E.M.Pospelov “...tarixiy geografiya “toponimikaning beshigida turgan, birinchi toponimistlar esa tarixiy geograflar bo‘lgan”[2] deb yozgan edi. Darhaqiqat, tarixiy geografiya va toponimika yaqin aloqada. Darhaqiqat, tarixiy geografiya va toponimika bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy geografiyaning vazifalari qatoriga qadimgi va o‘rta asrlar toponimlari va gidronimlarini aniqlash va mahalliylashtirish, landshaftdagi o‘zgarishlarni, savdo yo‘llari yo‘nalishini, aholi punktlarining rivojlanish dinamikasi, zichligi, ularning joylashuvi va, o‘rganilayotgan hududning yashash intensivligini o‘rganish kiradi. Tarixiy geografiya doirasida ma’lum tarixiy hududlar va geografik nomlar bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqealar ham o‘rganiladi. Toponimlarni tahlil qilish etnik va migratsiya jarayonlarini, xalqlarning migratsiya yo‘llarini, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqa xususiyatlarini kuzatish, bir etnik guruhning ikkinchisiga tasirining tarixiy o‘zgarishi sabablarini ko‘rsatish, hududning geografik sharoitini va tarixiy voqealarni qayta tiklashga imkon beradi. Shuningdek etnolingvistik hodisalar, o‘tmish va umuman, hozirgi etnomadaniy zamin toponomikasini tarixiy jihatdan o‘rganishga imkon beradi.

[2] Поспелов, Е.М. Топонимика в географическом образовании / Е.М. Поспелов// Принципы топонимики. - М.: Наука, 1964. – С.142-149

1- Mavzu: O‘zbekiston toponimlar tarixi faniga kirish, fanning maqasadi vazifasi.

Reja:

1.1-§. O‘zbekiston toponimlar tarixi fani haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifasi.

1.2-§. Toponimlarning shakilanishi unlarning o‘ziga xosligi.

1.3 -§. Fanlar tizimida toponimikaning o‘rni va ahamiyati, boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.

Tayanch ibora va atamalar: *O‘zbekiston toponimlar tarixi, toponimiya, toponim, geografik nom, joy nomi, fanlar bilan aloqadorligi.*

1.1-§. O‘zbekiston toponimlar tarixi fani haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifasi.

XX asirning boshlariga qadar toponimika mustaqil fan sifatida o‘rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib kelardi.

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o‘rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani «zamin tili», ya’ni er tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, «topos» — joy, «onom» yoki «onima» — nom, umuman joy nomini o‘rganadigan fan degan ma’noni bildiradi.

Har qanday fanning nazariy asoslari takomillashgan sari, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari ham aniqlashib boradi. Majmuaviy fan sifatida e’tirof etilgan toponimika joy nomlarning paydo bo‘lishi, yaratilish qonuniyatlari, shakllanishi va rivojlanishi, turlari, transformatsiyasi, tarixiy hududiy tafovutlari, migratsiyasi, hozirgi holati, ma’no- mazmunini, o‘rganuvchi mustaqil fan hisoblanadi.

Geografik nomlar va zamin qa’rida o‘rganilmayotgan nomlar, insonlarga qo‘yilgan ismlar toponimikaning o‘rganish manbai hisoblanadi. Bu fanni o‘rganuvchi mutaxasislar esa toponomistlar deb ataladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – Tarixiy, geografik, lingvistik va toponomik nomlar hamda atamalar bo‘yicha olingan asosiy bilimlarga asoslanib, O‘zbekiston toponimlar tarixi fani haqida tushuncha berishdir.

Fanning vazifalari – Toponimikaning fanlar tizimidagi o‘rnini ko‘rsatish, fanning tamoyillari va usullari haqida bilimlarni shakllantirish. Talabalarni toponimik faktlar va hodisalarning xilma-xilligi bilan tanishtirish va talabalarga tarixiy toponimlar muammolarini o‘rgatish, tarixiy toponomikaning zamonaviy dunyodagi rolini tushuntirishdan iborat.

Geografik qonuniyatlari tushunchalar va terminlarni (relyef shakllari, daryo tarmoqlari, ko‘llar, muzliklar, o‘simliklar va hayvonlar nomlarini, foydali qazilmalarni) aks ettiradi. Toponimika o‘z rivojlanish bosqichida qator predmetlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan va bu jarayon hamon davom etmoqda. Chunki toponimlarni bir qancha fanlar turli nuqtai-nazardan turib o‘rganadilar. Tarixchilar toponimlar o‘tmishning «guvohlar»i sifatida tadqiq qiladilar, etnograflar toponimlarning turli urf-odatlar, aholining yashash tarzi bilan o‘zaro aloqada shakllanish xususiyatlarini tadqiq tadilar, filologlar esa, toponimlarning kelib chiqishi (etimologiyasi), shuningdek, lingvistik birlik sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgangan.

Inson paydo bo‘lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Dunyoda xil davr va tilga mansub millionlab nomlarning uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Hayotda sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan ko‘plab voqea-hodisalami joy nomlar orqali anglab olish mumkin.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, nomning ma’nosi ob’ektga nom berilayotgan vaqtda muhim, keyinchalik u nazardan bir oz chetda qoladi. Kishilar jamiyatda bo‘layotgan voqea va xodisalarga malum nom bilan murojat qiladi. Shu sababdan, kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsani nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi. Odamlar bir geografik ob’ektni, ikkinchisidan farq qilish uchun turli xil nomlarni o‘ylab topgan. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida sodir boigan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

H.Hasanov ta’biri bilan aytganda, nomlarning o‘z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo‘jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog‘lar va suvlarning xosiyati, o‘simligu hayvon turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar, xazinalar, jangler, dini e’tiqodlar va marosimlarimizning hammasi ayon bo‘ladi. Demak,

toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko‘zgusi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatni, zamonaviy tsivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni joy nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar joy nomlarni borgan sari ko‘proq qo‘llashni taqozo qilmoqda.

Ma’lum bir hududdagi geografik nomlarning yig‘indisi shu hududda yashovchi xalqlarning asrlar davomida, nomlar yaratishdagi ijod mahsuli hisoblanadi. Shu sababdan tabiiyki, toponimlarning yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanish tarixi, yashovchanligi, o‘zgarishi, adreslik funktsiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday ma’no kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo bo‘ladi. Yuqorida qayd qilingandek, ushbu masalalami aniqlash bilan maxsus fan hisoblangan toponimika shug‘ullanadi

Shu bilan birga, joy nomlari ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham jumladan tarix fani o‘rganish ob’ekti hisoblanadi

1.2-§. Toponimlarning shakilanishi unlarning o‘ziga xosligi.

Toponimika ikki ob’ektdan: ***mikro*** va ***makro*** toponimlardan iborat bo‘lib, mikrotoponimika — grammatik jihatdan mayda ob’ektlarni, ya’ni «turdosh otlarni», mikroob’ektlarning nomlarini, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya’n yirik ob’ektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Hozirgi vaqtda toponimika faqat katta va yirik ob’ektlarning: tog‘lar, o‘rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarinigina emas, balki kichik ob’ektlarning — mahallalar, daralar; jarliklar, anhorlar, daryo irmoqlari, ariqlar va ko‘llarning nomlarini Geografiyaga oid atamalar turdosh otlar toponimika tarkibiga to‘lig‘icha kirmaydi, ammo ular toponimikani o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. Nomsiz “ob’ekt” — toponim emas. Toponimika geografiyaga oid joylarni emas, balki ularning nomlarini o‘rganadi.

Toponimikaning tilshunoslik, tarix, tarixiy geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim xususiyatlaridandir. Toponimikaga oid

ma’lumotlar tadqiq qilinayotganda tarixiy ma’lumotlarga, ayniqsa arxeologiyaga oid tekshirish natijalariga suyangan holda ish ko‘rish zarur. Chunki toponimika ko‘pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj. Masalan, biror yodgorlmkning nomini o‘rganish Uchun, albatta, uning qaysi davrda yaratilganligini va nima sababdan shu nom berilganligini tarixiy davr sharoiti muhiti nuqtai nazaridan tadqiq qilish talab etiladi. Tadqiqotning yozma manbalarga ko‘pincha arxeologiyaga oid ma’lumotlarga suyangan holda ish ko‘rish usuli nomlarning qo‘yilgan davrini aniqlashga va nomlarning paydo bo‘lishini o‘rganishga qo‘l keladi. Bir nomning o‘zgarishini kuzatmoq uuchun birmuncha vaqt ketadi.

Shuni unutmaslik kerakki, geografik nomlar ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkam bog‘liqdir. Ma’lum bo‘lishicha, har bir rayon toponimikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, er ostida ko‘plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni siichiklab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o‘rganish uchun toponimlarning paydo bo‘lishiga doir ma’lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo‘lgan barcha formalarini aniqlash, nom va atamalarni o‘sha joy bilan bog‘liq holda tanlash va eng muhimlarini o‘rganish zarur.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo‘nalishlar bo‘yicha joylarga aholining ko‘chishi, o‘rnashishi kiradi. Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo‘lib, u aholining ko‘chishi, madaniy, iqtisodiy va til munosabatlari bilan vujudga keladi, so‘ng tarqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo‘lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o‘rganish jarayonida o‘sib, rivojlanib boradi. Toponimik nomlar manbai va ularni o‘rganishda qo‘llanilgan uslub va usullarning to‘g‘riligini aniqlash maqsadida yozma va boshqa manbalar qo‘lyozmalar, akt materiallari, aholi joylashgan chegaralarni aks ettiruvchi bosh (asosiy) va maxsus xaritalar hamda ilmiy safar xaritalari bilan solishtirib chiqiladi. Toponomikada ham, moddiy va madaniy yodgorliklar o‘rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya’ni bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib borish zarur. Bilish murakkab dialektik jarayondir, Chunki bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha nomlarning manbai asta-sekinlik bilan

ochiladi nomlarning “yoshi” aniqlanadi. O‘z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo‘lib, ma’lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvoxlik beradi. Nomlar ma’lum bir aholining ham jihatligi yoki tarqoqligiga ham bog‘liqdir.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nomlar juda kam bo‘lgan, keyinchalik aholi paydo bo‘lib, qo‘yilgan nomlar ham ko‘p vaqtlar o‘tishi bilan boshqa nomlarga o‘zgartirilib yuborilgan yoki butunlay yo‘q bo‘lib qetgan. Yozma manbalardagi toponimikaga oid ma’lumotlar tahlil qilinganda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Ayrim shahar va qishloqlarning eski nomlari o‘rniga yangi nomlar qo‘yiladi, bu eski nom nima uchun yo‘qotildi-yu, nima uchun yangi nom qo‘yildi, buning sabablarini ham aniqlash mumkin.

O‘tmishda esa yangi zamindor (er egasi) paydo bo‘lishi bilan ko‘pincha aholi eski geografik nomlar o‘rniga shu zamindorning nomini qo‘yishgan. Dialektologiyadan farqli o‘laroq toponimikaga oid ma’lumot to‘plashda, joylarning nomlarini o‘rganishda aholida va yoppasiga so‘rash uslubi qo‘llaniladi. Faqat Shunday uslub bilangina turli daralar, kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko‘llar va boshqa shunga aloqador bo‘lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin, xolos. Shunday joylarning hammasi aholi yashaydigan joylarning kartasiga yoki aholi joylari ro‘yxatiga kiritilmagan, ehtimol kiritilmasa ham kerak. Toponimikaning eng katta xizmati Shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirilgan noma’lum joylarni bizga ma’lum qiladi.

Mashxur toponomist olim E.M. Murzayev ta’kidlashicha jamiyat hayotini joy nomlarsiz tasavvur etish mumkin emas, ular hamma yerda uchraydi va bizni fikrimizga yoshlikdan hamroh bo‘ladi. Yer sharida hamma narsa o‘z adresiga ega, bu insoniyat tug‘ilgan joyida boshlanadi, Inson yashaydigan hamma qishloq va shahar, mamlakatning o‘z nomi bor.

Ma’lum bir hududdagi joy nomlarning yig‘indisi shu hududda yashovchi xalqlarning asrlar davomida, nomlar yaratishdagi ijod mahsuli hisoblanadi.

Dunyoda qancha geografik nom borligini hech kim aniq bilmaydi. Taxminiy hisoblarga koʻra, butun yer sharida yarim milliarddan ortiq geografik nom bor. Holbuki, ular qatoriga soy, jilgʻa, buloq, quduq, jar, qir, mahalla, guzar, koʻcha kabi mikrotoponimlar kirmaydi. Agar, yer yuzidagi barcha katta-kichik joy nomlarini hisobga olish imkoni boʻlganda, son-sanoqsiz raqam hosil boʻlar edi.

Geografik nomlar - bu mamlakat, shahar yoki biron bir tabiiy obʼekt bilan tanishishda uning tashrif yorligʻi vazifasini bajaradi. Shu sababdan tabiiyki, toponimlarning yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, oʻzgarishi, adreslik funktsiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday maʼno kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo boʻladi. Yuqorida qayd qilingandek, ushbu masalalarni aniqlash bilan maxsus fan hisoblangan toponimika shugʻullanadi. Shu bilan birga, joy nomlari ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham oʻrganish obʼekti hisoblanadi.

Toponimika va toponimiyani bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Toponimika - geografik nomlarni paydo boʻlishi, shakllanishi, rivojlanishi, hozirgi holati, maʼno-mazmuni, talaffuzi va yozilishini oʻrganuvchi ilmiy fandir. Toponimiya - deganda muayyan hududdagi geografik nomlarning yigʻindisi nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, toponimiya toponimika fanining oʻrganish obʼekti hisoblanadi.

Oʻzbekiston Mustaqillikka erishganidan keyin uning hududidagi geografik nomlarning koʻpchiligi oʻzgardi va oʻzgarmoqda. Oʻzbekistondagi geografik obʼektlar Rusiya imperiyasi bosib olganidan keyin sobiq Sovet davrida qoʻyilgan nomlar qayta koʻrib chiqilib, ularga oʻzlarining qadimiy tarixiy nomlari qaytarilmoqda.

Mustaqillik bilan bogʻliq yangi nomlar paydo boʻlmoqda. Geografiya atama va nomlar taʼlimi «Oʻzbekiston Davlat tili» (1989 yil 21 oktyabr) va «Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy hududiy tuzilishi, toponimik obʼektlarga nom berish va ularning nomlarini oʻzgartirish masalalarini hal qilish-toʻgʻrisida» (1996 yil 21 dekabr) haqidagi qonunlarni hayotga tadbiq qilish va zamon talablariga javob

beradigan geografiya o‘qituvchilarini tayyorlash munosabati bilan katta amaliy ahamiyatga egadir.

1995 yil O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qabul qildi. Davlat tili haqidagi qonun(yangi tahrirda) tasdiqlandi. Uning 22 moddasida shunday deyilgan. «Respublikaning ma’muriy hududiy birliklari, maydonlari ko‘chalari va geografik ob’ektlari nomlari Davlat tilida aks ettiriladi».

1996 yil 31 mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi «O‘zbekiston Respublikasidagi ma’muriy– birliklar-aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob’ektlarni tartibga solish to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda joylarda toponimik ob’ektlarning eski tuzumga xizmat qiladigan xalqimizning tarixi milliy an’analariga bog‘liq bo‘lmagan nomlarning saqlanib turganligi qoralanadi va boshqa nomlar almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgilandi.

1.3-§. Fanlar tizimida toponimikaning o‘rni va ahamiyati, boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi..

Toponimika fan sifatida birmuncha kechroq shakllangan, ya’ni nisbatan yosh bo‘lsa ham, zamonamizda yuqorida eslab o‘tilgan predmetlarning asosiy o‘rganish metodlaridan biri o‘laroq shakllanib bo‘ldi. Chunki ularning har birida bilish, nomlar orqali amalga oshiriladi. Shusiz geografik nomlarni bir-birlaridan farqlash qiyin va tabiiyki har bir turkum (shahar, qishloq, tog‘, cho‘l vah.) tushunchalarining aralash-quralash bo‘lib ketishiga sababchi bo‘ladi. Shu boisdan insoniyat shakllanibdiki, ularni ayrim-ayrim nomlar bilan ataydi. Natijada jamiyat tarixida millionlab nomlar paydo bo‘ldi va ularning o‘ziga xos ma’no mazmunlari shakllandi. Aynan o‘sha ma’no-mazmun bir qancha fanlarni o‘rganishda o‘ziga xos «kalit» sifatida ishtirok eta boshladi.

Buni chuqur anglagan tadqiqotchilar joy nomlarini tarixiy lingvistik, ya’ni etimologik jihatdan tahlil qilar ekan, o‘sha toponim mazmunan joylashgan nuqtasining tabiiy geografik sharoitiga naqadar mos tushish-tushmasligiga e’tibor

qaratadilar. Chunki joy nomlari o‘sha hududning ko‘pchilik xususiyatlarini aniq ifodalab turadi.

Binobarin, toponimikaning moddiy va ma’naviy madaniyatning qimmatli merosi sifatida shakllanishi ma’lum tarixiy ma’noga ega. E.M.Pospelov “...tarixiy geografiya “toponimikaning beshigida turgan, birinchi toponimistlar esa tarixiy geograflar bo‘lgan”[3] deb yozgan edi. Darhaqiqat, tarixiy geografiya va toponimika yaqin aloqada. Darhaqiqat, tarixiy geografiya va toponimika bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy geografiyaning vazifalari qatoriga qadimgi va o‘rta asrlar toponimlari va gidronimlarini aniqlash va mahalliylashtirish, landshaftdagi o‘zgarishlarni, savdo yo‘llari yo‘nalishini, aholi punktlarining rivojlanish dinamikasi, zichligi, ularning joylashuvi va, o‘rganilayotgan hududning yashash intensivligini o‘rganish kiradi. Tarixiy geografiya doirasida ma’lum tarixiy hududlar va geografik nomlar bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqealar ham o‘rganiladi. Toponimlarni tahlil qilish etnik va migratsiya jarayonlarini, xalqlarning migratsiya yo‘llarini, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqa xususiyatlarini kuzatish, bir etnik guruhning ikkinchisiga tasirining tarixiy o‘zgarishi sabablarini ko‘rsatish, hududning geografik sharoitini va tarixiy voqealarni qayta tiklashga imkon beradi. Shuningdek etnolingvistik hodisalar, o‘tmish va umuman, hozirgi etnomadaniy zamin toponomikasini tarixiy jihatdan o‘rganishga imkon beradi.

Arxeologiya va toponimika, tarix fanining yordamchi fanlari sifatida etnik munosabatlarni o‘rganishda juda muhim o‘rin tutadi. Qazishmalar natijasida mehnat qurollari, kiyim-kechak, idish-tovoq va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari kabi ko‘plab moddiy madaniyat ashyolari topilgan. Tilshunoslik, toponimika, antropologiya, etnologiya va folklor fanlaridan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bu ob'ektlarni ma’lum etnik guruhlar yaratgan deb taxmin qilish mumkin. Toponimlar ham moddiy madaniyat yodgorliklari kabi juda qadimiydir. Ular yuzlab yillar davomida saqlanib qolgan va turli xalqlar - ularni yaratuvchilarning yashash joyi va hayoti tarixidan ma’lumot beradi. Bu toponimlar toponim yaratilgan muayyan davrdagi xalqlarning

[3] Поспелов, Е.М. Топонимика в географическом образовании / Е.М. Поспелов// Принципы топонимики. - М.: Наука, 1964. – С.142-149

etnik tarixidagi bahsli masalalarni hal qilishga yordam beradi[4]. Ayrim hollarda toponimik material arxeologik va yozma yodgorliklardan farqli ravishda koʻproq maʼlumotni oʻz ichiga oladi va birlamchi manba boʻlib, kutilmagan natijalar beradi. Bu yerda xalq hayotining maʼlum qismini aks ettiruvchi etnotoponimlar, moddiy va maʼnaviy madaniyat yodgorliklari bilan bogʻliq toponimlar alohida oʻrin tutadi.

Qadimda mahalliy aholining amaliy faoliyati doirasidagi ob'ektlarga birinchi nomlar berilgan. Doimiy aholi punktlari boʻlmaganida, bunday ob'ektlar koʻpincha suv - daryolar, koʻllar, soylar edi. Biroq, vaqt oʻtishi bilan daryolarning odamlar hayotidagi roli pasayib, qadimgi doimiy aholi punktlari paydo boʻladi. Ular asosiy diqqatga sazovor joylarga aylanadi va koʻplab kichik daryolar va oqimlar allaqachon aholi punktlari nomi bilan atalgan.

Arxeologik materiallar singari, joy nomlarini sanash qayd qilish juda qiyin.. Geografik nomlar yozma manbalarda qayd etilishidan ancha oldin paydo boʻladi. Ayrim hollarda manbalarda qadimiy toponimlarni uchratib boʻlmaydi, chunki ular u yerga kiritilmagan. Muammo shundaki, toponimlar turli tillar tomonidan milliy tilning soʻz yasalish modellariga muvofiq yaratilgan, ammo boshqa tillar vakillari tomonidan talaffuz qilinganda yoki manbalarda qayd etilganda, ular asl shaklini yoʻqotadi.

Toponimika integral ilmiy yoʻnalish, «chegaraviy» fan hisoblanadi. Mashxur toponomist olim E.M.Murzaevning taʼkidlashicha, “toponimika uch fanning tutashgan joyida joylashgan va ushbu fanlarning uchta bilim sohasi: tarix, geografiya va tilshunoslik maʼlumotlaridan foydalanadigan yaxlit ilmiy fandir”[5]. Shu sababdan, toponimikani egallagan mavqei, uning fanlar tizimidagi oʻrni, turlicha qarashlarning kelib chiqishiga sabab boʻlgan. Har holda shunisi aniqki, har qanday salmoqli toponimik material har uchala fanga ham oʻrganish va tadqiqot manbai hisoblanadi, ammo, uni har bir tadqiqotchi oʻz mutaxassisligi nuqtai nazardan oʻrganadi.

[4] Мурзаев, Э.М. География в названиях/ Э.М. Мурзаев. - М.: Наука, 1982 43-44 с.
[5] Мурзаев Э.М. Очерки топонимики [Текст] / Э.М. Мурзаев. – М.: Мысль, 1974. – с 25.

Zamonaviy toponimika tadqiqotlari, albatta, arxeologiya, tarix, geografiya va paleontologiya ma’lumotlariga asoslanadi, ularsiz toponimika zarur ilmiy asosga ega bo‘lmaydi.

Geografik kartada keltirilgan xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o‘rin tutishi hamda toponimning manzillik funktsiyasi til - fakti va tarix – hodisasa kabi muhimroq ekanligini hech kim inkor etmaydi.

Shunday qilib toponimika tarix, tilshunoslik va geografiya fanlari o‘rtasida vujudga kelgan.

Joy nomi - geografik ob’ektning maxsuslangan, yer sharining ma’lum nuqtasida mavjud bo‘lgan aholi yashash maskanlarining, yer yuza shakllarining nomi sifatida dastlab ilmga geografiya fani va uning tadqiqotchilari tamonidan kiritilgan.

Xulosa sifatida toponimist olimlar, tarix, geografiya toponimikaning debochasi va tamali degan fikrni alohida qayd qilgan. Xuddi shunday, XX asrning ikkinchi yarmida geografik fanlarning yangi klassifikatsiyasini yaratgan geograf olimlar A.M. Ryabchikov (1959). S.V. Kalesnik (1961) va I.Q. Nazarov (2013), toponimikaga ham shu qatordan joy ajratishgan.

Sodda qilib aytganda, joy nomlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, ularda ko‘pincha geografik muhitning xususiyatlari - relyef shakllari, o‘simlik va hayvon nomlari aks etgan bo‘ladi. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, har qanday lisoniy va tarixiy toponimik tadqiqotlar ham, faqat muayyan geografik hududda amalga oshirilishi mumkin.

Toponimikaga oid ba’zi bir va atamalar.

Antroponim (yunoncha **antropo** — odam, **onoma** — nom) — kishiismi, laqabi, familiyasi.

Antroponimika — kishi ism-familiyalarini o‘rganadigan fan.

Affiks (lotincha **affikus** — yopishgan) — nutqda mustaqil ishlatilmaydigan va o‘zakka qo‘shilib, uni o‘zgartiradigan formant, **suffiks** (orqa qo‘shimcha), **prefiks** — (old qo‘shimcha).

Gidronim (yunoncha **gidro** — suv, **onoma** — nom) — suv obyektlarining, masalan, kanal, ariq, anhor, daryo, soy, jilg‘a, irmoq, buloq, quduq, dengiz, ko‘l, qo‘ltiq va bo‘g‘oz, sharsharalarning nomi.

Diminutiv — kichraytirilgan shakldan toponim yasalishi. O‘zbekistonda **-cha** va **-ak,** ba’zan **-ik** affikslari diminutiv shakldagi toponimlar yasaydi. Bunday toponimlar otlardan **(Hisorak, Xumdonak, Ro‘dak),** sifatlardan **(Ko‘kcha, Oqcha, Qoracha, Saricha),** etnonimlardan **(Do‘rmoncha, Naymancha)** yasalishi mumkin, ba’zi hollarda esa biron toponimga taqlid qilib nom qo‘yilganda ham diminutiv shakldagi toponimlar yasaladi. Chunonchi **Buxorcha, Samarqandak, Bog‘dodik, Registonak** va hokazo.

Kalka (fransuzcha kalqua — kopiya) biron so‘zning aynan taijima qilib berilishi.

Komponent (lotincha komponent — qism) — so‘zning tarkibiy qismi.

Makrotoponimiya (grekcha **makro** — katta, **topos** — joy, **onoma** — nom) — yirik obyektlar, yirik tabiiy geografik obyektlarning nomlari; qarang: **Mikrotoponimiya.**

Metateza (yunoncha **metatesis** — joy almashtirish) — so‘zdagi tovushlarning o‘rin almashishi (Beshog‘och — Bechog‘osh, Sayram — Saryom).

Metafora (yunoncha — «ko‘chirish») so‘zning ko‘chma, majoziy ma’noda ishlatilishi (***Tuyatosh*** — katta qoya, ***Mingbuloq*** — ko‘p buloq).

Metonimiya (yunoncha — **qayta nom qo‘yish)** — toponimiyada joy nomining qo‘shni obyekt nomiga o‘tishi. Masalan, daryo nomining shahar nomiga aylanishi **(Zarafshon daryosi — Zarafshon shahri, Chirchiq daryosi — Chirchiq shahri),** daryo nomining tog‘ nomiga aylanishi **(Ko‘ksuv daryosi — Ko‘ksuv tizmasi, Vaxsh daryosi — Vaxsh tizmasi).** O‘zbekistonda metonimiya hodisasi juda keng tarqalgan.

Mikrotoponimiya (yunoncha **mikro** — kichkina, **topos** — joy, **onoma** — nom) — kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, jarlar, yoilar, kichik tepalar, ko‘chalar va hatto atoqli otga ega boigan ayrim daraxtlarning nomlari. Mikrotoponimiya bilan makrotoponimiya orasida muayyan chegara yo‘q, masalan,

ba’zi bir tadqiqotchilar ko‘chalarni mikrotoponim desalar, boshqa birovlar rnakrotoponim deb hisoblaydilar.

Oykonim (yunoncha oykos — uy, turar joy) — turli aholi punkti: shahar, qishloq, ovul nomi.

Oronimiya (yunoncha **oros** — tog‘, **onoma** — nom) yer- yuzasining relef shaldlari-togiar, cho‘qqilar, qirlar, daralar, tekisliklar, jarlar nomlari.

Semantika (yunoncha **semantikos** — anglatadigan) — so‘zning rna’nosi.

Sinonimlar (yunoncha **sinonimos** — bir ismli) — ma’nosi bir xil, lekin shaklan turlicha boigan so‘zlar **(bel, dovon, ko‘tal, ort, oshuv, aqba).**

Substantivatsiya (lotincha **substantivus** — mustaqil) biron gap bo‘lagining, masalan, sifatning otga aylanishi.

Suffiks (lotincha **suffikus** — qo‘shib qo‘yilgan) — o‘zakning orqasiga qo‘shilib yangi so‘z (toponim) yasaydigan qo‘shimcha **(Xun-don-ak).**

Toponim (yunoncha **topos —**joy, **onoma —** nom) **—**joy nomi, geografik nom.

Toponimiya — joy nomlari majmui.

Formant (lotincha **formans** — hosil qiladigan) — o‘zi mustaqil holda ishlatilmaydigan, lekin so‘zning old yoki orqa tomoniga qo‘shilib toponim yasaydigan qo‘shimcha **(Tallig‘ulont Terakli, Toshloq, Olmazor** va hokazo).

Etimologiya (yunoncha etimon — haqiqat, so‘zning asosiy ma’nosi, logos — fan) — so‘zning kelib chiqishi.

Etnonim (yunoncha etnos — xalq, onoma — nom) — biron xalq, millat, qabila, urug‘-aymoq nomlari.

Etnotoponim (yunoncha etnos — xalq, topos — joy, onoma — nom) — qabila, urug‘-aymoq nomiga qo‘yilgan toponimlar: ***Qo‘ng‘irot, Nukus, Mitan*** va hokazo.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Toponomikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.

2. Fanning maqsad va vazifasi, obyekti va predmetini izohlab bering.

3. Toponomikaning tarixni o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyatini so‘zlab bering.

4. Tomonomikaga oid atamalar lug‘ti tuzing.

2-Mavzu. Toponomikaning rivojlanish va o‘rganilish tarixi.

Reja:

2.1.-§. ***Qadimgi dunyo va o‘rta asrlar olimlari asarlarida toponimik ma’lumotlar.***

2.2.-§. ***Ilmiy toponimikaning paydo bo‘lishi.***

2.3.-§. ***O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishi.***

Tayanch ibora va atamalar: *O‘zbekiston toponimikasi, toponimik ma’lumot, ilmiy toponimika, qadimgi va o‘rta asr manbalarda joy nomlari.*

2.1.-§. *Qadimgi dunyo va o‘rta asrlar olimlari asarlarida toponimik ma’lumotlar.*

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tarixiy manbalarda toponimiyaning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda aholi punktlari nomlari ko‘proq qayd etilgan, ularda mintaqa tabiatining xususiyatlari, jamiyat hayotida asrlar davomida ro‘v bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa va voqealar, aholining kasbhimarlari nomlari. aholi punktiga asos solgan kishining ismi, unda qanday qavm vakillari yashagani yoki yashayotgani o‘z aksini topgan.

Geografik nomlar va ularning ma’no mazmuniga qiziqish kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lgan. Shu bois, insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, geografik nomlar ham shuncha qadimiydir. Kishilar dastlab har qanday geografik obyektni oddiy turdosh otlar - terminlar bilan atashgan, ya’ni, suv, tog‘, ko‘l, tepa, jar va hokazo. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishi bilan joy nomlari ham qat’iylashib borgan, ya’ni, turdosh otlarni atoqli otga, toponimga aylanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, qadimgi turkiy xalqlar katta daryoni - o‘kuz, edil, jayhun deb atashgan. Katta daryo ma’nosini anglatuvchi bu so‘zlar keyinchalik daryo nomiga aylangan.

Ma’lumki, har qanday fan amaliyot talablari asosida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta’sirida vujudga keldi. Dastlabki sayyohlar o‘zlari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq o‘lkalar va shaharlarning nomlarini hammaga ma’lum qilishdi. Ilk bor geografik nomlarni to‘plab o‘rganganlar ham geograflar bo‘lgan.

Toponimlarni izohlash, tasniflashga bag‘ishlangan dastlabki harakatlarni qadimgi misr, yunon, xitoy, hind, fors, vizantiya va rim tarixchi va geograflari asarlarida hamda boshqa yozma manbalarida uchratish mumkin. Antik dunyoda esa tarixiy - geografik asarlar yaratish bilan birga geografik nomlarni izohlash an‘anasi paydo bo‘lgan. Ammo, bu davrda toponimlarning etimologiyasi turlicha sharhlangan. Ko‘pincha joy nomlarining kelib chiqishi qandaydir afsonaviy syujetlar bilan bog‘lagan. Shu bilan birga, geografik nomlar ba’zan to‘g‘ri talqin qilingan. unda ko‘pincha obyektning real alomatlari, geografik o‘rni va hokazo inobatga olingan.

Qadimgi va dastlabki ma’lumotlarni Geradotni «Tarix», Strabonni «Geografiya», Arrian, Plutarx, Kvint Kursiy R uf kabi qadimgi dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Geradot O‘z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma’nosini tushuntirib berishga harakat qilgan. Antik dunyo mualliflari geografik nomlarni, kishi ismlarini mavjud bo‘lgan nomlash qonuniyatlarni va ularning o‘zaro aloqadorligini aniqlamasdan asosan etimologik jihatdan izohlashgan. Natijada, toponimik ma’lumotlar garchi qiziqarli bo‘lsa ham, ammo, ilmiy asosga ega bo‘lmagan.

Toponimik axborotni ishonchli manba sifatida, ilk bor milodiy I asrda ispan antik olimi Pomponiy Mela o‘zining «Xorografiya» asarida ilmiy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilgan. Zamonaviy toponimikani o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan O‘rta Osiyolik olimlarning xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O‘sha davrda O‘rta Osiyoda yozilgan tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda toponimikaga oid ma’lumotlarni ko‘plab topish mumkin. Masalan, 982-983 yillarda, fors-tojik tilida, noma’lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam» tarixiy-geografik asarida Movarounnahr viloyatlari, shaharlari, tog‘lari, daryolari va ularning nomlari, ayniqsa, hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma’lumotlar topish mumkin.

Asarning to‘la nomi "Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila- al-mag‘rib" (“Olamning niashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob”) bo‘lib, fanda qisqacha “Hudud ulolam” shaklida tanilgan. Kitob bir nusxadan iborat va uni

1892 yili Abulfazl Gulpaygoniy Samarqanddagi kitob do‘konidan topgan. U orqali kitob rus sharqshunosi A.G.Tumanskiy qo‘liga tushib. Sankt-Peterburgga olib ketgan. Asar haqida dastlab A.Gulpaygoniy, so‘ngra A.G. Tumanskiy ilm ahliga axborot berishgan. Kitobda o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan viloyatlar va podshohliklar, ularda yashovchi qavmlar ularning urf-odatlari, rasm-rusumlari hamda har bir shaharning tabiiy-geografik sharoiti ta’riflangan. Masalan, So‘g‘d va Ustrushona sharqiy cl tar orasida eng obod joy, u yerda oqar suvlar ko‘p, iqlimi bahavo, odamlari mehmondo‘st va xushmuomala deb ta’rif berilgan.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi joy nomlariga oid yozma ma’lumotlarni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig‘». A. Beruniyning «Qonuniy Mas’udiy». «Hindiston», «Saydana», M. Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» kabi asarlarda uchratish mumkin. Chunonchi, Abu Ravlion Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan: «...ammo, aksari mamlakatlarning nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan, tili boshqa bo‘lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o‘zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi. Nomlarning ma’nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o‘zgarib ketadi. Ko‘pincha arablar chet el nomlarini, arabchalashtirib, shunday o‘zgartiradilar va buzib aytadilar».

Turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» nomli asari alohida o‘rin egallaydi. Kitobda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqa ta’rifi, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug‘larning joylanishi to‘g‘risida noyob ma’lumotlar keltirilgan. «Devoni lug‘atit-turk»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki, unda toponimlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik xususiyatlari, qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o‘simlik va hayvonot nomlariga doir qiziqarli ma’lumotlarni topish mumkin.

S.Qorayev ma’lumotiariga ko‘ra, asarda jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. H.Hasanov esa kitobni qimmatli geografik manba hisoblab u to‘g‘risida

alohida asar yozgan. “Devonda ko‘pgina geografik terminlar berilganki, bu terminlar hozirgi vaqtda ham keng qo‘llaniladi. Ariq, art (ort), botiq, bulut, yel, jar, kechik, kun, ko‘k (osmon), muz, suv, tog‘, tun, tuman, ungur, qayir, qor, quduq, qum, qish va boshqalar shular jumlasidandir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, geografik nomlarni ilmiy asosda talqin qilishni Sharq o‘rta asr olimlari ishlarida kuzatish mumkin.

XIII - asr geografik ma’lumotlarini to‘plab o‘n jildlik «Mu’jam al-buldon» (Mamlakatlar lug‘ati) nomli geografik lug‘atni tuzgan olim Yoqut Hamaviydir. Rus sharqshunos olimi V.V. Bartoldning yozishicha, Yoqut Hamaviy o‘sha davrdagi bir qator musulmon davlatlariga sayohat qilib, ularning shahar va qishloqlari haqida ko‘p ma’lumotlar yozib qoldirgan. A.L. Xromov esa

Yoqut Hamaviyni O‘rta Osiyo va Sharq musulmon davlatlarining birinchi toponimisti deb ta’riflagan.

Yoqut Hamaviyning geografik nomlarni sharhlashda qo‘llagan usuli hozirgi toponimikada joy nomlarini topoformantlar asosida izohlash usuliga juda o‘xshaydi. Olim toponimlar tarkibida bir xil unsurlarning takrorlanishini birinchi bo‘lib payqagan. Masalan, shahar va qishloq nomlari tarkibida keladigan «obod» unsurini, fors-tojik tilida aholi punkti ma’nosini bildiradi deb yozgan. «Obod» - unsuri hozirda ham geografik nomlar tarkibida keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda "obod” so‘zi nafaqat aholi punkti ma’nosida qo‘llaniladi balki, ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga o‘shilib joy nomini yasaydigan, obodonlashtirilgan, o‘zlashtirilgan, gullab-yashnagan ma’nosidagi so‘z hamdir.

O‘rta Osiyo toponimiyasiga oid ma’lumotlarni Aburayhon Beruniy. Rashididdin, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro‘, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg‘oziy Bahodirxon, Abu Tohirxo‘ja, Ahmad Donish kabi allomalar asarlaridan topish mumkin. Mutaxassislar fikricha, X-XII asrlar Movarounnahr toponimivasining katta qismini islomgacha bo‘lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (so‘g‘d, boxtar, xorazmiy) tillarga xos toponimlar tashkil qilgan. Keyingi davr Movarounnahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy

qatlamning kuchayishi, natijada sharqiy eroniy toponimik qatlamning siqib chiqarishi bilan bog‘liq.

O‘rta Osiyo qadimiy turkiy toponimiyasini tadqiq etgan Sh.Kamollidinovning ma’lumotlariga ko‘ra, kelib chiqishi turkiy bo‘lgan nomlar O‘rta Osiyo hududida qadimdan mavjud bo‘lgan va ular ilk o‘rta asrlarda mintaqadagi joy nomlarining katta qismini tashkil qilgan bo‘lsa, hozirda O‘rta Osiyo toponimiyasining asosiy qismi turkiy toponimlardan iborat. Ilk o‘rta asrlarda turkiy toponimlar, son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos nomlardan keyin ikkinchi o‘rinda turgan, ammo o‘rta asrlardan boshlab turkiy qatlamning kuchayishi natijasida ular O‘rta Osiyo toponimiyasining eng baquvvat qatlamiga aylangan.

Qadimiy qo‘lyozmalar bilan bir qatorda tarixiy-geografik asarlar ham toponimikaning muhim manbalaridan hisoblanadi. Ana shunday. O‘rta Osiyoda yozilgan memuar asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»da ham ko‘pgina joy nomlariga doir qimmatbaho ma’lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining ko‘rgan, kuzatgan boy ilmiy dalillari asosida chiqargan xulosalarini «Boburnoma» asariga jamlagan.

H.Hasanovning ta’kidlashicha, «Boburnoma»da mingga yaqin geografik nom tilga olingan. Kitobda keltirilgan, O‘rta Osiyoga doir nomlarning ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoz.iladi va talaffuz etiladi. «Boburnoma»dagi geografik nomlarning aksariyatini hozirgi o‘zbek va tojik tilida izohlash mumkin. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o‘zi tushuntirib o‘tgan. «Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko‘pki, ularning ko‘pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalalari faqat geografik nomlar talk ibida qolgan, ba’zi birlari butunlay iste’moldan chiqib ketgan.

O‘rta asrlarda toponimik qonuniyatlarni aniqlash usullari kashf etilmaganligi bois, toponimlarning ma’no xususiyatlari ko‘pincha farziyalarga asoslangan holda izohlangan. Qadimiy va o‘rta asrlar manbalarida qayd qilingan toponimlar, geografik terminlar, o‘simlik va hayvonot nomlari, etnonimlar, antroponimlar geografik jihatdan to‘laroq o‘rganilishi kerak.

2.2-§. Ilmiy toponimikaning paydo bo‘lishi.

Joy nomlarini o‘rganadigan ta’limotni ilmiy fan sifatida paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan fanning amaliy ehtiyoji bilan bog‘liq. XVI-XIX asr olimlari ilk bor obyektlarni o‘rganish, tavsif lash, kartaga tushirish jaravonida geografik obyekt bilan birga nomlarini ham tadqiq qilishgan. Geografik nomlarni paydo bo‘lishi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi, anglatgan ma’nosi rivojlanishi larixini ilmiy asosda o‘rganish xususan ularni klassilikatsiyalash XVIII asrning ikkinchi yarimidan boshlangan. Shu davrdan boshlab, joy nomlariga muhim ilmiy geografik ma’lumotlar manbai sifatida qaralgan.

Yer vuzining ma’lum hududi, qismini tasvirlashda uning nomi, qaysi tilga tegishli va qanday ma’no kasb etishni aniqlash muhim hisoblangan va geograflar tomonidan shu maqsadda ko‘plab toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Gumbold. H.Vamberi. J.Tonnele. N.Nadejdin. A.Vostokov, A.Kastren, P.SemyonovTvan-Shanskiy kabi olimlar ilmiy toponimika rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Masalan akademik A.Vostokov 1812 yili yozgan “Etimologiya havaskorlariga mashq” nomli maqolasida geografik nomlarni old va oxirgi q O‘shimchalarining o‘xshashligiga qarab bir necha guruhga bo‘lgan va bu hoi tasodifiy emas degan xulosaga kelgan.

Toponimika ilmiy yo‘nalish sifatida asosan keyingi davrlarda shakllangan bo‘lsa ham, ammo uning o‘rganish obyekti bo‘lgan joy nomlari juda qadimiy davrlarda paydo bo‘lgan. Ularning soni shu qadar ko‘pki, hammasini o‘rganishning aslo iloji yo‘q.

Aytishadiki, nom qancha ko‘hna bo‘lsa, unining etimologiyasini aniqlash shuncha qiyin. Shuning uchun, hamma nomlardan ma’no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o‘zgartirish minglab yillarning mahsuli bo‘lgan ma’naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir.

Joy nomlarini xalq ma’lum bir hududda va zamonda yaratgan, ularga hududiylik va tarixiylik xos. Joy nomi zamirida yashirin ma’noni aniqlash uchun nom yaralgan davr va hudud tarixini puxta o‘rganmoq kerak, nom uchun asos

bo‘lgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlash lozim. Faqat shundagina nomning mag‘zi, asl ma’nosi, tarixi to‘g‘ri aniqlanadi.

Ma’lumki, kundalik hayotni joy nomlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Har bir inson muqaddas ona yurtiga bo‘lgan mehrini bir bo‘lagi sifatida, albatta O‘z mahallasi, qishlog‘i va shahrining nomi nega shunday atalgan, nima rna’no unda yashirin, bu nom unga qachon va kimlar tamonidan berilganligi bilan qiziqib. aniqlik kiritishni xohlaydi.

Jamiyatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi va xalqlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmasligi bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Xususan, mustaqillikdan keyin respublikada amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar va tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar joy nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq qilishni dolzarb masalaga aylantirdi. Geografik nomlar ko‘p qirrali va xilma-xil axborot manbai bo‘lishi bilan birga, kishilik jamiyati uchun zarur va muhim bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vazifani, ya’ni adreslik funksiyasini ham bajaradi.

Binobarin, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli bo‘lgan joy nomlari orasida oykonimlar alohida maqomga ega, chunki ular har qanday aholi punktlarning nomi sifatida tarixiy manbalarda ko‘proq qayd etilgan. Ibtidoiy davrdan boshlab odamlar tevarak-atrofni kuzatib geografik obyektlarni bir-biridan farqlash maqsadida ularga nom berganlar. Obyektlarning tabiiy xususiyatlarini ifodalaydigan geografik nomlar jamiyatning dastlabki bosqichida ko‘proq bo‘lgan, keyinchalik esa tabiatga jamiyatning ta’sirini kuchayishi oqibatida ular asta-sekin kamayib borgan.

Dastlab tabiiy obyektlarga zaruriyat yuzasidan oddiy, sodda va tasodifiy nomlar berilgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar ham murakkablashib borgan. Kishilik jamiyatining rivojlanishi va kundalik ehtiyojlarning ortib borishi yangi hududlarni va tabiatning tarkibiy qismlarini o‘zlashtirishga olib kelgan, bu esa o‘z navbatida joy nomlarining ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo‘lganligi sababli tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar ularga ta’sir qilmasdan

qolmaydi, tarixiy davr, til va xalqlarning almashishi geografik muhitning o‘zgarishiga olib kelishi aniq.

Joy nomlari tabiat va jamiyat aloqadorligi masalasini o‘rganuvchi geografiya uchun ham ko‘pgina ma’lumotlar beradi, chunki xalq turmush tarzining turli tamonlari geografik nomlarda o‘z aksini topgan. Masalan, oykonimlarda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti aks etgan, ular yordamida aholining qadimiy xo‘jalik yuritish shakillari, ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari, qazib olingan foydali qazilma joylari, o‘tmishdagi karvon yo‘llari, rivojlangan hunarmandchilik turlari, xalqlarning tarqalish areali kabi masaialarga oydinlik kiritish mumkin.

Tushinishi qiyin bo‘lgan bu qo‘shimchalar hozirgi ilmiy tilda topoformantlar deb ataladi. Soha mutaxassislari A.Vostokovning xizmatlarini inobatga olib, uni toponimik ilmiy tadqiqollarda qo‘llaniladigan formantlar (lotincha, formans - hosil qiluvchi) usuli asoschisi deb e’tiroi’etishadi.

XIX asrda tilshunoslik, tarix, geografiya, kartografiya kab fanlarning amaliy ehtiyojidan kelib chiqib toponimikaga qiziqish yanada kuehaydi. T.Nafasovning yozishicha. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, son va saviya jihatdan kengaydi. Toponimikaga bag‘ishlangan maxsus asarlar paydo bo‘ldi, geografik nom larni o‘rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, G‘arbiv Yevropa, jumladan, Fransiya, Angliya. Germaniya,

Polshada barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo‘ldi. AQShda 1890 yili geografik nomlar byurosi. 1923 yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847 yili Rus geograilya jamiyati qoshida geografik terminologiyanini o‘rganish komissiyasi tashkil etildi va u toponimikaga katta ahamiyat berdi. Komissiya tarkibida qatnashgan A. Dal, N. Nadejdin kabi olimlar yordamida to‘rt mingdan ortiq geografik terminlardan iborat lug‘at tuzilgan. Rus olimi N.Nadejdinning toponimikaga bag‘ishlangan ilmiy ishlari diqqatga sazovor. U toponimikani xalq hayoti, turmushi, dunyoqarashi bilan bog‘liq ekanligi, jamiyat tarixidagi muhim voqea-hodisalar joy nomlarida aks etishiga katta e’tibor bergan.

“Toponimiya - yer tili, yer - insoniyat tarixi geografik nomlar bilan yozilgan kitobdir" degan ta’rif aynan unga tegishli.

Keyingi ikki asr davomida yozilgan tarixiy, lingvistik va xususan geografik asarlardan O‘rta Osiyo va O‘zbekiston toponimiyasiga oid ko‘plab m a’lumotlar topish mumkin. Masalan vengryalik olim A.Vamberi O‘rta Osiyoga maxfiy sayohat qilib, O‘zbekiston toponimlar tarixiga oid “Markaziy Osiyoning geografik nomlari” kitobini yozgan. Asarning lug‘at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atamalarga alifbo tartibida ta’rif berilgan.

O‘zbekistonning tarixi, xususan, toponimiyasini o‘rganishda XIX asrda ijod qilgan rus olimlari orasida V.Vyatkinni alohida o‘rni bor olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag‘ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan asarlarida joy nomlarning kelib chiqishi haqida qiziqarli ma’lumotlar topish mumkin. Umuman, olimning asarlari toponomik tadqiqotlarda, ayniqsa, joy nomlarining etimologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat ega.

O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin N.Xaniqov, N.Sitnyakovskiy, L.Sobolev, D.Lagofet, A.Xoroshxin kabi olimlar turli ekspeditsiyalar tarkibida O‘rta Osiyoga kelib mahalliy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasini o‘rganishgan. Ular yozgan asarlarda O‘rta Osiyo joy nomlarining etimologiyasiga oid turli tarixiy-lingvistik fikrlar bildirilgan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi O‘rta Osiyo toponimiyasini o‘rganishda, akademik V.Bartold asarlari alohida o‘rin tutadi. V.Bartold garchi toponimikaga bag‘ishlab alohida asar yozmagan bo‘lsa ham ammo, ulining asarlarini o‘rganmasdan turib O‘rta Osiyo toponimikasi bilan shug‘ullanib bo‘lmaydi.

Olim asarlarining toponimika uchun qimmati shundaki u rus va G‘arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni arab fors hamda turkiy tilardagi asarlar bilan taqqoslab tanqidiy o‘rgandi. V. Bartold asarlarida arab va fors manbalarida qayd qilingan yuzlab joy nomlarining etimologiyasi sharhlangan va arna, ariq, yob, diz, g‘ar, kent, rustoq, hisor, qal’a qo‘rg‘on kabi ko‘plab geografik terminlar ilmiy jihatdan izohlangan.

XVIII asrning ikkinchi yarimidan, to XX - asrning birinchi yarimigacha toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko‘paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma’lumotlar to‘planib, toponimikaga bag‘ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik obyektlarning nonilash qonuniyatlarini ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

XX asrning 50-chi yillaridan boshlab toponimik tadqiqotlar keng quloch yozdi. Toponimik ma’lumotlarni to‘plash va tadqiq qilish sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Geografik nomlar bo‘yicha maxsus niahkamalar, toponimik komissiyalar tuzildi hamda ularni o‘rganishga katta ahamiyat berildi. O‘sha davrda toponimik tadqiqotlar uchta asosiy yo‘nalishda olib borildi.

1. Fanning nazariy masalalari va tadqiqotlar melodlari;
2. Mintaqalar toponimiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar;
3. Makromintaqalar va xorijiy mamlakatlar toponimikasi.

Ma’lumki, toponimikaning nazariy masalalarini hal qilmasdan turib toponimik tadqiqotlar bilan shug‘ullanish ancha qiyin masala. Shu sababdan, toponimist olimlar, ayrim mintaqalar toponimiyasi bilan shug‘ullanishdan tashqari. geografik obyektlarning nomlash qonuniyatlarini tadqiq etish va geografik nomlarning klassifikatsiyasini yaratish kabi masalalarga ham katta e’tibor qaralishgan.

Toponimikaning ilmiy fan sifatida shakllanishida rus olimlarining xizmatlari katta. Bu sohada A.Dulzon, A.Matveyev, A.Popov. A.Superanskaya, V.Toropov, S.Tolstov. Y.Pospelov. O.Trubachev, R.Ageyeva kabi olimlarning asarlari ma’lum va mashhur. Ular orasida geograf olim E.Murzayevning xizmatlari alohida diqqatga sazovor. Olim yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida geografik nomlarni o‘rgandi. O‘rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan, mahalliy geografik terminlari haqida ko‘plab qimmatli asarlar, monografiyalar, lug‘atlar, ilmiy maqolalar yozdi. E.Murzayev ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida toponimikaning nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat berdi.

Olimning toponimika sohasidagi asarlaridan eng salmoqlilari xalq geografik terminlariga bag‘ishlangan. Bu boradagi so‘nggi va eng yirik asari, 1999 yilda

Moskvada chop etilgan ikki jildli “Slovar narodnix geograficheskix terminov" kitobidir. Olimning ta’kidlashicha, har qanday toponimik tadqiqotni geografik terminlarni o‘rganishdan boshlash kerak, chunki toponimik terminlar nomlarning etimologiyasini aniqlashda universal kalit hisoblanadi.

E.M. Murzayevning sof toponimik ishlari ham kam emas. Uning "Ocherki toponimiki” nomli asari olimning joy nomlarini o‘rganish sohasidagi ko‘p yillik mehnati samarasidir. Mazkur kitobda geografik nomlarni ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyatning ehtiyoji bilan bog‘liqligini ta’kidlab, u shunday yozgan: «gazeta o‘qiganda ham, radio tinglaganda ham voqea va hodisalarni ko‘pincha geografik nomlarga bog‘lab o‘qib olamiz. Uozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz».

Sobiq Ittifoqda toponimikani fan sifatida shakllanishiga V.A.Nikonov katta hissa qo‘shgan. Olim geografik nomlarni tarix taqozosi bilan paydo bo‘ladigan ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta’kidlaydi. V.A.Nikonov nom geografik obyektning xususiyatidan kelib chiqadi, degan fikrni g‘alat va toponimika uchun juda xavfii deb hisoblaydi. Olimning yozishicha, geografik obyektga nom tanlashda uning o‘ziga xos xususiyatlari asos bo‘lishi mumkin, ammo, ana shu alomatni, belgini tanlash faqat jamiyat manfaatlari bilan bog‘liq. Fikrini isboti sifatida, daryoni Qoradaryo yoki Oqdaryo deb nomlanishi daryo uchun muhim emas, u qanday atalishidan qatiy nazar o‘z vazifasini bajaraveradi, aksincha, nom tanlashda jamiyat manfaatlari ustunlik qiladi, deb yozgan. Hozirda mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan toponimik qonuniyatlar ham, ilk bor ana shu olim tomonidan aniqlanib fanga kiritilgan.

Shu narsa e’tiborga sazovorki V.A. Nikonov geografik obvektlarga berilgan nomlar haqida fikr bildirib, uni nomlagan xalq yo‘q bo‘lib ketsa ham, ammo, joy nomi uzoq muddat hattoki, bir necha ming yilgacha. asl holida yoki shakli va talaffuzi o‘zgarib, mavhumlashib saqlanib qolishi mumkinligini alohida ta’kidlagan. Masalan. V.A.Mikonov tomonidan keltirilgan bir rivoyat bu fikrni isbotidir. Olimning yozishicha, konkistadorlar Janubiy Amerikadagi Orinoko daryosi bo‘yida

yashaydigan mahalliy hindu qabilasini qirib yuborishadi ammo, ular tomonidan xonakilashgan to‘ti qushlar uzoq muddat mahalliy hindu qabilasi tilida sayragan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf olimlardan beloruslik V.Juchkevich bu sohada ancha ishlar qilgan. Uning «Umumiy toponimika» nomli o‘quv qo‘llanmasi bir necha bor nashr etilgan. Ukrainalik olim Yu. Karpenko regional toponimiyani mukammal o‘rganishidan tashqari toponimika nazariyasi va metodologiyasining umumiy masalalariga alohida ahamiyat bergan. Olimning fikricha, real hayotda nomning tug‘ilishiga turtki bo‘lgan sababni aniqlash toponimika uchun nihoyatda muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlari olimlaridan Tojikistonda, Yag‘nob toponimlarini mukammal o‘rgangan A.Xromov, Pomir mikrotoponimlarini tadqiq qilishda R.Dodixudoyev. A.Rozenfeld asarlarining ahamiyati katta. Qozog‘istonda joy nomlarini ham lingvistik. ham geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Respublikada toponimlarini xususan, mahalliy geografik terminlarini o‘rganishda G.Konkashpayevning xizmatlarini alohida qayd qilish kerak. Qozog‘istonlik A.Abdurahmanov, V.Popova, F.Januzaqov, Ye.Qo‘ychiboyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida toponimikaning umumiy masalalari bilan bir qatorda joy nomlarining etimologiyasiga katta o‘rin berilgan.

Turkmanistonda toponimikaning rivojlanishi akademik S.Ataniyozov nomi bilan bog‘liq. Olim fanning metodologik masalalarini yoritish bilan birga, tadqiqotlarida ko‘proq etnonimlarning kelib chiqishiga e’tibor qaratgan. Turkman geografik terminlarini yig‘ish va izohlash bilan M.Geldixanov shug‘ullangan. Qirg‘iziston toponimikasining yutuqlari geograflardan S. Umurzoqov, tilshunoslardan Q. Qonqaboyev. D. Isayev nomlari bilan bog‘liq. Ozarboyjonlik olimlar ham toponimika sohasida ancha jiddiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, respublika joy nomlari va mahalliy geografik terminlarini yig‘ish hamda O‘rganish bO‘yicha R.Yuzbashev. S.Mullazoda, A.Aliyev, toponimikaning nazariy masalalarini tadqiq qilishda T.Ahmedovning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak.

O‘tgan XX asr davomida xorijiy mamlakatlarda ham toponimik tadqiqotlar tez sur’atlar bilan rivojlandi. Natijada, bir qator mamlakatlarda toponimik maktablar paydo bo‘ldi. Yer sharining turli hududlari geografik nomlarining o‘rganishda J.Styuart. N.Xolmer. M.Barril (AQSh); A.Doza, (Fransiya): G.Kraye, M.Fesmer (Germaniya); E.Ekuoll, A.Smit, A.Rum, S.Mettyuz (Buyuk Britaniya); A.Profouz, V.Shmilauyer (Chexiya); V.Tashitskiy, Y.Stashevskiy (Polsha); V.Georgiyev (Bolgariya); L.Kish (Vengriya), G.Dragu (Ruminiya): M.Olson (Shvetsiya); J.Armstrong (Kanada); A.Kardozu (Braziliya) kabi olimlarning xizmatlari katta.

2.3-§. O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishi.

Geografik nomlarni ularning kelib chiqishi va tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganish, ularni klassifikatsiya qilish nisbatan yaqin vaqtlarda boshlangan. Bu sohada atoqli toponimikachi A.X.Vostokovning xizmati kattadir. U Rossiyadagi daryo nomlarini ularning oxirgi qo‘shimchalariga qarab guruhlarga bo‘ladi va bu qo‘shimchalar hozir biron ma’noni anglatmasa ham qadimgi xalqlar tilida ma’lum ma’noni bildirgan bo‘lsa kerak, deb to‘g‘ri xulosaga keladi. A.X.Vostokovning fikri XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi ba’zi bir toponimikachilarning asarlarida o‘z rivojini topdi.

XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar ancha keng quloch yoydi. 2-jahon urushidan oldingi davrda olimlardan A.I.Sobolevskiy, N.YA.Marr, S.V.Veselovskiy, V.V.Bartol’d, V.P.Semyonov-Tyanshanskiy, V.G.Shostakovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston toponimikasini o‘rganish sohasida V.V. Bartol’dning xizmatlarini alohida qayd qilib o‘tish kerak. Urushdan keyingi yillarda toponimika rivojida katta bir o‘sish davri bo‘ldi. endilikda toponimika soxasida ayrim olimlargina emas, balki butun-butun olimlar jamoasi ish olib bormoqdalar.

Endilikda o‘lkamizda toponimik tadqiqotlar avj oldirilmoqda. Toponimikaga, uning nazariyasiga doir ko‘pgina asarlar yaratildi.

Bir necha o‘nlab Yosh olimlar ham toponimika sohasida samarali ish olib bormoqdalar. Chunonchi, T. Nafasov «Qashqadaryo toponimikasi», Sh. Qodirova

«Toshkent mikrotoponimikasi», E. Begmatov esa antrotoponimika - kishi nomlarini o‘rganish sohasida ilmiy ish olib bormoqdalar.

O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston toponimlarini o‘rganish ham uzoq tarixga ega. O‘zbekiston toponimikasini o‘rganishda mashhur rus sharq shunos olimlari hamda tarixchilari: V.L.Vyatkin, N.F.Sityakovskiy, L.N.Sobolev, V.V.Bartol’d, S.P.Tolstov, P.P.Ivanov. M.E. Masson, O.A. Suxareva va boshqalar bu sohada juda katta ishlarni amalga oshirdilar.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug‘-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o‘rganishda Ya.G‘.G‘ulomov, R.N.Nabiev, A.R.Muhammadjonov,

F.Abdullaev, S.Ibrohimov, O‘zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan X.T.Zarifov; etnonimlar — E.Fozilov M.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘irov; geograflardan H.Hasanov, S.Qoraev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

Toponimika faniga katta xissa qo‘shgan olimlar qatorida Suyun Qorayev xizmatlari ayniqsa beqiyosdir. Olimning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlar alohida o‘rin egallaydi. S. Qorayev joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni atroflicha izohlagan. Ularning ko‘pchiligi shu vaqtgacha geografik adabiyotlarda, hatto izohli lug‘atda ham uchramaydigan, ilmiy muomalaga kiritilmagan chinakam mahalliy xalq terminlari hisoblanadi.

Geografik terminlar va joy nomlarini o‘rganish sohasida samarali mehnat qilgan geograf oiimlardan yana biri P. G‘ulomovdir. Olim tomonidan "Geografiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekeha atamalar va tushunchalar lug‘ati" (1993), “Jug‘rofiy atamalari va tushunchalari izohli lug‘ati”(1994) “Toponimika va geografik atamashunoslik” (2005) kabi o‘quv qo‘llanmalar nashr etilgan. P.G‘ulomov ilmiy ishlarida joy nomlari va atamalarning to‘g‘ri yozilishi, ularning tarjimasi, ilmiy va o‘quv adabiyotlarga kiritilishi hamda toponimik savodxonlik masalalariga jiddiy e’tibor qaratgan.

So‘ngi yillarda Q.Seytniyazov (1998), Qoraqalpog‘iston o‘ng sohili shimoiiy tumanlari toponimiyasi va Q.Hakimov (2010) tomonidan Jizzax viloyati

toponimiyasi o‘rganildi. Bajarilgan ishlarda geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlari, jov nomlarini shakllanishida mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari, toponimlami O‘zbek va Qoraqalpoq tillarda to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yangi geografik obyektlarni nomlash bo‘vieha tavsiyalar va toponimlar turlariga oid turli kartalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektda o‘rganish o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida boshlangan. Tilshunos toponimist oiimlardan E.Begmatov, Z.Do‘simov, T.Nafasov, T.Enazarov. N.UIug‘ov. N.Oxunovlar respublika toponimiyasining yaratilish qonuniyatlari, leksik-semantik xususiyatlari, ularning tuzilishi, tasnitlash masalalarini tadqiq qilishda katta hissa qo‘shganlar. O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan oiimlardan biri T.Nafasov respublikada birinchi bo‘lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo‘lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o‘quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tatqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov - Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova - Toshkent mikrotoponimlarini. Z.Do‘simov - Xorazim, Ya. Xo‘jamberdivev - Surxondaryo, T. Rahmatov - Samarqand. S.Gubayeva va N.Oxunov - Farg‘ona vodiysi, A.Zokirov - Jizzax. K.Abdimuratov - Qoraqalpog‘iston respublikasi, S.Naimov - Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan.

Oxirgi yillarda bajarilgan mintaqaviy toponomik tadqiqotlarning aksariyati geografik nomlarining dialektik, semantik, grammatik va lingvogeografik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Umuman olganda, joy nomlarining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali har bir hudud toponimiyasining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, ularning O‘zbekiston toponimiyasida tutgan o‘rni belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Tarixiy geografik joy nomlarining kelib chiqich qonuniyatlarini haqida gaprib bering.

2. Toponimika ilmiy yo‘nalish sifatida paydo bo‘lish va rivojlanishiga sabab bo‘lgan tarixiy, geografik va lingvistik asoslarini izohlab bering.

3. Tomonomika fan sohasi bo‘icha tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlari haqida gaprib bering.

4. Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug‘-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o‘rganishda o‘z xissasini qo‘shgan o‘zbek olimlar va ularning asarlari haqida tahliliy matin tayyorlang.

3- Mavzu. Markaziy Osiyolik olimlar asarlarida toponimlar.

Reja:

3.1-§. ***Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit Turk” asarida etnonimlar va toponimlar.***

3.2-§. ***Abu Rayhon Beruniy asarlari va “Hudud ul-Olam” asari - muhim tarixiy manba.***

3.3-§. ***Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida toponimik ma’umotlar.***

3.4-§. ***Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va unda O‘rta Osiyo toponimlari.***

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Mahmud Qoshg‘ari, “Devonu lug‘otit turk, Abu Rayhon Beruniy, “Saydana”. “Qonuni Ma’sudiy”, “Hindiston tarixi”, Narshaxiyning, “Buxoro tarixi” “Hudud ul-olam” ("Dunyoning hadlari”), O‘zgand (O‘zgan) suvi, Buxoro daryosi, “Buxoro tarixi”, Karmina, Nur, Zandana. “Boburnoma”, Konigil, Qarshi, Kashmir, Himolay.*

3.1-§. ***Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi etnonimlar va toponimlar.***

Mahmud Qoshg‘ariyning bu nodir asari bebaho bir qomuski, undan har bir mutaxassis o‘ziga kerakli material topa oladi. «Devon»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki bundan uch yuz to‘rt yuz yil oldin yozib olingan' nomlar ham hozirgi talaffuzdan ko‘ra qadimgi toponimiyaning dastlabki shakliga ancha yaqin bo‘ladi. «Devonu lug‘otit turk» esa bundan qariyib X- asr oldin yozib qoldirilgan. Shuni aytish kerakki, toponim qanchalik ilgari yozib olingan bo‘lsa, shunchalik qimmatli sanaladi. Chunki ana shu davrda joy nomlarining tarixi, fonetik hamda grammatik xususiyatlarida qanday o‘zgarishlar ro‘y berganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Mahmud Qoshg‘ariy asarining toponimika uchun ahamiyati undagi joy nomlari bilangina tugamaydi. Toponimlarning etimologiyasi, semantikasini aniqlash hamda grammatik xususiyatlarini hisobga olishda qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o‘simlik, hayvonlarning o‘sha davrdagi nomlari, toponimlarning grammatik tuzilishiga doir mulhazalar g‘oyat zo‘r ahamiyatga egadir. Bu jihatdan «Devon» nihoyatda boy material beradi.

“Devonu lug‘otit turk” etnonim va toponimik ma’lumotlari bir necha turga bo‘lish mumkin.

1. Devonda tilga olingan joy nomlari.
2. Etnonimlar, ya’ni turli xalq, elat, qabila, urug1 nomlari.
3. Antroponimlar, ya’ni kishi ismlari.
4. Geografik atamalar, o‘simlik hamda hayvon nomlari.

«Devon»da qayd qilib o‘tilgan toponimlar haqida. Ma’lumki, «Devon»ga doira deb atalgan xarita ilova qilingan. Bundan tashqari, matnda ham bir qancha joy nomlari izohlab o‘tilgan. Bizning hisobimizga ko‘ra «Devonu lug‘otit turk»da jami 16 dan ortiq toponim tilga olingan. Shu o‘rinda aytish joizki, asarda ayrim joy, ba’zi o‘simliklar, hayvonlar nomlari atamalar takroran berilgan. Bunday qaytariqlar hisobga kirmaydi, albatta Mahmud Qoshg‘ariyning «Devon»idagi xaritada tilga olingan nomlar to‘g‘risida Li. Umnyakov, S. Umurzoqov, H.Hasanov kabi olimlar qator asarlar yozganlar.

«Devon» dagi nomlarning asosiy qismi O‘rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Bu toponimlarning bir qanchalari hamma uchun tushunarlidir. Chunonchi, Oqsoy, Oqterak kabi nomlarni hozir ham uchratish mumkin.

Buxoro, Farg‘ona, Samarqand, Xo‘jand, Xorazm, Talas, Tarim, Sayram, Manqishloq, Issiqko‘l kabi toponimlar deyarli o‘zgarishsiz yetib kelgan. Qorayalg‘a, Ala, Ertish kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o‘zgarib ketgan va hozirgi, Qorajilg‘a, Olay, Irtish shaklida yoziladi. Beshbaliq, Yangibaliq, Tunkand, Yankand, O‘zkand kabi shahar nomlari, Badalart, Buqachart, Zanbiat, Qavaqart, Yafg‘uart kabi dovonlar, Ikkio‘kuz, Qoraqosh o‘kuz, o‘rungqosho‘kuz kabi daryolar etimologiyasiga «Devon»ning o‘zidan javob topish mumkin. Bulg‘or, Qipchoq, Uyg‘ur, Tavg‘ach, Yag‘mo kabilar etnotoponim, Barsg‘on, Barman, Qazvin singarilar esa antrotoponimlardir. Ba’zi bir toponimlarning etimologiyasini taxminan aniqlash mumkin. Chunonchi, ayiq o‘sha zamonlarda azig‘ deb atalgan. Mahmud Qoshg‘ariy Azig‘ degan joyni tilga oladi, bu nom «ayiq» degan ma’noni anglatgan bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o‘rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to‘g‘risida Mahmud Qoshg‘ariy keltirgan ma’lumotlami sinchiklab o‘rganish zarur. “Devonu lug‘otit turk” dagi toponimlarning biz uchun yana bir qimmatli tomoni ularning grammatik xususiyatlaridir. Ma’lumki, joy nomlarining etimologiyasidan tashqari grammatik tuzilishiga qarab ham ularning qaysi tilga, qaysi davrga oid ekanligini ma’lum darajada aniqlash mumkin.

Hozirgi turkiy toponimlarning asosiy qismi ikki va uch komponentdan, ya’ni tarkibiy qismdan iborat. “Devon” dagi joy nomlarining yarmidan ko‘pi bir komponentli nomlar. Masalan, Yamak, Yofinj, Alush, Azig, Abul, Etil, Udun, Yamar, Ala, Urang, Qo‘ju, Bukur, Talas, Qabus, Quya, Toman, Koson, Xuzar, Chogla, Barxan, Sabran, Sitg‘un, Tovg‘ach, Baijug‘, Tartuq, Tayiz, Ko‘rung, Qazvin kabilar ana shular jumlasidan. Ikki komponentlilar u qadar ko‘p emas: Ikkiko‘z, Oqsoy, Oqterak, ayig‘och, Beshbaliq, Yangibaliq, Qorayig‘och, Badalart, Buqachart, Boyyig‘och, Yulduzko‘l kabilar. Bu toponimlarning birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti esa ot (geografik atama). Ikki komponentlilar grammatik tuzilishi jihatidan hozirgi toponimlardan farq qilmaydi. Uch komponentlilar esa atigi bir nechta: O‘rungqosho‘kuz, Qoraqosho‘kuz, To‘rig‘arttayiz. Yana shu narsa xarakterliki, “Devon” da qayd qilingan joy nomlarining yarmidan ko‘pi ikki bo‘g‘indan iborat. Demak, ilgarilari joy nomlari ixcham, sodda bo‘lgan. Ko‘p komponentli, butun bir iboradan tuzilgan Yo‘ldoshning oti uchgan (Zom in tumani), Amin Mulla pichan chopgan (Boshqirdiston), Hasan toshtergan (Baxmal tumani), Chuqursoyning tangisi (Zomin tumani) kabi mikrotoponimlar esa keyingi davrlarda vujudga kelgan.

Etnonimlar haqida. “Devon” da juda ko‘p xalq, qabila, toifa nomlari — etnonimlar tilga olingan. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni” ning bosh qismida turk qabilalari haqida so‘z yuritib: bajanak, qipchoq, o‘g‘uz, yamak, bashg‘irt, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg‘iz, chigil, tuxsi, yag‘ma, ig‘roq, jaruq, jumul, uyg‘ur, tangut, xtoy; kitobning lug‘at qismida esa kenjak, arg‘u, qayig‘, bayot, chig‘ay (chig‘an), sug‘doq, uch, qorluq, o‘groq, kucha, bulaq, xalach, aramut, turkman, qiniq, salg‘ur

kabi etnonimlarni ham tilga olgan. Shuningdek toponimika uchun yana bir ahamiyatli manba «Devon» da anchagina uchraydigan etnotoponimlardir. Aramut (joy nomi), Arg‘u (shahar), Bulg‘or dengizi, Bulg‘or shahri, Kenjak sangir (shahar), Turk (shahar), Tavg‘ach (mamlakat), Uyg‘ur (viloyat), Yabaqu (suv nomi), Yag‘ma (qishloq nomi), Yamak (cho‘1 nomi) kabilar aslida etnotoponimlardir.

Bundan tashqari, doira xaritada ham G‘uziya, Qipchoq yurti, Basmil cho‘li singari bir qancha o‘lkalar tilga olingan. Demak, “Devonu lug‘otit turk” dan ayni vaqtda etnonimlar va etnotoponimlar to‘g‘risida ham juda boy material topish mumkin. Biroq etnonimlarning etimologiyasi to‘g‘risida Mahmud Qoshg‘ariy keltirgan rivoyatlarning hammasini ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Masalan, u turkman — “turkmonand”, ya’ni “turkka o‘xshash”, chigil – “chi gil”, ya’ni “bu qanday loy”, uyg‘ur “xud xo‘r”, ya’ni “o‘zi topib yeydigan” degan so‘z bo‘lib, bu turk qabilalarining nomlari forscha degan xulosani bildirgan.

Tanqidiy foydalanilsa, bu ma’lumotlar etnografiya, shuningdek, toponimika uchun ishonchli va boy material bo‘lib xizmat qiladi. Kishi ismlari haqida. Ismlar va toponimlar qadimdan bir-biri bilan bog‘liq. Qanchadan qancha toponimlar kishi ismlari bilan atalgan bo‘lsa, bir qancha ismlar toponimlardan kelib chiqqan.

Turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini ularning tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan. “Devoni lug‘otit turk” asari Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg‘ariy qalamiga mansubdir. Muallif o‘z asarini yozishdan oldin ko‘p yillar davomida turkiy qabilalar orasida yurib, nafaqat ularning tili va dinini, balki tarixini ham sinchiklab o‘rgandi va juda ko‘p materiallar so‘z va iboralar, she’riy parchalar maqol va hikmatli so‘zlarni to‘pladi. Bu haqida u o‘z asarida ham ma’lumot beradi va yana shunday deydi: “Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularning har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”.

Asarning yaratilish davri manbalarda har xil ko‘rsatilgan bo‘lsada, devondagi ma’lumotlar bu ma’lumotini rad etib, devoni 1072-1083 yillarda yozib tugallanganligi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra Abdulqosim binni Muhammad Al Muqtaboda taqdim etilganligini ko‘rsatadi. Olimning asarni yozishdan asosiy

maqsadi: Arablarga turkiy tilning boyligini, turkiy tilda ham ajoyib asarlar bitish mumkinligini isbotlashdir.

“Devoni lug‘otit turk” faqatgina tilshunoslik asarigina bo‘lib qolmay, balki o‘z davrining qomusi hamdir. Bu asarda turli qabilalarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, geografik va tabiiy xususiyatlariga doir ko‘p ma’lumotlar beriladi. Shuni ng uchun ham biz bu asarni o‘z davrining ensiklopediyasi deb atashga haqlimiz.

3.2-§. Abu Rayhon Beruniy asarlari va “Hudud ul-Olam” asari muhim tarixiy manba.

Buyuk bobokalonimiz va vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy (973- 1048-yillar) o‘rta asrlarning buyuk qom usiy olim lardan edi. U ning buyukligi o‘sh a davm ing deyarli barcha fanlariga qo‘shgan betakror ilmiy merosida namoyonbo‘ladi. U nafaqat astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bilan, balki tarix va din tarixi bilan shug‘ullanadi. Olim yozib qoldirgan 160 dan ortiq asarlari bilan astronomiya, astrologiya, matematika, geografiya, geodeziya, geologiya, m ineralogiya, arifmetika, tabobat, tarix, filologiya va boshqa fanlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shaoldi.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida O‘rta Osiyo va Xuroson shaharlari haqida ma’lum otlar keltirib o‘tgan. U ning deyarli ham m a asarlarida O‘rta Osiyo shaharlari tilga olinib, ulam ing yo tarixi, yo iqlimi, yoxud aholisi ta’riflangan. Beruniy o‘zining “Saydana” asarida 400 dan ortiq qishloq, tog‘, daryo, shahar va orollar, “Qonuni Ma’sudi” kitobida esa 600 dan ortiq joy nomlarini tilga olgan. Shundan 85 tasi O‘rta Osiyo va Xurosonga tegishlidir. “Qonuni Ma’sudiy” kitobida shu joylarning uzunlik va kengliklari ko‘rsatilgan va deyarli hamm asiga qisqacha izoh berilgan.

Balx - qadimgi ismi Bomi.

Obiskur - (Kaspiy) dengiz bo‘yida, Jurjon shahrining porti, Jurjon viloyatida.

Kalif- Jayhun daryosi bo‘yida, Xuroson viloyatida.

Maymana - hozir Jaxudon, Juzjon viloyatida.

Voxon - la’l konlari chegarasida, Xuttalon viloyatida.

Bolxon - shu yerda Jayhun daryosi qayriladi va Jurjon dengiziga qayriladi, G‘uziya viloyatida.

Jurjoniya - Xorazm shaharlaridan biri, Jayhunning g‘arbida.

Kot - (Xorazimning) ikkinchi shahri, Jayhunning sharqiy qirg‘og‘ida, Xorazm viloyatida.

Omuyya - (Xurosondan) Movarounnahrga kechib o‘tadigon joy, Xuroson viloyatida.

Tavovis - har yili bozor bo‘ladigon joy, Xuroson viloyatida.

Barsxon - Issiqko‘l yonida, bu (suvi) issiq ko‘ldir. Turkiston viloyatida

Abu Rayhon Beruniy “Qonuni Mas’udiy” asarida O‘rta Osiyo shaharlarini jadval tarzida ketgan va ular haqida toponimik ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Toshkent bunday deyilgan: “Binkat - Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent. Bu yunon mualliflarining Burj al- hijra qal’asidir''.

Bundan tashqari, quyidagi hududlar ham asarda turlicha nomlangan:

Baykand (Poykand) - Buxorodan janubi-g‘arbda joylashgan shahar. Hozirgi Yakkatut stansiyasi yonidagi harobalar. U Badzarubayi deb ham atalgan.

Kesh (Kitob va Shahrisabz) - forscha Ma’jamat deb yuritilgan. Sutkent –

Yaksart daryosi bo‘yidagi shahar.

Qariyat al-Hadisa - Hasart daryosining quyilishi yonida, Xorazm ko‘li yonida, G‘uzlar viloyati.

Yangikent - hozirgi Sirdaryo etaklarida (Kazalinsk shahri ro‘parasida, daryoning chap tomonidagi harobalar).

Yangikent - turkiylarda Janiqent, arablarda “Qariyat al-Hadisa” (qariyat - qishloq, hodisa - yangi ya’ni “yangi qishloq”) va “Madinat al- Jadida” (madina – shahar, jadida – yangi, ya’ni yangi shahar) tojiklar esa Dehinav (deh - qishloq, nav - yangi ya’ni yangi qishloq) deb yozganlar.

Bundan tashqari, olim o‘z asarlarida daryo nomlarini ham keltirgan. Ulardan biri Sirdaryodir, Sirdaryo – Hasart, Yunon tilidagi asarlarida Yaksart tarzida keltirilgan. Lekin bu Sirdaryoning yunoncha nomi emas, balki Hasart (yoki Qasart) nomi yunoncha buzilib Yaksart shaklini olgan.

Bundan 120 yil oldin polyak sharqshunosi I. Lelevel Beruniy jadvali asosida O‘rta Osiyoning kartasining tuzishga muvaffaq bo‘ldi. U o‘z kartasida 40 ta shahar va daryoning ham da 8 ta viloyatning nomini yozgan. Abu Rayhon Beruniyning geografik va toponimik merosi “Hindiston tarixi”, “Al-osorul boqiya”, “Qonuni Ma’sudiy” asarlarida keltirilgan.

Olim xorazm liklarda Vaxsh suvlarni, jumladan Jayhun daryosini nazorat qilib turgan m alak nomi ekanligini aytgan. Demak, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘lgan Vaxsh, Surxondaryo viloyatidagi Vaxshivordara kabi toponimlar o‘sha suv parisi nomi in'ikosidir. “Geodeziya” asarida, Beruniy o‘sha vaqtdagi Sariqamishli ko‘lini Hiztengizi, ya’ni “Qiz dengizi” deb atagan Olim toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlar bildirgan, masalan, yunonlar va arablar turkiy so‘zlarni buzib o‘z tillariga moslab talaffuz qilganliklari oqibatida bir qancha so‘zlarning ma’nosi o‘zgarib ketganini, (masalan, turkiycha tosh so‘zini arablar shosh deb talaffuz qilishlarini) aytadi.

“Hudud ul-olam” (“Dunyoning hadlari”) tarixiy-geografik asar bo‘lib,

982 - 983-yillarda fors-tojik tilida noma’lum muallif tomonidan yozilgan asarda yer kurrasining inson yashab turgan (to‘rtdan bir) qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlari, mashg‘ulotlari to‘g‘risida ma’lum otlar berilgan.

Qo‘lyozm ani 1892-yilda tarjim on Abulfazl Gulpayoganiy Buxorodan topib. 1893-yilda sharqshunos A.G. Tumanskiyga bergan. V.V. Bartol’d “Hudud ul-olam” matnini so‘zboshi va izohlar bilan rus tilida, 1937-yilda rus sharqshunosi

V.F. Minorskiy ingliz tilida nashr ettirgan. Professor H.Hasanov o‘zining “O‘rta Osiyolik geograf va sayyohlar” kitobida (Toshkent, 1964) “Hudud ul-olam” haqida katta maqola yozgan va talay qismining o‘zbekcha tarjimasini keltirgan.

“Hudud ul-olam” ning mazmun mundarijasi haqida va raqamlab chiqqan bo‘limlari nomiga qarab tasavvur hosil qilish mumkin:

1. Muqaddima. 2. Yeming hadlari, obodonligi va vayronalari. 3. Dengizlar va qo‘ltiqlar. 4. Orollar (jaziraho). 5. Tog‘lar va ularning bag‘ridagi ma’danlar. 6. Daryolar. 7. Cho‘llar va qumliklar (biyobonho va regho). 8. Jahon viloyatlari

(nohiyathoi jahon). 9. Chiniston viloyatining xosiyati. 10. Hindiston viloyati. 11. Tibet viloyati va uning shaharlari. 12. To‘g‘uzg‘uz viloyati va uning shaharlari. 13. Yag‘mo viloyati va utilng shaharlari. 14. Xirg‘iz (qirg‘iz) viloyati. 13. Xallux (qarluq) viloyati va uning shaharlari. 16. Jikil viloyati. 17. Tuxsi viloyati va uning shaharlari. 18. Kimok viloyati va uning shaharlari. 19. G‘uz viloyati. 20. Bajonaki Turk viloyati. 21. Xifchoq (qipchoq) viloyati. 22. Majg‘ari viloyati. 23. Xuroson viloyati va uning shaharlari. 24. Xuroson chekkalari va uning shaharlari. 25. Movarounnahr viloyati va uning shaharlari. 26. Movarounnahr chekkalari va uning shaharlari. 27. Sind viloyati va uning shaharlari. 28. Kirmon viloyati va uning shaharlari. 29. Bors (Fors) viloyati va uning shaharlari. 30. Jibol viloyati va uning shaharlari. 31. Xuziston viloyati va uning shaharlari. 32. Daylamon viloyati va uning shaharlari. 33. Iroq viloyati va uning shaharlari. 34. Jazira viloyati va uning shaharlari. 35. Ozarbodgon viloyati va A rm iniya ham da Arron viloyati. 36. Arab viloyati va uning shaharlari. 37. Shorn viloyati va uning shaharlari. 38. Misr viloyati va uning shaharlari. 39. Mag‘rib viloyati va uning shaharlari. 40. A ndalus viloyati va uning shaharlari. 41. Rum viloyati va uning shaharlari. 42. Saqalob viloyati. 43. Rus viloyati va uning shaharlari. 44. Ichki Bulg‘or viloyati. 45. Mirvat viloyati. 46. Bajanoki Hazar viloyati. 47. Olon viloyati va uning shaharlari. 48. Sarir viloyati va uning shaharlari. 49. Hazarlar viloyati. 50. Barados viloyati. 51. Burtos viloyati. 52. Vanandar viloyati. 53. Janubdagi obodon yerlar v a viloyatlar. 54. Zangiston viloyati va uning shaharlari. 55. Zobaj viloyati va uning shaharlari. 56. Habasha viloyati va uning shaharlari. 57. Buja viloyati. 58. Nuba viloyati. 59. Sudon viloyati va uning shaharlari. 60. Kitob oxiri.

Mundarijadan ko‘rinadiki, “Hudud ul-olam” jahonning barcha mamlakatlarini tasvirlab bergan geografik, etnografik va iqtisodiy ma’lumotnomadir.

“Hudud ul-olam” dagi ayrim geografik nomlar haqida.

Movarounnahr tog‘lari. H.Hasanov yozishicha, “Hudud ul-olam”da O‘rta Osiyoning janubidagi Bo‘lur, Samarqand, Shiknon, ya’ni Xon Vaqon tog‘lari. Buttamon ichkarisidagi va Movarounnahrga yoyilgan Ustrushona, Xuttalon,

Chag‘oniyon tog‘lari, ularning tarm oqlari batafsil tasvirlangan. So‘ngra Movarounnahrdagi ko‘pgina tog‘tarm oqlari nomsiz bayon etilgan.

Movarounnahr daryolari. “Jayhun (Amu) daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig‘noni Vahon hududi orasidan o‘tib, Xorazm dengiziga quyiladi”.

“...Hamob (Panj) Qasark tog‘ining g‘arbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Porg‘ar (Parxor) orasidan o‘tib,Jayhunga qo‘shiladi”.

“Yana bir daryoki, uni Vaxsheob deydilar, Vaxsh tog‘laridan chiqadi, Vaxsh (shahri) yaqinida Jayhunga quyiladi”.

“Chag‘onrud (Surxondaryo), Chag‘oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayhunga quyiladi”.

“Yana biri O‘zgand suvidirki, Xallux tog‘i (orqasi) dan boshlanib, O‘zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo‘jand, Banokat shaharlari yonidan o‘tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so‘ngra Xorazm dengiziga quyiladi”.

Demak, muallif Sirdaryoni O‘zgand (O‘zgan) suvi degan, Xallux (Qarluq) tog‘i - Tyanshan tog‘lari bo‘lsa kerak (ilk o‘rta asrlarda Yettisuvda Qarluq davlati bo‘lgan). Hozirgi Axsi qishlog‘i (Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani) o‘rta asrlarda yirik shahar bo‘lgan va Farg‘ona vodiysining markazi hisoblangan. Bob hozirgi Pop tumanining markazi - Pop shahri. Banokat Amir Temur 1392-yilda tiklab o‘zining katta o‘g‘li Shohruh Mirzo nomi bilan Shohruhiya deb atagan shahar, xalq tilida bora-bora Sharqiya bo‘lib ketgan. Ohangaron daryosining bir tarm og‘i hozir ham Sharqiya deb ataladi. Shahar harobasi Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan.

“Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Buttamon chekkasidan, shim oliy tog‘laridan boshlanib, X urshob shahri yaqinida O‘zgandga (Sirdaryoga) quyiladi”.

“Yana boshqasi Choch suvidirki. O‘zgandga quyiladi”. “Yana bir daryo Qubo (suvi) dirki, Qubo shahri yaqinida O‘zgand (suvi)ga quyiladi” . Qubo Farg‘onaviloyatidagi Quvasoyi va Quva shahridir. “Hudud ul-olam” da Norin daryosi Xatlom shahri nomi bilan Xatlom deb atalgan. “Yana boshqasi Parak

daryosidirki. Choch yerlaridan o‘tadi. O‘zgandga quyiladi. Bu daryolar hamm asi qo‘shilgandan keyin yaxlit suv Choch daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni Sayhun deb ataydilar”.

Parak - Chirchiq daryosi. Demak, bosh tom ondagisi O‘zgand bo‘lgan, Chirchiq quyilgandan keyin Sirdaryo Choch daryosi deb atalgan.

“Hudud ul-olam” asarida Zarafshon Buxoro daryosi deyilgan. Shu ma’lum otlardan ko‘rinadiki, daryolar ko‘pincha shaharlar yoki viloyatlar nomlari bilan atalgan. Vaxsh daryosi - Vaxsh shahri. Chag‘onrud (Chag‘oniyon). O‘zgand suvi - O‘zgand shahri, Xurshob daryosi - Xurshob shahri. Xatlom daryosi - Xatlom shahri, Choch daryosi - Choch (shahri, viloyati), O‘sh daryosi - O‘sh shahri.

“Hudud ul-olam” muallifi Sirdaryoni bir o‘rinda Hasart deb atagan. Shunga asoslanib, H.Hasanov bunday xulosa chiqaradi: “Sirdaryo X- asrda O‘zbekiston tuprog‘ida O‘zgand va Hasart nomlari bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Shunday qilib, Hasart mahalliy nomlardan biriki, qadimgi yunonlarning kitoblarida yozilgan Yaksart shakli o‘shandan o‘zgartiribroq olingandir”. “Movarounnahr - keng, obod va juda ko‘rkam o‘lka.

Turkistonning darvozasi va savdogarlar maskanidir". Asarda O‘zbekistonning shaharlari va ayrim viloyatlari quyidagicha ta’riflanadi: “Buxoro - azim shahar, Movarounnahrning eng obod shahri”. “Paykend - yuztacha rabot (Narshaxiyning “Buxoro tarixi”da mingdan ortiq rabot) bo‘lgan kichik shaharcha”. (Paykend, Baykand, Poykand nomi bilan ma’lum bo‘lgan ilk o‘rta asr shahrining vayronasi Buxoroning janubig‘arbiy biqinida). “Karmina, Dabusi, Arbinjon Sug‘dning kichikroq shaharlaridan. Kushoniya - Sug‘dning eng obod shaharlaridan”. “Samarqanad - buyuk, obod va ne'mati bisyor shahar. Bu yerga dunyoning ham mamlakatlaridan savdogarlar keladi”. “Kesh - issiq mintaqa shaharlaridan biri. U yerda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi”. “Termiz - Jayhun b o‘yidagi obod shaharlardan. Bu shahar Xatlon va Chag‘oniyonning savdo markazidir”. “Chag‘oniyoli - ziroatchilik va chorvachilik uchun qulay va keng joy, ammo xalqi juda kambag‘al”. “Bu viloyatlam ing poytaxti Chag‘oniyon shahridir, tog‘ etagida bino bo‘libdur”. “Dizak - kichik bir shahar, suv bo‘yida”. “Farg‘ona - ulug‘, obod va judag o‘zal

viloyatdir. U ning toglari, tekis joylari, oqar suvlari va shaharlari ko‘p”. “Chatg‘al (Chotqol) - Farg‘onaning bir qismi, tog‘lar orasida joylashgan. kichik shahar va qishloqlari ko‘p. Ot va qo‘y boqiladi, konlari ham bor”.

“Axsikat — Farg‘onaning poytaxti, qarorgohi. Bu katta shahar, Hasart daryosi (Sirdaryo) bo‘yida”. “So‘x – tog‘lar orasida. Buttamon bilan Farg‘ona chegarasidagi joy, 60 ta qishlog‘i bor”. “Qibo (Quva) - Farg‘onaning eng obod katta shahri”. “Shosh - katta va obod, ko‘rkam joydir. Shoshning poytaxti Binkat”. “Kot - Xorazmning poytaxti. Bu shahar Turk, Turkiston, Movarounnahr va Xoraziming savdo markazidir. U ning hokimi Xorazm shoh deb ataladi”.

Umuman olganda, “Hudud ul-olam” asarida Movarounnahr, xususan, O‘zbekiston geografiyasi, ayniqsa qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma’lum otlar olish mumkin.

3.3-§. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi toponimik ma’lumotlar.

“Buxoro tarixi” asari tarixnavislikda yozilgan dastlabki asarlardan biridir. Asar muallifi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyya al- Xattob ib Sharikan - Narshaxiy (899- 959 yillar) tarixchi olim, Buxoroning Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan. Tarjimai holiga oid ma’lumotlar kam va faqat aynan o‘zi haqida asari orqali qoldirilgan ma’lumotlar mavjud.

Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943-944-yillarda “Buxoro tarixi” (“Tarixi viloyati Buxoro”) nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasr (943-954)ga b a g‘ishlagan. Narshaxiynin og‘li Abu Bakir Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja’far asarni arab tilida davom ettirishib, Mansur ibn Nuh (997 -999 yillar), ya’ni so‘nggi somoniylar davrigacha to‘ldirishgan. Nasafiyning “Kitob al-qand” (“Samarqandiya”) va Abu Sa’d as-Sam’oniy (1113-1167 y.y)ning “Kitob al-ansob” asarlarida Narshaxiy haqida ma’lumotlar mavjud. Narshaxiy o‘z tug‘ilgan qishlog‘ida vafot etgan. Asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. 1128-yilda quvalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy asarni fors tiliga qisqartirib tarjim a qilgan.

117 8 -1179-yillarda asar ikki marta Muhammad Ibn Zufar ibn Umar tomonidan qisqartirilgan. Tarjimonlar qisqartirish bilan birga uni yangi ma’lumotlar bilan ma’lum ma’noda to‘ldirganlar. Narshaxiy aslida o‘z asariga qanday nom berganligi ma’lum emas. Shu sababli asar qo‘lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham “Tarixi Narshaxiy” (“Narshaxiy tarixi”), “Tarixi Buxoro” (“Buxoro tarixi”), “Tahqiq ul-viloyat” (“Viloyat haqiqatini aniqlash”), “Axbori Buxoro” (“Buxoro haqida xabarlar”) kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan.

“Buxoro tarixi” 36 bobdan iborat bo‘lib, asosan, Buxoro vohasining tarixiga bag‘ishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoroning barpo etilishi, qadimiy nomlari, qadimgi podshohlariga bag‘ishlangan. Asarning IV bobi Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg‘, Zandana, Vardona. Afshona, Barkat, Romitan, Varaxsha, Baykand (Poykend), Forob va boshqalar shahar va qishloqlarning tasviriga bag‘ishlangan. U nda bu joylarning tarixi, aholisi va uning mashg‘uloti, faoliyati hamda tashqi shaharlar bilan munosabatlari hikoya qilinadi. Buxoro aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqealar bayon qilinadi. “Buxoro tarixi”da IX asrda O‘rta Osiyoning arab xalifaligidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar davlatining barpo bo‘lishi va somoniylar davrida Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti tasvirlangan. Asarda Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid ma’lum otlar bo‘lib, unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi ham ark va shahristonning bino qilinishi hikoya qilinadi. Asar faqat Buxoro tarixinigina emas, balki butun O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda ham nodir manbadir.

“Buxoro tarixi” Parij (1892 - yil) da fransuz, Buxoro (1904 - yil) va Tehron (1939 - yil) da fors, Toshkent (1897 - yil) da rus, Kembrij (1954 - yil)da ingliz tilida, Toshkent (1966, 1993 yillar) da o‘zbek tilida, Dushanbe (1979)da tojik tilida nashr etilgan.

“Buxoro tarixi” asarida keltirilgan shaharlardan dastlab Buxoro toponimiga

oid ma’lumotlar Abul-Hasan Nishopuriy “Xazoin ul-ulum” kitobida keltirganki, Buxoro shahri, garchi oradan Jayhun daryosi o‘tgan bo‘lsa ham Xuroson

shaharlaridan hisoblanadi. Ahm ad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoro ko‘p ismlarga ega deydi va o‘z kitobida Numijkat degan ismni keltiradi. Yana boshqa bir joyda men uni Bumiskat deb keltirilganini ko‘rdim. Boshqa bir joyda arab tilida “Madinat us-sufriya”, ya’ni “Mis shahar” va yana boshqa bir joyda arab tilida “Madinat ut-tujjor”, ya’ni “Savdogarlar shahri” deb yozilgan. Buxoro degan nom u nomrlarning hammasidan mashhurroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko‘p nomga ega emas.

“Buxoro tarixi”da keltirilgan ayrim qishloqlar izhohi ham shu davrga oid o‘ziga xos ma’lumotlarni beradi. Jumladan, asarda keltirilgan joynomlari:

Karmina - Buxoro qishloqlari jumlasidan bo‘lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi; xiroji Buxoro xirojiga qo‘shiladi. Uning o‘ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor; unda masjidi jome barpo etilgan. Karminada adib va shoirlar ko‘p bo‘lganlar. Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karminani “Bodyayi xurdak” (“Ko‘zacha”) deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha o‘n to‘rt farsangdir. Karmina hozirgi Navoiy viloyatidagi Karm ana shahriga to‘g‘ri keladi. Taniqli rus akademigi V.V. Bartol’d Karmana toponimini “Airmaniya” - Armanistonga o‘xshash, deb izohlaydi. Shuningdek, toponim qadimgi turkcha “karman” - “qishloq” (qadimgi shahar) so‘zidan yasalgan, degan fikrlar ham mavjud. Lekin bu fikr bizningcha to‘g‘ri emas. Chunki, karman so‘zi hozirgi rus tilida ham mavjud bo‘lib “hamyon” degan ma’noni bildiradi. Atoqli o‘zbek toponimisti S. Qorayev esa Bodyayi Xurdak asli “Ko‘zacha” emas, balki “kichik dasht”, “kichik cho‘l” demakdir, degan xulosalarni beradi. Chunki, bodya so‘zining asl ma’nosi “cho‘li biyobon” deganidir.

Nur - katta joy. Unda masjidi jome bor. U ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo‘ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeyinlardan (Muhammad payg‘am barni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan (sahoba) larni ko‘rgan kishilar) ko‘p kishilar u yerga dafn etilganlar. Bu

qishloq hozirgi Nurota shahriga to‘g‘ri keladi. Nurota toponimi esa olimlar ta’kidlashicha mog‘ulcha “nuru” - “tog‘”so‘zidan olingan ekan. Bu fikr haqiqatdan yiroqroq. Sababi, mog‘ullar kirib kelguniga qadar ham joy shunday atalgan.

Tavois- tarixiy adabiyotda ko‘proq uchraydigan to‘g‘ri atalishi “Tavovis” dir. Bu Buxoro viloyatlaridan bo‘lib, (asl) nomi Arquddir. U Raboti Malik cho‘lining g‘arbida joylashgan. Unda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar. Zebu ziynatga berilganligidan har bir kishi ziynat uchun uyida bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar (bu yerga kelishdan) ilgari tovusni ko‘rm agan ekanlar, bu yerda ko‘p tovuslarni ko‘rib, u qishloqni “Zot ut-tavois” - “Tovuslar egasi” deb ataganlar, uning asl nomi esa unutilgan; undan keyinroq “zot” so‘zini tashlab, Tavois deb qo‘ya qolganlar. Unda masjidi jome bor, u katta bir shahristonga ega, qadimgi vaqtlarda (har) kuz faslida u joyda o‘n kun bozor bo‘lar edi. U bozorda shunday rasm bor ediki, (boshqa bozorlardan surilib qolgan) har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo‘lsa hammasi bu bozorda sotila berar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkoni bo‘lmas edi; na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi. Har yili (shu o‘n kunda) bu bozorga masalan, Farg‘ona, Choch (Toshkent shahrining ilk o‘rta asrlardagi nomi) va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib qaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi.

Tavois Samarqandga boriladigan katta yo‘l ustida bo‘lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir.

Iskajkat. U bir katta kuhandizga (“kuhdiz” - qal’a) ega. Uning aholisi boy kishilar bo‘lganlar; boyliklari dehqonchilikdan b o‘lmagan, chunki u qishloqning yerlari harob bo‘lib, yaxshi yerlari ming juftga (ya’ni “qo‘sh ho‘kiz”, yer o‘lchovi sifatida ishlatilib, bir faslda bir juft ho‘kiz bilan ishlov berib hosil olinishi mumkin bo‘lgan yer miqdorini anglatadi) yetmagan. Uning hamma aholisi savdogarchilik bilan shug‘ullangan. U joyda ko‘p bo‘z (to‘qib) chiqarilar edi. Har payshanba kuni u yerda bozor bo‘lardi. U qishloq sultonlikka tegishli mulklar jumlasidandir. Dog‘uniy u joyga bir hammom qurdi va daryoning quyi tomon qirg‘og‘ida bir

burchakka katta qasr bino qildi. U qasrning qoldiqlari bizning zamonamizgacha saqlanib kelgan edi. Dog‘uniy qasri deb ataganlar; uni daryo suvi vayron qildi. Sahl ibn Ahmad Dog‘uniy uchun Iskajkat aholisi har yili o‘n ming dirham soliq to‘lashi shart edi. Bu soliqni ham merosxo‘larga taqsim qilib to‘lar edilar. Keyinroq borib aholi ikki-uch yil davomida soliqni to‘lamadi va podshohga m urojaat qilib undan yordam so‘radi. Sahl ibn Ahmadning merosxo‘rlari amir Ismoil Somoniy davrida hujjat ko‘rsatdilar, u hujjatni ko‘rib, to‘g‘ri topdi. Lekin (ikki oradagi) xusumat uzoq davom etib shaharning ulug‘ kishilari qishloq aholisi bilan Dog‘uniy merosxo‘rlari orasiga tushib, bir yuz yetmish ming dirhamga sulh qildilar. Aholi qishloqni sotib olib (Dog‘uniy merosxo‘rlariga) soliq to‘lashdan qutuldilar va u mablag‘ni to‘ladilar.

Sharg‘ qishlog‘i Iskajkat ro‘parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog‘ va bo‘sh yerlar yo‘q u daryoni Rudya Somjan deb ataganlar. Hozirda esa Sharg‘ daryosi, ba’zi kishilar bo‘lsa, Harom kom deydilar. Bu ikki qishloq o‘rtasid a dara ustida katta ko‘prik bor edi. Sharg‘ qishlog‘ida hech vaqt masjidi jome bo‘lm agan. Muhammad ibn Ja’far (an-Narshaxiy) ning aytishicha, (bu joy aholisining) qadimgi vaqtlarda bir bozori bo‘lib, har yili qish o‘rtasida o‘n kun davom etar, (kishilar) uzoq viloyatlardan kelib savdo qilar edilar. Ko‘proq u joydan shinni bilan tayyorlangan mag‘izli holva chiqar edi, yana u joydan ko‘proq chiqadigan narsa qintoriy' va cho‘p (yog‘och)lar, tuzlangan baliq, yangi baliq, qo‘y va qora ko‘l terilaridan tikilgan po‘stinlardan iborat edi; bu yerda ko‘p savdo bo‘lar edi. Bu Sharg‘ va Iskajkat Buxoroning eng yaxshi qishloqlari bo‘lgan.

Zandana. Bu qishloq katta qal’aga, ko‘pgina bozor joylarga m asjidi jomega ega. Bu yerda har juma kuni nam oz o‘qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda (to‘qib) chiqariladigan narsa - bo‘zni “zandaniychi”, ya’ni “Zandana qishlog‘idan chiqadigan” deb ataydilar. Bu yerda u ham yaxshi, ham ko‘p bo‘ladi. Shu xil bo‘zdan Buxoroning ko‘p qishloqlarida to‘qiydilar va buni ham “zandaniychi” deb ataydilar. Chunki u avvalo shu qishloqda to‘qib chiqarilgan.

S.Qorayevning fikricha, bu hozirgi Peshku tumanidagi Zandoni qishog‘i bo‘lsa kerak. Bu tuman Buxoro viloyatiga qarashli bo‘lib, 1989-yil 17-mayda tashkil

etilgan. Mahalliy toponimistlarning fikricha, tuman nomi (“peshku”) “Peshi kuy” - “Katta yoki ustidagi joy” ma’nosini bildiradi va shu nom dagi qishloqqa nisbatan ishlatilgan. Bu atamaning “peshikoʻh” - “oldindagi togʻ” varianti ham bor.

Vardona. Bu katta bir qishloq boʻlib, kuhandizga, katta va m ustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podshohlarning turarjoylari boʻlgan, (lekin) hozirda unda podshoh oʻtiradigan qarorgoh yoʻq. Vardona Buxoro shahridan qadimroq (barpo boʻlgan) uni Shopur Malik bino qilgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kun bozor boʻlib savdogarlar koʻp kelar edilar. U yerdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil “zandaniychi” boʻlgan. Vardona toponimini Vardanze, Vardanzi, Vardani shakllari ham bor. Pahlaviy tilida “vard” - gul, “on” koʻp lik qoʻshim chasi, “ze” esa yer ya’ni “Vardonze” - “Sergul joy ” degan ma’noni bildiradi. Yana bir boshqa man’bada esa bu toponim sugʻdcha “var” soʻzi bilan bogʻlanib, “qoʻrgʻon, podshohlarning maxsus qarorgohi” degan ma’nolarni bildiradi, deb koʻrsatiladi. Bu joy hozirgi Buxoro viloyati Shofirkon tumaniga toʻgʻri keladi.

Afshina. Katta shahristonga va m ustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga m ansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor boʻladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari m adrasa talabalariga vaqf qilingan. Qutayba ibn Muslim u joyda masjidi jome bino qilgan. Muhammad ibn Vose ham bir masjid qurdirgan. Bu yer duo qabul boʻladigan joy. Odamlar shahardan u joyga boradilar va uni tabarruk deb hisoblaydilar. Hozirda Romiton tumanidagi Afshana qishlogʻidir.

Barkad. Bu qadimiy va katta bir qishloq; bir katta kuhandizga ega. Bu qishloqni “Barkadi alaviyon” - “Ali avlodnning Barkadi” deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoil Somoniy bu qishloqni sotib olgan va olti boʻlakka ajratib, undan ikki boʻlagini Ali va Ja’far avlodiga, ikki boʻlagini darvishlarga va ikki boʻlagini oʻz merosxoʻrlariga vaqf qilgan.

Romtin (Romitan). Bu katta bir kuhandizga ega va mustahkam bir qishloq boʻlib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba’zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ata-(Qintoriy Doziyning lugʻatida “quntoriy” talafuzi bilan oʻqilib “oʻq-yoy” yoki

“nayza yog‘ochi” deb tarjima qilingan “Muhiti A’zam”da esa “qintoriy"ga “tutatiladigan ud” ma’nosi, “ Burxoni qote” da yong‘oq daraxtining ildizi ichida paydo bo‘ladigan yelimga o‘xshash narsa deb izoh berilib, uning qon to‘xtatish xususiyati bor deyilganlar) ganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turarjoylari bo‘lgan, (keyinroq esa) Buxoro shahari bino bo‘lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo‘lganlar. (Bu yerlar) islom davlatiga o‘tganda ham shunday bo‘lib turgan. Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganida shu qishloqda turgan bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan, Forsiylam ing kitoblarida aytilishicha, Afrosiyob ikki m ing yil yashagan. U jodugar bo‘lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o‘zining Siyovush nomli kuyovini o‘ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o‘g‘li bo‘lib, u otasining qonini lalab qilib ko‘p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog‘ini hisor qilib turgan. Kayxusrav o‘z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o‘rab turdi va uning ro‘barasiga bir qishloq bino qilib, u qishloqni Romush deb atadi. Uni yaxshiligidan Romush deganlar. Bu qishloq hozirgacha obodondir. Kayxusrav Romush qishlog‘ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi: otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonalarining eng qadimiysidir.

“Buxoro tarixi”ning Buxoroda bosilgan nusxasida Romtin (Romitan) qishlog‘ining kelib chiqishi to‘g‘risida bir rivoyat keltiriladi. Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan halos bo‘ldi va bu yerga “Oromitan” - “Tan oromi” deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq buni Romtin deganlar. L.S. Tolstova Romitan toponimini ikki qism ga ajratib, birinchi qism Ro - forscha rax “yo‘l”, ikkinchisi mitan - qabila nomi bo‘lsa kerak deb izohlaydi va Rom itan “Mitan qabilasining y o‘li” degan ma’noni anglatadi. Lekin bizningcha, bu fikr haqiqatdan yiroqroq. Chunki, mitan qabilalari bizning hududlarda yashagani yoki yurish qilgani to‘g‘risida aniq ma’lumotlar yo‘q. Shuningdek toponimning ikkinchi qismi etnik nom bo‘lmay, balki o‘rta asr fors tiliga mansub “Matean” - “yashash joyi, uy,

qishloq” so‘zi bilan aloqador bo‘lishi mumkin. Bunda Romitan - “yo‘l ustidagi qishloq” ma’nosini anglatadi.

Varaxsha. Bir nusxa (kitob) da Varaxsha o‘mida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlar jum lasidan bo‘lib. Buxoro singari edi: u Buxoro shahridan qadim iyroqdir, u podshohlar turadigan joy bo‘lib, mustahkam hisorga ega bo‘lgan, chunki padshohlar (u hisomi) bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahrining devori singari devori ham bo‘lgan. Rajfandun yoki Varaxshaning o‘n ikkita arig‘i bor. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda obod bir qasr bo‘lgan, shundayki, go‘zallikda uni nam una qilib k o‘rsatar edilar. Unda Buxorxudot bino qilgan bo‘lib, qurilganiga m ing yildan ortiqroq vaqt o‘tgan.

Varaxsha toponimi kelib chiqishi xususida aniq ma’lumot yo‘q. Manbalarga ko‘ra, Varaxsha ham ikki qism dan “var” - qo‘rg‘on , qal’a, axsha yoki axsi qabila nomidan tashkil topgan va “axsi (axshi)lar qo‘rg‘oni yoki qal’asi” ma’nosini anglatadi.

Baykand. Buni shaharlar jum lasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi, biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergan emaslar. Agar biror bavkandlik Bag‘dodga borsa va undan “sen qayerdansan?” deb so‘rasalar, u Baykanddanman degan, Buxorodanman degan emas. Baykandda katta masjidi jome va oliy imoratlar bor. Muhammad ibn Ja’far (an-Narshaxiy) o‘z kitobida

keltirishicha, Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo‘lgan. Buning sababi shuki, Baykand katta va yaxshi joy bo‘lib, har bir qishloqning aholisi u yerda bir rabot qurib unga bir to‘da kishilarni joylab qo‘ygan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish faslida kofirlar (yig‘ilib) hujum qiladigan vaqt bo‘lganida har bir qishloqdan u joyga ko‘p xalq to‘planib g‘azot qilganlar. (Shunda) har bir qavm o‘z rabotiga kelib tushgan. Baykand aholisi hammasi savdogar bo‘lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orqali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo‘lganlar. Qutayba ibn Muslim Baykand judam ustahkam bo‘lganligi sababli uni olishda ko‘p qiyinchilnklar ko‘rdi. Uni jezdan qurilgan shahriston der edilar. U Buxoro shahridan qadimiyroq. Bu viloyatda bo‘lgan har bir podshoh, o‘zi uchun Baykandni turarjoy qilar edi. Farabdan

Baykandgacha o‘n farsang masofa biyobon b o‘lib, bu biyobon qumlik (cho‘l)dir. Haromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qam ishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi: bulami “Borgini farox” – “Keng havz” deydilar va Qaroko‘1 deb ham ataydilar. Ishonchli kishilardan eshitganmanki, u (ko‘l)ning kengligi yigirma farsangdir. "Masolik va mamolik" kitobida aytilishicha, uni “Buhayrayi Somjan” - “Somjan ko‘li" deb ataydilar, Buxoro suvining ortiqchasi ham o‘sh ajoyga yig‘iladi. Unda suv jonivorlari bo‘ladilar; butun Xurosonda bu yerdagidek miqdorda qush va baliq tutilmaydi.

Farab. Bu shaharlar jum lasidan bo‘lib, alohida joy larg a ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtlarda esa yarim farsang keladi. Goho shunday ham bo‘ladiki, Jayhunning suvi (toshib) Farabgacha borib yetadi. Farabda katta masjidi jome bor, uning devorlari va tomi pishiq g‘ishtdan bo‘lib, unga sira yog‘och ishlatilmagan. Farabning bir amiri bor ediki, u biror (zaruriy) hodisa yuzasidan ham Buxoroga kelishni lozim topm as edi. (U yerda) bir qozi bor ediki, u Shaddod kabi zolimona hukmlar yurgizar edi. Buxoro qishloqlarnning soni ko‘p. Bu (aytib o‘tilgan) bir nechtasi mashhurroq va qadimiyroq bo‘lgani uchun ular haqida to‘xtab o‘tdik.

Demak, Narshaxiy tom onidan asarda Buxoroda mavjud bo‘lgan yirikroq va qadimiyroq jami 15 ga yaqin qishloq va shahar nomlari keltirilgan. Buxorodan qadim iyroq b o‘lg an Nur, Romtin, Vardona, V araxsha qishloqlari esa alohida aham iyatga ega.

Asarda shu bilan birgalikda 12 ta turli ariq va anhor nomlari ham keltirilgan. Jumladan: Birinchisi, Karmina anhori: bu katta anhor, ikkinchisi, Shopurkom anhori, Buxoronnng avom xalqi buni Shofurkom deyishadi. Hikoyalarda keltirishlaricha, sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Kisro‘ning farzandlaridan biri o‘z otasiga achchiq qilib, bu viloyatga kelgan; uning nomi Shopur edi. “Pur” Eron tilida “o‘g‘il” demakdir. U Buxoroga kelganida Buxorxudot uni yaxshi qabul qildi. Shopur ov qilishni yaxshi k o‘rar edi. Bir kuni ovga chiqib u (Shopurkom) tomoniga borib qoldi. U vaqtlarda o‘sha yerda hech bir qishloq va obod joy bo‘lmay, yayloq va ov qilinadigan joy bo‘lgan. Bu yer Shopurga yoqib qolib, uni obod qilish uchun

ulush y o‘sin id a o‘zig a berilishini Buxorxudotdan so‘ragan. Buxorxudot bu mavzeni Shopurga berdi va Shopur u yerda katta anhor qazitib, uni o‘z nomi bilan, ya’ni “Shopurkom” deb atadi va bu anhor (bo‘ylab) qishloqlar va qasr bino qildi. Bu tevarakni “Obaviya qishloqlari” deydilar. Shopur yana Vardona qishlog‘ini bino qildi va qasr qurib. uni o‘zi uchun turarjoy qilib oldi. (Shunday qilib) u yerda katta bir m ulk paydo b o‘ldi va Shopum ing vafotidan keyin qishloqlar uning avlodiga m eros bo‘lib qoldi.

Uchinchi anhorni Harqonat ul-Ulyo, to‘rtinchisini Harqonrud, beshinchisini Ovxatfar, bu g‘oyat keng va katta anhordir, oltinchisi Somjan, yettinchisini Baykonrud va sakkizinchisini Farovzi Ulyo deydilar; bu (sakkizinchi) anhor bo‘ylab ko‘p qishloqlar joylashgan. To‘qqizinchisini Faroviz is-Suflo yoki Komi Damyus ham deydilar, o‘ninchisini Arvon, o‘n birinchisini Kayfur, o‘n ikkinchisini Rudi Zar deydilar. Bu shaharni (sug‘oruvchi) anhordir.

Biz aytib o‘tgan anhorlarning hammasi sersuv bo‘lib, ular (yoqasi bo‘ylab) ko‘p qishloqlar o‘m ashgan. Aytishlaricha, ham m a anhorlam i xalq qazigan. ammo Ovxatfar anhorining qazilishida u yerning xalqi zahmat chekmagan, uni suvning o‘zi o‘yib qazigan. Hozir buxoroliklar uni Rudi Nafar deydilar.

3.4. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma” asari va unda O‘rta Osiyo toponimlari.

“Boburnoma" XV asrning oxiri va XVI asm ing boshlarida O‘rta Osiyo. Afg‘oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmat baho manbadir. Professor H.Hasanovning ta’kidlashicha, "Boburnoma"da 1000 ga yaqin joy nomlari tilga olingan. O‘rta Osiyoga doir nomlarning ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi: Farg‘ona, Sam arqand, Badaxshon, Olmaliq, Turkiston, Andijon, Buxoro, So‘x, Axsi, Koson, Ars, O‘ratepa, Xovos, Hisor, Ispara, Oqqapchig‘ay, Zomin, Qorako‘l, Anna, Kandirlik (dovon), Qarshi, Shahrisabz. Qorabuloq, Yom, Pop, Darg‘ali, Namangan, Sangzor, Alay (Oloy), Miyonkol, Piskent, Ilon o‘tti. Ohangaron va hokazo. Ba’zi birlari esa shaklan o‘zgarib yetib kelgan: Olmatu – Olma ota (to‘g‘risi - Olm ati), Marg‘inon - Marg‘ilon, Toshkand - Tashkent. Chir suyi - Chirchiq. Bizak - Jizzax, Qubo - Quva,

O‘zgand - O‘zgan, O qar tuzi - Og‘ar (tekislik), Tiriaiz - Termiz, Quzor - G‘uzor, Chorju - Chorjo‘y kabi.

Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqacha nom olgan: Sayxun daryosi, Xo‘jand suyi - Sirdaryo. Baroko‘q - Taxti Sulaymon va boshqalar.

"Boburnoma"dagi joy nomlaridan ko‘pchiligining ma’nosini o‘zbek va tojik tillari yordamida tushunsa bo‘ladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o‘zi tushuntirib o‘tgan. O‘sha davrda Zarafshon Ko‘hak deb atalgan: “Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. Ko‘hak derlar. Bu rudm uning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar” (Ko‘hak tojikcha so‘z bo‘lib, ko‘h - tog‘, -ak kichraytirish affiksi, “tog‘cha”, ya’ni “tepalik” demak, hozir Cho‘ponota deb ataladi). Asarda Konigil to‘g‘risida aytilgan gaplar ham e’tiborga molik. Ba’zi birovlar uni Konigil, ya’ni “tuproq koni” desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro‘zbekxon “Mehmonomayi Buxoro” asarida Konigul, ya’ni “gullar koni” deydi. Bobur esa “ohangning oti Koniobgir" deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki, Siyob suvining “atrofi tamom obgir”, ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi "Boburnoma" da bir necha joyda uchraydi). Demak, Koniobgir asta-sekin o‘zgarib Konigil shaklini olgan.

Keshning Shahrisabz deb atalishining sababi: “Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrisabz ham derlar".

Qarshi shahri nom ining etim ologiyasi haqida "Boburnoma"da bunday deyilgan: “Qarshimo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. Qadimgi turk tilida qarshi “ko‘shk”, “saroy”, “xon qarorgohi” demak. Lekin

XV - XVI asrlarda bu so‘z “mo‘tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara” ma’nosini olgan.

Bobur Kashmir etimologiyasini quyidagicha taxmin qiladi: “Bu tog‘ elini Kasderlar, Xotirg‘a yettikim, Hindiston eli “shin”ni “sin” talaffuz qilur (ya’ni sh tovushini s talaffuz qiladilar), chun bu tog‘da mo‘tabar shahar Kashmirdur, balki Kashmirdin o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitil mavdur. Bu jihattin boiaolurkim. Kashmir demish bo‘lg‘aylar”.

Himolay tog‘larini Bobur bunday izohlaydi: “Butog‘ni hind eli Savolak parbat derlar, hind tili bila “savo” – rubl (chorak), “lak” - yuz ming, “parbat” - tog‘, ya’ni ru1 va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay”.

Joy nomlarining grammatik xususiyatiga kelganda shuni qayd etish kerakki, “Devonu lug‘otit turk” da uchraydigan toponimlarning aksariyati bir komponentli (bir tarkibiy qismli) bo‘lsa, “Bobumoma”dagi joy nomlarining ko‘pchiligi ikki kom ponentlidir. Affiksli (qo‘shimchali) toponimlar ham anchagina uchraydi. Affikslardan, -aa (yon), -ob, -tu, -ot eng harakterlidir: Ohangaron, Bog‘izag‘on, So‘zangaron, Charm garon, Valiyon, Bomiyon. Seyoron va boshqalar. Andarob. Serob (Sarob), Tangob. Murg‘ob, Nilob. Balxoli, Astarob, Xushob, Siyofaob, Sarxob, Borixoli kabi, Olmotu, Chita, Sam tu (Sham tu), Chatu, Ulobatu, Neratu. Jarg‘ota, Qammotu. Qo‘ratu va hokazo.

“Boburnoma” da geografik atamalar shu qadar ko‘pki, ularning ko‘pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba’zi birlari butunlay iste'm oldan chiqib ketgan. Jar, yayloq (yaylov), tangi. tog‘, tepa, dara, dasht, koriz, dovon, sahro, soy, shoxob, orol, sel kabi atamalar o‘zb ek geografik adabiyotida keng ishlatiladi. Kent, pushta, tuz, o‘lang, takoh, bandar, band, qasaba, o‘rdu (o‘rda), yom, chordara, qorasuv kabi atamalar asosan joy nomlari tarkibida qolgan yoki boshqa tillarda, chunonchi, tojik tilida uchraydi. Burong‘or, juvong‘or, tunqotar kabi harbiy atamalar ham bir qancha toponimlar hosil qilgan.

Boburnomada tilga olingan asosiy geografik atamalar quyidagilar: tarnov (ariq), kasaba (shaharcha), kent, ko‘hpoya (tog‘ etagi), pushta (tepalik), jar, yayloq (yozgi qo‘nish joyi), botqoqlik, qorasuv, tuz (tekisiik), tangi (tor dara). obgir (botqoqlik), qo‘ruq (qo‘riqxona), o‘rchin (okrug), uchma (tik yonbag‘ir). voz (ko‘klam), dobon (dovon), ko‘tal (dovon, oshuv), julga (vodiy, soylik), qol (soy), quruq qo‘l (quruq soylik), dara, soy, tepa, tum shuq, bandar (savdo shahri), takob, tagob (o‘zan , zax yer), pargana (viloyat), band (dovon, tog‘ yoli), dara, parcha tog‘, gardona (bo‘yin), liyor (yo‘l), suvsiz qo‘l (soylik), o‘lang (o‘tloq, ko‘kalam zor), aym oqot, quruq rud (quruq o‘zan), tog‘ kamari, chig‘ir (chiyir, tor yo‘l), kim son

(oltin), chopqun (bo‘ron), uchma (tik yonbag‘ir), langat, yozi (dala, dasht), o‘rdu (o‘rda), dasht, kadxudo, oila (xo‘jalik), shoxob, jar, yakraqa (yolg‘izoyoq yo‘l), sahro, biyobon, balandi (tepalik), koriz, tog‘ etagi, yurt (qo‘n ish joyi), ushoq tog‘lar, jangal (o‘rmon), la’limi (bahorikorlik), jazoyir (orol), birinj (bronza), sel, ko‘ra, chiyni (chini), qiyo (qoya), yom chi (yom xodimi), chordara (korovulxona), to‘qay (daryo tirsagi), orol, jar, balchiq, sol.

O‘simlik hamda hayvonlarning bundan besh asr oldin qanday nomlar bilan atalishi ham toponimika uchun ahamiyatlidir. Bobur zamonida kark (karkidon), qulon, bug‘u mara, kiyik kabi hayvonlar juda serob bo‘lgan va bir qancha joylar shu hayvon nomlari bilan atalgan. Karkxona. Qulonlisoy, Maralboshi, Kiyikli va hokazo.

Bobur davridan hozirgacha deyarli o‘zgarmagan hayvon nomlari: bo‘dana (bedana), kiyik, maral, Qulon, qo‘ton, qoz (g‘oz), tovuq, qarqara, qarchig‘ay, tuyg‘un (oq qarchig‘ay), fil, arqar, kish (sobol), shag‘al (chiyabo‘ri), sor. olaqarg‘a, qarlug‘och (qaldurg‘och), zog‘cha, itning kuchugi (it-vachcha) va boshqalar. Ba’zi hayvonlar hozir boshqacharoq nom bilan ataladi: ars - oqsuvsar yoki oqsichqon, govmish - buyvol, kark - karkidon, bag‘riqaro - qorabovur, buqalamun - hameleon, uy - sigir va hokazo. Bulardan tashqari shahboz (qush), dang (qush), tupchoq ot, sahroyi qo‘tos, yozi galahrasi, shorak, dariy, durroj, pulpakor, sahroyi tovuq, chalsiy, shorn, chir, harchal, charz, lug‘dor, soras (tevatum a), uqor, bo‘zak, zumaj, shahroh, sherri obiy, kels, sepsar, xuki obiy, karyol kabi ko‘pdan ko‘p hayvon nomlari tilga olingan. Bular asosan Afg‘oniston va Hindistonda uchraydigan hayvonlar.

“Bobumoma”da o‘simliklardan sebarga, tobulg‘u (tovilg‘i), qorayig‘och (qayrag‘och), chilg‘o‘za, sanjid, norunj (apelsin), turunj, amluk, emluk yig‘ochi, butaki (betaga), xanjak (janjaq), qulon quyrug‘i, ko‘k shivoq (shuvoq), sunbul, omonqora, bodinjon (baqlajon), kish-mish-maviz (mayiz), tol, g‘aynolucha, funduk, biqi, g‘o‘za, limu (limon), qizilgul (atirgul), obnus yig‘ochi kabilar qayd qilingan. Bu o‘simlik nomlaridan ko‘plari hozir boshqacha ataladi.

Bobur juda ko‘p urug‘ va qabilalar nomlarini tilga oliadi. Shunisi harakterliki, kishi ismi bilan birga ko‘pincha uning qaysi urug‘dan ekani aytib o‘tiladi: Masalan, Ibrohim soru minglig‘ urug‘idan edi. Amirmo‘g‘ul, Zunnun arg‘un va o‘gil Shoh Shujo‘ arg‘un, Qosim qavchin, Oq qo‘vluk Uzun Hasan, Hamzabiy mang‘it, Shayx Abdulla barlos, Qosim jaloyir, Tohir do‘lday va hokazo. Barlos, jaloyir, do‘lday qabilalari ayniqsa tez-tez tilga olingan, chunki Bobur qo‘shinlarining asosini ana shu uch qabila vakillari tashkil etgan. Bobur qabilalarning qaysi tilda gaplashishiga ham e'tibor bergan. “Boburnoma” dagi kishi nomlari maxsus tadqiqot ma’nbayidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit Turk” asari toponomika fani uchun ahamiyatini aytib bering.

2. “Hudud ul-olam”, “Buxoro tarixi”, “Qonuni Ma’sudiy” “Boburnoma” kabi tarixiy asarlarda republikamiz hududida mavjud joy nomlarini geografik jihatdan tasniflab bering.

3. Markaziy Osiyolik olimlar asarlarida nomi keltirilga etnotoponimlar haqida gapirib bering.

4-Mavzu: O‘rta asrlar O‘rta Osiyo tarixiga oid geografik joy nomlari toponimiyasi oid taqdqiqotlari.

Reja:

4.1-§. *O‘rta asrlar O‘rta Osiyoda toponimika va joy nomlarining umumuiy tasnifi.*

4.2-§. *O‘rta Osiyolik olimlarining toponimikaga oid tadqiqotlari.*

4.3-§. *O‘rta Osiyo o‘lkasidagi geografik nomlarni o‘rganishda O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari.*

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Atoqli ot, toponim (geografik nom), “Buxoro tarixi”, etimologiya, O‘zbekiston olimlari, toponomık tadqiqot.*

4.1-§. *O‘rta asrlar O‘rta Osiyoda toponimika va joy nomlarining umumuiy tasnifi.*

Dunyoda hamma narsaning nomi bor. Tog‘ deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog‘ tushuniladi. Ko‘l ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Bunday so‘zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, ob’ektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Samarqand deganda respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go‘zal tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan O‘zbekistonning ko‘hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, toponim (geografik nom) - avvalo so‘zdir. Biroq u oddiy so‘z emas, birinchidan, atoqli ot. Ayni paytda ko‘pgina toponimlar, hatto tilshunos olimlar uchun ham tushunarsiz. Xorazm, Samarqand, Farg‘ona, Namangan kabi nomlarning kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo‘lsa ham, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon noma’lum.

Joy nomlari shu qadar ko‘pki, hamma toponimlarning ham ma’nosiga etib bo‘lmaydi. Nom qancha qadimiy bo‘lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo‘ladi. Hamma nomlardan ma’no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o‘zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo‘lgan ma’naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir. Biz uchun noaniq bo‘lgan geografik nomlar ma’nosini kelajak avlodlar tushunib oladi. Ma’nosidan qat’iy nazar, barcha nomlar manzil

vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funksiyasi adreslik bo‘lib xizmat qilishdir. Demak, joy nomlari bir ob’ektni ikkinchi ob’ektdan farq qilish uchun, bu ob’ektning o‘rnini aniq ko‘rsatish uchun zarur.

Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko‘pdan-ko‘p axborot - tarixiy, geografik, lingvistik ma’lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma’nosiz nom bo‘lmaydi. Lekin ko‘pgina joy nomlarining ma’nosi yo‘qolgan, aniqrog‘i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan.

Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari - tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar. Geografik nomlarga qarab o‘tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o‘zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishini bilib olish mumkin.

Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O‘rta Osiyo, jumladan o‘zbek halqining etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o‘lkaning tarixiy toponimiyasida iz qoldiigan. Buni O‘rta Osiyoning o‘tmishda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug‘-qabila nomlarida ham ko‘rish mumkin. Sarmat, Sirak (Siroq), To‘xar, Alan, Mitan kabi toponimlar o‘lkada turli davrlarda yashagan qadimiy xalqlar va qabila nomlarining in’ikosidir. Har bir mamlakatda, viloyat, har bir tumanda, shaharda va hatto qishloqda qanchadan-qancha toponimlar bor.

1. O‘rta asrlarda toponimika va joy nomlarining tasnifi.

Geografik nomlarning ma’nosini, ularning kelib chiqishini, o‘zgarishini bilishga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Toponimikaga oid ma’lumotlar qadimgi dunyo olimlari asarlarida ko‘plab uchraydi. Chunonchi, Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya”, Pomiponiy Melaning “Xorografiya”, Pliniyning “Tabiiy tarix” nomli asarlarida ko‘pgina toponimik ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Sharqda, jumladan, O‘rta Osiyoda ham toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Abu Rayhon Beruniyning

“Qonuni Ma’sudiy”, “Hindiston”, “Saydana”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Ibn Sinoning “Dengiz qirg‘oqlari” asarlarida toponimikaga oid juda ko‘p ma’lumotlarni topish mumkin. Toponimik ma’lumotlar muallifi noaniq “Hudud al - olam” nomli geografik asarda ham mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari mumtoz o‘lkashunoslik asari bo‘lishi bilan birga unda toponimikaga oid juda ko‘p ma’lumotlar bor.

X - XI asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy o‘z davrining buyuk olimi - astronom, matematik va geograf bo‘lgan. U 973 yili 4 sentabrda Xorazmdagi Kot (hozirgi Beruniy) shahrining chekkasida tug‘ilgan va 1048 yilda 75 yoshda G‘aznada vafot etgan. Uning ilmiy merosi orasida toponimikaga oid ma’lumotlar ko‘p uchraydi. Uning geografik va toponimik merosi “At-Tafhim”, “Qonuni Ma’sudiy”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Minerologiya”, “Osori boqiya”, “Saydana” kitoblarida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlari mavjud. Chunonchi, yunonlar va arablar turkiy so‘zlarni buzib, o‘z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari oqibatida ayrim so‘zlarning ma’nosi o‘zgarib ketganini ta’kidlaydi. Masalan, turkiycha tosh so‘zini arablar shosh deb talaffuz qilishidan ma’no o‘zgarganini aytadi. “Saydana” kitobida 400 dan ortiq qishloq, tog‘, daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. “Qonuni Ma’sudiy” kitobida 603 ta joy nomi ko‘rsatilgan.

Abu Rayhon Beruniy Mo‘lton shahri nomiga quyidagicha izoh bergan: “Mo‘ltonning (asl) nomi Koshiyapura edi. Keyin Hansapura, keyin Bashapura, keyin Sanbhapura va keyin Mo‘lastxona, ya’ni “Asl joy” deb nomlanadi; mo‘l - “asl”, tona - “joy” demakdir” deydi (H.Hasanov, 1985). “Mineralogiya” kitobida konlarning geografik tarqalishi, qaysi toshning qaysi tog‘, qaysi daryo vodiysi va qaysi qishloqdan qazib olinishi haqida yozishi bilan birga ayrim tosh, minerallarga izoh ham bergan.

Beruniy tomonidan yaratilgan dunyo xaritasida qirqqa yaqin joy nomlari ko‘rsatilgan. Beruniyning zamondoshlari ma’lumotlariga ko‘ra olim 170 dan ko‘p

asar yozgan, ammo ularning bir qismi, jumladan “Xorazm tarixi”, “Iqlimlar taqsimoti” nomli yirik asarlari bizgacha yetib kelmagan.

O‘sha davrda ma’lum bo‘lgan Atlantika okeani qirg‘oqlari Tinch va Hind okeani, yettinchi iqlim mamlakatlari - shimoliy o‘lkalar ko‘llar va dengizlar, shaharlar, barcha turdagi geografik nomlar izohi, uning asarlarida tasvirlangan. Chunonchi, Jurjon (Kaspiy) dengizi bu haqiqatda Hazar dengizidir. Olimning yozishicha dengizning sharqiy tomonida Jurjon yerida, Obaskun degan bandar (port) borki, dengiz ham uning nomi bilan Obaskun deb ataladi. Dengiz qirg‘oqlaridagi viloyatlar nomi bilan yuritiladi. Ammo bizga Xazar nomi bilan ma’lum qadimiy xalqlarda Jurjoniya nomi bilan ma’lumdir, Ptolomey uni Irqoniya (Girkoniya) dengizi deb atagan. Bu dengiz boshqa dengiz bilan qo‘shilmaydi. Mana Beruniyning “Qonuniy Mas’udiy”, “At-Tafhim” asarlarida berilgan Kaspiy dengizi - toponimining geografik izohi.

Beruniy asarlarida Binkat, Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent, bu yunon mualliflarida Burj al-Xurja qal’asidir. Demak, turkiyda toponim Toshkent, forsiyda Choch, Binkat, arabcha Shosh bo‘lib, barchasining ma’nosi turkiycha Tosh shahri nomining tarjima va o‘sha tilga mos talaffuz etilishidir.

Beruniy Sharhsabz shahrini Kesh shahri, forslar uni Ma’jomat deb yuritgan deb xabar beradi. Sirdaryo etaklaridagi Yangikent (hozirgi G‘azalkent shahri ro‘barasida, daryoning chap sohilidagi xarobalar) turli xalqlarda turlicha atashgan deb yozadi. Mahalliy turkiylar Yangikent -Janiqent deb yuritgan, arablar uni “Qariyat al- xodisa” (Qariyat - qishloq, hodisa - yangi) yoki Madinat al-jadida (Madina shahar, jadida yangi) fors- tojikcha Dehinav deb yuritgani haqidagi aniq misolar orqali izohlagan.

Beruniy asarlarida Sirdaryoning eng qadimgi nomi Xasart daryosi deb qayd qilingan. Miloddan avvalgi davrlarda yunonlar Yaksart deb yozganligi haqida ma’lumotlar bor. Beruniy asarlarida hozirgi geografik xaritalarida o‘zgartirilib yoziladigan yoki butunlay boshqa nom bilan ataladigan toponimlar juda ko‘p.

Masalan, fam al-Asad - sher og‘zi - dahani sher deb yuritilgan joyni hozir Donisher, Zaim va Omuyya – Karki va Chorjuy shaharlari, Mazdubast -

Amudaryodan Sariqqamishga oqqan daryo va boshqalar. Bunday toponimik ma’lumotlar sharq tarixiy geografiyasini o‘rganishda eng ishonchli manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Beruniy o‘zidan 800 yil oldin yashagan Ptolomeyning Amudaryo haqidagi yozganlarini keltirib, Omuyya shahridan yuqorida Balx daryosiga quyilib, keyin Bolqon shahri yaqinida Xazar dengiziga quyilgan degan fikrni bayon qilgan. Xazar esa g‘uz yerlarining chekkalaridan burilib ketadi.

Fam al-Asad nomli joyda suv to‘planib, daryo suvining bir qismi Xorazm bilan Jurjon orasida joylashgan cho‘ldagi Mazdubast deb atalgan daryo o‘zanidan Sariqqamishga oqqanligini xabar beradi. Demak, ulug‘ allomalarning asarlarida jamiyat va tabiat tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib, allomaning geografiyaga doir ilmiy merosi tabiiy muhitning ritmik taraqqiy etish qonuning aniq bir hududga tadbiq etish imkonini beradi.

Muallifi noma’lum “Hudud al - olam” (X-asr) – tarixiy-geografik asar bo‘lib, 982-983 yillarda fors-tojik tilida noma’lum muallif tomonidan yozilgan. Asarda yer kurrasining inson yashab turgan qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlari, mashg‘ulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Qo‘lyozmani 1892 yilda tarjimon Abulfazl Gulpaygoniy Buxorodan topib, 1893 yili sharqshunos A.G.Tumanskiyga bergan. 1930 yili V.V.Bartold “Hudud ul-olam” matnini so‘zboshi va izohlar bilan rus tilida va 1937 yili esa rus sharqshunosi V.F.Minorskiy ingliz tilida nashr etgan.

H.Hasanov ushbu kitob haqida katta maqola yozgan va uning bir qismining o‘zbekcha tarjimasini keltirgan. Kitobda toponimika va terminshunoslikka oid ma’lumotlar ko‘p. Unda Buxoro, Farob, Paykent, So‘g‘d, Tavovis, Chag‘oniyon, Karmina, Dabusiya, Arbinjon, Kushon, Samarqand, Kesh, Termiz, Zomin, Jizzax, Farg‘ona, Axsikat, Qubo, Shosh, Kat, Gurganj va boshqa joylar haqida ma’lumotlar bor.

Asarda keltirilgan ko‘p sonli tarixiy toponimlar esa vatanimiz joy nomlarining naqadar qadimiy ekanligi isbotidir. Umuman olganda kitobda Movarounnahr,

xususan, O‘zbekiston geografiyasi, ayniqsa toponimiyasi haqida talaygina ma’lumotlar olish mumkin.

Muhammad Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” kitobi ham nodir toponimik manba hisoblanadi. Kitobda O‘rta Osiyo xalqlari, xususan Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar, xalqlarning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma’lumotlar bilan birga, o‘sha davrdagi geografik nomlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asarda Rudi Mosaf (Zarafshon daryosi), Afshina, Zandana, Vardana, Varaxsha, Haromkom, Safna, Nur, Xarqonro‘d, Isfana kabi nomlarga batafsil sharh berilgan.

“Buxoro tarixi” kitobida keltirilgan nomlarning qiymati shundaki, unda keltirilgan nomlarning ko‘plari arablar istilosidan oldingi nomlardir. Masalan, asarda Ko‘shki Mug‘on, Mug‘on kabi majusiy nomlar uchraydi, muallif bu viloyatlarda otashparastlarning ibodatxonalari ko‘p bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Abu Abduloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Al-Xorazmiy Xorazmda tug‘ilib o‘sgan va 975-991 yillar Nishopurda yashab ijod etgan. U “Mofotix al-Ulum” (“Ilmlar kaliti”) nomli ikki kitobdan iborat asari bilan mashhur olimdir. Asarning ikkinchi qismi oltinchi bobi geografiyaga bag‘ishlangan va unda geografiyaga doir atamalarning to‘la izohi berilgan. Mazkur bobda Xuroson va Muvorounnahrga doir ma’lumotlar ko‘p. Shaharlarning kengligi (arzi), uzunligi (to‘li) haqida aniq ma’lumotlar bayon qilingan.

Olim yerning ma’lum, “obod” qismi, ekvatordan shimolda joylashganligi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirgan. Arab tilida yozilgan bu asarda Farg‘ona, Xo‘jand, Qashg‘ar, Shom, Ustrushona, Samarqand, Buxoro, Shibirg‘on kabi geografik nomlar ta’riflangan O‘rta Osiyo va Sharq lug‘atshunosligida M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asari katta ahamiyatga ega. Ota bobolari Issiqko‘l bo‘yidagi Borsg‘on shahridan bo‘lgan xizmat taqozosi Qashg‘arga borib qolganlar. Mahmud o‘sha davr hukmronlarining yirik markaz shahari Qashg‘arda diniy bilimlar bilan birga astronomiya, geografiya, matematika va boshqa dunyoviy bilimlarni ham egallagan. Buxoro va Bog‘dodda o‘z bilimlarini mukammallashtirish uchun davom etttirgan. Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasini talqin etish

maqsadida, Mug‘ilistondan Qora dengiz bo‘ylarigacha bo‘lgan keng hududlarda yashagan turkiy qabilalar orasida yurib, ma’lumotlar to‘plagan.

To‘plagan ma’lumotlar asosida 1074 yilda “Devoni lug‘atit - turk” asarini yozib, tugatib, 1077 yilda uni xalifa Muqtadirga taqdim etadi. M.Qoshg‘ariyning umumiy turkiy tilarni o‘rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy gramatikasini tuzish folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari nihoyat katta. Shu bilan birga turli fanlarning atamashunosligini yaratish va geografiya faniga ham o‘lkan hissa qo‘shgan. Qoshg‘ariyning geografik merosi asosan besh yo‘nalishda o‘z mazmunini topadi. (H.Hasanov 1981- yil)

- tabiy geografik atamalar va ularning izohi;
- ilova qilingan dunyo xaritasi;
- joy nomlari va ularning izohi;
- ayrim qabilalarning joylashishi haqida;
- taqvimlar tizimi – muchalar va ularning tarixi.

M.Qoshg‘ariyning geografik merosi birinchi galda geografik atamalar tahlilidir. Tabiat va tabiiy hodisa, tabiiy jarayon hususan cho‘l, tog‘, iqlim yer, suv, hayvon, o‘simlik va boshqalarga doir iboralar izohiga olim alohida o‘rin bergan. Qoshg‘ariy ishlatgan ariq, buz, (muz), bulut, yomg‘ir, yoz, kechik , kent, kuz, kun, ko‘l, oy, ort,(davon) oqim va oqindi, sel va selindi, suv va suvloq. tog‘, tuz, (tekis) tuman, ungur, chaqmoq, yayloq, yashin, qayir, qoq, qir, qish va qishroq, qor, qo‘ltiq, qum, va boshqa so‘z iboralarni ishlatgan, ularning izohini bergan.

Olimlarning yozishicha, bu so‘z va iboralarning ba’zilari 12- asrga mansub O‘rxun bitiklarda, Qultegin yodgorliklarida uchraydi. “Devon” da bu so‘zlarning ishlatilishi va ularning ko‘pchiligi hozirda ham istemolda ekanligini hozirgi o‘zbek geografik atamashunosligining mustahkam qadimiy zaminga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Yer va tuproqqa doir so‘zlarni izohiga kengroq o‘rin berilgan. Chalang yer – qora yer, bout-sho‘r yer, sag‘izlik - sog‘ tuproqli yaxshi yer, sag‘iz tuproq – toza tuproq, sog‘ tuproq, toza yer-o‘simligi kam yer, oriq, hosillar. Qayir yer – yumshoq tuproqli yer, tekis yer, qumloq yer; takidlash lozimki, qayir hozirgi

geografiya fanlarida ko‘p ishlatiladigan daryo vaqtinch suv bosadigan qumloq-toshloq qismiga aytiladi.

Boldir tog‘ – tog‘ burun, tog‘ning tekislik ichiga kirib ketgan tarmog‘i. Hozirgi toponimlarda uchraydigan boldir so‘zini osongina izohlash mumkin. Muzrabot tumanidagi Boldir temir yo‘li bekati haqiqatdan ham Ko‘hitang tarmoqlarining bir bo‘lganligi uchun shunday atalgan. Ort - orqa, bo‘yin, gordon, tog‘ dovoni, badalort, Ko‘kort, Qizilort, Muzort, Oqort kabi O‘rta Osiyodagi davonlar nomi nima uchun shunday nomlanganligini bilib olsa bo‘ladi. Qurug‘ - amirlari boqiladigan ko‘katzor, atrofi qurshalgan joy. Qo‘riqning hozirgi ma’nosi - qo‘riqlanadigan dahlsiz tabiat komleksi. Qo‘riqxona, zapovednik so‘zlarining o‘zagi, qo‘rig‘ so‘zi 10-asrdayoq hozirgi ma’nosiga o‘xshash mazmunda ishlatilgan.

Ob-havoga - meteorologiyaga oid so‘zlar atmosfera hodisasi, osmon hodisasini ifodalash ushbu qimmatli asarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, taltog‘ har tarafdan esgan qattiq izg‘irin shamol, qarog‘u - qirov, bulut sugoldi – bulut tarqaldi, erkin yomg‘ir – bir necha kun to‘xtamay yog‘adigan yomg‘ir. Geografik nomlarning talqiniga asarda katta o‘rin berilgan - Bolosug‘un beklik, mo‘g‘ulcha g‘ubalik - go‘zal shahar, Barsg‘on yoki Basrxon - Issiqko‘l bo‘yidagi shahar, kishi nomidan olingan.

H.Hasanov tadqiqotiga devon da ishlatilgan 70 ta joy nomi Beruniy asarlaridan olingan. Shu bilan birga Beruniy asarlarida tilga olinmagan Toshkentdan g‘arbiy Xitoygacha masofada ko‘pchilik joy nomlari ham berilgan. Shunday qilib, Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy va Hudud ul-olamning muallifi O‘rta Osiyo geografiya nomshunosligi va toponimiyasining asoschilaridirki, ulardagi ilmiy merosni chuqur o‘rgangan geografiya tarix va tilshunoslik fanlarining hali aniqlanmagan sahifalarini to‘ldirishi aniq.

4.2. O‘rta Osiyo olimlarining toponimikaga oid tadqiqotlari.

Zamonaviy toponimikani o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan O‘rta Osiyolik olimlarning xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O‘sha davrda O‘rta Osiyoda yozilgan tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda toponimikaga oid ma’lumotlarni ko‘plab topish mumkin. Masalan, 982-983 yillarda, fors-tojik tilida,

noma’lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam» tarixiy-geografik asarda Movarounnahr viloyatlari, shaharlari, tog‘lari, daryolari va ularning nomlari, ayniqsa hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma’lumotlar topish mumkin.

Kitobda o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan viloyatlar va podshohliklar, ularda yashovchi qavmlar ularning urf-odatlari, rasm-rusumlari hamda har bir shaharning tabiiy-geografik sharoiti ta’riflangan. Masalan So‘g‘d va Ustrushona sharqiy ellar orasida eng obod joy, u yerda oqar suvlar ko‘p, iqlimi bahavo, odamlari mehmondo‘st va xushmuomala deb ta’rif berilgan. V.V.Bartold bu asarga katta ahamiyat berib o‘zining bir qancha maqolalarida undan parchalar keltirgan.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi joy nomlariga oid yozma ma’lumotlarni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig‘», Beruniyning «Qonuniy Mas’udiy», «Hindiston», «Saydana», Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» kabi asarlarda uchratish mumkin. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan: « … ammo, aksari mamlakatlarning nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan, tili boshqa bo‘lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o‘zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi… Nomlarning ma’nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o‘zgarib ketadi.

Ko‘pincha arablar chet el nomlarini, arabchalashtirib, shunday o‘zgartiradilar va buzib aytadilar». Turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» nomli asari alohida o‘rin egallaydi. Kitobda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqa ta’rifi, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug‘larning joylanishi to‘g‘risida noyob ma’lumotlar keltirilgan. «Devonu lug‘atit-turk»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki, unda toponimlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik xususiyatlari, qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o‘simlik va hayvonot nomlariga doir qiziqarli ma’lumotlarni topish mumkin. S.Qorayev ma’lumotlariga ko‘ra, asarda jami 160

dan ortiq toponim tilga olingan. H.Hasanov esa kitobni qimmatli geografik manba hisoblab u to‘g‘risida alohida asar yozgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, geografik nomlarni ilmiy asosda talqin qilishni Sharq o‘rta asr olimlari ishlarida kuzatish mumkin. XIII- asr geografik ma’lumotlarini to‘plab o‘n jildlik «Mu’jam al-buldon» (Mamlakatlar lug‘ati) nomli geografik lug‘atni tuzgan olim Yoqut Hamaviydir. V.V.Bartold yozishicha, Yoqut Hamaviy o‘sha davrdagi bir qator musulmon davlatlariga sayohat qilib, ko‘p ma’lumotlar to‘plagan va ularning asosiy shahar va qishloqlari haqida yozib qoldirgan. A.L.Xromov esa Yoqut Hamaviyni O‘rta Osiyo va Sharq musulmon davlatlarining birinchi toponomisti deb ta’riflagan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, uning geografik nomlarning sharhlashda qo‘llagan usuli hozirgi toponimikada geografik nomlarni topoformantlar asosida izohlash usuliga juda o‘xshaydi. Olim geografik nomlar tarkibida bir xil unsurlarning takrorlanishini birinchi bo‘lib payqagan.

Masalan, shahar va qishloqlarning nomlari tarkibida keladigan «obod» unsuri fors-tojik tilida aholi punkti ma’nosini bildiradi deb yozgan edi. «Obod»-unsuri hozirda ham geografik nomlar tarkibida keng qo‘llaniladi. Hozirda obod so‘zi nafaqat aholi punkti ma’nosida qo‘llaniladi balki, ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, obodonlashtitirilgan, o‘zlashtirilgan, gullab-yashnagan ma’nosidagi so‘z hamdir.

O‘rta Osiyo toponimiyasiga oid ma’lumotlarni Rashididdin, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro‘, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg‘oziy Bahodirxon, Abu Tohirxo‘ja, Ahmad Donish kabi allomalar asarlaridan topish mumkin. Mutaxassislar fikricha, X- XIII asrlar Movarounnahr toponimiyasining katta qismini islomgacha bo‘lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (so‘g‘d, boxtar, xorazmiy) tillarga xos toponimlar tashkil qilgan. Keyingi davr Movarounnahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy qatlamning kuchayishi, natijada sharqiy eroniy toponimik qatlamning siqib chiqarishi bilan bog‘liq.

O‘rta Osiyoda yozilgan memuar asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»da ham ko‘pgina joy nomlariga doir qimmatbaho ma’lumotlar

mavjud. H.Hasanovning ta’kidlashicha, «Boburnoma»da mingga yaqin geografik nom tilga olingan. O‘rta Osiyoga doir nomlarning ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. «Boburnoma»dagi geografik nomlarning aksariyatini hozirgi o‘zbek va tojik tilida izohlash mumkin. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o‘zi tushuntirib o‘tgan. «Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko‘pki, ularning ko‘pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba’zi birlari butunlay iste’moldan chiqib ketgan.

O‘rta asrlarda toponimik qonuniyatlarni aniqlash usullari kashf etilmaganligi bois, toponimlarning ma’no xususiyatlari ko‘pincha farziyalarga asoslangan holda izohlangan.

Qadimiy va o‘rta asrlar manbalarida qayd qilingan toponimlar, geografik terminlar, o‘simlik va hayvonot nomlari, etnonimlar, antroponimlar geografik jihatdan to‘laroq o‘rganilishi kerak.

4.3-§. *O‘rta Osiyo o‘lkasidagi geografik nomlarni o‘rganishda O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari.*

Joy nomlari va geografik obyektlarning atoqli otlari hamma vaqt muayyan informativ – axborotlar manbai hisoblanadi. Buning ustiga XX asr boshlarida qator fanlar alohida ilmlar sohasi sifatida shakllanib, ularning muayyan tushuncha qoida va qonunlarni ifoda etuvchi ilmiy termin, so‘z, iboralarni lug‘aviy jihatdan izohlash ko‘p tartibga qo‘yilgan. O‘zbekistonda tabiiy fanlar - geologiya, geografiya, geomorfologiya, biologiya biogeografiya, tuproqshunoslik, fizika, kimyo va boshqa ilm sohalarida yangi terminlar paydo bo‘ldi. Bu ilmiy ifodalarning o‘zbek tilida mazmun-mohiyatini aks ettirgan ekvivalentlik muhbilini topish va izohlashga ehtiyoj kuchaydi.

Tilning lug‘at tarkibiga kirgan bunday ilmiy atamalarni tilshunoslik qonun-qoidalari asosida izohlash ilmiy atamashunoslikning vujudga kelishiga olib keldi.

Geografiya va umuman Yer haqidagi ilmlarda qo‘llaniladigan o‘zbek tilidagi so‘z va iboralarni shu bilan birga boshqa tilardan kirib kelgan so‘zlarni o‘zbek tilining lug‘at boyligi asosida aniq so‘z birikmasi bilan ifodalash masalasida o‘zbek

ilmiy merosimizning bilimdoni va targ‘ibotchisi H.Hasanovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Qomusiy ilmlar sohibi bo‘lgan ustoz H.Hasanovning 1964 yilda “Fan” nashriyotidan “Ruscha – O‘zbekcha va o‘zbekcha – ruscha geografiya terminlari ” kitobi beqiyos ahamiyati kasb etadi. Kitob geografiya va boshqa tabiiy fanlar uchun manbai bo‘lishi qatorida o‘zbek tilida lug‘atlar yaratish tarixi bo‘yicha malumotlar beruvchi manba hamdir.

O‘zbek tilida dastlab lug‘atshunos olim. O.Ibrohimov “Geografiya atamalari” nomli kitobini O‘zbekiston Davlar nashriyoti (Toshkent- 1935- yil) chop etirgan. Kitobda geografik nomlar bilan birga yonma – yon geografik terminlar ham berilgan. Hasanovning ma’lumotlariga qaraganda kitobda terminlar ma’lum bir tartib bilan berilmagan. Shunga qaramay, bu lug‘atning o‘zbek tilida chop etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 - 1530) “Boburnoma” kitobi mumtoz o‘lkashunoslik kitobi bo‘lishi bilan birga, unda toponimikaga va terminshunoslikka oid ma’lumotlar juda ko‘p. Xususan Farg‘ona vodiysidagi geografik nomlar ma’nosi, etimologiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Andijon, Kandibodom, Isfara, Xo‘jand, Ahsi, Sayhun, Marg‘ilon haqida batafsil ma’lumotlar mavjud.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII-XIV asrlar.), Jaloliddin Turkiy (XIV-XV asrlar), Mirzo Ulug‘bek (XIV-XV asrlar.), Abulg‘ozixon (XVI- asr.), Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozeh) (XIX- asr.) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma’lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan Abulg‘ozixonning “Shajarai turk”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Qori Rahmatulla Buxoriyning “Xotiralar”, “Sayram risolasi” nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda toponimika va geografik terminshunoslikning XX asrdagi rivojlanishida mahalliy tadqiqotchi olimlar bilan birga O‘rta Osiyoni o‘rgangan rus olimlarining ham hissasi katta bo‘ldi. Bular orasida V.V.Bartold, V.P.Semenov-Tyanshanskiy, E.M.Murzayevlarni alohida ko‘rsatish mumkin. Xususan, V.V.Bartold o‘zi tarixchi, uning toponimikaga oid maxsus asari bo‘lmasa ham,

ammo toponimik ma’lumotlar uning barcha tarixiy asarida uchraydi. Uning joy nomlarini izohlashi sodda, ancha aniq va ko‘p fikr-mulohazalari ishonarlidir.

U o‘z asalarida mahalliy geografik terminlardan yaxshi foydalanadi. Uning asarlarida ariq, jo‘y, kom, qir, rabod, tarxon, to‘rtko‘l, shahriston, yurt kabi terminlar talqinini bergan. V.V.Bartold hayoti va ilmiy faoliyatining katta bir davri O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston va Toshkent bilan bog‘liq. Olim tomonidan yaratilgan 685 asaridan 320 tasi Turkistonga bag‘ishlangan.

V.P.Semyonov-Tyanshanskiyning “Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara qanday aks etadi” (1924) asari toponimik jihatdan o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi. Bu asarda muallif geografik nomlarning paydo bo‘lishida tabiiy sharoitning ta’siri haqida aniq ma’lumotlar keltirgan.

E.M.Murzayev yirik geograf olim, toponimist. U O‘rta Osiyo, Sinjon, Mongoliyadagi geografik nomlar va xalq terminlarini o‘rgangan. Uning “Slovar narodnыx geograficheskix terminov” (1984- yil) asari terminshunoslikda katta o‘rin tutadi. Unda ko‘pgina mahalliy geografik terminlar ma’nosi izohlangan. Masalan, olimning tahriri ostida chop etilgan “Srednyaya Aziya” (1957) kitobida 100 dan ortiq geografik nomlarning izohi berilgan. Masalan, Oqsuv, Oloy, Amudaryo, Orol, Bodxiz, Darvoz, Qoraqum va boshqalar.

O‘rta Osiyo o‘lkasidagi geografik nomlarni o‘rganishda vengriyalik olim Armeniy Vamberiy (1832 - 1913) ning xizmati katta. O‘rta Osiyoga mahfiy sayohat qilgan bu olimning “Buxoro tarixi”, “Markaziy Osiyoning geografik nomlari” kitoblari diqqatga sazovor. Uning lug‘atida 600 ga yaqin geografik nom va termin berilgan.

Toponimlarning paydo bo‘lishi masalasi bir qarashda juda oddiyga, hyech qanday qonuniyat yo‘qqa o‘xshaydi. Bunda bir qancha misollar keltirish mumkin. Rossiya imperiyasi vaqtida rus qo‘shinlari bosib olgan joylarda ruslar mahalliy aholi bilan birga yashashni o‘ziga ep ko‘rmay, har bir yirik shahar yaqinida rus shahrini qurgan va eski shahar yonida yangi shahar - “gorod” paydo bo‘lgan.

O‘zbekistondagi har bir yirik shahar yaqinida yangi shahar - gorod bo‘lib, ular shaharga qo‘shilib ketib, farq yo‘qolgan. Shunday shaharlardan biri Marg‘ilon

shahridan 12 km masofada qurilib, unga Noviy Margelan deb nom qo‘yilgan. Dukchi Eshon boshchilgidagi qo‘zg‘olon bostirilganidan keyin qo‘zg‘olonni bostirgan general Skobelev sharafiga shahar Skobelev shahri deb ataladigan bo‘ldi. Sovet davrida Farg‘ona deb o‘zgartirildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Ohangaron vodiysida bunyod etilgan konchilar shaharchasiga Ohangaron daryosining ruscha buzib aytilgan nomi Angren qo‘yildi. Samarqand yaqinidagi Qiriqtog‘da topilgan g‘orga ukrainalik g‘orshunoslar Kiyev g‘ori deb nom qo‘yishgan.

Bu keltirilgan misollarda joy nomlarning paydo bo‘lishida qonuniyatlar mavjudligi ko‘zga tashlanmaydi. Aslida bir qancha qonuniyatlar mavjud.

Bular quyidagilar:

1. Ko‘pgina geografik nomlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo‘lib, keyinchalik, vaqt o‘tishi bilan atoqli otlarga - geografik nomlarga aylanib ketgan. Masalan: ilgari odamlar oddiygina suv, soy, daryo, qo‘rg‘on, kent, ko‘l, to‘qay deb ataganlar. Keyinchalik bu oddiy so‘zlar geografik nomga aylangan. Bularga Amur, Jayhun, Don, Edil, Ganga, O‘kuz, Nil, Shott nomlari misol bo‘ladi. Hammasining ma’nosi bitta, suv demakdir. Aydar - qir, yayla - yaylov, chink - jarlik, alp - tog‘, rio - suv, xingan - tizma va boshqalar.

2. Oddiy so‘zlarga, toponimlarga aniqlovchi qo‘shish yo‘li bilan geografik nomlar hosil bo‘ladi. Bunda aniqlovchi sifat so‘z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, sifat qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘lgan toponimlarga Yangiqo‘rg‘on, Kattaqo‘rg‘on, Oqmachit, Ko‘kterak, Yangiobod, Qoradaryo, Oqdaryoni misol qilib keltirish mumkin. Ot qo‘shish yo‘li bilan Qumqo‘rg‘on, Toshqal’a, Taxtako‘prik, Toshkent, Chimkent, Shoshtepa, G‘azalkent toponimlari vujudga kelgan. Son qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘lgan toponimlarga Yettiterak, Beshqayrag‘och, Uchtom, Qo‘shtut, Yakkatut kabi toponimlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Qaynarbuloq, Xo‘jabaqirgan, Kuyganyor kabi toponimlar otga ravishdosh qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

3. Geografik nomlarning bir obyektdan ikkinchi, ba’zan uchinchi, to‘rtinchi obektlarga ko‘chishi natijasida yangi joy nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo

daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Ohangaron shahri, Ohangaron daryosi; Zarafshon daryosi, Zarafshon shahri, Farg‘ona vodiysi, Farg‘ona viloyati. Ayrim daryolar bo‘yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘lgan. Masalan, Angara daryosi - Angarsk shahri, Tom daryosi - Tomsk shahri, Ij daryosi - Ijevsk shahri, Or daryosi - Orsk shahri.

4. Ko‘pchilik mamlakatlarning nomlari xalqlar nomiga - iya, - iston suffikslarini qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘lgan: Turkiya, Ispaniya, Finlandiya, Vengriya, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston va boshqalar. Lekin ayrim davlatlar nomining yasalishida - iya, suffiksi xalqlar nomiga emas, balki boshqa so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin. Masalan, Braziliya (brazil - o‘simlik nomi), Kolumbiya (Kolumb - mashhur sayyoh), Islandiya (island - muz mamlakati).

5. Geografik obektlarga nom qo‘yishda o‘xshatib nomlash ham mavjud. Bu har xil maqsadlarda bo‘lishi mumkin. Chunonchi, Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, o‘sha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qo‘ygan; Damashq, Parij, Sheroz, Bag‘dod, Misr va boshqalar. Bularning ba’zilari hozir ham nomini saqlab keladi. H.Hasanov keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venesiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekan. Amerikada Moskva, Parij, London, Uels, Nyukasl va boshqa shaharlar mavjud.

6. Geografik nomlar umumlashtirish yo‘li bilan, ya’ni kichik joy nomini katta hudud yoki obektga ko‘chirish natijasida ham vujudga keladi. Bunga misol qilib Osiyo nomini keltirish mumkin. Qadimda Osiyo (Osu) deb Livan, Falastin, Suriya joylashgan kichik hudud atalar edi, keyinchalik bu nom butun qit’a nomiga aylandi. Hozirgi Tyanshan deb ataladigan tog‘larning umumiy nomi bo‘lmagan, har bir tog‘ tizmasi o‘z nomi bilan Chotqol, Qurama, Ko‘kshag‘al, Talas, Farg‘ona va boshqa nomlar bilan atalar, faqat Tyanshanning markaziy qismi Tangritog‘, Xontangri, deb atalar edi. Xitoylar Tangritog‘ni o‘z tiliga tarjima qilib, Tyanshan deb atashgan.

Keyinchalik bu nom butun tog‘ tizimining umumlashma nomi bo‘lib qolgan. Huddi shunday Yevropa, Afrika nomlari ham umumlashma nomdir.

7. Tarjima qilish yo‘li bilan ham shakllanib, yangi nomlar paydo bo‘ladi. Bunday nomlar bir joyda turli xalqlar yashaydigan hududlarda yoki bir geografik obekt (xususan daryo, tog‘ tizmalari) turli xalqlar hududlaridan o‘tadigan joylarda uchraydi. Bunday geografik nomlarga Qora dengiz - Chyornoye more, Qorasuv - Siyohrud, Qizilsuv - Surxob, Ilono‘tti - Morguzar, Baliqchi - Ribachye, Movarounnahr - Daryo orasi, Qizil dengiz - Bahri muhit Ahmar - Krasnoye more, Yangikent - Dehinov, Temir Darvoza - Jeleznoye vorota, Shaytonmakon - Chertovo gorodiщye va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Toponimika fani alohida ilm sifatida keyingi XX asrda shakillangan bo‘lsada tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlar paydo bo‘lishi ma’nosi haqidagi masalalar o‘rta asrlarda ijod qilgan olimlarning ishlarida etiborli jihat sifatida qaralgan. Chunki ilm bilan shug‘ullangan kishilarning ijodlarida bayon etiladigan voqiyliklar aniq bir joy, hudud yoki suv akvatoriyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu hudud yoki geografik nomi bo‘lib, bu nomning ma’nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo‘lgani hamisha qiziqarli bo‘lgan.

Toponimikani ilmiy fan sifatida shakllanishida rus olimlarining xizmatlari katta. Bu sohada A.Dulzon, A.Matveyev, A.Popov, A.Superanskaya, V.Toropov, S.Tolstov, Ye.Pospelov, O.Trubachev kabi olimlarning asarlari ma’lum va mashhur. Ular orasida geograf olim E.Murzayevning xizmatlari alohida diqqatga sazovor. Olim yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida geografik nomlarni o‘rgandi. O‘rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan mahalliy geografik terminlari haqida ko‘plab qimmatli asarlar, monografiyalar, lug‘atlar, ilmiy maqolalar yozgan. E.Murzayev ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida toponimikaning nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat berdi.

Olimning ta’kidlashicha, har qanday toponimik tadqiqotni geografik terminlarni o‘rganishdan boshlash kerak, chunki toponimik terminlar ko‘pchilik geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda universal kalitdir.

Geografik nomlarni ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyatni ehtiyoji bilan bog‘liqligini ta’kidlab, E.Murzayev shunday yozgan: «gazeta o‘qiganda ham, radio tinglaganda ham voqyea va hodisalarni ko‘pincha geografik nomlarga bog‘lab o‘qib olamiz. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz».

O‘zbek olimlaridan birinchi bo‘lib H.Hasanov toponimikaga murojaat qilgan. Olim geografik nomlarga bag‘ishlangan bir qator maqola, broshyura va kitoblar yozgan. H.Hasanovning «Geografik nomlar imlosi» (1962), «O‘rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964 - yil), «O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965 - yil), «Yer tili» (1977 - yil), «Geografik nomlar siri» (1985 - yil) kabi asarlarida O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida muhim fikrlar, xulosalar bayon etilgan. O‘zbek «Magellani» deb e’tirof etilgan olim joy nomlarining transkripsiyasi, etimologiyasi, tarixi, toponimlarning asosini tashkil etuvchi geografik terminlarga juda katta e’tibor bergan.

Toponimika faniga ko‘p yillik umrini bag‘shida etgan olimlardan yana biri S.Qorayevdir. Olimning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlarni o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. S.Qorayev joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni atroflicha izohlab bergan. Masalan, aqba - «dovon», baraz - «tog‘dagi tekis maydon», bel - «dovon», bo‘ktar - «tog‘ etagi», gaza - «tog‘ qirrasi», depsan - «adirdagi tekislik», jo‘na - «cho‘zinchoq tepalik», zayak - «partov yer», zov - «tik yalang qoya», mo‘la - «tosh-shag‘aldan yasalgan belgi», sangloq - «silliq toshli soylik», seki (sekilov) - «zinasimon yonbag‘ir», shiber- «o‘tloq botqoqlik», tangi- «tor dara», tarma - «qor ko‘chkisi», chag‘at - «qirra toshli kungay yon bag‘ir, chem - «g‘ov, to‘siq», shag‘il - «mayda toshli tik soylik», chalqa - «tekis maydon», chink - «jarlik», qo‘riq - «daryo bo‘yidagi o‘tloq» kabi xalq terminlarini birinchi bo‘lib geografiyaga, toponimikaga olib kirdi. Bu terminlarning ko‘pchiligi shu vaqtgacha geografik adabiyotlarda, hatto izohli lug‘atda ham uchramaydigan, ilmiy muomalaga kiritilmagan chinakam mahalliy xalq terminlari hisoblanadi.

O‘zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektda o‘rganish o‘tgan asrning 60-chi yillarida boshlandi. Tilshunos toponimist olimlardan E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, N.Oxunov, T.Enazarovlar O‘zbekistonda toponimika fanining

rivojlanishiga, geografik nomlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda, nomlanish qonuniyatlarni ochib berishda salmoqli hissa qo‘shganlar. Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo‘lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o‘quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o‘rganilgan.

Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tatqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov -Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova - Toshkent mikrotoponimlarini, Z.Do‘simov - Xorazm, Ya.Xo‘jamberdiyev - Surxondaryo, T.Rahmatov - Samarqand, S.S.Gubayeva va N.Oxunov - Farg‘ona vodiysi, A.Zokirov - Jizzax, K.Abdimuratov - Qoraqalpog‘iston respublikasi, S.Naimov - Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan.

Oxirgi yillarda bajarilgan mintaqaviy toponomik tadqiqotlarning aksariyati joy nomlarining dialektik, semantik, grammatik va lingvogeografik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Joy nomlarining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali har bir hudud toponimiyasining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, ularning O‘zbekiston toponimiyasida tutgan o‘rni belgilanmoqda.

Geografik nomlarni atalish qonuniyatlari tahlili shu paytgacha to‘plangan ilmiy materiallar asosida zaruriy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Geografik ob'yektlarni nomlash va ularni qayta o‘zgartirishda toponimik qonuniyatlarga tayangan holatda nom berish ob'yektiv zaruriyat sanaladi. Aks holda toponimning “umri” qisqa bo‘ladi, uni tez-tez o‘zgartirib turishiga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, xalq tilining alomatlarini o‘zida mujassam etish geografik nomlarga xos xususiyat hisoblanadi. Shuning uchun bir xalq tili qoidalari asosida yaratilgan geografik nomlarni hyech qanday o‘zgarishsiz ikkinchi tilga qabul qilish odatda imkoni bo‘lmaydi. Chunki har bir tilning o‘ziga xos qonun va qoidalari bo‘ladi, uni inkor etish xatolar sonini ko‘paytiradi, muayyan chalkashliklarga olib kelishi aniq.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Toponomika faning paydo bo‘lish tarixi va fanning rivojiga xissa qo‘shagn olimlar haqida referat tayyorlang.

2. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida toponimika qonuniyatlariga oid haqida so‘zlab beribg.

3. Joy nomlarning paydo bo‘lishida qonuniyatlar haqida nima bilasiz.

4. O‘zbekiston toponimiyasini o‘rgangan olimlar va ularning asalari asosida tahliliy matin tayyorlang.

5- Mavzu. Toponimikaga oid ma’lumotlar yig‘ish, tadqoqot olib borish va o‘tkazish.

Reja.

5.1- §. ***Toponomikaning tarixiy tadqiqotlar olib borishdagi o‘rni.***

5.2- §. ***O‘zbekiston etnotoponimlarining o‘zbek xalqi etnik tarixini o‘rganishdagi o‘rni.***

5.3- §. ***Toponomikaga oid ma’lumotlarni yig‘ish.***

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Toponomik tadqiqot, etnik tarixni o‘rganish, toponomikaga oid ma’lumotlarni yig‘ish, etnonim va etnotoponim.*

5.1- §. Toponomikaning tarixiy tadqiqotlar olib borishdagi o‘rni va ahamiyati.

Tarix fanlari ichida toponimika etnografiya, manbashunoslik, arxeologiya, shuningdek, tarixiy siklning boshqa ko‘plab fanlariga yaqinroqdir. Tarixchilar toponimik tadqiqotlarga nima uchun bunchalik qiziqish bildirishini tushunish oson. Toponimlar ma’lum tarixiy davrlarda vujudga kelgan, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, muayyan tarixiy voqealarga, xalqlarning ko‘chishi, urushlari, madaniy-iqtisodiy aloqalariga qarab tarqalib kelgan. Shu jihatdan toponimlar tarixning bir qismi, toponimlarning o‘zi esa noyob tarixiy yodgorliklardir.

Hozirgi vaqtda arxeologiya, numizmatika, tilshunoslik va manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlarning jadal rivojlanishi tufayli O‘rta Osiyo bo‘yicha juda katta hajmdagi materiallar to‘plangan. Shu bilan birga toponimika va tarixiy geografiya ham katta rivoj topdi. Bundan kelib chiqib, har xil tarixiy fanlarga oid ma’lumotlardan foydalanishni taqozo etadigan keng qamrovli tadqiqotlarni olib borish juda muhimdir. Manba bazasi va ilmiy adabiyotlar yetarli emasligi sababli etimologik tadqiqot sohasidagi ko‘plab asarlar nisbatan zaif argumentatsiyadan aziyat chekmoqda, degan fikrga qo‘shilishimiz mumkin. Shu bois, O‘zbekiston toponimlar tarixini o‘rganishda barcha mavjud ma’lumotlar, jumladan, nafaqat tarixiy tilshunoslik ma’lumotlarini, balki boshqa ko‘plab omillarni ham hisobga olish imkoniga ega bo‘lgan filologlarning mehnatini hisobga olish kerak, hudud landshaftining xususiyatlari, xalq afsonalari va mahalliy aholining o‘z mintaqasi

tarixiga o‘ziga xos qarashlarini ham hisobga olish lozim. Demak, tarixiy geografik nomlar o‘ziga xos turdagi ma’naviy madaniyat yodgorligi – shahar va aholi punktlarimiz, ko‘cha va maydonlarimiz, post va aholi punktlari nomlaridir. Toponimlar xalq ijodi sifatida zamon va makonda belgi vazifasini o‘taydi, mamlakatning tarixiy-madaniy qiyofasini yaratadi. Toponimlar jamiyat va butun insoniyat taraqqiyotining muhim elementidir. Ularning ma’lum bir hududda to‘planishi ko‘p asrlik xalq amaliy san'ati va geografik nomlarning yaratilishi natijasidir.

Aksariyat toponimlar tarixiy xaritalarda va turli tarixiy manbalarda buzilgan holda tugallangan. Buning bir qancha sabablari bor: bitta milliy alifbo yordamida ismning fonetikasini etkazish mumkin emas, sayohatchi, kartograf yoki mahalliy tilni bilmaydigan odam tomonidan yozilgan yozuv doimo nomukammal yoki xato bo‘ladi. Shuning uchun tarixchiga boshqa hujjatlar - geografik va lingvistik hujjatlar yordam berishi mumkin. Ammo bularning barchasi e’tibordan chetda qolsa, ishonchli tarixiy tadqiqotlar o‘z samarasini bermaydi. Shu ma’noda toponimika ilmiy manbashunoslik faniga juda yaqin.

Geografik nomning toponimik tadqiqi arxeolog, tarixchiga katta yordam berganiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Mashhur arxeolog Geynrix Shliman Gomer o‘zining o‘lmas “Iliada” dostonida tasvirlangan afsonaviy Troya bo‘lishi kerak bo‘lgan joyni izlab topishini misol keltirish mumkin.

Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan hisorlik - “xarobalar joyi" - “qo‘rg‘on" deb ataladigan tepaligiga e’tibor qaratdi. Bu yer tekislikning o‘rtasida joylashgan kimsasiz qirlar edi, uning ko‘rinishi unchalik etibor tortmas edi. Ammo mahalliy aholi tomonidan tez-tez tilga olinadigan bu nomning o‘zi Genrix Shlimanni qadimgi Troya shahrining siri unda yashiringan bo‘lishi mumkin deb o‘ylashga undadi.

Bundan tashqari, u Troya urushi qahramonlarining butun yo‘lini kuzatib, “Iliada” ni juda diqqat bilan o‘qib chiqdi va bu erda qazish ishlarini boshlashga qaror qildi. Taniqli arxeolog adashmadi, bir muncha vaqt o‘tgach, u katta kashfiyot qildi va qadimgi Troya harobalari ikki ming yillik mozey qaridagi yo‘qlikdan so‘ng

odamlar ko‘z oldida paydo bo‘ldi. Afsonaviy shaharning mavjudligi haqiqati butun dunyoga olimning toponomik nomning asl ma’nosiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabati tufayli isbotlangan. Bu toponimikaning Troya qadimiy shahar harobasining ochilishiga qanday yordam berganiga bir misol.

Ruan shahri yaqinida, Sena daryosining quyi oqimida, qumtepalar orasida Syssac trakti ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lgan. Tarixchilar bu erda hech qachon aholi punktlari bo‘lmagan deb ishonishgan. Bo‘shashgan qumli tepaliklar orasidan qadimiy narsalarni izlash arxeologlarning xayoliga ham kelmagan, ammo Syussak nomi tajribali toponimistlarning e’tiborini tortdi. Bu ularni qiziqtirdi: Gall-Rim davrida mulklarning yer egaliklari shunday nomlangan. Toponimistlar arxeologlarga u yerda qazish ishlarini boshlashni taklif qilishdi. Arxeologlar Syussak qum tepaligini qazishga harakat qilishdi va qadimiy xarobalarga duch kelishdi. Gallar davridagi haqiqiy manor villasi topildi. Keltirilgan misollar toponimika va arxeologiya o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikdan dalolat beradi.

Bizning zamonamiz toponimistlarining ixtiyorida ko‘plab qonuniyatlar mavjud va ular asosida ular kashfiyotlar qilishadi yoki hali noma’lum narsalarni oldindan ko‘rishadi. Dunyo xaritasida o‘n minglab joy nomlari mavjud. qadimgi davrlarda turli qabila va elatlarning o‘troqlashuvining toponimik holatini aks ettiradi. Ko‘pdan beri yo‘q bo‘lib ketgan qadimgi qabilalar geografik nomlar shaklida o‘zlarining mavjudligi izlarini qoldirgan.

Tarixchi etnotoponimlarni o‘rganish orqali ma’lum bir hududda ma’lum bir qabila qadimiy yashash hududi bilan bog‘liq turli ilmiy muammolarni hal qilishi mumkin. Shunday qilib toponimikaning etnografiyaga qanchalik yaqin ekanligini ko‘ramiz.

Natijada shunday xulosa qilishimiz mumkin: toponimika uch fan – tarix, tilshunoslik va geografiya tutashuvida rivojlanib, ularning tadqiqot usullaridan har tomonlama foydalaniladigan ilmiy fandir.

5.2- §. O‘zbekiston etnotoponimlarining o‘zbek xalqi etnik tarixini o‘rganishdagi o‘rni.

Toponimlar ajdodlarning madaniy va lingvistik merosi bo‘lib, qimmatli tarixiy, etnografik, diniy-mifologik, geologik, geografik, arxeologik va boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda toponimika masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada respublika, viloyat, tuman va shahar toponimiya komissiyalari ish olib bormoqda. Ularning faoliyati natijasida ko‘plab joylarning tarixiy nomlari tiklandi, geografik nomlar bo‘yicha qarorlar qabul qilindi va hokazo.

Bundan kelib chiqib, tarixchi va etnologlar oldiga alohida viloyatlarning o‘troqlashuv tarixi, o‘zbek xalqining etnik tarixi, madaniy-maishiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bir qator masalalarni ko‘rib chiqish va chuqurroq o‘rganishda toponomika fani imkoniyatlari bilan umumiy uyg‘un tarzda tadqiqotlar olib borish va ma’lumotlar yig‘ish kabi muhim vazifa turibdi. Hozirda O‘zbekistondagi joy nomlarning umumiy soniga hali aniqlik kiritilmagan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 25 mingdan ortiq makrotoponimlar aniqlangan, ammo mikrotoponimlar soni hali aniqlanmagan. Shu bois bu borada geograflar, kartograflar, tarixchilar, etnologlar, arxeologlar, tilshunoslar tadqiqot olib boradilar.

Hozirgi O‘zbekiston hududida 1918 yilgacha xalqlar, qabila va urug‘lar, ijtimoiy, hududiy va kasbiy guruhlar bir-biridan alohida yashab kelgan. Ko‘chmanchilar va yarim ko‘chmanchi qabilalar qabila printsipiga ko‘ra yashagan, o‘troq hududiy guruhlar ijtimoiy, kasbiy yoki nasl-nasabiga ko‘ra yaqinlik tamoyiliga muvofiq yashagan.

Ijtimoiy-etnik sharoitlar bunday aralash joylashuvga asos bo‘lib, ko‘plab etnonimlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu holat ayniqsa XIX -asr oxiri va XX-asr boshlarida kuzatildi. Masalan, Zarafshon vohasining ayrim joylarida, xususan, Bulung‘ur viloyatida etno va geneotoponimlar (genealogik) ulushi 80 foizga yetdi. Millatlar, qabilalar va urug‘lar aralashgan hududlar bu joylarda zich joylashgan qabila va urug‘larning nomlari bilan ataladi. Binobarin, o‘zbek xalqining qabila-urug‘ nasl-nasabini yaxshi bilsak, bu etnotoponimlardan foydalanib, mahalliy o‘zbeklarning qabila tarkibini aniqlab, ularning o‘rni (turar joyi) hududlarini tiklashimiz mumkin bo‘ladi. Toponimik materiallarni guruhlashdan foydalanib, siz

qabilalar va xalqlarning koʻchishi haqida, shuningdek, boshqa tarixiy va etnografik maʼlumotlarni olishingiz mumkin.

Oʻzbekiston toponimiyasida etnonimlardan hosil boʻlgan koʻplab etnotoponimlar – oʻzbeklarning qabila, urugʻ nomlari mavjud boʻlib, ulardan nasl-nasabga koʻra, xususan, nomshunos S.Gubayeva (1983 yil) qipchoqlarning Fargʻona vodiysida hududiy tarqalishini oʻrganib, 20 dan ortiq joy nomlari qipchoq urugʻlari nomiga qoʻyilganligini yozadi. Eng yirik qipchoq qabilasining nomlari va ularning urugʻlari asosini tashkil etgan, turli hududlarda koʻplab etnotoponimlar mavjud masalan (Qipchoq mahallasi, Qipchoʻkovul, Qipchoqsoy, Qipchoqariq, Qoraqipchoq, Bachqir, Tumor, Elaton va boshqalar) . Ayrim etnotoponimlar qator viloyatlarda uchraydi (masalan, Karopchi qishlogʻi Shahrixon, Baxmal, Zomin tumanlarida; Parchayuz qishlogʻi Bekobod, Guliston, Zomin tumanlarida; Uyoz — Zomin Bekobod, Boyovut tumanlarida va boshqalar.).

Baʼzi etnotoponimlar boshqa xalqlarning urugʻlari nomi bilan atalgan. Masalan, qirgʻizlarning ixcham istiqomat qilgan joylari Qirgʻizqishloq, Qirgʻizovul, Kigʻizmahalla va boshqalar deb atalgan, shuningdek, qirgʻiz urugʻlari nomlari asosida Bagish, Munduz, Xidircha, Teyit, Korateit va boshqalar. -Tojiklar yashagan joylar, Tojikqishloq, Tojikravot, Tojiqovul va boshqalar deb atalgan. Boshqa xalqlar nomidan olingan etnotoponimlar ham bor: Arabovul, Arabon; Qozoqovul, Uygʻurobod, Qashqarishloq, Tatartupi, Noʻgʻayqoʻrgʻon, Lulichek va boshqalar.

Demak, Oʻzbekiston toponimlari tizimida etnotoponimlar bitta katta guruhni tashkil qiladi. Ularda maʼlum bir hududda yashagan turli qabila, urugʻ, urugʻ jamoalari, xalq va millatlar haqida maʼlumotlar beriladi. Bu etnotoponimlar oʻzbek xalqining shakllanish tarixini oʻrganish va aks ettirishda qoʻshimcha manba boʻlib xizmat qiladi.

5.3- §. Toponomikaga oid maʼlumotlarni yigʻish.

Toponimikaga oid maʼlumotlar yigʻishda va joy nomlarining kelib chiqishini oʻrganishda etnografiya ham katta rol’ oʻynaydi.

Toponimikaning ayrim toifalari va tizimlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni oʻrganish yoʻli bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini

tashkil etadi. Ko‘pgina mutaxassis toponimistlar mahalliy toponimlarni har tomonlama regional tadqiq qilishga katta e’tibor beradilar. Bunda, albatta, ***mikro*** va ***makro*** toponimikani o‘zaro taqqoslash zarur. Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma’lum joyning geografik nomi tarixi to‘laroq, shu o‘lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog‘liq holda aniqlanishini uning asosiy maqsadi qilib olishimiz zarur. Bundan tashqari, toponimikaga oid tadqiqog ma’lumotlaridan foydalanilayotganda o‘sha o‘lka xalqlarining tilini o‘rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma’lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Toponimikaga oid tadqiqot olib borilayotgan rayonning tabiiy geografiyasini, o‘tmish tarixini, til tarixini yaxshi bilish shart. Toponimikani o‘rganishda Yuqoridagilarga amal qilingan taqdirdagina tadqiqotchi o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Tadqiqotni toponimikaga oid ma’lumotning yaratilgan davri va tarixini aniqlashdan boshlash kerak.

Hozirgi vaqtda toponimistlar joy nomlarini faqat etimologik va semantik jihatdangina emas, balki so‘z yasalishi jihatidan ham tahlil qilmoqdalar. Antrotoponim kishining ismi, familiyasi, laqabini (masalan, Mahmud Koshg‘ariy, Munis Xorazmiy), antrotoponimika kishi ismi, shahar, qishloq, ovul va shu kabi joylarning nomidan olingan toponimlarni (masalan, Toshkentboy, Qo‘qonboy, Xo‘jaqul, etnotoponim esa qabila, urug‘-aymoq nomiga qo‘yilgan nomlarni (masalan, Qozoqboy, Qirg‘izboy, O‘zbek) o‘rganadi.

Dalvarzin, Qo‘ng‘irot, Nukus, Mitan va hokazolarni istisno qilganda, barcha toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismdan (komponentdan) iborat. Bunday qaraganda hech qanday qo‘shimchasiz faqat bir so‘zdan iboratday tuyuladigan Jizzah Qo‘qon, Yozyovon, G‘alcha kabi toponimlar aslida ikki komponentdan tuzilgan.

Biroq, Qarshi (saroy, qasr), Hisor (qo‘rg‘on), Buxero (bixara — ibodatxona), chim (qo‘rg‘on), yon (bekat), yop (kanal) kabi nomlar mustaqil toponimlar shaklida uchraydi. Ba’zan esa qum, zah supa kabi geografik atamalar ham hech qanday qo‘shimchasiz toponimlar hosyl qilgan. Biroq ana Shunday birgina geografik atamadan tuzilgan nomlar ko‘pincha Shu toponimlarning xalq og‘zida qisqartirilgan

shakli bo‘lib chiqadi. Masalan, Qumqishloq deyish o‘rniga Qum; Zaxariq deyish o‘rniga Zah Supatepa deyish o‘rniga Supa deb qo‘ya qodishadi. Biroq hech qanday qo‘shimchasiz Tol, Pidana (yalpiz), Yantoq, Tulki kabi nomlar ma’naviy jihatdan aslida bu o‘simlik va hayvonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmasligi, ko‘pincha tamomila boshqa so‘zlarning fonetik jihatdan o‘zgarishi natijasida shu shaklni olgan bo‘lishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin: toponimika uch printsipga asoslanadi:

1) Toponimlarning paydo bo‘lish tarixini o‘rganish;

2) Toponimlarning geografiyaga oid ma’lumotlarini aniqlash;

3) Asosiy qidirilayotgan toponimlarning barcha nomdagilarini ilmiy asosda alohida-alohida o‘rganib, ulardan xulosa chiqarishdir. Bu printsiplar qo‘llanmaning muqaddimasidan to xotimasigacha yoritib borilgan.

Toponimikaning tilshunoslik, tarih geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim xususiyatlaridandir. Toponimikaga oid ma’lumotlar tadqiq qilinayotganda tarixiy ma’lumotlarga, ayniqsa arxeologiyaga oid tekshirish natijalariga suyangan holda ish ko‘rish zarur. Chunki toponimika ko‘pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj. Masalan, biror yodgorlmkning nomini o‘rganish uchun, albatta, uning qaysi davrda yaratilganligini va nima sababdan shu nom berilganligini tarixiy davr sharoiti muhiti nuqtai nazaridan tadqiq qilish talab etiladi. Tadqiqotning yozma manbalarga ko‘pincha arxeologiyaga oid ma’lumotlarga suyangan holda ish ko‘rish usuli nomlarning qo‘yilgan davrini aniqlashga va nomlarning paydo bo‘lishini o‘rganishga qo‘l keladi. Bir nomning o‘zgarishini kuzatmoq uchun birmuncha vaqt ketadi.

Shuni unutmaslik kerakki, geografik nomlar ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkam bog‘liqdir. Ma’lum bo‘lishicha, har bir rayon toponimikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, er ostida ko‘plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni siichiklab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o‘rganish uchun toponimlarning paydo bo‘lishiga doir ma’lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo‘lgan barcha

formalarini aniqlash, nom va atamalarni o‘sha joy bilan bog‘liq holda tanlash va eng muhimlarini o‘rganish zarur.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo‘nalishlar bo‘yicha joylarga aholining ko‘chishi, o‘rnashishi kiradi. Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo‘lib, u aholining ko‘chishi, madaniy, iqtisodiy vatil munosabatlari bilan vujudga keldi, so‘ng tarqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo‘lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o‘rganish jarayonida o‘sib, rivojlanib boradi. Toponimik nomlar manbai va ularni o‘rganishda qo‘llanilgan uslub va usullarning to‘g‘riligini aniqlash maqsadida yozma va boshqa manbalar qo‘lyozmalar, akt materiallari, aholi joylashgan chegaralarni aks ettiruvchi bosh (asosiy) va maxsus xaritalar hamda ilmiy safar xaritalari bilan solishtirib chiqiladi. Toponomikada ham, moddiy va madaniy yodgorliklar o‘rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya’ni bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib borish zarur. Bilish murakkab dialektik jarayondir, chunki bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha momlarning manbai asta-sekinlik bilan ochiladi nomlarning «yoshi» aniqlanadi. O‘z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo‘lib, ma’lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvoxlik beradi. Nomlar ma’lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog‘liqdir.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nomlar juda kam bo‘lgan, keyinchalik aholi paydo bo‘lib, qo‘yilgan nomlar ham ko‘p vaqtlar o‘tishi bilan boshqa nomlarga o‘zgartirilib yuborilgan yoki butunlay yo‘q bo‘lib qetgan. Yozma manbalardagi toponimikaga oid ma’lumotlar tahlil qilinganda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Bu voqeani hozirgi vaqtda ham aniq ko‘rishimiz mumkin. Ayrim shahar va qishloqlarning eski nomlari o‘rniga yangi nomlar qo‘yiladi, bu eski nom nima uchun yo‘qotildi-yu, nima uchun yangi nom qo‘yildi, buning sabablarini ham aniqlash mumkin.

O‘tmishda esa yangi zamindor (er egasi) paydo bo‘lishi bilan ko‘pincha aholi eski geografik nomlar o‘rniga shu zamindorning nomini qo‘yishgan. Dialektologiyadan farqli o‘laroq toponimikaga oid ma’lumot to‘plashda, joylarning

nomlarini o‘rganishda aholidan yoppasiga so‘rash uslubi qo‘llaniladi. Faqat shunday uslub bilangina turli daralar, kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko‘llar va boshqa shunga aloqador bo‘lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin, xolos. Shunday joylarning hammasi aholi yashaydigan joylarning kartasiga yoki aholi joylari ro‘yxatiga kiritilmagan, ehtimol kiritilmasa ham kerak. Toponimikaning eng katta xizmati shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirilgan noma’lum joylarni bizga ma’lum qiladi. Toponimikaga oid ma’lumotlar yig‘ishda va joy nomlarining kelib chiqishini o‘rganishda etnografiya ham katta rol’ o‘ynaydi.

Toponimikaning ayrim toifalari va tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganish yo‘li bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ko‘pgina mutaxassis toponimistlar mahalliy toponimlarni har tomonlama regional tadqiq qilishga katta e`tibor beradilar. Bunda, albatta, mikro va makro toponimikani o‘zaro taqqoslash zarur. Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma’lum joyning geografik nomi tarixi to‘laroq, shu o‘lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog‘liq xolda aniqlanishini uning asosiy maqsadi qilib olishimiz zarur. Bundan tashqari, toponimikaga oid tadqiqog ma’lumotlaridan foydalanilayotganda o‘sha o‘lka xalqlarining tilini o‘rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma’lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so‘zlar singari til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, lekin o‘zining paydo bo‘lishi va ba’zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma’naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo‘lib, ma’lum darajada boshqa guruh so‘zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq saklangan bo‘ladi.

Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg‘uloti, qazilma. boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi. Toponomika tarix, geografiya, etnografiya fanlari bilan chambarchas aloqada rivojlanadi.

Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki ba’zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o‘zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko‘pincha muayyan hududda yashagan xalklarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimlar xalklarning tarixiy o‘tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o‘tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo‘llari va shaxarlar geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga ko‘ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi toponomikaning amaliy jihati hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda obyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta obyektlar (materiklar, okeanlar, tog‘lar, cho‘llar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik obyektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, ko‘chalar, qo‘rg‘onlar va shu kabi) ning atoli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki ko‘pincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli xil geografik obyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponomikaning quyidagi bo‘limlari ajratiladi:

Gidronimika — suv havzalari: Daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko‘l kabilarning nomlarini o‘rganuvchi soha;

Oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, ovul, qo‘rg‘on nomlarini o‘rganuvchi soha.

Oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tog‘, cho‘qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini tekshiradigan soha;

Urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob’yektlar nomlarini o‘rganuvchi soha.

Kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob’yektlar (osmon jismlari) nomlarini o‘rganuvchi soha va boshqa So‘nggi 40—45 yil ichida toponomokaning nazariy va

amaliy asoslari ishlab chikdldi, toponomika sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi.

Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A.P. Dulzon, E.M. Murzayev, V.N. Toporov, O.N. Trubachev, O‘zbek nomshunoslaridan H.Hasanov, E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, 3. Z.Do‘simov va boshqalarning xizmatlari katta bo‘ldi. O‘zbekiston toponimiyasi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o‘rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarkand, Margilon, Qoqon, Buxoro, Boysun, Mirzachol, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi, toponomikaga oid bir necha lugatlar, risola va monografiyalar nashr etildi. H.Hasanovning “Yer tili” (1977), S.Qorayevning “Geografik nomlar manosi” (1978), Z.Do‘simovning “Xorazm toponimlari” (1985), T. Nafasovning “O‘zbekiston toponimlarining izohli Lug‘ati” (1988), N.Oxunovning “Joy nomlari ta’biri” (1994) va boshqa shular jumlasidandir.

Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘ladirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqargan.

Joy nomlari, *geografik nomlar* yoki *toponimlar* deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi.

Joy nomlari, ya’ni *toponimiya* bir necha turga bo‘linadi.

Bular, *gidronomiya* (yunoncha gidro - *suv),* ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari: *oronimiya* (yunoncha oros – *tog),* ya’ni yer yuzasining relef shakllari – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; *oykonimiya* (yunoncha oykos – *uy)*, *polinimiya* (yunoncha polis – *shahar)* yoki *urbanonomiya* (lotincha urbos – *shahar),* ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, *mikrotoponimiya* (yunoncha mikros - *kichik),* ya’ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hitto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar *etnotoponimlar* (yunoncha etnos – *xalq)* deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa *antropotoponimlar* (yunoncha antropos – *odam)* deb atash mumkin.

Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko‘llar, tog‘lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o‘rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi.

Geografik nomlar, ya’ni toponimlar til lug‘at tarkibining bir qismi bolib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Albatta, so‘zni tilshunoslik - lingvistika fani o‘rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan ***onomastika***

fanining bir qismi bo‘lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Tarixni o‘rganishda toponimiyaning o‘rni haqida referat tayyorlang.

2. Toponomik tadqiqotlar olib borishda boshqa tarix fanlarining o‘rni va ahamiyati haqida so‘zlab bering.

3. Turli xil geografik obyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponomikaning bo‘limlari haqida misollar bilan gapirib bering.

6- Mavzu: O‘zbekiston Etnotoponimlar.

Reja:

6.1- §. O‘zbekiston etnotoponimlarining shakllanish qonuniyatlari.

6.2- §. Toponimlar va etnotoponimlarning paydo bo‘lishi.

6.3- §. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi va geografik toponimlar ma’nosi.

Tuyanch atamalar va iboralar: *etnonim, etnotoponim, tarqalish areallari, etnik belgi, etnoponimlarning paydo bo‘lishi, etnoponimlarning etimologiyasi.*

6.1- §. O‘zbekiston etnotoponimlarining shakllanish qonuniyatlari.

Etnotoponimlar. Qadimiy kartalarga e’tibor berib qaralsa, asosiy toponimik yukni qabila va xalqlar nomlari, ya’ni etnonimlar tashkil etadi. Buni boisi shuki, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridan buyon aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Etnik belgi bilan nomlashda ijtimoiy voqelik bosh me'yor, mezon vazifasini o‘tagan. Masalan, Sug‘diyona, Baktriya, Iberiya. Parfiya kabi nomlarni eslash kifoya, chunki ularning barchasida etnik nom mujassam.

Chunki, xalqning eng ibtidoiy etnomadaniy belgisi va eng muhim qadriyatlaridan biri uning nomi bo‘lgan. Boshqacha aytganda, har qanday etnik birlik qadimda hududiy, iqtisodiy, lisoniy va kelib chiqishi jihatidan nasl-nasabidan tashqari, maxsus nomga ega bo‘lishi shart bo‘lgan. Shuning uchun, muayyan sharoitda tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonda vujudga kelgan etnik birlikning nomi ular yashaydigan hududga ham nom bo‘lib o‘tgan.

Har qanday etnik birlikni nomi etnonim (yunoncha, etnos - "xalq”, onim - "nom”) deb ataladi. Juda ko‘p joy nomlari etnonimlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Etnotoponimlarning aksariyat qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixi shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko‘rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Suv bo‘ylari, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay joylarda, yirik aholi punktlarida, turli etnik guruh vakillari aralash yoki yonma-yon yashagan joylarda etnotoponimlar

zichroq tarqalgan. Ba’zan. yo‘qolib ketgan xalqlar va tillarni tarqalish hududlarini aniqlashda etnotoponimik ma’lumotlar qo‘l keladi.

Etnonimlar juda qadimiy so‘zlar, ular yordamida xalqlar etnogenezini o‘rganish mumkin. Masalan. Xorazm etnografiyasini o‘gangan S.P.Tolstov bu haqda shunday ma’lumot yozib qoldirgan: “Avestoda yozishicha, jamiyat asosini urug‘ tashkil qilgan. Urug‘lar "vis” deb atalgan. U ma’lum bir qishloq aholisidan tashkil topgan bo‘lib, qishloqning o‘zi ham “vis” deb yuritilgan. Bu so‘zning keyingi davrlardagi shakli "diz” dir. Bir n echa urug‘ birlashib zantuni tashkil qilgan. Nihoyat qabilalar jttifoqi yoki viloyat daxu yoki daxyu deb yuritilgan”.

Joy nomlarida aks etgan etnonimlarning tahlili shuni jco‘rsatadiki, ko‘pincha qabila yoki urug‘ nomi, ba’zan ularning atrofdagi aholidan etnografik jihatlari bilan farqi etnonimning toponimga aylanishiga sabab bo‘lgan. Nomlashni o‘ziga xos qoidalaridan biri shuki, aksariyat hollarda aholi maskanlariga nom o‘zgalar tomonidan berilgan. Aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan.

V.A.Nikonov yozishicha, etnotoponimlar etnik guruh yaxlit vashaydigan hududda emas, balki uning chekka qismida, ya’ni boshqa bir etnik birlik bilan chegaradosh hududlarda paydo bo‘lgan. Masalan, qo‘ng‘irot yoki qang‘lilar yaxlit yashagan hududlarda qo‘ng‘irot, qang‘li kabi toponimlar uchramaydi. Shu narsa muhimki, boshqa etnik birliklar miqdoriy ko‘pchilikni tashkil qilgan hududlarda emas, ozchilikni tashkil qilgan hududlarda etnik belgi nomlanish uchun mezon, asos, belgi vazifasini o‘tagan.

Etnonim va toponim orasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini S.S.Gubayeva o‘z ilmiy ishlarida Farg‘ona vodiysi misolida ko‘rsatib bergan. Olimaning yozishicha, o‘tmishda aholisi ko‘chmanchi yoki yarim o‘troq havot kechirgan hududlardagi joy nomlarida etnonimlar soni ko‘p, aksincha aholisi qadimdan o‘troq bo‘lgan hududlardagi joy nomlarida etnotoponimlar kam. Bu qonuniyatni, ko‘chmanchi yoki yarim o‘troq tarzda hayot kechirgan aholini hududiy tarqalishida etnik mansublik muhim rol o‘ynaganligi bilan izohlash mumkin.

Etnotoponimlar - tarixan faol kategoriya sanaladi. Bu turdagi geografik nomlarga hududiylik, lakroriylik xos va u tarixiy - geografik sabablar, ya'ni etnoslarning tarqalishi, etnik aloqalar hamda xo‘jalik faoliyati xususiyatlari bilan bog‘liq. Nomning takroriyligi nom asosidagi so‘zning boshqa ijtimoiy, etnik, ruhiy, falsafiy xususiyati borligini ko‘rsatadi.

Nomshunoslikning asosiy qonuniyatlaridan biri takroriylik. Uning turi ham xilma-xil. Asosiy sababi xalq tafakkuridagi umumiylik, tabiat hodisalarini bir xil idrok qilinishidir. Inson tafakkuridagi, ma'naviyatidagi bu holat joy nomlariga ko‘chgan.

Etnotoponimlarning ma'lum hududda qayta takrorlanishiga etnik guruh vakillarini ijtimoiy hayot tarzi ham ta'sir ko‘rsatgan. Boshqacha aytganda, bir joyda yoki bir-biriga yaqin masofalarda aynan bir etnotoponimning takrorlanishi tasodifiy hoi emas. Gap shundaki, yarim o‘troq va ko‘chmanchi tarzda hayot kechirgan aholining o‘troq hayotga o‘tishida muayyan tafovutlar bo‘lgan. Shu sababdan, ayrim hududlar toponimiyasi tarkibida bitta etnik birlik nomi etnotoponim sifatida bir necha bor takrorlanadi. Mutaxassislar bitta etnotoponimning bir necha bor takrorlanishini etnik guruh vakillari butun urug‘i bilan emas, balki nisbatan kichikroq qisimlarga bo‘linib o‘troqlikka hayot tarziga o‘tganligi sabab bo‘lgan deyishadi.

Etnonimlarning joy nomlari shaklida qayta-qayta takrorlanishida ijtimoiy voqelik ham muhim rol o‘ynagan. S.Qorayev ma'lumotlariga ko‘ra respublika toponimiyasi tarkibida ayronchi, arg‘in, achamayli, bag‘anali, beshbola, burqut. galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg‘ali, uyas, qutchi kabi etnonimlar shahar va qishloqlar nomlari tarkibida 5 dan 10 martagacha; bolg‘ali, bolta, bahrin, qang‘li, qiyot, qirq, mirishkor, mo‘g‘ul kabi etnonimlar 11-20 martagacha; beshkapa, do‘rmon, jaloyir, qo‘ng‘irot, mang‘it kabi etnonimlar 21-30 martagacha; qipchoq, saroy etnonimlari 31-40 martagacha takrorlanadi.

Xorazm toponimiyasini tadqiq qilgan Z.Do‘simovni yozishicha, Xorazm etnotopnimlarining xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, ayrim etnik nomlar bir necha hatto o‘nlab etnotoponim sifatida uchraydi. Bu fakt mazkur hududda urug‘-

qabilaga bo‘linish, urug‘chilik xususiyati uzoq davom etganligidan dalolat beradi. Etnotoponimlar Shimoliy Xorazmda juda sermahsul. Urug‘-qabila nomi bilan ataluvchi toponimlarning ko‘plab takrorlanishi bu yerdagi xalqlarning keyin ko‘chib kelganligini ko‘rsatadi. Etnotoponimlar Janubiy Xorazmda shimolga nisbatan ancha barqarordir. Janubda etnotoponimlar deyarli uchramaydi.

Masalan, Nukus etnotoponimi Shimoliy Xorazmda o‘n ikki marta, janubda esa atigi bir marta uchraydi.

Xorazm etnotoponimlarining diqqatga sazovor joyi shundaki, ular respublikadagi aksariyat mintaqalardagi kabi kichik aholi maskanlarini nomini emas, balki ancha katta shaharlar (Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Qipchoq, Nukus) nomini tashkil etadi. Buni Xiva xonligida urug‘chilik boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq bo‘lganligi va har qaysi urug‘ o‘troqlikka o‘tganda o‘zini yaxlit turkum deb his qilganligi hamda mayda qishloqlarga sochilib ketmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlarga qarab qadimda ushbu hududda qanday etnik guruhlar istiqomat qilganligini bemalol bashorat qilish mumkin. Chunonchi, Nukus, Qarluq, Boyovut, Olot, Do‘rmon, Qurama kabi mashhur nomlar ham etnonimlar asosida paydo bo‘lgan. Ma’lumki, har bir etnonimning o‘ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Ularni bilmasdan turib O‘zbekiston toponimikasi bilan shug‘ullanish ancha qiyin, chunki urug‘, qabila nomlari ham muayyan m a’noni anglatadi. Masalan, urug‘ nomlarini bilmagan kishi Bolg‘ali, O‘roqli. Oytamg‘ali kabi etnonimlarni «-M» affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. Qirq, yuz, ming qabilalari nomlari toponimlar tarkibida kelganda sonni bildirmaydi.

O‘zbekiston etnotoponimlari orasida jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiydir, chunki odamlar birinchi bo‘lib ana shu hayvonlarni xonakilashtirgan. Qadimda urug‘larning muqaddas hayvonlari (totemi) bo‘lgan. Majusiylar davridan qolgan totemistik qarash insoniyatning tabiatga, tabiiy hodisalarga, turli mavjudotlarga munosabati majmui sanaladi. Masalan bo‘ri – etnonim (totem – qadimgi turk qabila-urug‘ning muqaddas jonivori), Zarafshon vodiysidagi qipchoqlaring *bo‘ri* degan urug‘i bo‘lgan. *Bo‘ri* so‘zidan tarkib topgan toponimlarning etnotoponim yoki zootoponim ekanini aniqlash oson emas.

Koʻpgina etnonimlar urugʻ- aymoq tamgʻasi nomi bilan atalganliar bir urugʻning oʻz tamgʻasi boʻlgan. Tamgʻalar dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi aholi oʻrtasida emas, chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini oʻtagan. Chorvachilik bilan shugʻullangan har bir etnik guruhning oʻz tamgʻasi boʻlgan. Tamgʻalar shakli, tuzilishi, tasviri, anglatgan ijtimoiy mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan farqlangan. Tamgʻa ramziy nishon, belgi vazifasini oʻtagan. Asosan chorvadorlar boshqalardan farq qilishi uchun oʻzlariga tegishli chorvani turli shaklda tamgʻalab qoʻyishgan.

Jizzax viloyati toponimiyasini oʻrgangan A. Zokirovning yozishicha, viloyat hududidagi etnotoponimlar tarkibida uchraydigan taroqli, choʻmichli, qirgʻili, bolgʻali kabi urugʻlarning tamgʻalari shaklan ana shu uy-roʻzgʻor anjomlariga oʻxshash boʻlgan. Bulardan tashqari, kishi ismlari, joy nomlaridan kelib chiqqan, kasb-hunar nomi, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi, urugʻ- ajdodlarni laqabi bilan bogʻliq etnonimlar ham mavjud.

Dunyo kartasiga e’tibor bilan qarasangiz koʻplab etnotoponimlarga koʻzingiz tushadi. Chunki, koʻpchilik mamlakatlarning nomlari xalq nomidan olingan, xalq nomiga iya”. "-iston qoʻshimchalari qoʻshilib, mamlakat nomi hosil qilingan. Bu hodisa davlatlarni nomlashda asosiy qonuniyatlardan biri sanaladi. Masalan, alban - Albaniya, portugal – Portugaliya, rumin - Ruminiya, bolgar - Bolgariya, turk - Turkiya, turkman – Turkmaniston, qirgʻiz - Qirgʻiziston, tatar – Tatariston, tojik - Tojikiston va hokazo.

Etnonimlar negizida paydo boʻlgan davlatlar nomini barcha qit’alarda uchratish mumkin. Xususan, qadimiy davlatlari bilan mashhur boʻlgan Yevrosiyoda bunday nomlar koʻplab topiladi. Yevropada – Belgiya, Bolgariya, Gretsiya, Italiya. Ruminiya, Shvetsiya: Osiyoda – Bangladesh, Laos, Tailand, Mongoliya, Turkiya; Af'rikada – Botsvana, Burundi, Mavritaniya, Malavi kabi davlatlar nomiga etnonimlar asos boʻlgan.

Birgina davlatlar nomi emas, balki etnonimlardan asos boʻlgan boshqa geografik obyektlar nomlari ham koʻp uchraydi, Masalan, Malik choʻli (malik - urugʻi nomi), Baraba dashti (baraba - urugʻi nomi), Parij (parizi - qabila nomi), Eri,

Guron ko‘llari (hindu qabilalari nomi), Appalachi tog‘lari (appalachi - hindu qabilasi). Dakota, Yuta, Ayova, Delaver, Oklaxoma kabi shtatlar nomlari ham hindu qabilalari nomlari bilan bog‘liq.

Etnonimlar toponimlar tarkibida uzoq muddat saqlanib qolsa ham, ammo vaqt o‘tishi bilan, ular tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Mutaxassislarning tlkricha, etnonimlar tarkibidagi «odam, inson, kishilar» kabi m a’nolarni anglatadigan so‘zlar eng qadimgi etnonimlar hisoblanadi.

6.2-§. Toponimlar va etnotoponimlarning paydo bo‘lishi.

Etnotoponimlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, turli-tuman ijtimoiy, tarixiy, lingvistik omillar bilan bog‘liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug‘, qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi.

Hozirgi kunda, xalqning etnik guruhlarga taqsimlash faqat ilmiy-tadqiqot ishlari va tarixiy qiziqishlar bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Shuning uchun, tobora unitilib borayotgan etnonimlarni to‘plash, tahlil va tadqiq qilish, etnonimlarning hududiy jolashuvi sabablari, tarqalish areali, etnonim va toponimning o‘zaro aloqadorligi, etnonimlar kartasini yaratish kabi muammolar soha tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Toponim-joy nom ham so‘z. Lekin toponimlar atoqli otlardir. Atoqli otlar til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar) dan kelib chiqqan. Qadimiy tillarda atoqli otlar bo‘lmagan deyishadi. Avstraliya, Afrika va Amerikaning tub joy xalqlari — aborigenlar tillarida atoqli otlar nisbatan kam uchraydi. Odamlar tevarak-atrofidagi o‘zlariga tanish kichik hududdagi joylarni masalan, «Baliq tutiladigan ko‘l», «Sel keladigan soylik», «Qo‘y qirilgan yaylov», «Cho‘chqali soy» kabi butun bir gaplardan iborat so‘z birikmalari bilan ataydilar.

Konkret geografik obyektlarni ifodalaydigan bunday so‘z birikmalari va turdosh otlar ko‘p bo‘lmaganidan bora-bora atoqli otlarga aylanadi.

Joy nomlarning paydo bo‘lishi umumiy tushunchaning konkretlashishi va individuallashishi oqibati. Turdosh otlar ana shu yo‘l bilan toponimlashadi, ya’ni

toponimlarga aylanadi. Masalan, olma so‘zi umuman olma bog‘larini ifodalaydigan umumiy tushuncha ekan, turdosh otligicha qolaveradi. Bu tushuncha individuallashsa, konkret bir obyektni ifodalay boshlasa va shunday qilib ayrim bir tushunchani bildirsa, atoqli otga aylanadi qoladi.

Kattajar so‘zlari individuallashmas, konkretlashmas, ya’ni biron obyektni ifodalamas ekan, salbiy relef shakllarini bildiradigan turdosh ot, apellyativ bo‘lib qolaveradi. Shunday qilib, toponimlar geografik tushunchalarning konkretlashishi hamda individuallashishi jarayonida turdosh otlardan paydo bo‘lgan va paydo bo‘laveradi.

Toponimlashish odatda dastlabki umumiy tushunchaning muayyan bir obyektga bog‘lanishi jarayonida ro‘y beradi. Shuning uchun bir so‘zning o‘zi yoki so‘z birikmasi ayni vaqtda turdosh ot bo‘lishi ham (agar tushuncha konkret bir obyektni ifodalamasa) yoki toponim ham bo‘lishi mumkin (geografik obyektni bildirsa). Masalan, ***bug‘doyzor*** bug‘doy ekilgan har qanday dala, ***Bug‘doyzor qiri*** esa konkret bir joyning nomi kabi.

Geografik nomlar turdosh otlar leksikasidan ajralib chiqqan paytdan boshlab o‘zi ifodalagan geografik obyektning belgilaridan uzoqlasha boradi. Toponimlar nutqda shu obyektning boshqalardan farqli nishonalarini ta’kidlashga emas, balki konkret obyektni boshqalardan ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Toponimga aylangan so‘z yangi ma’no kasb etadi, endi bu so‘z konkret, yagona, yangi bir tushunchaga aylanadi.

Geografik nomlar ko‘pincha geografik obyektni ifodlaydigan tushunchadan boshqa ma’no anglatmay qo‘yadi. Masalan, ***Qoraqishloq*** deganda, kichikroq aholi punkti tushuniladi. Qishloq ham qora rangda bo‘larmikan degan savol hammada ham paydo bo‘lavermaydi. Bu qishloqning nomi ***qora*** degan urug‘ nomidan kelib chiqqanini o‘zbek urug‘ qabilalarini mayda tarmoqlarigacha biladigan etnografgina aytib bera olishi mumkin.

Yoki ***Chorshanba*** qishlog‘ining nega shunday atalganligi to‘g‘risida ko‘pchilik o‘ylab o‘tirmaydi, uning qayerda,- qaysi viloyat, qaysi tumanda, qanday

qishloq ekanligi muhimroq. Shu yerda chorshanba kuni bozor bo‘lgani haqida tushuncha elas-elas esga kelishi mumkin.

So‘zning odatdagi ma’nosidan uzoqlashishi va muayyan obyekt bilan bog‘liq ***konkret, individual*** tasavvurning paydo bo‘lishi ***toponimlashish jarayoni sanaladi.***

Toponimga aylangan so‘z yangi ma’no kashf etish bilan ko‘pincha tipik toponim shakl oladi, toponimlar uchun xos bo‘lgan qo‘shimchalar (suffikslar) paydo bo‘ladi. O‘zbekiston toponimlari, xususan oykonimlari uchun — ***iston* (*Sho‘riston, Bog‘iston),-iya* (*O‘zbekiya, Mingiya), -kor* (*Paxtakor, Lalmikor), -cha* (*Quduqcha, Buloqcha)** kabi affikslar xarakterlidir.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarning toponimlashish darajasi turlicha. Ba’zi bir toponimlarda so‘zlarning toponimga aylanmasdan oldingi ma’nosi aniq bilinib turadi, boshqa bir xil toponimlarda qisman saqlanib qolgan, uchinchi bir xil nomlarda bilinar bilinmas seziladi, yana bir xillarida esa umuman yo‘qolib ketgan. Shuning uchun ham ma’nosi tushuniksiz bo‘lgan toponimlarni bir oz o‘zgartirib tushunarli qilish to‘g‘ri emas, bunday nomlar qadimiy tillardan qolgan qimmatli lisoniy va tarixiy yodnomalar bo‘lishi mumkin.

Ko‘pincha toponimlar grammatik va semantik jihatdan hozirgi shaklga kelgunga qadar talay o‘zgarishlarga uchragan. Toponimlarni paydo bo‘lishiga qarab ikki turga bo‘lish mumkin: tabiiy yo‘l bilan hosil bo‘lgan, xalq tomonidan qo‘yilgan toponimlar va sun’iy yo‘l bilan hosil qilingan, qaror bilan qo‘yilgan toponimlar.

Asli joy nomlar xalq ijodi mahsulidir. Ko‘pincha toponimlar dabdurustdan paydo bo‘lmaydi. Datlabki geografik obyektlar, masalan, qishloq turlicha atalishi mumkin. Aytaylik, relefiga, suv manbaiga uni o‘zlashtirishga hissa qo‘shgan kishilarning ismlariga, qarab «falonchi qishloq», «falonchining qishlog‘i» deb yuritilishi mumkin. Bora-bora shu nomlardan biri yutib chiqadi. Masalan, u *nayman urug‘ining qishlog‘* nomini oladi. Bunda chinakam toponimga aylanish jarayoni tugamaganidan toponim butun bir gapdan iborat va ishlatish uchun qo‘pol bo‘ladi va tilning leksik vositalarni tejash qonuniyatiga ko‘ra bu toponim nihoyat *Nayman* shaklini oladi.

Geografik nom uzoq tarixiy vaqt davomida turdosh ot shaklidagi qiyofasini butunlay o‘zgartirib yuborishi ham mumkin.

Masalan, otashparast — zardo‘shtiylarni musulmonlar *mug‘lar* deyishadi. O‘zbekistonda *Mug‘on, Mug‘xona* kabi toponimlar ana shu otashparastlardan qolgan. *Miq, Miqtepa* singari nomlar ham o‘sha mug‘ so‘zining jonli tildagi in’ikosidir. Yoki *xonaqoh Xonqa*, *Dizak (diz,* sug‘d tilida «qo‘rg‘on») *Jizzax*, *aqba* (arabcha dovon) *ovg‘a* shaklini olgan va hokazo.

Bir qancha toponimistlar geografik nomlar leksikaning boshqa qismlaridan farq qilib, sezilarli bir ma’noga ega emas va geografik obyektni boshqalardan ajratib ko‘rsatish uchungina xizmat qiladi degan fikrda.

Fonetik o‘zgarishlarni lisoniy tadqiqot yo‘li bilan aniqlasa bo‘ladi. Lekin geografik nomlar hech qanday ma’no tashimaydi, deyish to‘g‘ri emas. Bunday fikr toponimlarning qimmatli ma’naviy yodgorliklar sifatidagi rolini inkor qiladi. Geologlar qanchadan qancha qimmatbaho yer osti bovliklarining toponimlarga qarab topilganini isbotlab berdilar.

Shunday qilib, geografik, nomlar konkret geografik tushunchalarni ifodalaydi. Vaqt o‘tishi bilan geografik nomlarning umumlashish va yirikroq obyektlarni ifodalash jarayoni ro‘y beradi. Hozirgi katta bir hududning nomi dastlabki paytlarda kichik bir maydonni bildirgan va asta-sekin butun bir hududning nomi bo‘lib qolgan. Masalan, assuriyliklar Ege dengizining sharqiy sohilini miloddan awalgi ikki minginchi yillarda ***osu*** — «kun chiqish», «sharq» deb atay boshlagan. Keyinchalik butun bir qit’a shu nom bilan ataladigan bo‘lgan. ***Pomir, Tyanshan*** kabi yirik tog‘li o‘lkalarning nomlari ham dastlab biron eho‘qqi yoki kichikroq tog‘ni ifodalagan: xaritalar paydo bo‘lib, kishilarning geografik tasawurlari kengaygandan keyin esa beqiyos tog‘li hududlarga nom qo‘yish ehtiyoji tug‘ilgach, hozirgi tushunchani anglata boshlagan.

Ana shu aytilganlardan toponimika o‘rganadigan obyektlarning ko‘lami haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, mikrotoponimiya, mezotoponimiya va makrotoponimiya degan tushunchalar mavjud.

Mikrotoponiya kichik yer maydonlari, tabiiy yoki sun’iy chegara bilan ajralgan ekin dalalari, qabriston, quduq, tepalik kabi kichik obyektlarning nomlaridir, bunday nomlar hali uzul-kesil toponimga aylanib bo‘lmagan bo‘lishi mumkin: ***boning yeri, Mullaning qizi uchgan*** (qoya), ***Yo‘ldoshning oti uchgan*** kabi mikro toponimlarni rasmana toponimlar deb bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda ham grammatik, ham semantik jihatdan toponimlik huquqini olgan mikrotoponimlar ham kam emas. Jizzax viloyati Zomin tumanida Tamtum qishlog‘i atrofidagi mikrotoponimlar orasida ***Katta yo‘lning osti, Boltaboyning mo‘lasi*** (mo‘la-tosh terib qilingan belgi), ***Andizning teskayi*** (Andiz o‘simligi o‘sib yotgan kun teg‘ias yonbag‘ir), ***Orziboyning yolg‘iz toli, Yeryong‘oq*** chiqqich («Yeryong‘oq unib chiqadigan joy») kabi chala toponimlar uchraydi.

Shu bilan birgalikda ***Yusupning yeri, Turdiqulning chorbog‘i*** kabi toponimlashish arafasida turgan mikrotoponimlar ko‘proq uchraydi. Bunda ko‘pincha antroponim — kishi ismidan boshqa qo‘shimchalar tushib qolib, ellips toponimlar hosil bo‘lishi mumkin. Yuqoridaqayd qilingandek, bu ro‘yxatda ***It yetmas*** (chopqir bo‘lganidan «It yetolmas deb laqab olgan Muso ismli kishining yeri bo‘lgan), ***Nebo‘sa*** (o‘zbeklarning nebo‘sa urug‘idan bo‘lgan Xolmat ismli kishidan Sariboy bobo sotib olgan yer), Qalek (Xolbeksart ismli kishiga qarashli yer) kabi haqiqiy toponimlar ham bor.

Shunday qilib, mikrotoponimiyani toponimlarning beshigi deyish mumkin. Unda toponim hosil bo‘lishining barcha bosqichlarini kuzatsa bo‘ladi.

6.3. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi va geografik toponimlar ma’nosi.

O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi bor. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz (shuni aytish kerakki, etnonimlar etimologiyasi haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan; binobarin, uzil-kesil variantlar emas, chunki har qanday etimologiya ham nisbiydir). Bu so‘zlar ko‘plab etnotoponimlar semantikasi (ma’nosini) ni bilib olishga yordamlashadi

Abdal urug‘i Hindiston, Afg‘oniston va xususan O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o‘ynagan qadimiy xalq-eftalit, ya’ni haytallarning avlodidir. Haytallar (eftalitlar) Suriya, Yunon manbalaridayoq abdel deb atalgan.

Tarixchi Bal’amiy (X- asr) fikricha, haytal so‘zi Buxoro tilida «pahlavon», «jasur odam» degan ma’noni bildiradi.

Shu bilan birga keyingi vaqtlarda abdal deganda «gadoy», «darvesh» kishi tushunilgan. Shuningdek, artistlar, sozandalar, qalandarlar, maddohlarning jargoni «abdal (abdol) tili» deyilgan.

Abiz – qo‘ng‘irot va yuz qabilalarining bir urug‘i. Qozoqlarning jetiruv, qoraqalpoqlarning ashamayli qabilalarining bir urug‘i ham *abiz* (uyshun qabilasi urug‘i esa *abis)* deb atalgan. G‘allaorol, Jarqo‘rg‘on tumanlarida Abuz (Abiz) qishloqlari bor.

Avshar – qadimiy urug‘lardan biri. Arab geograflari Buxoro yaqinida Avshar degan qishloqni tilga oladilar. Abulg‘ozi Bahodirxon avshar so‘zini «ishini ildam ishlamoqchi» deb izohlaydi.

Arg‘in- bu urug‘ O‘rta Osiyoda qadimda yashab kelgan va Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida qayd qilingan arg‘u qabilasining o‘zginasi bo‘lsa kerak. «Boburnoma»da, O‘zbek urug‘larning dastlabki yozma shajarasi hisoblangan va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat-tavorix» asarida keltirilgan O‘zbek elatlari ro‘yxatida bu urug‘, arg‘un shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo‘g‘ulcha arg‘in (o‘zagi arg‘- duragay) so‘zidan kelib chiqqandir. Arg‘in (arg‘un) so‘zi qirg‘iz tilida hozir ham ana shu ma’noni anglatadi.

Arlot – Chingizxon o‘z o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim etgan to‘rtta mo‘g‘ul qabilasidan biri. Bu qabila hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismida o‘rnashib qolgan. Arlot qabilasi 92 O‘zbek "qavmlari" qatorida "Jome at-tavorix", "Ravzat us safo", "Shayboniynoma" da, "Abdullanoma", — Shajarai turki yodnomalarida, Navoiy asarlarida tilga olingan. Arlotlar nufuzli qabilalardan hisoblangan.

Asaka - O‘rta Osiyoda qadimda yashagan sak (saka) nomi bilan aloqador bo‘lsa kerak. Ba’zi bir mulohazalarga ko‘ra, asaka «otliqlar» degan ma’noni bildiradi. Asaka so‘zi joy nomlari shaklida ham uchraydi. Masalan, Andijon

viloyatidagi Asaka; Qoraqalpog‘iston hududida Asakaovdon botig‘i bor. Geologlar Asakaovdonning o‘rni yuqori to‘rtlamchi davrda ko‘ldan iborat bo‘lganligini aniqladilar (ovdon, to‘g‘risi obdon «suv ombori», «hovuz»).

Axtachi – qadimgi urug‘lardan biri. Bu urug‘ vakillarini Bobur ham tilga olgan. Axta mo‘g‘ul tilida, umuman «ot» (jumladan «bichilgan ot») demakdir. Axtachi esa «otboqar», «jilovdor» (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma’nosini beradi.

Bag‘anali – O‘zbek urug‘larining tarmog‘i. Bag‘anali «qorako‘l teri», «yosh qo‘zi terisi» demakdir. Bag‘ana so‘zining «stun» ma’nosi ham bor.

Barlos – O‘zbekiston hududida, asosan Qashqadaryo vohasida ko‘chmanchi O‘zbeklardan chig‘atoy ulusiga qo‘riqlash uchun yuborilgan 4 ta qabilalardan biri. Barlos so‘zi Abulg‘ozixonning fikricha «qo‘mondon», Alisher Navoiy asarlariga yozilgan «Badoeullug‘at»ga ko‘ra «bahodir» degan ma’noni bildiradi.

Boyovut – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lardan biri. Fazlulloh Rashididdinning (taxminan 1247-yilda Eronning Hamadon shahrida tug‘ilgan)[6] «Jome at-tavorix», Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug‘i tilga olingan. Boyovut so‘zi «boy», to‘g‘rirog‘i «boylar» «mulkdor» demakdir.

Dug‘lar, Duvlat – dastlab mo‘g‘ul qabilasining nomi bo‘lgan. Dug‘latlar Duklan degan kishidan tarqalgan; duklan (to‘g‘risi – dokolan) mo‘g‘ul tilida «cho‘loq» degan so‘z, dug‘lat esa bu so‘zning ko‘pligidir.

Irg‘anoqli (erganakli) – irg‘oqli urug‘i ham qayd qilingan. Ehtimol, bu ikkalasi bir urug‘ning turlicha talaffuz qilinishidir. Irg‘anaq «katak», «shox-shabbadan to‘qilgan chavra». Demak, bu urug‘ning tamg‘asi katak shaklida bo‘lgan. **Ko‘rpa, Ko‘rpali, Ko‘rpasoy, Ko‘rpaqishloq, Ko‘rpacha, Yangiko‘rpa** kabi etnotoponimlarning «yopinchiq» ma’nosidagi asli forscha ko‘rpa so‘ziga hech qanday aloqasi yo‘q.

Qadimiy turkiy tilda ko‘rpa so‘zi bir necha ma’noni anglatgan. Tarixiy yodgorliklarda ko‘rpa so‘zining «bara o‘t», «yosh bola», «qo‘zichoq», «uloqcha», «buzoqcha», «kepak» ma’nolari borligi qayd qilingan. Lekin ko‘rpa so‘zining

[6] Петрушевский И. П. Рашид-ад-дин и его исторический труд. С. 17.

koʻpgina maʼnolari unutilgan, shunga qaramasdan respublikamizning baʼzi joylarida bara bedani «beda koʻrpa boʻlib qolipti» deyishadi.

Urugʻlar hayvon nomlari bilan ham atalganini hisobga olsak koʻrpa etnonimi «qoʻzichoq» degan maʼnoni bildiradi. Chunonchi, mashhur tilshunos Abu Hayyon al Andalusiy (XIII - asr) asarlarida koʻrpa soʻzi ana shunday izohlangan.

Kerayt (Kerayit) – Oʻzbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Turli manbalarda kerayit soʻzi «qora qoʻy», «qora odam» yoki «qargʻa» deb izohlangan (toʻgʻrisi ham qargʻa), etnonim oxiridagi -«t» harfi koʻplik affiksidir.

Marqa – yuz urugʻining bir tarmogʻi. Marqa – «katta, ulkan» degan soʻz, marqa qoʻzi – ertaroq, martdan oldin tugʻilgan qoʻzi, egiz qoʻzilarning oldin tugʻilgani. Gavrilov fikricha, marqa (marqa yuz) – yuz urugʻining eng katta tarmogʻi, urugʻ boshining katta xotini – boybichadan tarqalgan.

Naymanlar – moʻgʻul urugʻi deb hisoblanar edi; olimlar naim soʻzi moʻgʻulcha «sakkiz» maʼnosini anglatadi deydilar.

Etnograf N.A. Aristov nayman soʻzi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan fikrni bildirgan. Soʻnggi maʼlumotlarga koʻra naymanlar asli turkiy qabila boʻlib, sakkizoʻgʻuzlarni moʻgʻullar oʻz tiliga moslab nayman deb ataganlar.

Ochamayli (Achamayli) – yuz urugʻining bir boʻlagi. Hoʻkiz yoki qoʻtosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun moʻljallangan egar ochamay deyilgan. Demak, bu urugʻning tamgʻasi egar shaklida boʻlgan. Etnograf N.A. Aristov ochamayli urugʻi och (ach) degan qadimgi qabila nomi bilan atalgan boʻlsa kerak, deb taxmin qiladi.

Solin – yuz urugʻining bir tarmogʻi. Solinlar Zarafshon vodiysida, Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin, Gʻallaorol tumanlarida qayd qilingan. Quloqning ichki yumshoq qismi solin (solinchoq-solichak) deyiladi.

Soʻloqli – yuz qabilasining tarmoqlaridan biri. Soʻloq soʻzining bir necha maʼnosi maʼlum – 1) qora jigar, taloq; 2) qoʻy-echki qulogʻining biron joyini kesib em solish, tamgʻalash usullaridan biri — quloqning oldingi tomoni oʻyib kesilsa, oldingi soʻloq, keyingi tomoni oʻyib kesilsa keyingi soʻloq deyilgan; 3) aravaning oʻqiga solinadigan temir.

Tobin – mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, «ellik» demakdir. Umuman turk-mo‘g‘ul qabila va urug‘larida raqam (son) bilan ataladigan nomlar uchraydi. Masalan, yuz, ming, do‘rmon (do‘rbo‘n – mo‘g‘ulcha do‘rt – «to‘rt») va hokazo.

Tobin urug‘idan bo‘lgan qozoqlar XIX asrda Sirdaryo bilan Ustyurt yaylovidan Tobol daryosi va Orenburg dashtlarigacha bo‘lgan hududda yashaganlar. Tobinlar, shuningdek, O‘zbeklar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham uchraydi.

Tortuvli – Tortuvli urug‘i qo‘ng‘irot urug‘ining ajdodi Qo‘ng‘irot otaning kichik xotinidan tarqalgan ekan; Qo‘ng‘irot ota keksayganda uning kichik xotini o‘g‘il tug‘ib, tortuv (tortiq – sovg‘a) qilgani uchun, undan tarqalganlar tortuvli deb atalgan ekan.

Uyaz (uyas) marqa urug‘ining 16 tarmog‘idan biridir. Uyaz boshqa urug‘lar tarkibiga ham kirgan. Masalan, solin urug‘ining bir shoxi uyazsolin deyiladi. Uyaz (uyas) joy nomlari shaklida ham uchraydi. Qadimiy tilshunos olimlardan Abu Hayyon al-Andalusiy va Jamoliddin Tusiy asarlarida uyaz so‘zi «pasha, chivin» deb izohlangan.

Chinoz (asli **chinas, chinos**) – mo‘g‘ullar hukmronligi davrida bo‘lgan qabila. Chin-mo‘g‘ul tilida «bo‘ri» demakdir; -«s» esa ko‘plik qo‘shimchasi bo‘lib, bo‘ri chinoslarning totemi hisoblangan.

O‘zbekistonda, xususan Buxoro vohasida **Chandir** degan qishloqlar uchraydi. Mahalliy xalq qishloq nomini «chodir» (chayla), «chandir teri» degan so‘z deb izohlaydi. Aslida esa chandir turkman urug‘i bo‘lib, O‘zbeklar tarkibida ham tilga olingan. Abu Hayyon chandir so‘zini «duragay, qurama» deb izohlagan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, ko‘pgina etnonimlar, chunonchi, qalmoq, arg‘in «duragay, qurama» degan ma’noni anglatgan. Aslini olganda boshqalar bilan aralashib, chatishib ketmagan bironta ham xalq yoki qabila yo‘q — barcha ellar, urug‘lar bir-birlari bilan aralashib, qo‘shilib ketgan.

O‘tarchi – bir qancha ro‘yxatlarda, chunonchi Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat-tavorix» asarida qayd qilingan urug‘. O‘tarchi so‘zi qadimiy turkiy tilda «vaqtincha yashovchi» (ko‘chmanchi) ma’nosini anglatgan. Bu so‘zning «Sinchi», «Ot tabibi» degan ma’nolari ham bor.

Qalmoq – qalmoqlar koʻchmanchi Oʻzbeklardan oldin ham Movaraunnahrda yashagan va turkiylashgan moʻgʻul qabilalarining avlodlari boʻlsa kerak. Muhammad Solihning «Shayboniynoma»sida aytilishicha, qalmoqlar Shayboniyxonga qarshi Buxoro hokimi Boqitarxon tomonida turib jang qilganlar.

Qalmoq soʻzi turkiy «qolmoq» feʼlidan olingan, bu soʻz islom dinini qabul qilmasdan majusiylar holida qolgan oʻyrotlarni anglatgan, deyilgan. V.P. Darbakova qalmoq soʻzi moʻgʻulcha «duragay», «aralash», «qurama» degan maʼnodagi xalmig soʻzidan kelib chiqqanligini aniqladi. Haqiqatan ham aslida oʻyrotlardan ajralib chiqqan qalmoq urugʻi juda koʻp urugʻ-qabilalar aralashmasidan iborat boʻlgan.

Qarapchi urugʻi baʼzi bir roʻyxatlarda 92 bovli Oʻzbek urugʻlaridan biri qatorida tilga olingan; Surxondaryo viloyatida qarapchi 16 uruqqa boʻlinadi, baʼzan esa yuz urugʻining katta bir boʻlagi sifatida qayd qilingan. Baʼzi olimlar fikricha, qarapchi soʻzi qarovchi nozir, nazorat qiluvchi deganidir, chunki qarapchilardan biylar, beklar, qoʻmondonlar koʻp chiqqan ekan. Qadimiy tilshunos olim Abu Hayyon al-Andalusiy qarapchi soʻzi «qashshoq», «kambagʻal» degan maʼnoni bildiradi.

Qiyot Abulgʻozi Bahodirxon fikricha, moʻgʻulcha «togʻdan oqqan sel» maʼnosidagi qiyon soʻzining koʻpligidir. Bu fikrni V.V. Radlov ham isbotlaydi. Bundan chiqadiki, qiyonni (qiyonli) urugʻining etimologiyasi ham oʻsha moʻgʻulcha qiyon soʻzi bilan maʼnodoshdir.

Qovchin – Oʻzbek urugʻlaridan biri; baʼzi bir fikrlarga koʻra qovchin, qutchi yoki qushchi bir urugʻdir. Akademik V.V. Bartold fikricha, qovchin soʻzi dastlab urugʻ yoki qabila nomi boʻlgan emas, balki «qoʻshin qoʻmondoni» yoki «qoʻshin» maʼnosini anglatgan. Qovchin soʻzining «xoʻjayin», «mehmon» degan maʼnolari ham bor. Qovchin joy nomlari shaklida uchraydi. Chunonchi, Yangiyoʻl shahrining oldingi nomi Qovunchi ham aslida qovchin boʻlgan boʻlsa kerak. Shuningdek, Samarqand tumanida Qovchinon (Qovchinlar) nomli qishloq ham bor.

Qurqozon – Oʻzbeklarning bu urugʻi Samarqand va Jizzax viloyatlarida qayd qilingan. Qurqozon asli qoraqozon boʻlgan, degan fikr bor. Qoraqozon soʻzi ikki maʼnoda ishlatilgan:

1) Bir necha qishloqni o‘z ichiga olgan jamoa, bu qishloqlar hashar, ariq tozalash kabi ishlarni birgalashib bajarishgan;

2) Harbiy xizmatga chaqirilgan kishi. No‘kar (navkar)lar muntazam armiya hisoblangan, qoraqozon (yoki qora cheriklar) esa harbiy xizmatdan tashqari o‘z qo‘mondonlarining ekish-tikish ishlariga yordam bergan, mollarga qaragan.

Zambarakning qadimiy, kalta bir turi qozon deyilgan. Bobur «qozon qurdik», «qozon bilan tosh otdi» deganda ana shu to‘pni nazarda tutgan («Boburnoma» tarjimoni Mixail Sale ham bu so‘zni rus tiliga ana shu ma’noda tarjima qilgan).

Biz yuqorida etnonimlar haqida, etnonimlarni o‘rganadigan etnonimika fani to‘g‘risida, O‘zbekistondagi ba’zi bir urug‘-qabilalar geografiyasi va ayrim etnonimlar etimologiyasi, ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Har qanday etimologiya, xususan aksari qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Tobora unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash, ya’ni etnonimlardan nom olgan toponimlar bilan birgalikda urganji, qo‘qoni (qarapchi) kabi joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlarni alohida qayd qilish etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

Tarixiy manbalarda Dalvarzin qabilasi tilga olingan. O‘zbekistonda Dalvarzin degan joylar ko‘p (Toshkent, Andijon, Surxondaryo viloyatlari). Xo‘sh, bu joylar etnonimdan joy olganmi yoki aksinchami? Bu etnonimning ma’nosi nima? Dalvarzin asli termin. Bunday deyish uchun quyidagilarga asoslanamiz. Qozog‘istonda va Qirg‘izistonda **Do‘rbo‘ljin** degan joylar bor. Afg‘onistondagi tarixiy bir joy **Dilberchin** deyiladi. Sirdaryo bo‘yidagi **Dalvarzin** cho‘lini tojiklar **Dilvarzin** deyishadi; bu cho‘lning mahalliy talaffuzi ham asli **Delbarzin**. Ana shu joy nomlarining hammasi mo‘g‘ulcha do‘lbo‘rjin, ya’ni «choldevor» (shahar xarobasi) so‘zidan kelib chiqqan deb hisoblaymiz. Demak dalvarzin qabilasi joy nomi bilan atalgan.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Etnonimika ana shu kabi muammolarni hal qilishga ko‘maklashadi.

Jaloyir (Jalair) – O‘zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk - mo‘g‘ul qabilasi. O‘zbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota tog‘lari etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Navoiy, Qorako‘l tumanlarida, Xorazmda yashagan va ikkita katta – *qaychili* va *bolg‘ali* hamda boshqa mayda urug‘larga (qarg‘ali, boshqird, qoraabdal, qorako‘li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) bo‘lingan. Zomin, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Xatirchi, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida Jaioyir, Rishton tumanida Jaloylrchek qishloqlari bor.

Ming (mingli), minglar – O‘zbeklarning yirik qabilalaridan bin. XIX asr boshlarigacha minglarning ko‘pchilik qismi hozirgi Samarqand, Jizzax viloyatlari, qisman Farg‘ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida, Tojikistonda esa Hisor vodiysida yashagan. Zarafshon vodiysida minglar uch urug‘ga va bir qancha tarmoqlarga bo‘lingan: 1) *to‘g‘ali* (ahmat, chag‘ir, to‘yinamoz, oqshiq va b.); 2) *uvoq tamg‘ali* (alg‘ol, chaut, jayll, o‘ramas, to‘qnamoz, kiyuxo‘ja, yarat); 3) *bog‘lon* (chubli, qora, mirza va b.).

Mojor -Ko‘chmanchi O‘zbeklar tarkibidagi qabila. Mojorlar XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Samarqand atrofidagi tog‘ etaklarida, Shahrisabz vohasida yashagan. Ular Vengriyaning asosiy xalqi madyarlar (mojorlar) bilan qon-qardosh qavm deb hisoblanadi.

Mug‘ot - O‘rta Osiyo lo‘lilari o‘zlarini shunday aytadi. *Mug‘* «otashparast» so‘ziga arabcha ko‘plik affiksi *-ot* qo‘shilib yasalgan. Vobkent tumanida Mug‘ot degan qishloq qayd qilingan.

Nayman – Yirik qabila uyushmasi. Ko‘plab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX - asrning 70-yillarida O‘zbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Farg‘ona vodiysi va Xorazmda yashaganlar. O‘zbek-naymanlar XIX asrning oxirida 3 ta yirik urug‘ga bo‘lingan: qo‘shtamg‘ali, sadirbek va uvoxtamg‘ali. Bulardan tashqari O‘zbek naymanlarning toponimlar shaklda qayd qilingan ko‘pdan ko‘p urug‘lari bo‘lgan: ag‘ran, ayronchi, badir, biya, bag‘anali, boltali, bo‘qatey, burunsov, jag‘albayii, jastavon (jeztovon), jilonni (ilorli), jumaloqbosh, oltiota, oltio‘g‘il, oqto‘nli, po‘latchi, sarinayman, to‘rtuul (to‘rt o‘g‘il), to‘rt tamg‘ali, urguch, ukrash,

changali, cho‘michli, qarg‘ali, qozoyoqli, qorasira (qorasiyroq), qiltamg‘ali, qo‘ltamg‘ali va boshqalar.

Oybek – O‘zbek urug‘laridan biri, qirg‘izlarda adigine qabilasining bir urug‘i, Chinoz tumanida Oybek, Bulung‘ur tumanida Oybekto‘p qishloqlari bor. Surxondaryodagi To‘polondaryoning bir irmog‘i Oybeksuv deb ataladi. Afg‘onistonda Aybak degan shahar bor. *Aybaki charm* shu shahardan keltirilgan bo‘lsa kerak (aybaki maxsi).

Saroy – yirik O‘zbek qabilalaridan biri. Uning vakillari asosan Buxoro vohasida, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Andijon viloyatlarida yashagan. Qabila *azsaroy, qipchoqsaroy, qirg‘izsaroy, qo‘ng‘irotsaroy, majarsaroy, qorabog‘saroy, naymansaroy, chemsaroy, jomonsaroy, oltintamg‘alisaroy, jolong‘och (yalang‘och) saroy* kabi yirik tarmoqlarga bo‘lingan. Respublikada 50 dan ortiq qishloqlar *saroy* urug‘i nomi bilan atalgan.

Tama – O‘zbek urug‘i. Tamalar mesit va jobu (yobu) urug‘lari bilan *uchurug‘* birlashmasini tashkil etgan. Qozoq, qirg‘iz, quramalar tarkibida ham *tarna* urug‘i bo‘lgan. Navoiy, Xonqa, Ellikqal'a, Narpay, Quyi Chirchiq, Amudaryo tumanlarida Tama, Xatirchi tumanida Tamabahrin, Bo‘ka tumanida Tamaovul qishloqlari qayd qilingan.

Tarag‘ay – O‘zbeklarda qayd qilingan urug‘ nomi. Qozoqlarda, Yoqutlarda ham *tamg‘ay* urug‘i bo‘lgan. Chiroqchi tumanida Tarag‘ay (Bosh Tarag‘ay, O‘rta Tarag‘ay, Past Tarag‘ay) qishlog‘i bor (Amir Temur tug‘ilgan joy), Qirg‘iz tilida qarag‘ay o‘smaydigan balandlik *tarag‘ay* deyilar ekan, qozoq tilida esa *talagay* - balandlik degani.

To‘qsabo. Bu atamaning bir necha ma’nosi bor. Buxoro xonligidagi (amirligidagi) yuksak harbiy mansablardan biri. Lug‘aviy ma’nosi ham *tug‘ (*tuq) – «bayroq» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘z bayrog‘i bor (qo‘shin)» degan ma’noni bildiradi. O‘zbekiston, Jondor tumanlarida Tuksava (Tuxsava), Romitan tumanida Qo‘shto‘qsoba qishloqlari qayd qilingan. O‘rta asrilarda qipchoq qabilalaridan biri. U keyinchalik parchalanib turli urug‘-qabilalar tarkibiga qo‘shilib ketgan. Masalan, qozoqlarning baybaqti urug‘i, O‘zbeklarning laqay qabilasi tarkibida *to‘qsoba* shoxi

qayd qilingan. *To‘qsoba* etnonimi *to‘q* va *saba* degan ikki urug‘ nomidan olingan bolishi mumkin. *To‘q* so‘zi etnonimlar tarkibida uchraydi: *to‘qmang‘it, to‘qsaroy, to‘qboy, to‘qmon* kabi. *Saba* «mesh», «sanoch» demak.

Urganji – joy nomi bilan atalgan qavm. Urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin Buxoro tomonga kelib o‘rnashib qolgan hunarmandlarning avlodlari. Boshqa bir ma’lumotlarga ko‘ra XVII asr oxirlarida Urganchdan ketib Buxoro va boshqa yerlarga o‘rnashgan O‘zbeklar. Turkmanlarda ham *urgenji (urgenchli)* etnonimi bor. Samarqand, Buxoro, Navoiy, Andijon, Namangan viloyatlarida Urganji (Urganjilar, Urganjiyon, Urganjixona) qishloqlari anchagina uchraydi.

Xalaj (xalach) – qadimiy turk qabilasi. Vakillari Tojikiston, Ozarbayjon, O‘zbekistonning ba’zi joylarida yashagan. Vobkent tumanida Xalaj, Shofirkon, Vobkent tumanlarida Xalajiyon, Ishtixon tumanida Xalajon qishloqlari qayd qilingan. Mahmud Qoshg‘ariy *xalach* asll «qol och», ya’ni «och qol» degan ma’noni bildiradi degan edi. Xalajlar husnli, chiroyli kishilar bo‘lar emish.

Chambil – dostonlarda afsonaviy yurt nomi. *Chambil* degan etnonim ham bor. Qo‘ng‘irot qabilasining qanjig‘ali va qo‘shtamg‘ali urug‘larining bir bo‘limi *chambil* deb atalgan. Xovos, Denov, Ishtixon, Norin tumanlarida Chambil, Bulung‘ur tumanida Chambiltepa qishloqlari ana shu etnonimdan nom olgan.

Chimboy – ko‘chmanchi O‘zbeklarda urug‘ nomi. Go‘zalkent, Kitob, Beshariq, Quva tumanlarida Chimboy, Bo‘stonliq tumanida Chimboyliq qishloqlari bor. Qoraqalpog‘istondagi Chimboy shahri Shiniboy-Shimboy (O‘zbekcha talaffuzda Chimboy) shu yerni obod qilgan kishining ismi deb taxmin qilinadi.

Qarg‘a – umum turkiy etnonim: Oltoyliklar, Boshqirdlar, Qoraqalpoqlar, Qirg‘izlar, Xakaslar, O‘zbeklar (qo‘ng‘irot va yuz qabilalari) tarkibida qayd qilingan urug‘. O‘zbek qipchoqlar va saroylar ichida *qarg‘aoyoq* yoki *qarg‘aoyoqli* urug‘i uchraydi.

Qoracha – O‘zbeklarda qatag‘on, qirq, laqay, saroy qabilalari tarkibida, qozoqlarning jetiruv, qirg‘izlaniing munduz, saruu qabilalari tarkibida *qoracha*

(qaracha) urug‘i qayd qilingan. Ishtixon, Narpay, Xatirchi, Jalaquduq tumanlarida Qoracha qishloqlari bor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Etnotoponimlarining shakllanish qonuniyatlari haqida referat tayyorlang.

2. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi va geografik hududiy joylashuvi haqida manbalar asosida tahliliy matin tayyorlang.

3. Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlar etnik tarixni o‘rganishdagi ahamiyatini izohlab bering.

4. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi bilan shug‘illangan olimlar va ularning asarlari haqida gapirib bering.

7- Mavzu: O‘zbekiston Antropotoponimlari.

Reja:

7.1-§. ***Antropotoponimlarning shakllanish qonuniyatlari.***

7.2-§. ***Antropotoponimlar haqida umumiy tushuncha.***

7.3-§. ***O‘zbekiston antropotoponimlarining hududiy tafovutlari.***

Tuyanch atamalar va iboralar: *Antropotoponim tarqalish areallari, etnik belgi, memorial va mafkuraviy nomlar.*

7.1-§. Antropotoponimlarning shakllanish qonuniyatlari.

Antroponimika ikki eng keng fan sohalari o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik xos nomlar (toponimika va antroponimiya) antroponimlarning toponimizatsiya jarayonlarini o‘rganuvchi maxsus bo‘lim – antroponimikaning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Har bir tarixiy davr ma’lum bir hudud antroponimiyasida o‘z izini qoldiradi: antroponimikaning toponimikadagi ulushi bir xil emas, tevarak-atrofdagi obyektlarga antroponimik nomlar berish tamoyillari har xil. Antroponimik tizimning faoliyat ko‘rsatish va rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish tanlangan hudud toponimikasini o‘rganishda asosiy talablardan biridir. Muayyan tilning geografik nomlarini o‘rganuvchi toponimist bu tilning antroponimiyasini parallel ravishda o‘rganmay qolmaydi.

Antroponimik qatlamlar va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar o‘rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga ega, chunki nomlar ham, umuman til kabi, ijtimoiy bo‘lib, ijtimoiy tizimda va jamiyat mafkurasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga osongina javob beradi. Shuning uchun antroponimlarning o‘zi xalq tarixini o‘rganish manbalari va antroponimikaning yaratuvchisidir.

Ibtidoiy jamoa tuzumidagi odamlarning xsusan urug‘chilik jamoasining dastlabki bosqichda ham antroponimik nomlarni qo‘yish va ishlatish murakkab edi. Uning tarkibiy qismlaridan biri hayvon nomi, ya’ni afsonaviy nomlar (odatda hayvon, qush, jonsiz narsa) edi. Bu hayvon yoki jonzot ism (aniqrog‘i insonlarga qo‘yilgan taxallus) urug‘ga tegishli, ekanligini ko‘rsatgan. U shuningdek, tozalovchi vazifasini ham bajargan: qadimgi odamlar nazarida yovuz ruhlarni qo‘rqitgan, yovuz ruhlarni mag‘lub etgan, qarindoshlari va ularning avlodlariga homiylik qilgan

va har xil foyda keltirgan. Hayvon taxalluslar kishilarga nisbatan qon qardoshlik aloqalari uchun ham ishlatilgan. Agar, masalan, oilaviy totem boy qush bo‘lsa unda kishi taxalluslari: Katta boy qush, O‘rta boy qush, Kichik boy qush va h.k.

Antroponimik qatlamlar va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar o‘rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga ega, chunki nomlar ham, umuman til kabi, ijtimoiy bo‘lib, ijtimoiy tizimda va jamiyat mafkurasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga osongina javob beradi. Binobarin, antroponimiyaning yaratuvchisi – xalq tarixini o‘rganish uchun antroponimlarning o‘zi ham manba hisoblanadi.

7.2-§. *Antropotoponimlar haqida umumiy tushuncha.*

Antroponim oddiy so‘z emas, balki o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lgan alohida so‘zlar qatlamidir. Ba’zan, turli sabablarga ko‘ra kishilar nomi geografik obyekt nomiga aylanadi. Toponimikada har qanday antroponimdan nom olgan geografik obyekt nomi antropotoponim deyiladi. Shu sababdan, bir qator geografik obyektlar nomlariga antroponimlar (yunoncha, antropos-"odam"), ya’ni kishilarni ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi, nisbasi va shaxsni atashlikning turli usullari asos bo‘lib xizmat qilgan.

Antropotoponimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular joy nomlarini boshqa turlariga qaraganda ancha beqaror hisoblanadi. Ba’zan ularni tuzilishi va semantikasi ham o‘zgaradi, ko‘pchilik hollarda geografik obyektni yo‘qolishi antropotoponimlarni iste'moldan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Antroponimlaring joy nomiga aylanish jarayoni turli omillar ta’sirida kechadi. Bu avvalo ikki tizimning bir-biri bilan yaqin munosabati va ularning o‘zaro xarakterli xususiyatlari bilan bog‘liq. Chunki, antroponimlar ham xuddi toponimlar singari individuallashadi. kishini, ma’lum bir shaxsni etnik belgisi, milliy xususiyatlari, urf-odatlari, ijtimoiy- siyosiy qarashlarini o‘zida ifoda eladi.

Shu sababli, ham ular orasidagi o‘zaro munosabal juda qadimdan boshlangan. Ko‘plab kishi nomlarining joy nomiga yoki aksincha joy nomlarining kishi nomlariga aylanishi xuddi shu omillar bilan bog‘liq. Antroponimlar toponimga aylanib, barcha geografik nomlar kabi o‘zining eng muhim vazifasi bo‘lgan obyektni farqlovehi, boshqalardan ajratuvehi, ya’ni adreslik funksiyasini bajaradi.

Taniqli olim Z.Do‘simovning yozishicha, antroponimlarning toponimga aylanishida shaxs va obyekt munosabati muhim rol o‘ynaydi, Avvalo biror hududdagi kishilar yoki shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni muhim belgi bo‘lib xizmat qiladi. Bu belgilar turlicha ifodalanishi mumkin, kishilarning kasbi, mashg‘uloti, mansabi, etnik taaluqliligi, laqabi kabi qator individual turlarda aks etadi.

Darhaqiqat ko‘pgina ijtimoiy terminlarning, laqablarning va ba’zi etnonimlarning toponimga aylanishida antroponimlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu xildagi belgilarning ko‘pchiligi o‘zo‘zidan joy nomiga aylanmaydilar dastavval kishi nomi bilan birga qo‘llaniladi. Vaqt o‘tishi bilan turli omillar asosida joy nomiga o‘tadi. Masalan, Turdiqulning chorbog‘i, Qurbon otaliqning yeri, Xo‘jamurod yuzboshining ovuli va hokazo.

Kishi ismlarining oykonimlarga o‘tishi xususiy mulkchilik, yangi yerlarni o‘zlashtirish, yangi qo‘rg‘onlar qurish kabi ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq,

Yu. Ahmadaliyevning yozishicha, antropotoponimlarning vujudga kelishi jamiyatda sinflar paydo bo‘lishi, quldorlik tuzumini shakllanishi kabi ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm davriga kelib hududning asosiy farqlovchi belgisi sifatida uning kimga qarashli ekanligi nisbat qilib olingan. Nalijada katta hududlar, qishloq va mahallalarga yirik feodallar, urug‘ va jamoa boshliqlari, mahalliy hukmdorlar nomi berilgan.

7.3-§. *O‘zbekiston antropotoponimlarining hududiy tafovutlari.*

Antropotoponim ko‘pincha nom uchun asos bo‘lgan shaxsning tarixda egallagan mavqeini eslatib turadi. Masalan, Iskandar (ruscha, Aleksandr) dunyoni zabt qilish maqsadida, bosib olgan hududlarida Iskandariya (Aleksandriya) nomi bilan bir necha shaharga asos solgan. O‘rta yer dengizi sohilidagi port shahar Iskandariya shulardan biridir. Qolganlari asta sekinlik bilan o‘z nomini o‘zgartirgan. Miloddan oldin O‘rta Osiyoni zabt etgan lskandar, g‘alabasi sharafiga Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) shahrini barpo etgan. Qadimiy shaharning xarobalari hozirgi Xo‘jand shahri atrofida topilgan.

Boshqa misol, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida Chig‘atoy degan qishloqlar bor.

Chig‘atoy (1242 yilda vafot etgan) - Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li. Chingizxon hayotligidayoq zabt etgan yerlarini o‘g‘illariga mulk qilib taqsimlab berganda, Movarounnahr ikkinchi o‘g‘li ixtiyoriga o‘tgan. Binobarin, XIII asrning oxiridan boshlab, Movarounnahr Chig‘atoy ulusi deb atalgan. Ma’lumki, keyinchalik nomning ma’no va qo‘llanish doirasi kengaygan va kishi ismi bo‘lishidan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, harbiy hamda etnik ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan XV asrdan e'tiboran Movarounnahr va sharqiy Xurosonning barcha turkiy aholisini chig‘atoylar deyishgan.

Shaxslarning ism-familiyalariga qo‘yilgan nomlar haqida H.Hasanov shunday yozgan: “Agar geografik karta tilga kirsa edi jami sayyoh va jasur yo‘l boshchilarning xizmatlari namoyon bo‘lar edi. Karta ko‘pgina olim va dengizchilar - o‘sha yerni tekshirgan, o‘sha yerdan suzib o‘tgan yoki muhim asar yozganlarning nomlarini mangu saqlaydi”. Fedchenko muzligi, Mikluxo-Maklay qirg‘og‘i, Ismoil Somoniy cho‘qqisi, Mirzo Ulug‘bek metro bekati, Amir Temur darvozasi kabi minglab nomlar shular sirasiga kiradi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida, yangi kashf qilingan geografik obyektlarga ko‘pincha, yangi yer ochuvchi. noma’lum o‘lkalarga borib, jonini garovga qo‘ygan tadqiqotchi olimlar, sayyohlarni nomlari berish ancha keng tarqalgan. Ular qatoriga Livingston - sharshara; Magellan - bo‘g‘iz: Kuk - orol. bo‘g‘iz, tog‘: Stenli - sharshara; Bering - bo‘g‘iz, dengiz; Amundsen - dengiz: Flinders – orol, tog‘, daryo va boshqalarni kiritish mumkin. Arktika va Antarktidada Dejnev, Laptev, Litke, Cherskiy, Vrangel. Makarov, Belinssgauzen, Lazerev, Skott, Chelyuskin kabi tadqiqotchi va sayyohlar nomlarini uchratish mumkin. Bular asosan tabiiy - geografik obyektlar bo‘lib, ularni kashfiyotchilari yoki tadqiqotchilari nomlari bilan atashgan.

Osiyo va Amerika qifalari hamda Tinch va Shimoliy Muz okeani oralig‘ida Bering bo‘g‘izi va dengizi joylashgan. Dengiz va bo‘g‘iz ushbu hududlarni o‘rgangan 1-chi va 2-chi Kamchatka ekspeditsiyalari kapitani V.Bering sharaflga atalgan. Nom XVIII asr oxirida shimoliy-sharqiy Osiyoni tadqiq etgan ingliz

dengizchisi J. Kuk tomonidan berilgan. Rus sayyohi V.Golovin tashabbusi bilan dengizni ushbu nom bilan atash rasmiy tus olgan.

Hozirgi Avstraliyada Bayron burni, York burni, Bass bo‘g‘izi, Myorchison, De-Grey, Mitchell, Gregori, Viktoriya daryolari, Uels ko‘li, Ogastes, Makdonell tog‘lari mashhur kishilar, materikni tadqiq etgan va o‘rgangan sayyohlar nomiga qo‘yilgan. Antraktida materigida ham turli dengizchi sayyohlar va boshqa shaxslar nomi bilan atalgan geografik obyektlar ko‘p: Viktoriya Yeri, Uilkins Yeri, Adeli Yeri, Jekson tog‘i, Uedell, Bellinsgauzen, Amundsen, Ross dengizlari, Petr I, Skott orollari. Darvoqe' Adeli Yeri fransuz, sayyohi J.Dyumon-Dyurvil tomonidan 1840 yilda kashf etilgan va unga xotini Adel sharafiga shunday nom bergan.

Kartalarda tarixiy shaxslar, sarkardalar, davlat arboblari nomlari ham muxrlangan. Petr I. Vashington, Xoshimin, Viktoriya, Mak-Kinli, Aleksandr va hokazo kabi davlat va siyosat arboblari nomiga qo‘yilgan geografik obyektlar bunga yaqqol misol bo‘ladi. O‘rta Osiyoning eng baland cho‘qqisi (Pomirda
7495 m.) - Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy nomi bilan atalgan. Mikluxo-Maklay, Prejevalskiv, Seversov, Anuchin, Korjenevskiy, Mushketov, Oshanin, Fedchenko kabi atoqli olimlarning nomlari ham, turli geografik obyektlar nomlari sifatida uchraydi.

Jahon fani, madaniyati, ma’naviyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shgan allomalarning, vatan ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan, jonini fido qilgan vatanparvarlarning nomlari ham joy nomlarida mangu saqlanadi. Bunday nomlarga Beruniy, Navoiy, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi kabi nomlarni ham kiritish mumkin. Ba’zan, davlat bosh 1 iqlari, podshohlar, sayyoh va tadqiqotchilarning sevikli kishilari, hatto qaroqchilar nomlari ham kartada abadiylashib qolgan. Masalan, Angliya qirolichasi Viktoriya nomi bilan koLl, mashhur dengiz qaroqchisi Dreyk nomi bilan bo‘g‘iz atalgan.

Kishilarning ism-sharifi, taxallusi bilan bog‘liq nomlarni memorial va oddiy nomlarga ajratish mumkin. Memorial nomlarga haqiqiy buyuk kishilar, ya’ni zamon, jamiyat qanday bo‘lishidan qat’iy nazar hurmat bilan tilga olinadigan, butun insoniyatga xizmat qilgan shaxslar nomlarini kiritish mumkin. Bunday nomlar har

qanday jamiyatda saqlanib qoladi. Ammo, qanday nomlar memorial nom ekanligini vaqt belgilaydi.

Mikrotoponimlar orasida shaxslarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bog‘liq nomlar juda ko‘p. Ularning ko‘pchiligi zamon o‘zgarishi bilan o‘zgarib ketadi yoki yangi nomlar bilan almashtiriladi. Bunday nomlar memorial nomga kiritilmaydi. General Chernyayev nomi bilan atalagan M.G. Chernyayevka, general Fon Kaufman sharafiga qo‘yilgan Kaufmanskaya stansiyasi, Skobelev shahri, sho‘ro qo‘mondonlaridan M.V. Frunze, V. V. Kuybishev nomlari bilan atalgan shaharlar nomlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Sho‘rolar davrida mafkuraviy nomlarga katta e'tibor berilgan edi. Ularning ko‘pchiligini kommunistik partiya dohiylari hamda sovet tuzumi jonkuyarlarining nomlari tashkil etgan. Lenin. Kalinin, Kirov, Sverdlov, Dzerjinskiy, Jdanov kabi ko‘plab nomlar ana shunday paydo bo‘lgan. Sho‘rolar tuzumini yo‘q bo‘lishi bilan, «qizil» nomlardan voz kechildi, ularga yangi nomlar berildi yoki tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Hozirgi vaqtda antropotoponimiar dunyoning barcha mintaqalari toponimiyasi tarkibida uraydi. Chunonchi, O‘zbekistonda ko‘cha, maydon, xiyobon, bog‘lar, guzar, mahalla, korxonalar, muassasalar, aholi punktlari, geologik, tabiiy va boshqa bir qator geografik obyektlarga davlat, jamoat arboblari, vatan himoyachilari, fan, madaniyal arboblari va boshqa alohida xizmat ko‘rsatgan odamlarning nomini berish orqali antropotoponimlarni katta qatlami yaratilgan.

Qadimdan O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda ham ma’lum - mashhur kishilarning nomlarini shahar-qishloqlarga qo‘yish rasm bo‘lmagan, aksincha shoirlar, olimlar va boshqa mashhur kishilar o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joy nomlarini ko‘pincha nisba qilib olib, jonajon o‘lkalarini dunyoga mashhur qilganlar. Masalan, Buxoriy, Xorazmiy, Samarqandiy, Termiziy va hokazolar. Keyinchalik ayrim geografik obyektlarga ulamolar, aziz-avliyolar, islom dinining yirik namovandalari nomi berilgan. Bundav nomlashlar birinchidan, o‘sha maskanlarga ziyoratchilar sonini ko‘paytirgan

2011 - yilda qabul qilingan «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarga kishilarni ismi-sharifini berishni tartibga sol ish maqsadida quyidagi norma belgilangan: «Vilovatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar. qishloqlar ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifining berishga. shunindck ularni tarixiy voqealar sharaliga nomlashga. qoida tariqasida yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘chalar, shohko‘chalar. mahallalar, maydonlar, bog‘larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiv qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblar ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno».

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, faqat istisno tariqasida O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomi geografik obyektlarga berilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Agar, shunday zarurat paydo bo‘lib qolgan taqdirda Antropotoponimlar modelining grammatik jihatdan o‘zbek tiliga mos, eng to‘g‘ri va mukammal tipi antroponim hamda obod, qishloq, ovul, mahalla, qo‘rg‘on, tepa, dasht, bog‘ kabi geografik lerminlardan iborat bo‘lgan shakli hisoblanadi.

O‘zbekiston toponimiyasining eng ustki tarixiy qatlami antropotoponimlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Atropotoponimlarning tarixi va shakllanish jarayonini qisqacha ta’riflang.

2. Atropotoponimlarning hududiy tafovutlari haqida ma’lumot to‘plang va uni qiyosiy tahlil qiling.

3. O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida antropotonimlarning ko‘payishi sababini izohlang.

4. Antroponimlaring joy nomiga aylanish jarayoni qanday omillar ta’sir qiladi

8- Mavzu. Buxoro amirligi toponimlarining tarixiy tarkibi tahlil, aholi manzillari nomlarining shakllanishi (XIX asr oxiri va XX asr boshlarida).

Reja.

8.1-§. ***XIX asr oxiri va XX asr boshlarida amirlik aholi manzillarining tarixiy nomlanishi va joy nomlari yasalishida etnik komponentlarning ishtiroki.***

8.2-§. ***Buxoro amirligining qishloq va mavzelarida etnik mansublik asosida joy nomlari.***

8.3-§. ***Toponimlar amirlikda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot va etnik munosabatlar tarixining manbai sifatida.***

8.1-§. ***XIX asr oxiri va XX asr boshlarida amirlik aholi manzillarining tarixiy nomlanishi va joy nomlari yasalishida etnik komponentlarning ishtiroki.***

Tuyanch atamalar va iboralar: *Tarixiy joy nomlari, etnik komponentlar, joy nomlari yasalishi, etnik mansublik, etnik komponent.*

Buxoro amirligi ma’muriy-boshqaruv tizimining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi holatini Buxoro Qushbegi arxivi tarkibiga kirgan aholi manzillari ro‘yxati asosida ko‘rib chiqish amirlik iqtisodiy-ijtimoiy hayotini, demografik holatini, etnologik manzarasini hamda ma’muriy boshqaruv pog‘onalarini o‘rganishi uchun benihoya muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Aholi manzillarining tarixiy nomlanish tamoyillari turlicha bo‘lib, ular orasida yetakchi xususiyat – joy nomlari yasalishida 2 ta asosiy etnik komponent ishtirok etgan.

1) turkiy zabon aholi joy nomlari.

2) tojikzabon aholi nuqtai nazaridan berilgan nomlar;

Ushbu 2 tarmoq joy nomlarining geografik o‘rni butun amirlik hududlarining barcha qismida aralash joylashgani muhim xulosa uchun asos beradi. Ya’ni, amirlikning Qizilqum cho‘llari bilan chegaralangan G‘arbiy qismidan tortib sharqiy amirlik hududlarigacha, boshqacha qilib aytganda bugungi Tojikistonning katta qismida tarixan o‘zbek va tojik etnik mansub xalqlar yonma-yon va birga yashab kelgan. Shu nuqtai nazardan tarixiy toponimlarga nazar solsak, o‘ziga xos manzarani kuzatish mumkin. Masalan, tarkibida ob «suv» so‘zi bo‘lgan juda ko‘p toponimlar

oʻzbek va tojik tilli aholi yashaydigan joylarda deyarli bir xilda uchraydi. Shu bilan bir qatorda turkiy ariq topoformanti bilan tuzilgan joy nomlari ham har ikki etnik mansub aholi manzillarida aralash holda kuzatiladi.

Obigarm – Qorategin viloyatida, Obidushanba – Hisor viloyatida, Obinanda – Kitob viloyatida, Obichakka ibolo – Qorategin viloyatida, Obichakka inoyonlabiob – Qorateginda, Obiachchiq (turkcha) – Varzob amlokligida, Obiguzar – Karmanada, Obidara – Koʻlob viloyatida va h.k. Shu kabi Obidara qismi mavjud boʻlgan oʻnlab qishloq nomlari mavjudki, ularning 9-qismi manzilning oʻrnashgan joyiga nisbatan bolo «teppa», poyon «etak», dehana «tor daradan chiqish joyi» kabi izohlanishi mumkin. Baʼzan obidara qismiga gʻaybboy, sangimurgʻon, choʻnchak kabi 2-qismlari bogʻlangan. Gʻaybboy qismiga kelsak (boymish amlokligida), bu ijtimoiy maʼno beruvchi soʻz boʻlib, ehtimol, oʻsha manzilda yashab oʻtgan badavlat kishiga nisbatan berilgandir. Chunchak qismi esa turkiy til asosida izohlanadi va soʻz oʻzagi qadimgi turkiy til va hozirgi oʻgʻiz lahjali turkiy tillarda katta (ulkan) demakdir. Sangimurgʻon qoʻshimchasi esa katta qoyatosh mavjudligiga va u qoyatosh kavaklarida qushlar in qoʻyib yashashiga ishorat deb qaralishi mumkin.

Ob oʻzagi bilan bogʻliq baʼzi atamalarda 2-qismi shu suv oqimi boʻylab yashagan etnik aholi toifalarini koʻrsatadi. Masalan Obiafgʻon, Obiloʻlkak, Obiroʻshon va boshqalar.

Aholi manzillari nomlari orasida abdal yoki abdol shaklida uchraydigan toponimlar diqqatga sazovor. Ular Qarshi, Baljuan, Obigaron kabi viloyat amloklilarga qarashli joylardir. Abdal atamasining tarixiy asoslari hali hanuz tushuntirib berilgan emas. Gap shundaki, milodiy V asrda kuchli davlat uyushmasini tuzgan Eftalitlarning etnik mansubligi masalasi haligacha aniq izoh topmagan.

Holbuki, abdol atamasi turkiy etnik atama boʻlib, Oʻzbekiston va Tojikiston hududlari boʻylab joy nomlarida tez-tez uchrab turadi. Demak, abdol atamasi turkiy abdol etnik uyushmasining tarixiy migratsiyasi va oʻrnashgan joylarini aniq koʻrsatishi mumkin. Ushbu roʻyxat davomida uchraydigan Abdolqayum, Abdolxoliq, Abdolshohid, Abdololim, Abdolvahob kabi joy nomlarining 1-qismi, koʻrinishdan abdol boʻlgani bilan yuqoridagi kabi etnik maʼno kasb etmaydi. Bu

nomlar arabcha ismlar oldidagi abd – «qul» ma’nosidagi prefiksdan hamda «al» – arabcha artikl birikmasidan iborat. Bu guruh nomlari tarixan kishi ismlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni aniq izohlash uchun nomlanish tarixini joylarda alohida o‘rganilishi lozim.

Joy nomlarining yetakchi ma’no ifodalovchi 1-qismida og‘iz – formanti ishtirok etgan hollar muvjud. Bu atamalarning 2- qismi beqarordir. Masalan, bolo, poyon kabi so‘zlardan iborat. Ushbu tuzilmalardan ko‘rinib turibdiki, atamalarning shakllanishida turkiy va tojik so‘z birliklari baravar qo‘llangan. Og‘iz elementi esa yana bir bora tog‘lik relef sharoitida ikki tog‘ orasidan chiqib keluvchi soy suvi bo‘yidagi manzilni ko‘rsatadi. Atamaning 2-qismidagi bolo, poyon so‘zlari bir soy oqimining tog‘ ortidagi yoki bir manzildan keyingi yuqori va quyi joylarda o‘rnashgan manzillarni ko‘rsatadi.

Toponimlar tarkibidagi adoq, adog‘lik kabi so‘zlar aholi manzili suv oqimining oxirida joylashganini ko‘rsatadi. Adoq atamasining davomida joylashgan 2-qism odatda adoq so‘ziga sifat bo‘lib kelgan. Masalan, adoqi bo‘yni uzun, adoqi barzang, adoqi g‘ishtiy, adoqi qorabosh, adoqi poyon, adoqi ro‘zi xoja, adoqi hamdakli. Ko‘rinib turibdiki, bu atamalar ham o‘zbek, tojik til elementlarini o‘zida birlashtirgan. Buxoro amirligi joy nomlari orasida buloq va chashma topoformantlar bilan bog‘liq atamalar juda ko‘p uchraydi. Ularning tarqalish geografiyasi ham keng. Masalan, Oqbuloq Hisor viloyatida, yana bir Oqbuloq Boysun viloyatida, Oqbuloq Boljuan viloyatida, Oqbuloq Yakkabog‘ viloyatida, Oqbuloq bolo, Oqbuloqi kolon, Oqbuloqi poyon, Oqbuloqi sufiyon kabi qishloqlar amirlikning turli viloyatlarida ro‘yxatga olingan. Oq so‘zi bilan amirlik joy nomlari ro‘yxatida 120 dan ortiq joy nomlari qayd etilgan. Ularning aksariyati turkiy va eroniyzabon aholi manzillarida baravar tarqalgan. Bu toponimlarni tashkil qiluvchi elementlari ham turlicha. Jumladan ko‘fruk, mozor, mozorota, rabot, soy, saroy, soch, tovuq, tosh, toshkon, teppa, tiyrak, tumshuq, tunli, chakmon, chashma kabi ko‘plab formantlar turkiy o‘zbek tili asosida izohlanadi. Oq o‘zagidan tashkil topgan joy nomlarining bu qadar ko‘pligi Buxoro amirligi aholisining katta qismini turkigo‘y o‘zbek xalqi tashkil qilganligini ko‘rsatadi. Xuddi shu kabi joy nomining bosh qismida «oq» ma’nosida

kelgan tojikcha «safed» so‘zi tojik tili asosida shakllangan bo‘lishiga qaramay o‘zbek– tojik aholi joy nomlari sifatida barobar tarqalgan.

Safetob – «oq suv» (Hisor viloyatida), Safetob (Qorateginda), Safetob (Boljuanda), Safetob (Ko‘lobda) va hokazo. Yana safed bilan bog‘liq ko‘plab joy nomlarini ko‘rsatish mumkin. Safetdara (Boljuanda), Safetdara (Tutkovul amlokligida), Safetdara (Hisorda), Safetdarak (Darvozda), Safetbandiyov (Hisorda), Safetchashma (Hisorda), Safetxon (Qorateginda).

Amirlik hududlarida joylashgan aholi manzillari nomlari orasida olma (o‘zbekcha) va seb (tojikcha) asosga ega bo‘lgan toponimlarning tarqalish hududlari ham tojik-o‘zbek aholi aralashligini ko‘rsatuvchi muhim xususiyatdir. Olmabuloq (Boljuan), Olmabuloq (Yakkabog‘), Olmabuloq (Xayrobod tumani), Olmag‘ozi (Xayrobod), Olmazor (Kitob), Olmalig‘ (Qorategin) kabi joy nomlari bilan bir qatorda Sebdara (Boljuan), Sebak (Hisor), Sebak (Qorategin), Sebdarai Osiyo (Ko‘lob), Sebdarai nor (Ko‘lob), Sebzor (Hisor), Sebibog‘kardai bolo (Qorategin), Sebidarga (Hisor), Sebisurx (Ko‘lob), Sebisurx (Boljuan), Sebishoxi (Qorategin), Sebishirin (Hisor), Sebi nok (Qorategin) va boshqa qishloqlar ko‘proq sharqiy Buxoro hududiga mansub ko‘rinadi. O‘zbek-tojik aholi manzillari nomlanishida yuqoridagi oq va safed parallelligi kabi qizil va surx, qora va siyoh kabi parallellar ham juda ko‘p qo‘llangan. Masalan, Karki viloyatida Qizil ayoq (Boysun viloyatida), Qizil olma (Qo‘rg‘ontepa viloyatida), Qizil ariq (Xuzor viloyatida), Qizil buloq (Boljuanda), Qizil guzar (Karkida), Qizilcha (Dexinovda), Qizil jar (Qorateginda), Qizil qora (Boysunda), Qizil koriz (Boljuan va Chorjo‘yda), Qizil qiya (Boljuanda, Hisorda), Qizil qisor (Qorateginda), Qizil kurum (Hisorda), Qizil lalmi (Karmana, Xayrobod viloyati va tumanlarida), Qizil rabot, Qizil soy, Qizil soyi bolo, Qizil soyi poyon kabilar, Qizil tom (Yakkabog‘), Qizil tuba (Hisor), Qizil tepa (Dexinov), Qizil tumshuq (Nurota), Qizil tuk (Kitob), Qizilcha (Hisor), Qizilquduq (Xuzor), Qizil qo‘rg‘on (Ziyoddin).

Ro‘yxatdan ko‘rinib turibdiki, qizil so‘zi asosida paydo bo‘lgan joy nomlari hozirgi Turkmanistondan boshlab Zarafshonning o‘rta oqimigacha Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Qo‘rg‘ontepa, Hisordan tortib, Badaxshon va Pomirgacha

bo‘lgan yerlarda turkiy va tojik aholining aralash yashaganini ko‘rsatib turibdi. Shu ma’lumotlarga parallel ravishda surx «qizil» so‘zi asosida yasalgan joy nomlari ro‘yxatiga qaralsa, ularning tarqalish hududlari qizil atamalari tarqalgan joylar bilan deyarli mos kelishini kuzatish mumkin. Surx (Karki viloyatida) Xelloj bekligiga qarashli qishloq. Bu o‘rinda Xelloj turkiy etnik atamlardan biri. Surxe qishlog‘i Darvoz viloyatining chexil daryo amlokligiga qarashli. Hisor viloyatida bir necha amlokliklarga qarashli Surx dara, Surx chashma, Surxon kabi qishloqlar bo‘lgan. Surx kux «qizil tog‘» (Qorateginda), Surxi chordangoh (Ko‘lobda), Surxsel (Boljuanda), Surx xup (Darvozda) va h.k. So‘rx so‘zi bilan yasalgan ushbu atamalarning asosiy ko‘pchiligi turkiy qizil atamalari bilan parallel holda sharqiy Buxoro hududlarida keng tarqalganligi diqqatga sazovor. Bu hol hozirgi Tojikiston hududlarida turli etnoslar, xususan, o‘zbek va tojik aholining uzoq vaqtlardan buyon yonma-yon yashab kelganini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan nomlanish ikki tilliligi tosh va «sang» parallellarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu toponim asoslaridan biri bo‘lmish tosh asosan sang paralleli singari toponimlarning bosh qismida joylashadi. Toshoxur, Toshbuloq, Toshguzar, Toshquduq, Tosh kunda, Toshko‘prik, Toshqo‘rg‘on, Toshloq, Toshli, Toshmasjid, Tosh rabot, Toshteppa va boshq. Tosh o‘zagi bilan yasalgan joy nomlarining topoformantlari orasida oxur so‘zi besh marta, buloq so‘zi 16 marta, guzar so‘zi 5 marta, qo‘rg‘on, hisor kabi ma’nodosh so‘zlar bir necha marta, masjid formanti 5 marta, teppa, rabot formantlari bir necha martadan uchraydi.

Toshloq, toshli kabi atamalar joyning xususiyatini ko‘rsatsa, toshko‘prik, toshko‘fruk kabilarda bu manzillarda yashagan aholining tojik yoki o‘zbek ekanligi aniq ko‘rinib turibdi: ko‘prik o‘zbekcha, ko‘fruk tojikcha. Sang tosh asosiga ega bo‘lgan toponimlar Boljuan, Shug‘non, Qorategin, Ko‘lob, Hisor, Darvoz, Xuzor kabi viloyatlarda ko‘p tarqalgan. Bular orasida birgina sang (tosh) so‘zidan iborat qishloq nomi 208-qozilik arxivida qayd etilgan. Bu so‘zning ma’nosi ehtimol yo‘l masofasining tosh nomli o‘lchovidan paydo bo‘lgandir, chunki tosh, sang so‘zlari tarixda uzunlik yo‘l o‘lchovi hisoblanib, 6 chaqirimga teng bo‘lgan. Qadimgi shakli fra – sang, o‘rta asrlarda farsax yoki farsang shaklini olgan. Sang o‘zagi bilan

tuzilgan toponimlarning ko‘pchiligida sifat ma’nosini ifodalovchi shakllantiruvchi qism – formantlarga ega. Sang ob (Shug‘non), Sang obod (Samjon), Sang obe (Qorategin), Sang obeyi poyon (Qorategin), Sangak chashma (Ko‘lob), Sangoni xil (Ko‘lob), Sang girak (Qorategin), Sangirdek (Hisor), Sang dara (Boljuan), Sang darayi ok sugi (Ko‘lob), Sang darayi xoja kolon (Ko‘lob), Sang devor (Qorategin), Sang devorak (Boljuan), Sangi jummon (Xatirchi), Sangi kayrok (Boysun), Sangi kulula (Boljuan), Sangi merom (Boljuan), Sangi mug‘ul (Hisor), Sangi surx (Qorategin), Sangi sabza (Kuktosh, Shimoliyi rud), Sang por (Hisor), Sang rud (Hisor, Boljuan), Sang ugur (Boljuan), Sang chashma (Ko‘lob), Sangi shikon (Xuzor), Singan tosh.

Toponimlarning shakllanishida faol qatnashgan tojikcha sar «bosh» toponim o‘zagi bevosita o‘zbekcha parallellarga ega, lekin tojikcha «sar» o‘zagi biror turkumning boshlanishini ifodalasa, o‘zbekcha «bosh» o‘zagi bilan boshlanuvchi toponimlarning ma’nosi turli atamalar orasida boshlang‘ich, yetakchi o‘ringa ishora etadi, xolos. Boshbuloq atamasi bu masalada yagona misoldir. Boshbuloq (Hisor), Boshbuloq (Boljuan viloyati), Boshbuloqi kalon (Hisor viloyati), Boshbuloqi xurd (Hisor viloyati). Bu o‘rinda kalon, xurd qismlari Katta boshbuloq, Kichik boshbuloq demakdir.

Sar o‘zagi bilan bog‘liq joy nomlari orasida Sari ob «Suv boshi» (Boysun), Sari obi par (Boljuan), Sari archa (Boljuan), Sari osiyo (Boysun, Xatirchi, Pirmast tumani), Sari osiyob (Boymish amirligi Boljuan viloyati).

Xuddi shu nomda Tutqovul amlokligida ham qishloqlar bo‘lgan. Sari bozor (Karmana), Saribozor (Buxoro – Qorako‘l tumani) Saribozor qala (Ziyoddin), Sari bozori sultonobod (Ziyoddin), Sari bozori toshko‘prik (Ziyoddin viloyatining Uchquduq amlokligi), Sarigor (Ko‘lob).

Keltirilgan misollar tarqalish geografiyasi bo‘yicha Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Sherobod, Surxon, Kofirnigon va boshqa vohalarni qamrab olgan. Umuman, Buxoro amirligi ma’muriy tizimiga qarashli «sar» o‘zagi bilan boshlangan joy nomlari son jihatidan anchaginadir. Hisoblarga qaraganda «sar» o‘zagi 150 dan ortiq aholi manzillariga nom qo‘yishda ishlatilgan. Shu o‘rinda

«Населенные пункты Бухарского эмирата» kitobida keltirilgan «sar» o‘zagi bilan boshlangan toponimlar ro‘yxatida orasiga ba’zi o‘rinlar o‘zak e’tibori bilan boshqa so‘zlardan tuzilgan toponimlar ham aralashib qolgan. Masalan, 114-betda Sari bosh, Sarig‘ batosh, Sarig‘ voy, Sarig‘i bolo, Sarig‘i poyon, Sariyon, Sarimsoqli, Sarkand, Sorli, Sarrofon, Sarrofho kabi atamalar ro‘yxatda «sar» o‘zagidan keyinga joylashtirilishi kerak. Keltirilgan misollar orasida sarkor ijtimoiy atama bo‘lib, ishboshi «boshliq» ma’nosiga ega. Sorli atamasi esa -li o‘zbekcha sifat yasovchi qo‘shimcha bilan «sor» so‘zidan yasalgan. Sor so‘zi ov qushi «lochin» demakdir. Bundan xulosa qilish mumkin-ki, Sorli qishlog‘ining aholisi qachonlardir qush yordamida ov bilan shug‘ullangan.

Amirlik manzilgohlari orasida o‘zbekcha qora o‘zagi bilan bog‘liq toponimlar tojikcha siyoh – «qora» o‘zagi bilan parallel ravishda qo‘llanish holatlari juda ko‘p uchraydi. Lekin Buxoro viloyatlarining barcha qismida o‘zbekcha qora o‘zagidan yasalgan joy nomlarini ko‘p uchratish mumkin. Jumladan, 40 ga yaqin siyoh o‘zagidan yasalgan toponimlar tojikcha asosda vujudga kelgan bo‘lsa, 200 ga yaqin o‘zbekcha qora o‘zagi bilan boshlangan toponimlar mavjud. Tojikcha siyoh o‘zakli joy nomlari Siyohob, Siyohgul, Siyohgulak, Siyohjangal, Siyohjo‘b, Siyohikalon, Siyohixo‘rd, Siyohkom, Siyohqumro‘d, Siyohiloy, Siyohiloyak, Siyoh muza, Siyohi rama, Siyoh tutan, Siyoh to‘t, Siyohfarak, Siyoh xor kabilardan iborat. Bularning o‘zbekcha ma’nolari qorasuv, qoragul, qora o‘rmon, loyli suv, qora shahob ariq, qora tut, qora tuproq, qorabuloq kabi ma’nolarni anglatadi. Ularning tarqalish hududlari Qorategin, Hisor, Ko‘lob, Chahorjo‘y, Boljuan kabi viloyatlarga mos keladi. Bunga qiyos qilgan holda qora o‘zagidan yasalgan toponimlarning tarqalish geografiyasi ancha keng. Shu jumladan qora o‘zagi siyoh toponimik o‘zak tarqalgan hududlarda ham ko‘plab uchraydi. Qora toponimik o‘zak bilan qo‘shilib joy nomi yasovchi so‘zlar asosan turkiy so‘zlardir. Ular bodom, boy, bog‘, balchiq, boyurdoq, baxshi, baxshila, bosh bo‘yi, buyraq, bo‘lak, buloq, bo‘rdoq, yig‘och, yag‘och, yasavul, yantoq, kamar, qamish, qosmok, kista, kisa, qishloq, quduq, kuz, kul, qum, qursak, qo‘ton, qovchi, qo‘sh, masjid kabilardan iborat. Yuqoridagi atalgan tojikcha

sifatlardan teppa (qora tepa), mirishlar, toq, sang, ko‘pgina kabilarni ham ko‘rsatish mumkin.

Qora o‘zagi bilan toponimlar o‘rtasida turkiy-etnik nomlarni ifoda etuvchi bir qator formantlarni uchratish mumkin.

Qora quyunli (Turkman urug‘i, Karki viloyatida), qora qo‘ng‘irot (Qarshi viloyatida), Qora kovchi (Qarshi), Qora mug‘ul, Qora nayman (Ziyoddin) va boshqalar mazkur atamalarda aks etgan etnik nomlar bilan bog‘liq urug‘ qabilalarning katta bo‘lagini bildiradi. Zero, qadimgi turkiy til nuqtai nazaridan qaro so‘zi «katta» demakdir. Etnik atamalar orasida qoramon atamasi diqqatga sazovor. Bu atama ug‘uz uyushmasining X - asrda Movarounnahrga ko‘chib kelgan Oqmon va Qoramon qabila uyushmalaridan birining nomini ko‘rsatadi.

8.2-§. Buxoro amirligining qishloq va mavzelarida etnik mansublik asosida joy nomlari.

Buxoro amirligi aholi manzillari nomlari orasida etnik mansublikni ifodalovchi ko‘plab atamalar uchraydi. Ushbu joy nomlarining geografiyasi juda keng. Ularning ba’zilari turkiy urug‘larni bildirsa-da tojikcha ko‘plik qo‘shimchasini olgan holda uchraydi. Masalan, qirqho, qirg‘izon (tojikcha -ho va -on ko‘plik qo‘shimchalari). Urug‘ nomlaridan kovchin (Yakkabog‘, Qarshi, Shimoliy-i Rud, Buxoro). Qiyot qishlog‘i (turkiy Qiyot urug‘i, Samjon tumanida) qirquyli, qirqon, qirg‘iz elat nomlari. Qirg‘iz atamasi bilan boshlangan qishloq nomlarining tarqalish joylari Yakkabog‘, Chiroqchi, Kitob, Xatirchi, Ziyoddin, Karmana, Xo‘tfar, Hisor, Komi Abo Muslim, Qorategin, Xarqon rud, Xuzor tuman va viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Bu demak qirg‘iz elatining asosiy to‘plari Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida yashagan.

Qirq, yuz, saroy kabi turkiy etnik nomlar bilan bog‘liq qishloqlar asosan Ziyoddin viloyatining Sultonobod amlokligiga to‘g‘ri kelgan.

Mo‘g‘ul etnik atamasi Xarqon-Ro‘d tumanida, Kitob, Hisor viloyatlarida, Xutfar, Shofurkom, Shimoliy-i Ro‘d, Ziyoddin, Boljuvan kabi viloyatlarda tarqalgan. Bu qishloqlarda yashovchi aholi mug‘ul istilosidan keyin o‘troqlashib, o‘rnashgan bo‘lishi mumkin. Ular asosan o‘zbeklashib, hozirda etnik nomnigina

saqlab qolishgan, xolos. Xuddi shu kabi tojik etnik guruhlar orasida yashovchi o‘zbek urug‘lari tojiklar tomonidan ularning etnik umumiy nomi bilan atalgan qishloq nomlari ham uchraydi. O‘zbekon nomli kator qishloqlar va mavzelar hamda qo‘rg‘onchalar nomlari mavjud. O‘zbekoni koriy, o‘zbekoni kafshburun, o‘zbekoni teppa, o‘zbekoncha, o‘zbaki, o‘zbek sarrof, o‘zbek toshrabot kabi joy nomlari Karki, Hisor, Xarqon Rud, Shimoliy-i Rud, Janubiy-i Rud, Xutfar kabi tuman va viloyatlarda qayd qilingan.

Ba’zi qishloq nomlari yashab turgan aholisining kelib chiqqan joyi nuqtai nazaridan atalgan hollar ham ko‘p uchraydi. Masalan, turli tarixiy sabablarga ko‘ra ko‘chirilib joylashtirilgan aholi toifasi sifatida Xorazm bilan bog‘liq O‘rganji nomli qishloq va mavzelar Xatirchi, Nurota, Ziyoddin, Yangiqo‘rg‘on, Karmana, Shimoliy-i Ro‘d viloyatlarida hamda Qorako‘l, Xarqon Rud, Komi Abo Muslim tumanlarida istiqomat qilgan xorazmlik aholi qishloqlariga Urganji nomi berilgan joy nomlaridir. Etnik nomlardan yana bir toifasi – qishloqlar nomida Xalaj, Xalajiyon tarzida aks etgan xalajlar 92 ta o‘zbek urug‘ining biridir. Ularning joylashgan yerlari Karki, Samjon, Pirmast, Boljuan, Qorategin, Shimoliy-i Rud kabi tuman va viloyatlarga qarashlidir. Mug‘ullarning turkiylashgan Xazora urug‘i Obi dushanbe amlokligining Hisor viloyatiga qarashli yerlarida qishloq tuzib o‘tirganlar. Shu bilan bir qatorda Karmana, Ko‘lob, Chorjo‘y viloyatlarida ham Xazorayi poytu, Xazorak kabi qishloqlar mavjud.

Umuman, Buxoro amirligining qishloq va mavzelaridan bir qanchasi etnik mansublik asosida nom olib, amirlik Qushbegi arxivida saqlangan ko‘rinishida maxsus tadqiqotni talab qiladi.

Buxoro amirligi aholi manzillarining nomlari orasida ijtimoiy mansab, lavozim, tabaqalar nuqtai nazaridan berilgan ijtimoiy atamalar ham anchaginani tashkil etadi. Ular orasida xalqning e’tiqodini ifodalovchi yoki hurmate’tiborli zotlar sharafiga qo‘yilgan joy nomlari mavjud. Masalan, Xojiqogag‘on (Hisor viloyati), Xoji kafar (Denov), Xoji kunda (Xayrobod), Xojisagar (Xayrobod), Xoji xizr (Qarshi), Hazrati imom (Kulob), Hazrati bashir (Kitob) va boshqalar. Ular orasida tarixan kimga atalgani noma’lum, lekin xalq orasida shu nomlarga ixlos bilan qarash

an’anasi saqlanib qolgan nomlar ham uchraydi. Hazrati Said ato (Shofurkom), Hazrati langar (Kitob), Hazrati langar (Yakkabog), Hazrati imom (Kulob) shular jumlasidandir.

Shu bilan birga shunday qishloqlar ham borki, ular qadimda yoki so‘nggi o‘rta asrlarda amirlik tomonidan maxsus yerlar sifatida imtiyozli shaxslarga ajratib berilganligi mana shu qishloq nomlarida aks etgan: Xosa (Shug‘non), Xosa (Shofurkom), Hasan bek (Shimoliy-i Rud), Hasan bolo, Hasan poyon (Samjon), Hasan Eshokon (Samjon), Hasan qaro Komol (Samjon), Hasan Qurbonnazar (Samjon), Hasan Mir Xazar (Samjon), Hasan Rabot (Samjon), Xosakor (Shimoliy-i rud), Xosa kent (Toshrabot), Xosa kiyon (Boljuan), Xosa qo‘rg‘on (Karmana), Xosa Moxi (Boljuan) va boshqalar. Bularning hammasi xosa imtiyozli ajratib berilgan yer demakdir.

Yuqorida keltirilgan ixlos, e’tiqod munosabatlari asosida vujudga kelgan nomlarning «xoja» o‘zagi bilan yasalgan guruhi amirlikda 150 ga yaqinini tashkil etadi. Ular orasida «xoja» so‘zi alohida ishlatilgan holatlar ham mavjud. Bular Ziyoddin, Karmana, Xutfar kabi ma’muriy hududlarga tegishli qishloqlardir. Qolgan barcha «xoja» komponentli joy nomlari sifat formantlariga ega.

Masalan: Xoja abdalok, Xoja alishoh, Xoja Abdurahmon, Xoja Ambiyon bolo, Xoja aqqo, Xoja Orif, Xoja Arna jarquduq, Xoja Boyqul, Xoja Barlos, Xoja Boljuan, Xoja bed, Xoja buloq, Xoja Bulbuloq, Xoja Bo‘stoni bozorjoy, Xoja vali shoh, Xoja g‘alton, Xoja gulzor, Xojai dahiyak, Xoja dushanbe, Xoja qishloq, Xoja qo‘rg‘on, Xoja soat, Xoja hayron, Xoja chobuk, Xoja chahordah va boshqalar.

Xoja o‘zagidan sifat qo‘shib yasalgan joy nomlarining ko‘pchiligi o‘sha manzillardagi aholi ixlos qilgan mozorlar bilan ham aloqador bo‘lgan. Ko‘p hollarda mazkur nomlar bilan bog‘liq manzillarda kimligi unutilgan bo‘lsa-da, xalq nazdida azizavliyo zotlar dafn etilgan joylar hisoblangan. Ba’zan esa shu joy nomlarida mulk qilib ajratib berilgan yer o‘lchamlari ham aks etgan. Masalan: Xojai dahiyak, xojai arpa jarquduq kabi atamalardan biri «yer o‘lchamining yuz o‘ndan biri», ikkinchisi esa «Jarquduq degan yerda shudgor qilinadigan yer» ma’nolarini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi aholi turar joy nomlari shakllanishida ijtimoiy,

iqtisodiy, etnik omillar hamda manzillarning joylashgan o‘rni, ular bilan bog‘liq chashma, g‘or va shu singari ajralib turuvchi tabiiy mavjud omillar alohida ahamiyat kasb etgan. Amirlik hududlarida, uning barcha qismlari bo‘ylab turkiy va eroniyzabon tojik etnik qatlamlar uzviy birlikda aralash istiqomat qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu toponimlarning tarixiy ahamiyati ularning Buxoro amirligi siyosiy-ma’muriy tizimini o‘zida mujassam etganligidadir.

Qushbegi arxivida ushbu ma’muriy tizim ro‘yxatining 250 ga yaqin hujjatlarida aks etgan majmui XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoro amirligi tarixini tadqiq etish uchun bebaho qimmatga ega bo‘lgan manbadir.

8.3-§. Toponimlar amirlikda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot va etnik munosabatlar tarixining manbai sifatida

Biz yuqorida Buxoro amirligi tarixiy aholi manzillari nomlarining shakllanishiga xizmat qilgan leksik o‘zak asoslarini hamda toponimni shakllantiruvchi sifat qo‘shimchalari – topoformantlarni tahlil qilib joy nomlarining vujudga kelish tamoyillarini ko‘rib chiqdik. Navbatdagi vazifa shundan iboratki, amirlik aholi manzillari nomlari orqali iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy va etnik munosabatlar tarixiga daxldor masalalarni tahlil etishga harakat qilamiz.

Avvalo, tarixiy toponimlar, agar ular aholi turar joylari nomlaridan iborat majmuani tashkil etsa, bu majmua albatta xalqning hayotiga oid turli yo‘nalishdagi qirralarini tahlil qilish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Buxoro amirligi Qushbegi arxivi tarkibida saqlangan aholi manzillari ro‘yxati alifbo tartibida joylashgan nomlardan tashqari nashr ilovasiga chiqarilgan, tasnif qilingan materiallardan iboratdir1.

Bu ilovada amirlik hududlarida yashagan o‘zbek aholiga tegishli joy nomlari ro‘yxatidan tashqari ularda yashagan o‘zbek urug‘larining nomlari ham yonma-yon keltirilgan. Masalan, Denov bekligida o‘zbek urug‘laridan zardaqo‘l, inon, bolg‘ali, lo‘kka, qoranchi, qora tamg‘ali kabi jamoalari yashagan. Ro‘yxatlarga ko‘ra keltirilgan urug‘ nomlari aftidan mayda tarmoqlar bo‘yicha ro‘yxatlashtirilgan. Masalan, alipli, jilon tamg‘ali, egarchi, qarg‘a, ezma, qozoyoqli, kesovli, patos, choraqbosh, ko‘z tamg‘ali, bolaxo‘r, vahtamg‘ali kabi urug‘lar jamoalar tarzida

qayd etilgan. Koʻp oʻrinlarda ushbu oʻzbek urugʻlari oʻzaro qoʻshni urugʻlar bilan qorishiq holda yashaganlari maʼlumdir. Masalan, qoziyoqlilar karamchilar bilan, nagas qora tamgʻalilar bilan va qozoyoqlilar qoʻngʻirotlar bilan, ayrim hollarda oʻzbeklar, turkmanlar, tojiklar oʻzaro aralash holda yashaganlar. Amirlikning baʼzi bekliklarida aholisining etnik mansubligi arab boʻlgan qishloqlar ham qayd etilgan. Boysun bekligida Jamchi ruyot qishlogʻida arablar qoʻngʻirotlar bilan birga qoʻshilib yashagan. Sherobod bekligidagi Arabxona, Navshahar, Rabotan qishloqlarida Sherobod shahrining Balxiy va Taroqli guzarlarida arablar qayd etilgan. Arabxona va Novshaxar arablari til jihatdan tojiklashgan, Rabotan qishlogʻida, Balxiy va Taroqli guzarlarida oʻzbeklashgan holda yashashgan.

Qoʻrgʻontepa bekligida Vaxsh daryosining chap qirgʻogʻida Oʻzun qishlogʻi etnik jihatdan arablarning qishlogʻi boʻlib, bu yerlardagi balxiy guruhiga mansub arablar til jihatdan tojiklashgan edi. Panj daryosining oʻng qirgʻogʻida tojiklashgan balxiy arablari 4 ta qishloqda joylashgan boʻlib, ulardan uchtasi Arob nomi bilan atalgan. Toʻrtinchisi esa Shishtoʻba (Oltintepa) deb atalib, aholisi tojiklashgan.

Kobadiyon bekligidagi Arabxona va Jarqoʻrgʻon qishloqlari Kofirnigon daryosining chap qirgʻogʻida joylashib, balxiy arab guruhiga mansub aholi til jihatdan tojiklashgan.

Kofirnigon daryosining oʻng qirgʻogʻida tojikzabon arablari Ayvaj, Choʻyanchi qishloqlarida yashab, tillari ham tojiklashgan. Choʻyanchi arablari turkiy doʻrmon urugʻ jamoasi bilan aralash yashagan. Koʻlob bekligida Lagʻmon, Janjalboshi qishloqlarida arablar, tojiklar, qunduziylar, xazora moʻgʻul urugʻlari aralash yashab, lagʻmonliklar tojik tilli, janjalboshiliklar oʻzbek tilli boʻlishgan.

Jilgʻiy daryosi vodiysida Navbuloq arablari oʻzbek tilli, Sarichashma (Chalimaboshi) qishlogʻida tojiklar, qarluqlar va qotagʻonlar bilan birgalikda oʻzbeklashgan arablar yashagan. Badaxshonning Parxor tumanida arab va qaroqchi qishloqlarining etnik arab aholisi oʻzbeklashgan arablari yashagan.

Qoʻrgʻontepa bekligiga qarashli Teraklitov yaylovlarida 9ta qozoq yozlik manzillari boʻyicha etnik jihatdan qozoq boʻlgan aholi ham yashagan. Bular roʻyxatlarda Ohanbuloq, Beshbuloq, Qoʻshqorbuloq, Qizilbuloq, Naymanbuloq,

O‘lanbuloq, Sarqamish, Toshrabot, Jaloyir manzillaridir. Vaxsh daryosi vodiysida esa qozoqlar yashaydigan bitta manzil Damat nomi bilan qayd qilingan. Tojiklarning Shoumariy deb atalgan urug‘ jamoasi Ko‘lob va Qo‘rg‘ontepa bekliklarida Jilg‘a va Qumsoy qishloqlari aholisi bo‘lmish tojiklar va qatag‘onlar (turkiy) bilan birgalikda istiqomat qilishgan.

Buxoro amirligi hududlarida eroniy nomi bilan yashagan aholi Denov va Sherobod bekliklarida o‘zbek tilli Qarluq qabilasi, chig‘atoylar va tojik tilli aholi bilan qorishgan holda hayot kechirgan. Ular uchta qishloqqa ajralib, Kichibaxshivar, Qorliq, Sepa eroniylari deb atalgan. Sherobod bekligida eroniylar Bozorqishloq qishlog‘ida afg‘oniylar, o‘zbek tilli chig‘atoylar, nashxo‘rdlar va xo‘jalar bilan yonma-yon yashashgan. Ko‘lob bekligining 25 ta qishlog‘i «semiz» deb atalgan o‘zbek urug‘lari yashagan manzillar edi. Bular Beshkona, Bog‘itemur, Bo‘zaxona, Deshariq, Dahanak, Oltovul, Dehanaki chopor, Kalot, Mullamiyoz, Navbuloq, Pistamozor, To‘qasana, Xo‘jei nur, Assiq buloq, Xo‘jai shon, Chashmajo‘shon, Chuqurak, Chuqur qishloq, Qora jangal, Jiyda buloq va boshqalardir.

Ko‘lob bekligida o‘zlarini kesomir o‘zbeklari deb atovchi o‘zbek urug‘ toifasi 14 ta qishloqda qayd etilgan. Bular Balxobiy, Beshtegirmon, Darakchi, Ziyraki kulzamon, Shomirak, Tomchi, To‘dakovush, Tutu, Cho‘qtemir, Shululu, Xundaqul, Chorgen, Boyo qishloqlaridir. Ulardagi o‘zbeklar qisman tojiklar, mo‘g‘ullar, qarluqlar bilan yonma-yon yashashgan.

Shu o‘rinda ushbu ro‘yxatda o‘zbeklar tushunchasi Shayboniy o‘zbeklari ma’nosidagi qarluqlar, qatag‘onlar, turklar kabi toifalardan farq qilishini alohida ta’kidlash lozim. Bunday qarash tubjoy qadimiy turkiy aholidan Shayboniy bilan birga kirib kelgan. Dashti qipchoq o‘zbeklarini farqlash an’anasi XX asr boshlarida ham mavjud ekanligin ko‘rsatadi. Ko‘lob bekligida 25 ta qishloqda o‘zbeklashgan mo‘g‘ullarning yashaganligi qayd etilgan.

Bu mo‘g‘ullar shu qadar mahalliylashgan ediki, ularning jamoa nomlari mo‘g‘uliy alomatlaridan mutlaq begona bo‘lib ketgan. Masalan: Tutbuloq urug‘i, Sho‘rcha, Sho‘rko‘l, Marg‘ob, Jiyda kabi nomlar mahalliy sharoitda yuzaga kelgani shubhasiz. Ba’zi qishloqlargina o‘zlarining eski etnonimlarini saqlab qolgan. Bular

Yaxsuv daryosining chap qirg‘og‘idagi Mo‘g‘ul qishlog‘i hamda No‘g‘ay qishlog‘idir. Shuningdek Boljuan, Hisor, Qo‘rg‘ontepa bekliklarida ham Mo‘g‘ul, Mo‘g‘uli oni balo, Mo‘g‘uloni poyon, Mo‘g‘ulon, Mo‘g‘ul qishloqlari o‘zining etnik nomlarini saqlagan.

Mazkur nashr ilovasidagi aholi etnik mansubligiga oid ma’lumotlar orasida afg‘oniylar, xazoralar, larxobiylar, qunduziylar, o‘tabuloqiylar, sujjoniylar, chiloqiylar, obisorikalar, belujlar singari aholi jamoalari qayd etilgan bo‘lib, ularning aksariyati kichik aholi to‘plamlari sifatida bir necha bekliklar o‘zbek va tojik tilli jamoalar bilan yonma-yon hududlarida yashagan.

Buxoro amirligi aholi manzillari orasida juda qadimiy, xususan, zardushtiylik davrlariga xos ibtidoiy ilohiy tasavvurlar bilan bog‘liq holda nomlanganlari ko‘p uchraydi. Ulardan bir turkumi Rom o‘zagidan tashkil topgan nomlardir. Rom zardushtiylik ilohiyot tizimida osoyishtalik, tinchlik, olamjahonning mutanosibligi ustidan nazorat qiluvchi ma’budning nomi. To‘liq shakli Roman. Ma’bud Rom odamlarga rohat-farog‘at baxsh etadi. O‘tloqlarni, ularda o‘tlab yurgan molu xolni, qo‘y-qo‘zini asraydi. El yurtga tinchlik xotirjamlik beradi. Amirlik hududlarida Xarqonrud tumanining Sarmijon mavzesida Romiy qishlog‘i ro‘yxatga olingan.

Baljuvon viloyatining Yaxsuv (Yaqsuv) arig‘i bo‘ylab Romida Dara mavzesi joylashgan. Atamaning tarixiy asosi Romida «tinchlantirilgan», «osoyishta qilingan» ma’nosi bilan bog‘liq. Ya’ni, Roman ma’budi tinchlik, osoyishtalik bag‘ishlagan joy demakdir.

Romitan atamasining ikki o‘zagi bor: «Rom» va «mitan». «Mitan» qismi urug‘ nomi bilan bog‘lanadi. «Rom» esa yuqorida keltirilgan ma’bud nomidandir.

Romish qishlog‘i Buxoro viloyatining Jondor tumanida joylashgan qadimiy manzildir. Bu qishloqda Romish ma’budiga bag‘ishlab o‘tkazilgan bayramlar haqida Narshaxiy o‘zining «Tarixi Buxoro» asarida yozib qoldirgan. Xuddi shu kabi, Abu Rayhon Beruniy ham Roman ma’budi haqida ma’lumot berib, Tishrin oyining (Tishtriya – Sirius yulduzi sha’niga atalgan oyining) 18 kunida Roman shahid

bo‘lgan kun xotirlanadi, deb yozgan[7]. Hozirgi paytda Romish qishlog‘i mavjud. Lekin qadimiy qishloq xarobasi tepalik bo‘lib saqlangan.

Talosh toponimi «Tepa» (tal) va -osh qismlaridan tarkib topgan. Tojikcha Tal +osh («oshmoq» turkiy fe’l o‘zagi bir toponimda birlashgani qiziq hodisadir. Bunday toponim Toshkent shahri Sebzor dahasida «Xoja Taloshgan» mahalla nomida uchragan)[8].

«Tal» o‘zagi bilan yasalgan toponimlar Buxoro amirligining ko‘plab viloyatlarida uchraydi. Jumladan, Shimoliy-i rud, Sherobod, Beshkent, Xuzor, Baljuvon, Karmina, Qarshi, Chiroqchi, Ziyoddin va boshqa viloyatlarda bu o‘zak bilan boshlanuvchi toponimlardan qirqdan ortig‘i mavjud. «Tal» o‘zagini tojikzabon aholi bilan bog‘lashga uriniladi. Lekin, bu atama sof o‘zbek tilli aholi yashaydigan manzillarda ham tez-tez uchraydi. Demak «tal» formanti etnik va til mansubligidan qat’i nazar amal qilgan.

Taraburra (123-bet) toponimi tarkibiy jihatdan ikki qismdan iborat. Birinchi qismi «tar» – «tor», «tanqis», ikkinchi qismi esa «burra» o‘zagi bo‘lib, «kesilgan», «qirqilgan» ma’nolariga ega. Demak bu toponim muayyan topografik vaziyatda ma’lum joyning keskin uzilish, burilish nuqtasida joylashgan ob’ektga nisbatan berilgan bo‘lishi ehtimol.

Talxak, Chashma toponimi tojikcha «talx» – «achchiq» va «chashma» – «buloq» so‘zlaridan tuzilgan gidrotoponimdir. Talxak atamasi yolg‘iz holda ishlatilgan holatlar ham mavjud. Ammo joy nomini «talxak» – «achchiq» o‘zagidan sof holda ishlatish mantiqan noqulay. Bu atama ham bir necha marta uchragan bo‘lib, u suvi sho‘r buloq bor yerda voqe bo‘lgan qishloqlarga nisbatan «Talx chashma», «Tilxak chashma»lar kabi nomlangan deb hisoblash lozim.

Ushbu ilova materiallari asosida xulosa qilinadigan bo‘lsa, Buxoro amirligi tarkibiga kiruvchi aholining etnik mansubligi XX asr boshlarida turlicha bo‘lib, ulardan tojiklar va o‘zbeklarning bir qadar yuksakroq ijtimoiy uyushgan darajaga erishganligini ko‘rish mumkin. Ko‘plab mayda urug‘ va etnik diasporalar

---

[7] Abu Rayhon Beruniy. Osor ul-boqiya anal qurun ul-holiya. Tanlangan asarlar. I jild. – T., 1968. 334-bet

[8] Маллиский Н.Г. Ташкентские махалли и мавзеи. В.В.Бартолду – друзя, ученики и почитатели. – Т., 1927.

o‘zlarining etnik mansubligini tojiklar va o‘zbeklardan farqli ekanligini ongli ravishda bilishgan. O‘zbek urug‘lari ham O‘rta Osiyodagi azaliy turkiy urug‘lardan farqlangan. Shu sababli ro‘yxatlarda o‘zbeklar boshqa turkiy qavmlardan ajratib ko‘rsatilgan. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, Buxoro Amirligining barcha hududlarida XX asr boshida tojik va o‘zbek tillari ijtimoiy birlashtiruvchi omil sifatida kundalik muomala vositasi bo‘lib shakllanib ulgurgan edi.

Har ikki tilning (o‘zbek, tojik) ijtimoiy vazifasi XX asrda o‘zbek va tojik millatining asosiy belgisiga aylandi. Bu ikki yirik xalq atrofida va ular bilan birgalikda yashagan ko‘plab urug‘lar, el va elatlar XX asr davomida tojik va o‘zbek xalqi tarkibiga assimilyatsiyalashdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Aholi amnzillari va joy nomlari yasalishida 2 ta asosiy etnik komponent ishtirok etgan toponimlar haqida referat tayyorlang.

2. Buxoro amirligi aholi manzillarining nomlari orasida ijtimoiy mansab, lavozim, tabaqalar nuqtai nazaridan berilgan ijtimoiy atamalarning tarixiy geografik hududiy xaritasini tuzing.

3. Qishloq va mavzelarida etnik mansublik asosida joy nomlari haqida gaprib bering.

9- Mavzu. Qo‘qon va Xorazim toponimlarining paydo bo‘lishi va etimologiyasi.

Reja.

9.1-§. Qo‘qon toponomining paydo bo‘lish tarixi va etimologiyasiga doir ma’lumotlar.

9.2-§. Xorazm toponimi paydo bo‘lishi tarixiy asoslari haqida.

Tayanch ibora va tushunchalar.

9.1-§. Qo‘qon toponomining paydo bo‘lish tarixi va etimologiyasiga doir ma’lumotlar.

Tuyanch atamalar va iboralar: *Xo‘qand* (Xuvoqand), *Ibn Havqal, Muqaddasiy, “Xuvarazmis”, “Avesto”, toponomining paydo bo‘lish tarixi va etimologiyasi.*

Farg‘ona vodiysidagi ko‘p shaharlar qadimda mavjud bo‘lgan. Bunday qadimgi shaharlardan biri Qo‘qon hisoblanib, u 2000 yildan ortiqroq yoshda. 1830 yil yanvar oyida shaharga kelgan G.N. Potavin shu sababdan bunday deb yozgan edi: “Shaharda vaqt o‘tishi bilan putur yetgan, buzilgan qaqimgi yodgorliklar turibdi”. 1849 yilda esa “Rus imperatorining Geografiya jamiyati axborotlari” da chop etilgan “Qo‘qon xonligining hozirgi ahvolini tahlil qilish” maqolasida bu yerda qadimda Shimoliy davlatlarning qo‘shinlari bostirib kirishi tajavuzida mahf etilgan, qirib tashlangan shahar bo‘lganligiga Qo‘qon tevarak atrofidagi harobalar guvohdir deb takidlanadi. Shaharga qatnovchi sayyohlarning so‘zlariga qaraganda. Qo‘qon bog‘larida ko‘pining yoshi bir necha asrni tashkil etgan daraxtlar o‘smoqda edi. Shaharning barpo etilishi haqida V.P. Nalivkin qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. U 1732 yilda Shohruhning o‘g‘li Abu ar-Rahim hukimdor bo‘lgach, Qo‘qon shahriga asos soldi, uning vafotidan keyin esa ukase va vorisi Abu al-Karimbiy Qo‘qonga ko‘chib kelib, uni qayta qurdi, deb eslatib o‘tadi. Faqat shu paytdan boshlab Qo‘qon o‘z nomiga ega bo‘ladi. Shu yerlik mahalliy hokimlar esa shaharga asos solish vaqtini 1153- 1740 yillar deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha V.P. Nalivkin hatolikka yo‘l qo‘ygan. Shaharning mavjud bo‘lishih haqida yana 1718 – yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan sharqshunos Komissiyasining kotibi Florio

Benveni ham eslatib o‘tadi. Uning esdaliklaridan quyidagicha o‘qiymiz: “Butun Buxoro” o‘lkasi hozirgi va ilgargi vaqitda 23 ta shahar hisoblanardi, chunonchi, Buxoro sharqqa: Azora, Karmana, Toshkend, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon va Qashg‘ar…”.

Qoqon shahri toponomikasi xaqida ham turli xil malumotlar mavjud. Xususan, qirg‘iz xalqining “Manas” eposida Toshkent, Samarqand, Jizzax hamda vodiyning Qo‘qon, Andijon va Namangan shaharlari hamda ularning aholisi, xo‘jalikning ayrim turlari xaqida malumotlar beriladi. Shuningdek, Qo‘qon shahri X-asrda bitilgan “Hudud ul-olam” qo‘lyozma asarida, arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Ho‘qan (Xuvoqand), Ho‘qand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Xo‘qon viloyati tilga olingan. Hozirgi Qo‘qon shahri tarixiy Xo‘qand o‘rnida XVIII asrda boshlarida o‘zbeklarning ming urug‘i boshlig‘i, Qo‘qon xonligi asoschisi Shohruhbiy tomonidan barpo etilgan. Akademik V.V. Bar’toldning fikricha, shaharning adabiy nuqtai nazardan to‘g‘ri shakli Xo‘qand bo‘lib, Qo‘qon jonli tilda talaffuz etilishidir Qo‘qon shahri xaqida ma’lumotlar XII asrga oid malumotlar marokashlik sayyoh Al-Idrisiyning “Nuzxat af-mushtoq fi xtirak ul-afoq” (“Jahon bo‘ylab kezib xoldan toyganning ovunchig‘i”) asarida ham uchraydi. XIII asrga oid bir asar sayyoh Yoqud Hamaviyning “Mujam al-buldon” (“Mamlakatlar ro‘yxati”) asaridagi Xavoqand (Qo‘qon) xaqidagi malumoti biz uchun muhimdir. Etiborli tomoni shundaki, dastlabki manbalarda Qo‘qon, Xavoqand, Xuvaqan, Xuvakent, Quqand kabi nomlar bilan uchraydi. O‘z navbatida Qo‘qon atamasining manosi xaqida esa, asosan 3 xil faraz mavjud:

1. “Xuk kand” tojikcha “to‘ng‘iz kavlagan” ma’nosini anglatadi. Xuk kand” tojikcha “to‘ng‘iz kavlagan” manosini anglatadi. Bunday qarashning paydo bo‘lishiga sabab manbalarda ko‘rsatilishicha shahar o‘rni qamishzor bo‘lib bu yerda yovvoyi cho‘chqa (to‘ng‘iz) lar ko‘p bo‘lgan.

2. “Yaxshi”, “latif” manosini anglatadi. Chunki shahar baxavo, chiroyli joyda joylashgan.

3. “Yaxshi”, “latif” shahar aholisiga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, qo‘qonliklarning feli yaxshi bo‘lgan[9].

Shuningdek, Qoqon toponimiga nisbatan, “Xavokent” – “shamollar shahri”, “Ko‘pqon” – “ko‘p qon tokilgan joy”, “Qo‘pqon” – “pistirma” va boshqa nomlar uchraydi.

Rivoyatlarga kora, shaharni “Xuk kand”, yani “to‘ng‘iz kavlagan” deb atalishining asosiy sababi, shahar barpo etilmasdan bu joylar botqoqlik bolgan, bu yerda kop tong‘izlar yashagani uchun shunday nomlangan degan qarashlar mavjud. Bu xaqida rivoyat Isoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida ham keltirgan. Qoqon toponimining “Xoqand” (yoqimli, latif shahar, yaxshi shahar) sozlaridan kelib chiqqanligini isbotlovchi bir afsona bor. Shaharni qurish zarurati paydo bolganda tajribali ustalar – shahar quruvchi va ularning rejalarini tuzish boyicha mutaxassislar ozlarining hokimiga eng qulay bolgan toza suvli va soy orasidagi joyni tanlab olish kerakligini maslahat qilganlar. Bu joyda ko‘plab bog‘lar va polizlar bor edi. Yerning ozi esa xosildor edi.

Dushmanlarni bosib olishdan shaharni tabiiy tosiq – ikkita soy himoya qilgan. Bundan tashqari bu hududda Xitoy va boshqa mamlakatlarga boruvchi karvon yollari tutashgan edi. Bularning hamasi shaharni Xoqand deb atashga asos boladi. Boshqa bir rivoyatga kora shahar nomi “Xavokent” (shamollar shahri) sozidan kelib chiqqan. Chunki, shahar qurilgan paytda istiqomat qiluvchi aholi shamolning tez-tez bolishini, poyalar, daraxt tanalaring doimiy kuchli shamollar tasirida bir tomonga egilganligini takidlashadi. Shuning uchun shahar “Xavokent” (shamollar shahri, tez-tez xavoni ozgartiruvchi, iqlimni salqin qiluvchi, baxri-dilni ochadigan, sof bolishini taminlovchi manosida) deb atalgan. Boshqa bir rivoyatga kora shaharning nomi “Qopqon” (kop qon tokilgan joy) sozidan kelib chiqqaligi takidlanadi. Afsonaga kora, uzoq otmishda, bu hududda shahar qurilgan paytda tez-tez urushlar bolib turgan. Bu urushlar natijasida ko‘plab insonlar xalok bolgan va kop qon tokilgan.

[9] Х. История Коканда. – Тошкент: Фан, 2006. – С. 5.

Shu sababli shaharni qonli “kopqon” ataydilar[10]. Keyinchalik talaffuzda “P” tushib qolib, Kokon, songra, “K” ning “Q” ga ozgarishi natijasida Qoqon deb atay boshlaydilar.

Boshqa rivoyatda esa, shahar “Qopqon” (qopqon, tuzoq, pistirma) deb atalganligi takidlanadi. Ilgarigi vaqtlarda ajnabiylar shaharni talon-taroj qilish va uning aholisini qulga aylantirish uchun tez-tez xujum qilganlar. Lekin ularning barcha urinishlari behuda ketgan. Bir soz bilan aytganda bosqinchilar pistirmaga uchrab mag‘lub bolganlar. Shuning uchu ham shaharni “Qopqon”, yani tuzoq deb ataydilar. Keyinchalik “Qopqon” fonetik ozgarishlar natijasida “Qoqon”, “Qoqand” bolgan.

Qo‘qon hududlari va shaharlari, aholisi va xo‘jaligi xaqidagi malumotlar mo‘g‘illar, temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida yozilgan manbalarda ham uchrab turadi. Lekin bu ma’lumotlar yaxlit tarzda Qo‘qon haqidagi ma’lumot X asr arab mualliflarining geografiyaga oid asarlarida ham uchraydi. Masalan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istahriy “Katab Masalik” asarida bunday deb yozgan edi: “Kimki Xo‘jand Farg‘onaning asosiy shahri bo‘lgan Axsikentgacha borishni istasa, u Kenddan So‘xga bitta manzila va So‘xdan Huvakandgacha-bitta kata manzil, Huvakandan Axsikandgacha bir manzil yuradi.

“Hudan ud al-Alam” asarida (983 yilda yozilgan) “Huvaqanda, Rishton va Zendarami shaharlarining aholisi zich joylashgan bo‘lib, ekin ekiladigon yerlari ko‘p bo‘lgan”, deb yozilgan. Demak, bizgacha yetib kelgan qo‘lyozmalarga ko‘ra, Qo‘qon shahri tarixda arab olamiga X- asrdayoq yahshi ma’lum bo‘lgan. Bizning davrimizgacha shahar nomining kelib chiqishi haqida shu kabi ancha rivoyatlar saqlanib qolgan.

I.Toxtasinov, Y.K.Abramov, A.Dadaboev va boshqalarning “hu” so‘zining o‘zbek tiliga “havo” (havo, shamol) tarzida tarjima qilinib, shu ma’noni bildirishi haqidagi ma’lumoti diqatga sazovordir. Shuning uchun shahar “Havoqand” yoki “Havokent” deb atalgan. Qo‘qon tarixiga oid “Ansob-as-salotin va Tavorixi al-

[10] Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 6 – 7. Isxoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. – Toshkent: Meros, 1991. – B. 285. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Sharq, 1996. – B.10 – 12.

hovaqin” nomli kitobida shahar havoqin deb yuritiladi, degan fikr ham bor edi. Bu kitob qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instutida saqlanmoqda. Lekin “Havoqin” so‘zi faqat sarlavhada “hoqonlar” ma’nosida qo‘llanilgan, matnda esa shahar xo‘qand deb yuritilgan. Yana bir rivoyatda shaharning nomi “Qo‘qon” (ko‘p qon, ko‘p qon to‘kilgan joy) so‘zidan kelib chiqqanligi takidlanadi. Bu afsonaga muvofiq, uzoq o‘tmishda, shahar qurilgan paytda tez tez o‘zaro urushlar bo‘lib turgan. Cher elliklar, masalan, xitoylar, mo‘g‘illar, qalmiqlar va boshqalar shaharni bosib olishga intiladilar va uning boy badavlat yashovchi odamlarni qul qilib turganlar. Lekin aholi shaharni yaxshi himoya qilib, astoydil, qattiq turib qarshilik qilgan.

Qo‘qonlik tarixni yaxshi biladigon odamlarning ma’lumotlariga qaraganda (Nazirjon Valiev, Usmonjon Abdullayev, Muhiddin Xojjayev, Abdulla Usmonov, Shukirjon Mamatov, Tesha Zoxidov va boshqalar) uzoq o‘tmishda sinlar shaharni bosib olishga harakat qilganlar, lekinbuning uddasidan chiqaolmaganlar. Ular ikkinchi marta yana kata qo‘shin bilan kelib, shaharni qurshab oldilar. Qo‘qonliklar, xatto ularda oziq-ovqat yem xashak tugashlariga qaramay shaharni topshirmaydilar. Sinlar agar shaharliklar o‘zlarining hukimdor (podsho) larini tutib bersalar yoki o‘ldirsalar, qamalni olib tashlashlarini bildiradilar. Qo‘qonliklar bu shartni bajarishni rad qiladilar. Lekin hukimdor tabaqalar til biriktirib, fitna uyushtirib, hukimdorni o‘ldirishadi. Shundan keyin sinlar qurshovni olib tashlaydilar va uzoqlashadilar. Ana shu sababli shaharni qonli-“ko‘pqon” deb ataydilar. Talaffuzda “P” ni tushirib Qo‘qon deb atay boshladilar, keyinchalik esa “K”ning “Q”ga o‘zgarishi bilan Qo‘qon deb atay boshlaydilar.

Qo‘qon toponimining Xo‘qand (yoqimli, latif shahar, yaxshi shahar) so‘zidan kelib chiqqanligi haqida tushuncha beruvchi afsona mavjud. Shaharni qurish zarurati paydo bo‘lganda tajribali ustalar-shahar quruvchi va ularning rejalarini tuzish bo‘yicha mutahassislar o‘zlarining hokimiga eng qulay bo‘lgan toza suvli va soy orasidagi joyni tanlab olish kerakligini maslaxat qilganlar. Bu joyda ko‘p bog‘lar va polizlar bore di; yerning o‘zi esa juda hosildor bo‘lgan.

Dushmanni bosib olish havfidan shahar tabiiy to‘siq-ikki soy bilan himoya qilingan. Agar dushman soydagi suvni to‘sib qo‘ygan holda, quduqlar qazish mumkun bo‘lardi, chunki 1,5-2 m chuqurlikda suv bo‘lib, aholi talabini chuchuk suv bilan qondira olardi. Bundan tashqari, bu yerdan Xitoy va boshqa yerlarga karvon o‘tardi. Bularning hammasi shaharni Xo‘qand deb atashga qaror chiqarish uchun asos boladi.

Qo‘qon qo‘lyozma manbalarda (arxiv materilallarida ham) XVIII- XIX asrlarda shahar Xo‘qand deb atalgan.

Qo‘qon so‘zining kelib chiqishiga akademik V.V. Bartold katta ahamiyat bergan. U jumladan bunday deb yozgan edi: “Qo‘qon” arabcha Xuvaqand deb yozilgan, keyinchalik Xoqand deb atalgan.

“Qo‘qon”ni Bobur o‘z asarida shahar deb hech qayerda tilga olmagan, vaholanki, Jamol Qarshining yozishicha, u yerda imom Muhammad al-Bakirning ukalaridan biri bo‘lgan musulmon avliyosi Imom Abdulloh ibn Alining qabri bo‘lgan. Ismning o‘zi Bobur tomonidan tuman (archin) Hukan nomi sifatida yozilgan; XVIII- asrda (qarang: Muhammad-Vefa Kirminagiy, Tuxfat al-Xoniy, l.50 a) Kukan shakli ko‘rinadi, ilk rus xabarlarida Qo‘qon; Xo‘qon, ruscha Qo‘qon shakli adabiy an'analar tufayli faqat 19-asrda shakllangan. Uning fikricha, “O‘rta asrlarda bu yerda mavjud bo‘lgan Qo‘qon qishlog‘i o‘rnida Qo‘qon shahri (keyinchalik bu nom, shubhasiz, jonli nutqda qo‘llanilgan, adabiy to‘g‘ri shakldagi Xo‘qand bilan almashtirilgan”. Bu nomning o‘zi Bobur asarlarida Xo‘qan okrug (archin) tarzida Qo‘qon shakli paydo bo‘ldi, ruscha berilgan ma’lumotlarda esa Kokan deb yuritildi. Xoqand shakli, ruscha Kokand faqat XIX asrda adabiy an’ana tufayli shakillandi. Uning fikricha ham (shubhasiz, bunom jonli nuqda qo‘llanilib, adabiy to‘g‘ri shakli Xokand deb o‘zgartirildi), bu yerda o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan “Xoqan” qishlog‘i o‘rnida “Qo‘qon” shahri yuzaga kelgan. Shuningdek, XIX asrda yozilgan qo‘lyozma asarlarda “Qo‘qan”, “Qo‘qand” variantlari ham uchraydi.

Masalan, Qo‘qon shahridagi Hamza adbiy muzeyning kata ilmiy xodimi A. Madaminovning shahsiy kutibxonasida qo‘lyozmalarida uchraydi. Havokin yoki Havokent Qo‘qonning kelib chiqish nomi bo‘lishi mumkin emas, chunki Havoqin-

bu “hoqon” (hokim, podsholar) ning ko‘plikda qo‘llanilishidir. Xo‘qand so‘zi ham Qo‘qon so‘zining kelib chiqishi bilan bog‘liq emas, buni “Tarixi Farg‘ona” qo‘lyozmasida bayon qilingan rivoyatlar ham tasdiqlaydi. Shunday ekan, XVIII asr boshida shaharni qurish uchun joy tanlash haqida, ya’ni ijtimoiy hayotda musilmon dini to‘liq hukimron bo‘lgan davrda xo‘jalarning uni ilgari to‘ng‘izlar yashab hor qilgan, bulg‘agan joyda qurishga rozilik berishi dargumon endi. Ayniqsa, ular shaharni uning nomi bilan atshga rozi bo‘lmasdilar.

IX-X asrlardagi qo‘lyozma manbalarda ko‘proq tilga olinadi. “Xokkand” haqidagi afsona esa XVIII-XIX asrlarda paydo bo‘ldi. Shuningdek, Qo‘qon ham Qo‘qon so‘zining kelib chiqishi uchun asos bola olmaydi, chunki shahar bir necha yillar davomida nomsiz mavjud bo‘la olmaydiku, onda-sonda bir yuz beradigon urushlar va chet elliklarning hujumlari tasodifiy hususiyatga ega bo‘lardi.

Shuningdek, ta’kidlash, o‘rinliki, xitoyshunos A.Xo‘jayevning so‘zlariga ko‘ra, qadimgi xitoy qo‘lyozmalarida Farg‘ona vodiysida yashovchi “xu” xalqlari haqida ma’lumotlar uchraydi.

Eng muhimi Qo‘qonning kelib chiqishi (etimologiyasi) Xo‘qand so‘zi bilan bog‘liqdir. Ishoxon To‘ra “Jand shahri xususida” maqolasida “xu” “yaxshi” ma’nosini bildirishini yozadi va uni qator misollar bilan tasdiqlaydi. Shunday qilib, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Qo‘qon toponimining etimologiyasi “Xuqand” (“Xuq;and”) so‘zidan kelib chiqqan:

1. “Xo‘sh shahar” (“Xukandi latif”);

2. “Xu shahri” yangi, ya’ni “qabila (millat) shahri hu” (“hu”, “ho”, “ku”) ma’nosida. Bundan kelib chiqib, taxmin qilishimiz mumkinki, Qo‘qon (Xuqand) shahrining o‘zi Farg‘ona vodiysining yoshi 2000 yildan oshgan qadimiy shaharlardan biridir. Biroq Qo‘qonning yoshi haqida so‘nggi so‘zni arxeologlar aytishlari kerak.

9.2-§. Xorazm toponimi paydo bo‘lishi tarixiy asoslari haqida.

Xorazm quyi Amudaryo bo‘ylarida joylashgan eng chekkadagi maskanlardek ko‘rinsada, aslida insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan voha. Xorazim Al-Xorazmiy, Beruniy, Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ogahiy kabi yuzlab shu

sarhadda yashab o‘tgan yuksak tafakkur sohiblari dunyo ilmu fani xazinasiga munosib ulush qo‘shganligi tarixdan ma’lum.

Insoniyat sivilizatsiyasiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan bu voha nomi - Xorazm atamasining kelib chiqishi bo‘yicha shu paytgacha turli xil talqinlar bildirilib kelinmoqda. Akademik S.P. Tolstov yozganidek, “milodning X-asriga kelib, bu so‘zning ma’nosini xorazmliklarning o‘zlari ham unitib yuborganlar”. Biroq, turli avlodga mansub tadqiqotchilar guruhi Xorazm atamasini izohlashga urinib ko‘rganlar. Masalan, Klippert Lerx “Xorazm” nomini “Xuvarazmis”, ya’ni “ past tekislik yer” deb,nemis olimi E. Zaxau “Avesto”dada qayd etilgan “Qayrizao” aynan Xorazm ekanligini ta’kidlab, ushbu so‘z ikki qismdan, “zem-yer, qayri-oziq-ovqat” ma’nolarini, aniqrog‘i Qayrizao-oziq-ovqat mamlakati, ozuqaga mo‘l yurt, unumdor yer” deya o‘z taxminini ilgari suradi.

Bu fikrni boshqa bir nemis olimi Geycher ham quvvatlab, “Qayrizao” unumdor, hosildor,oziq-ovqat mo‘l-ko‘l o‘lka” degandi.Shu kabi taxminni rus olimi M.N. Bogomolov ham ifodalab, ushbu toponim qadimgi fors tilidan kelib chiqqan – “Xuvarazam” bo‘lib, chorva mollari boqish uchun qulay yerlar, mustahkam qa’lalar bilan o‘ralgan o‘lka ma’nosini bildiradi deb hisoblaydi. Yusti va Shpigel singari olimlar esa, aksincha “yomon, unumsiz yer” deb talqin qilishgan. Ular fikricha “Xor-yomon” zam-yer” degan ma’nolarni anglatadi.

Mashhur olim va sayyoh Vamberi bo‘lsa Xorazm atamasini “Xo-razm”—urushga moyil, jangovar degan ma’noda tahlil qilgandi.Grekov hamda Savelevlar fikricha, “Xuvarazmis” ning birinchi Xvar qismini “Xurshed” “Oftob” so‘zi bilan bog‘lab, “Quyosh o‘lkasi” sifatidagi talqin bilan bahsu munozaraga qo‘shildi.

Ma’lumki, forschada Xur, Xurshid- quyosh bo‘lib, slavyanlarning quyosh xudosi - Xors nomi ham shundan olingandir.

Bundan tashqari ushbu so‘z turli manbalarda turlicha talaffuzda aytilganiga ham e’tibor qaratmoq kerak. Misol uchun arab manbalarida “Xo‘vorezm”, eramizning VII asri boshlaridagi Xorazm tangalarida “Xvrizm”, qadimgi forschada esa “Uvarazmis”, bobilchada “Xumarizma”, elamchada bo‘lsa “Marazmis”, “Avesto” da “Qayrizao”,yunonchada “Xo‘ro‘zmiya-Xoraspiya”, lotinchada

“Xorasmiya”, mixxat yozuvida “Uvarezmiyya”, xitoy manbalarida “Xoli-sh-mi-kich “ tarzida keltiriladi.

Behistun va Persepoldagi yozuvlarda bo‘lsa Uvarazmi, qadimiy “Xan sulolasi tarixi” asarida Yuegyan (Yueszyan), “Tan sulolasi tarixi” da “Xosyun”, “Xolisimi Boli” tarzida qayd etib o‘tilgan.

Barcha eng so‘nggi tadqiqotchilar bu so‘zning ikkinchi qismi “zm”, “zem” hind-yevropa tillariga mansub “zem- yer, o‘lka” asosidan olingan (forscha “zamin” va ruscha “zemlya” ham shu asosdan yasalgan) deb izohlashga moyillar. Birinchi element “xvari” ga kelganda esa shuni aytish kerakki, uning kelib chiqishini fors tili bilan bog‘lashga intilish turli- tuman fikrlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Milodning I asrida qadimgi yunon tarixchisi Strabon “Xvay-ri-zem”, ya’ni “quyoshli yer” deya toponimni izohlab o‘tgan va “bu yerda yashovchilar quyoshni xudo deb bilishadi” degan fikrni bildirgandi.

Ma’lumki, Siyovush nomi qadimiy Eron tilida “Qora boshli”, qadimiy turk tilida “Qora sochli”- “Xorasmiy” ma’nosini bildirgan. Xorazm so‘zi ham ana shu nomdan olingan degan taxmin ham mavjud. Ma’lumki, Xorazmda saltanat surgan sulolalardan biri Siyovushiylar bo‘lib, uning asoschisi yuqoridagi shaxs hisoblanadi.Arxeolog sifatida S.P.Tolstov miloddan I asr oldin, milodning 8 asri orasidagi davrga oid topilgan Xorazm tangalarida Siyovushni chavandoz xudo obrazida juda ko‘p uchratganligini ta’kidlab o‘tgandi.

Professor Tohir Karim bo‘lsa atamani “Avesto” bilan bog‘laydi. Uning nazarida atama “Xo-oriy-zam, ya’ni Oriy qabilalarining yeri degan mazmunga ega. “Avesto”da keltirilgan Arianem Vaejo nomining lug‘aviy ma’nosi “Oriy kengliklari” ekanligi va bu tushuncha Xorazm bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha vaqtda voha juda keng jug‘rofiy hududlarni qamrab olganligi esa tarixdan ma’lum. “Oriy kengliklari” ning aynan Xorazm ekanligini Germaniyalik I. Marvart ilmiy jihatdan isbotlab berganligini ham nazarda tutmoq lozim.

Shu kabi, Xorazm to‘g‘risida arab sayyohi Muqaddasiy (985 yil) ham o‘zining “Axzam ut taqsim fi ma’rifat ul- aqolim” asarida bir rivoyatni keltirib o‘tadi.Ushbu rivoyatda sharq podshosi achchig‘ini keltirgan 400 kishini kimsasiz

uzoqlikdagi joyga olib borib tashlashni buyurgani aytiladi. Podshoh g‘azabini keltirganlar shu tariqa hozirgi Kos shahriga (Kos-Kot-Shabboz, hozirgi Qoraqalpog‘istondagi Beruniy tumani) keltirilibdi. Oradan vaqt o‘tib, podshoh 103 farsahlikdagi Kosga kelib qolganlar holidan xabar olishni topshiribdi. Mulozimlar kelib qarashsaki, badarg‘a qilinganlarning hammasi tirik bo‘lib, ular o‘zlariga chaylalar qurib, baliq ovlab kun kechirar ekanlar. Ularda o‘tin cho‘p ko‘p ekan. Voqeadan podshohni ogoh qilishsa, hukmdor mulozimlaridan so‘rabdi:

— Go‘shtni ular nima der ekanlar?

— Xor.

— O‘tin-cho‘pnichi?

— Razm.

Shunda podsho debdi:

— O‘sha joylarni men ularga bag‘ishladim. Ularning yurti “Xorazm” deb atalsin. Bundan tashqari, hukmdor badarg‘a etilganlarga to‘rt yuzta turk qizini olib borib tashlashni buyuribdi.

Muqaddasiy keltirgan bu rivoyatni (“xor” va “razm” –“go‘sht” va “o‘tin” - Xorazm) akademik S.P. Tolstov o‘zining “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab” nomli monografiyasida keltirib o‘tadi va uni “afsonadan boshqa narsa emas” deya baholaydi.

S.P. Tolstov Xorazm toponimni etnik nom orqali izohlaydi, ya’ni Old Osiyodagi Mitanni davlatining asoschilari bo‘lgan[11] qabila – Xurrit nomi bilan bog‘laydi, Xorazm – «Xvarri-zem» (Xurritlar yeri o‘lkasi) ma’nosida bo‘lsa kerak degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, qadimgi Xorazm bilan Mitanni o‘rtasidagi aloqalarni tasdiqlovchi qator tarixiy ma’lumotlar mavjud. Kadimgi xurrit – mitanni aloqalari, shuningdek Xorazm – xett munosabatlari albatta bu xalqlar madaniyatida o‘z izini qoldirgan. Ba’zi tadqiqotchilar qoraqalpoq xalqi tarkibidagi Muyiten etnonimi, shuningdek, Zarafshon o‘zbeklarining Mitan urug‘i nomini xuddi shu

[1111] Муъин Мухаммад «Фарҳанги форсий». 4-жилд. Техрон 2001 й. 51-52 б. 2
Дўсимов З. Хоразм топонимлари, Тошкент, «Фан», 1985, 12-13 бетлар.

Mitanni davlatining nomi bilan aloqador bo‘lsa kerak degan taxminni o‘rtaga tashlaydilar.

I.M. Dyakonov va I.Aliyevlar kavkazning qator rayonlarida, Araks va Galis daryolarining yuqori oqimida Matien deb ataluvchi xalqning yashaganini, bu haqda grek avtorlari asarlarida (Gerodot, Strabon, Gelatiy) ma’lumot saqlanib qolganini aytadilar. Ularning fikricha bu xalq eramizning birinchi asrlarigacha yashagan xurritlardir. Shularga asoslanib L.S.Tolstova Xorazm tarixiy tarixiy onomastikaga oid birliklarda uchraydigan (shu jumladan Respublikamizning boshqa joylarida ham) Mitan komponentli toponimlarni shu xurritlar bilan bog‘laydi.

S.P. Tolstovning yakuniy ilmiy xulosasi shuki, Xorazm-“xvarri yoki xarri xalqining yeri” degan etnik mazmunga ega.

Eramizdan avvalgi VII asrning ikkinchi choragida Xorazmlik xvarrilarning bir qismi hozirgi Xorazm hududlariga kelib o‘rnashadilar. Qabilalarning bu ko‘chishi qadimiy afsonalarda ham o‘z aksini topgan. Deyarlik barcha afsonalarning zamirida “ko‘chish”, “haydalish”, “badarg‘a qilinish”ning yotishi xuddi ana shu voqealar bilan bog‘liqdir. Hoh u, Sulaymon devning 400 askaridan darg‘azab bo‘lib, ularni cho‘lu- biyobonga haydab yuborishimi, hoh u, bir podshoning o‘z navkarlaridan norozi bo‘lib, ularni uzoq sahroga badarg‘a qilishimi, bularning hammmasiyam qandaydir bir guruhning murakkab tarixiy sharoit tufayli ko‘chganligidan dalolat berib turibdi.

“Кочевники из гранитсах Хорезма” nomli 1979 yilda Moskvadagi “Наука” nashriyotida chop etilgan kitobda yozilishicha esa, Ahamoniylar eramizdan avvvalgi 543-533 yillarda quyi Amudaryo hududlarini bosib olib, bu yerlarni Xoarezeym deb yozma yodgorliklarida qayd etib o‘tganlar. Xorazm viloyatidagi Xvarri qabilasining bir qismi quyi Amudaryo vohasiga joylashgan bo‘lsa, yana bir qismi Kaspiy dengizining sharqiy sohillariga, yana bir qismi esa, o‘ng qirg‘oq Oqchadaryo vohasiga joylashganlar. Strabonning masssagetlar ittifoqiga atastar va xvarizeymlarni ham qo‘shishi shundandir.

1990 yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan turkshunoslarning uchinchi konferensiyasida tarixchi olim M.Volidov yunon olimlari Ptolomey, Ammian,

Marsellin, Vizantiyalik Fefan, Zosima, Menandr ma’lumotlariga tayanib, Kaspiy dengizidan sharqda, butun Markaziy Osiyoda skif nomi bilan yashagan xalqlarning asosini xunlar tashkil etganligi haqida ma’ruza qildi. U skiflar-xunnlar turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligini isbotlab bergandi.

Xivalik tarixchi Muhammad Yoqub yozishicha, skiflar murakkab qabilalar birikmasidan iborat bo‘lgan, ularning tarkibidagi turkiy qavm, to‘qqiz o‘g‘izlarni Muhammad Al-Xorazmiy “iskif” deyishlarini eslatib o‘tadi.

Xorazim toponimi haqida tilshunos olim Baxtiyor Rizo ushbu atamaning kelib chiqishi bo‘yicha yangi, o‘z shaxsiy farazini ilgari suradi. Ma’lumki, «qo‘r» so‘zi gulxanning so‘nib bitmagan, yangi gulxan yoqishda asqotadigan cho‘g‘, olovning hillanib turgan qoldig‘ini bildiradi. Hatto, hozirdayam, ‘yuraginda qo‘ri bor’, qalbining qo‘rini baxsh etdi’ singari iboralar ishlatilib, unda qalbni, yurakni otash, yonib turgan gulxanga tenglashtirish mazmuni aks etgan. Tilshunos ana shu «qo‘r» so‘zi aynan olovni muqaddas deb bilgan zardushtiylar bilan bog‘liq ekanini ta’kidlab, quyidagicha fikr yuritadi» «Xorazm» so‘zi yarim forsiylashgan tarzda «Qo‘ri azim», ya’ni katta gulxan, bosh gulxan, asosiy otashgoh mazmunlaridan kelib chiqqan. Ma’lumki, «Qo‘r» so‘zi turkiycha bo‘lsa, «azim» so‘zi forschadir. Buning sababi, Eron Ahamoniylari «Qo‘r» so‘zini o‘zlarining talaffuzida ifodalashgan va unga «azim» so‘zini qo‘shishgan. Shundan keyin kelgan yunonlar esa bu so‘zni forsiylardan o‘zlashtirishgan» deb o‘z fikrini bayon qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qo‘qon toponimining paydo bo‘lishi tarixi haqida referat tayyorlang.

2. Xorariz toponimining paydo bo‘lishi haqida manbalar asosida tahliliy matn tayyorlang.

3. Qo‘qon va Xorazim toponimlari paydo bo‘lish tarixi etimologiyasi haqida yozilgan asarlarning davriy ketmaketligini tuzing va izohlang.

10- Mavzu. Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimiyasi.

Reja:

10.1. -§. Tashkent toponimining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi.

10.2. -§. Toshkent viloyati toponimiyasi.

10.3 -§. Toshkent shahri toponimiyasi.

Tayanch ibora va atamalar: *Oykonimiya, Qang‘ (Qanguy), shosh, choch Iloq, kat (kent), etnotoponim, atoqli ot, gidronimlar.*

10.1. -§. Tashkent toponimining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi. Toshkent viloyati O‘zbekiston respublikaning shimoli-sharqida joylashgan. Shimoldan va shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg‘iziston respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston respublikasi, janubi-g‘arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh.

Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida vohaning tekislik va tog‘li yerlarida yashagan o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim o‘troq chorvador qabilalar bilan yonmayon va aralash yashagan. Tub aholisi asosan o‘zbeklar bo‘lib, shuningdek, qozoqlar, quramalar, tojiklar va qirg‘izlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Toshkent deganda qadimdan katta shahargina emas, balki shu nomdagi tarixiy-madaniy mintaqa ham tushunilgan. Shu bilan birga shahar hamda uning tevarak-atrofi tarix davomida turlicha nomlar bilan atalgan. Toshkent vohasining eng qadimiy nomi Choch (Chochiston) ilk bor 262 yilda Eron podshosi Shopur I ning «Zardushtiy Ka’basi» toshida qayd qilingan. Ayni vaqtda Toshkent vohasini o‘rab turgan tog‘lar ham Choch deb atalgan (Choch arab manbalarda Shosh shaklini olgan). Shahar va mintaqaning Toshkand deb atala boshlaganiga X asrdan oshdi. Choch milodning dastlabki asrlarida Qang‘ (Qanguy) davlati tarkibiga kirgan, bir necha asr davomida esa haytallar (eftalitlar) davlati tarkibida bo‘lgan.

Toshkent toponimini ko‘p adabiyotlarda “Tosh shahar” deb izohlanadi. Shu so‘zda ma’lum ma’noda shahar tarixi ham o‘z aksini topgan. Arxeologik izlanishlar natijasida shahar hududida tosh asriga oid buyumlar ko‘plab uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haft jo‘sh (bronza) ko‘zgular, turli mamlakatlarning tangalari shaharning kamida 2000 yillik tarixidan darak beradi.

Xususan, Vatanimiz poytahti Toshkent shaharining YUNESKO e’tiboriga tushib, 2009 yilda 2200 yillik tavallud kunining nishonlanishi alohida e’tiborga loyiq.

Toshkent haqidagi birinchi tarixiy ma’lumotlar milodning dastlabki asrlariga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, shaharning geografik o‘rniga oid ma’lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning “Geografiyadan qo‘llanma” asarida uchraydi. Ptolemey bu asarida yer sharining obod qismini 26 xaritada tasvirlagan. Shu xaritalardan birida O‘rta Osiyo va uning atrofidagi o‘lkalar tasvirlangan. Unda Xitoyga boradigan savdo yo‘li ustida, aniqrog‘i Yaksart (Sirdaryo) havzasining sharqida Terri Lapideya degan joy ko‘rsatilgan. Olimlar ana shu yunoncha nomni “Tosh qo‘rg‘on” deb tarjima qilib, Toshkentga nisbat berishgan.

VI-asr oxirlarida Turk xoqonligi haytallarni tor-mor qilib, Movarounnahr qatorida Chochni ham o‘z tasarrufiga oladi. Xilma-xil xalqlar yashagan uzoq o‘tmishli o‘lkaning toponimlari lisoniy va xronologik jihatdan turlicha bo‘lishi tabiiy. O‘lkada eroniy, so‘g‘diy nomlar eng qadimiy sanaladi. Hozirgi Toshkent shahri va viloyati toponimlarining aksari qismi turkiy (o‘zbekcha) nomlardir. Mintaqadagi turkiy toponimlarning bir qismi bundan X - asr oldingi yozma manbalarda tilga olingan: Toshkand, Obliq (Abrlig‘), Iloq (Ayloq), Itlox, Jadg‘ol (Chatqol), Sobliq (Soyliq), Jabg‘ukat (Jabg‘ukas), Xotunkat (Xotunkas) va boshqalar shular jumlasidandir. Toshkent toponimiyasining xarakterli xususiyati shundaki, bu mintaqada etnotoponimlar anchagina uchraydi. Bu mintaqada yashagan etnik guruhlarning aksariyati vaqt o‘tishi bilan turg‘unlashib, etnik nomlarini unutganlar, lekin ularning nomlari joy nomlari etnotoponimlar shaklida bizgacha saqlanib qolgan. Viloyat hududida o‘zbeklardan tashqari qozoq, tojik, qirg‘izlar zich yashashgani uchun shu tillardagi toponimlar ham uchraydi.

Toshkent nomining yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shakllarida ham uchraydi. “Choch” so‘zi ham sug‘d tilida “tosh” demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan.

Yozma manbalarda kelltirilishicha, Toshkentning qadimgi nomi “Choch” bo‘lgan. Toshkent arablar tomonidan bosib olingach, arab alifbosida “ch” xarfining

yo‘qligi bois, asarlarda “Shosh” deb yuritilgan. Ilk o‘rta asrlarda shahar “Choch”, “Shosh”, “Shoshkent” deb nomlangan X - asrda noma’lum muallif tomonldan fors-tojik tilida yozib qoldirilgan “Hudud ul-olam” (“Dunyoning sarhadlari”) nomli asarda bunday deyiladi: “Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va sahiydir. U yerda o‘q-yoy tayyorlanadi. Binkat Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning qarorgohidir”.

Arabinavis olimlardan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy va boshqalar (IX – X asrlar) o‘z asarlarda Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb ko‘rsatganlar. Binkat hozirgi Eski jo‘va va Chorsu oraligida bo‘lgan. Binkat nomi forscha-tojikcha bo‘lib, “ko‘rimli shahar demakdir (“bin” – “ko‘rinish, “ko‘zga tashlanish”, “kat” – sug‘dcha “shahar, qishloq, manzilgoh” degan ma’noni bildirgan).

Buyuk Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qonuni Mas'udiy” asarida “Binkat – bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda “Toshkand”, yunonchadan arabchaga tarjima qilsang, – “Buri al-hijori” (“Tosh minora”) deb yozgan. Beruniyning so‘zlarini boshqa olimlar ham tasdiqlagan. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida “Tarkan – Shoshning nomi, uning asli nomi Toshkand bo‘lib, “g‘ishtdan qurilgan shahar demakdir”, deb yozgan. Demak, poytaxtimiz nomining “Toshkent” shakli birinchi bor Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchraydi va shahar boshqa nomlar bilan ham atalgan, nihoyat hozirgi nomi tilimizda qat’iy o‘rin olgan.

Toshkent haqida ozmi-ko‘pmi ma’lumotlar XIV – XIX asrlarda O‘rta Osiyoning siyosiy, harbiy va madaniy hayoti haqidagi asarlarda ham uchraydi.

Shaharning XIX asr tarixi, topografiyasi (geografiyasi), jumladan uning toponimlari haqida ma’lumotlar Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) asarida uchraydi. Qo‘lyozma fors-tojik tilida bitilgan bo‘lib, xozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Asar asli Toshkent viloyati tarixi haqida bolib, muallif shahar tarixini butun o‘lkada kechgan voqealar ko‘lankasida yoritgan.

Toshkent so‘zi ikki qismdan tarkib topgan: ularning biri tosh, ikkinchisi kentdir. Kent komponenti haqida hech qanday bahs yo‘q. Ammo tosh komponenti haqida fikrlar nihoyatda ko‘p va rang-barangdir. Buning ustiga. bor tlkrlarning har

biridan ham bir e’tirozli tomonni ko‘rsatish mumkin. Toshkent toponimining tosh komponenti qaysi so‘zdan kelib chiqqanligini aniqlash bunchalik chigal masala ekanligining ham o‘z obyektiv sababi bor. Bulardan biri tosh komponentining tosh so‘zi bilan bir xil fonetik tuzilishga egaligidir.

Toshkent shahri geografik nuqtai nazardan ham tarixiy nuqtai nazardan ham tosh so‘zining hozirgi ma’nosini oqlay olmaydi. Ikkinehi sabab esa Toshkent shahri o‘zining butun tarixida faqat shu nom bilan atalib kelmaganligidir. U ko‘p asrlik tarixida bir qancha nomlar atalgan. Shu shaharning boshqa nomlariga Toshkent toponimi tosh komponentining aloqasi yo‘qmikan?

Shunday bo‘lsa, etimologiya bir necha nomlar genezisini bir joydan chiqarishdek jumboqni yechishi kerak.

Tarixchi H.Ziyayev o‘zining «Toshkentning Rossiyaga qo‘shib olinishi» nomli broshyurasida Toshkent shahri eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Choch nomi bilan atalganligini qayd etadi. Toshkent toponimining o‘zi dastlab Abu Rayhon Beruniyming «Hindiston tarixi» asarida tilga olingan. Bundan tashqari Toshkent shahrining yana Shosh, Joj va Chosh nomlari bilan atalganligi ham ayrim yodgorlik va asarlardan bizga ma’ lum. Ba’zi manbalarda esa (H.Hasanov va M.V.Masson asarlarida) Shosh nomi bilan butun voha nomlanganligi haqida xabar beriladi. Uning markazini Bankat deb atab, hozirgi Toshkentning qadimgi nomi sifatida ko‘rsatiladi (Binkat toponimi esa boshqa manbalarda Binket. Binkent, Binokat variantlarida ham uchraydi, Bu albatta talaffuz natijasida kelib chiqqan). V. Minorskiy esa: «Choch, Shosh va Tosh nomlarining hammasini bir vohaning turli variantdagi atamalari deb biladi. XI asr tilshnosi Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘atit lurk» asarida Toshkent toponimi bilan yonma-yon Tarkant toponimi ham qo‘llanganligini ko‘rsatgan.

Bir qator etimologlarning diqqatini faqat Toshkent toponimi tortgan. Bu toponim dastlab qayd etilgan ikki manba (Mahmud Qoshg‘ariyning va Beruniyning asarlari) da uning tosh komponenti tog‘ jinsi ma’noli tosh so‘ziga bog‘lab ko‘rsatiladi. Shuningdek Beruniy mazkur asarida Toshkentni Ptolomey kartasida qayd etilgan Lifos Petros (Tosh minora), ya’ni yunonlarga qarashli bo‘lgan qadimiy

shahar deb tushunadi. Shosh toponimini esa tosh so‘zining arablar tomonidan buzib qo‘llangan varianti deb hisoblaydi.

Mahmud Qoshg‘ariy devonining mazkur o‘rnida ham «Shosh aslida Toshkand» deb ko‘rsatilgan. Taniqli olim, professor H.Hasanov Beruniy va Ulug‘beklarning geografik jadvallariga bag‘ishlangan maqolasida Toshkent toponimi qaysi so‘zdan kelib chiqqanligi masalasida yuqoridagi ikki olimning fikrlari tarafdori bo‘ladi. Ya’ni. Toshkent toponimi tosh so‘zidan kelib chiqqanligiga qo‘shiladi.

Bu fikrlar eng qadimgi manbalardan olingan va ularga asoslanib aytilgan. Biroq shunda ham, ularga to‘la qo‘shilish uchun. bir necha e’tirozlar mavjud. Avvalo Toshkentda tosh minora bo‘lganligini tasdiqlovchi hech qanday arxeologik topildiqni ko‘rsatib bo‘lmaydi. Buning ustiga keyingi vaqtda ko‘pgina Yevropalik olim lar Ptolomey kartasidagi Lifios Petrosni Pomiming janubidagi Toshqo‘rg‘on deb ko‘rsatishmoqda. Buni M.Ye.Masson ham qayd qilgan.

Sh. Qodirova o‘z maqolasida Toshkentning eng keksa vakil lari bilan suhbatlashganini keltiradi. Qadimgi Toshkentda tosh vo‘nuvchi hunarmandlar yashagan emish. Ehtimol, shahar nomi ham shundan kelib chiqqandir? Ammo bu haqiqatga mos kelmaydi. Chunki har bir kasb xom ashyo bazasi bilan bog‘liq holatda yaraladi va taraqqiy etadi. Yana, shu hunarmandchilikka xos iz ham shu shaharda qolishi shart edi. Toshkent shahri bularning birortasini ham tasdiqlamaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak. Sh. Qodirovaning o‘zi ham maqolasida shu fikrga shubha bilan yondashgan.

Tarixchi olim M.Vahobovning Toshkent tarixiga bag‘ishlangan asaridagi fikri ham shunga mos keladi. Uning aytishicha, Toshkent savdo punkti sifatida rivoj topgan. Ya’ni, karvonlar o‘tadigan yo‘llarning tutashadigan joyida bir necha karvon saroylari bunyod etilgan. Qo‘nib o‘tuvchilarni turli narsalar bilan ta’minlash uchun sarov atrofida xonadonlar paydo boigan. Bir necha yo‘llar boshiga sochilgan karvonsaroy atrofidagi xonadonlar ko‘paya borgan. Ular o‘zaro tutasha borib, kentni tarkib toptirgandir. Kentning nomi esa uning mana shu tarkib topish jarayoni bilan

bog‘liq holatda yaralgan bo‘lishi kerak. Demak, dastlab Choch («sochilgan», «yoyilgan», «tarqoq» ma’nolarida) deb atalgan.

Toshkent tarixi va toponimiyasiga oid mukammal ma’lumotlarni O‘rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyingi davrdagi rus mualliflari Ye.T. Smirnov

(“Drevnosti v okrestnostyax Tashkenta”. 1895), A. Mayev (“Азиатский Ташкент. 1876), I.I. Dobrosmo‘slov (“Ташкент в прошлом и настоящем”.1912)

N. Lokoshin (“Полжизни в Туркестане”. 1922), A.Shishov (“Сарти”. 1911) kabilar asarlaridan topish mumkin.

10.2-§. Toshkent viloyati toponimiyasi. Toshkent vohasi va Ohangaron vodiysi (Iloq) qadimiy madaniyat va iqtisodiyot markazi, ko‘hna shaharlar o‘lkasi bo‘lgan. Joy nomlari tarixini o‘rganishda yozma yodgorliklar qimmatli manba sanaladi. Miloddan avvalgi qadimgi sharq manbalarida ta’kidlanishicha Toshkent vohasi Yuni deb atalgan va Qang‘uy davlati tarkibiga kirgan. Vohaning markazi ham Yuni shahri deb nomlangan. Toshkent vohasi Xitoy manbalarida Shi - «tosh» deb, arab manbalarida Shosh deb transkripsiya qilingan. Bu o‘lka haqidagi ma’lumotlarni ayniqsa arab geograflari asarlarida ko‘p uchratish mumkin. Masalan, Abu Is’hoq al Istaxriyning «Kitob masalik al-momolik» asarida (X - asr) Choch (Shosh) viloyatidagi 27 ta shahar va qishloq tilga olingan (shundan 14 tasi kat qo‘shimchali nomlar).

Ohangaron vodiysida qayd qilingan 14 ta shahar qishloqning 7 tasi kat qo‘shimchali nomlardir. «Hudud ul-olam» asarida (XI - asr) bu mintaqada o‘ttizdan ortiq toponim qayd qilingan: jumladan, Chadg‘al (Chotqol), Iloq (Ohangaron vodiysi), Xashart (Sirdaryo), Navkas, Navkat (To‘ytepa yaqinida bo‘lgan), Ko‘hisim, Dahkas, Dahkat, Abrlig‘ (Oblig‘), Samisirak (Bo‘ka), Kalashijak (Sijjak), Xambarak (Xumson), Ardlonkas-Ar-dlonkat (Burchmulla), Satbag‘vo (Bog‘iston), Naxnax (Nanay), Gazak (G‘azalkent), Farnkas (Parkent), Jabg‘ukas (Jabg‘ukat), Tunkat, Choch, Nujkas, Nujkat (Xonobod), Xotunkas Xotunkat, Jinjijkat (Chinoz), Shuturkas, Shuturkat va boshqalar.

Shuni aytish kerakki, kat unsuri asli sug‘dcha dastlab kas shaklida talaffuz qilingan va bora-bora arabcha te (t), ba’zan dol (d) harfi bilan yoziladigan bo‘lgan.

Toshkent viloyati hududida kat qo‘shimchali ayrim shahar va qishloqlar nomini keltramiz. Ardiankat, Banokat (Banunkat), Birtkat (asli Toshkent), Biskat (keyinchalik Piskent), Danfag‘ankat, Dahkat, Jabg‘ukat, Jinajkat (Chinoz), Zaltikan, Zarankat (Zarkent), Nujkat, Nukat, Tunkat, Unjakat, Farnkat (Parkent), Xarashkat, Xotunkat, Xazarkat (G‘azalkent). Shunisi qiziqki, eski qo‘lyozma manbalarda aksari kat, ket shaklida yozib kelingan nomlar sho‘rolar hokimiyatining dastlabki yillarida kent shaklida yoziladigan bo‘ldi: Zarkent, Parkent, Piskent, G‘azalkent kabi.

Temuriylar davri yozma manbalarida O‘zbekiston toponimiyasi maxsus yoritilmagan bo‘lsa ham Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizi Abruning «Geografiya» va «Zubdat at-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa’dayn» kabi asarlarida talaygina joy nomlari tilga olingan. Ularda qayd etilgan Toshkent viloyatidagi toponimlardan quyidagilarni aytib o‘tish mumkin: Toshkand, Sayxun suvi, Ohangaron, Oqqo‘rg‘on, Toshkent cho‘li, Shohruhiya, Chinoz mavzesi, Farkat (Parkent), Xumrak mavzesi (Ohangaron daryosining etagida bo‘lgan), Porsin kechigi (Sirdaryodagi Kechik, Ohangaron daryosi quyilishi yaqinida bo‘lgan), Chanoqbuloq mavzesi.

Hofiz Tanish ibn Muhammad Buxoriyning (XVI asr) «Abdullanoma» asarida Toshkent shahrining Ko‘kcha, Farkat, Shibli, Samarqand, Turkiston, Registon nomli darvozalari nomi, Piskat, Sayxun (Sirdaryo), Farak (Chirchiq), Choch, Shohruhiya, Qaraqamish kabi toponimlar uchraydi. Sirdaryoning irmog‘i haqida: «Chirchiq nomi bilan mashhur Chir daryosi» deydi. Bundan ko‘rinadiki, Toshkent hududida turkiy nomlar ham qadimdan uchray boshlaydi, chunonchi, sof turkiy nom bo‘lgan Toshkent so‘zining tarixiy manbalarda qayd qilina boshlaganiga ming yildan oshdi. O‘rta asrlarda Toshkent yaqinida Xotunkat va Jabg‘ukat nomli shaharchalar bo‘lgan. Bular ham turkiy nomlardir. Sharqiy Turk xoqonligida jabg‘u degan unvon bo‘lgan. Xotun so‘zi arabcha bo‘lsa ham bu so‘z turklarga «xonning rafiqasi» yoki «xon ayol» ma’nosida ilk o‘rta asrdardayoq o‘tgan. Bo‘stonliq tumanida Soyliq degan qishloq bor. Bu nom X-XI asrlarda ijod qilgan arab geograflarining asarlaridayoq uchraydi. Bir qancha manbalarda, jumladan, buyuk Firdavsiyning «Shohnoma»sida

Chirchiq daryosi Obi-turk, ya’ni «turklar daryosi» nomi bilan tilga olingan. Bundan tashqari, Ohangaron vodiysi qadimda Iloq yoki Ayloq deb atallar edi. Arab yozuvida bu so‘zlar bir xil yoziladi. Biz ayloq degani to‘g‘iy deb hisoblaymiz. Chunki ba’zi bir manbalarda alif ustiga qo‘shimcha belgi qo‘yilib yozilgan, shunda Ayloq deb o‘qiladi, ayloq «yayloq», ya’ni «yozgi yaylov» degani. Shuningdek, bu vodiyda Imloq, Obliq ba’zi bir manbalarda Aparliq yoki Arpaliq) kabi turkiy nomlar bundan 1000-1100 yil oldingi manbalarda ham qayd qilingan. Bularning hammasi Chirchiq-Ohangaron vodiysida qadimdan turkiy qabilalar yashaganini ko‘rsatadi.

Shuni aytish kerakki, O‘zbekiston hududida bo‘lgan va ko‘p asrlardan buyon mahalliy aholi talaffuziga moslashgan barcha nomlar kelib chiqishidan qat'iy nazar o‘zbek toponimlari hisoblanadi. Chunonchi, etimologiyasi qorong‘ilashgan Samarqand, Buxoro, Chorsu kabi toponimlar o‘zbek tili leksikasidan o‘rin olgan va bu toponimlardan ko‘plab hosila so‘zlar yasalgan, masalan, hatto rus tilida «Бухарская сторона» (Buxoro tomon) degan tushuncha bo‘lgan. Bunda Ural (qadimgi Yoyiq) daryosining chap qirg‘og‘idan berigi tomondagi yerlar (Qozog‘iston va o‘rta Osiyo) tushunilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayev viloyat hududidagi ayrim etnotoponimlarni qisqacha izohlagan: Arg‘inchi (Yuqori Chirchiq tumani) o‘zbeklar, qozoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kirgan qabila -arg‘in. Arg‘inchi - arg‘in qabilasi vakili, arg‘inlik. Nayman - viloyatning Bekobod. Zangiota, Quyi Chirchiq tumanlari toponimiyasi tarkibida saqlanib qolgan qadimiy qabilalardan birining nomi.

Naymanlarning kelib chiqishi munozarali. Bir guruh olimlar (V.V.Bartold, B.Ya.Vladimirsov va boshq.) naymanlar etnogenezini mo‘g‘ullar bilan bog‘laydilar. Ular nayman so‘zining etimologiyasini (mo‘g‘ulcha, naim -«sakkiz») o‘z fikrlariga dalil qilib ko‘rsatadilar. Ikkinchi bir guruh esa (N.A.Aristov. S.A.Amanjolov va boshqlar) naymanlarni turk deb hisoblaydilar.

Oxirgi yillarda to‘plangan ma’lumotlar asosida, naymanlar aslida sakkizo‘g‘iz nomli turkiy qabila vakili bo‘lib, mo‘g‘ullar o‘z tiliga moslab nayman deb ataganliklari tasdiqlangan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o‘zbek naymanlar ham boshqa qabilalar kabi o‘troq o‘zbeklar tarkibiga singib, mazkur

xalqning shakllanishida faol qatnashganlar. Etnotoponimlar viloyatning barcha tumanlari toponimiyasida o‘z aksini topgan, ularni o‘rganish alohida tadqiqotni talab qiladi

Hozirgi kunda Toshkent viloyati hududida yashaydigan aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qiladi, ulardan tashqari qisman tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar ham yashaydi. Shuning uchun mintaqada substrat toponimlarni istisno qilganda tojikcha, qozoqcha va qirg‘izcha jo y nomlari ham uchraydi va ular orasida oykonimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Taniqli rus sharqshunos olimi akademik V.V.Bartold "kat (kad, kand, kent)" terminiga alohida e’tibor qaratgan. Chunki bu termin nafaqat O‘rta Osiyo balki. Yaqin Sharq, Sharqiy Turkiston va Kichik Osiyoda joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi. Olimning yozishicha, “kat" so‘zi eroniy tillarga xos bo‘lib, dastlab "uy" ma’nosini anglatgan. S.Qoravev ham uning fikrini tasdiqlab, kat so‘zi asli sug‘dcha, kat yoki kata qadimda urug‘ vakillarining bir bo‘lagi yashagan va devor bilan ajratib olingan katta hovlini bildirar edi. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan va aholi punkti ma’nosini anglatadigan "kent" atamasi, shubhasiz, ibtidoiy kat yoki kata so‘zidan kelib chiqqan deb yozgan.

V.V.Bartold asarlarida uchraydigan geografik nomlar izohi toponimist olimlar tomonidan tanqidiy nuqtai-nazardan sinchiklab o‘rganilishi zarur. Zero ayrim toponimlar etimologiyasini aniqlashda muayyan chalkashliklar vo‘l qo‘yilgan. Shu sababdan, olimning toponimik izohlarini bekamu-ko‘st deb bo‘lmaydi. Masalan. hozirgi Parkent shahri nomini olim aslida Barskent, ya’ni “bars (qoplon) shahri" bo‘lgan deb ta’riflagan. S.Qorayev bu talqinni noto‘g‘ri deb hisoblab. jov nomi tarkibidagi par so‘zi qadimiy eroniy tillarda “yuqori", kent, kat - "aholi punkti, shahar" degan ma’nolari borligini ta’kidlagan. Ohangaron vodiysi qadimdan Iloq yoki Ayloq deb atalgan. S.Qorayev nomning qadimiy shakliga e’tibor berib, arab yozuvida ushbu so‘zlar bir xil yozilishini ta’kidlagan. Olimning fikricha, Ayloq nomi to‘g‘ri, chunki ba’zi bir manbalarda Yayloq, ya’ni “yozgi yaylov” shaklida ham tilga olingan. Toshkent viloyati hududining katta qismini G‘arbiy Tyanshan tog‘larining tarmoqlari - Chatqol, Qurama, Piskom va Ugom tog‘lari egallagan.

Tyannshan nomi xitoy tiliga tegishli, uni olimlar tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilishiga ikki asr bo‘ldi. Mutaxassislarning fikricha, bu tog‘larning turkiy nomi Tangritog‘ bo‘lgan. Tiyonshon xitoy tilida “osmon tog‘lari”, tangri so‘zida ham "buyuk, yuksak" kabi ma’no mujassam.

Toshkent viloyati oronimiyasi tarkibida chim (Chimyon), tepa (Saritepa), tosh (Uchtosh), tov (Bukirtov), tog‘ (Bobotog‘-), bel (Qorabel) kabi indikator terminlar ko‘p uchraydi. Oronimlar tarkibida majoziy (metaforik) nomlar ham bor va ularga, Tuyatosh, Oynatosh, Egartosh kabi nomlar misol bo‘ladi.

Oronimlarning ko‘pchiligi hamma uchun tushunarli turkiy nomlardir.
Viloyat hududida bir necha yuz katta-kichik suv obyektlari mavjud va ularning har biri o‘z nomiga ega. Sirdaryo va uning irmoqlari Chirchiq, Chatqol, Piskom, Ugom, Ohangaron daryolari eng yirik suv manbalari hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, yirik daryolarning nomlari eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. Binobarin, gidronimlarni izohlashda ba’zan, qo‘shimcha tadqiqotlar kerak bo‘ladi.

Viloyat gidronimlari orasida majoziy nomlar ko‘p uchraydi. Yugiriksoy, Tentaksoy, G‘alvasoy, Sargardonsoy kabi nomlar bunga misol bo‘ladi. Tentaksoy (Parkent tumani) - ba’zan toshib ekinzorlarni suv bosadigan soy; Sargardonsoy (Bo‘stonliq tumani) - o‘zanini tez-tez o‘zgartirib turadigan soy; G‘alvasoy (Bo‘stonliq tumani) - shovqin-suron ko‘tarib sharbo‘ylab oqdigan soy; Tovoqsoy (Bo‘stonliq tumani) - shakli ulkan tovoqqa o‘xshaydigan chuqurlikdagi buloqdan boshlanadigan soy. Bu misollar geografik obyektlarga mahalliy xalqni topib nom qo‘yganidan dalolat beradi, nom qo‘yishda xalq dahosidan o‘rganish kerak.

Viloyat gidronimlarini alohida o‘rganilsa, ko‘plab yangi ma’lumotlar aniqlanadi. Umumiy olganda, Toshkent vioyati toponimiyasi boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshiroq o‘rganilgan. Shu bilan birga, hali tadqiqotchilarini kutib turgan toponimik muammolar viloyatda yetarli, ularni sinchiklab o‘rganish zarur.

Toshkent viloyati Toshkent tumani markazi va Toshkent vohasida oqib o‘tayotgan daryo nomi – **Keles** ham qadimiy nomlardan biri.

Arab manbalarida ushbu toponim Qalas (Keles) shaklida Sirdaryoning o‘ng irmog‘i va dasht nomi sifatida zikr etiladi. Ishtaxriy, Ibn Havqal asarlarida

Shoshning shimoliy chegarasida Qalas dashti tilga olingan. Qozoq toponimisti Ye.Qo‘ychubayev fikricha, turkiycha «kele» – «til», «-s» – «suv» so‘zining qisqargan variantidan iborat, bu toponim anglatadigan ma’no esa Keles «til suv» yoki «Tilga o‘xshash daryo» deya talqin qilinadi.

G‘aybulla Boboyorovning fikriga ko‘ra, Kalas nomining paydo bo‘lishi qadimgi turkiy gidronimlar – Talas, Irtis (Irtish), Arys nomlariga o‘xshash. Ya’ni, Kalas – «Kala+su», Talas – «Tala+su», Arys – «Ary+su» kabi yasalgan.

Chotqol – Chirchiq daryosining eng yirik irmog‘i va tog‘. Ishtaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Jadg‘al daryosi va viloyati tilga olingan. Shayx Sulaymon Buxoriyning chig‘atoycha-usmonli turkcha lug‘atida esa chatqol «notekis yer, dara» deb izohlangan.

Hozirgi zamon qirg‘iz tilida chatqal – «ikki tog‘ orasidagi botiq, dara» degan ma’no anglatadi. G‘aybulla Boboyorov Chatqol toponimini «dara, tog‘ orasidagi soylik» deya atash mumkin, deb hisoblaydi. Bu so‘z o‘z navbatida ikki komponentdan iborat: «chat» – «ikki daryo bir-biriga qo‘shiladigan joydagi oraliq»; «qal» (qol) esa – qandaydir qadimiy so‘z, ehtimol, «soy, jilg‘a» ma’nosidagi «qol» (qo‘l) so‘zining fonetik o‘zgarishidir. Chatqol toponimining turkiy ekanini Mo‘g‘ulistonning g‘arbiy hududlarida turkiy Chatqaltog‘ nomi uchrashi ham tasdiqlaydi

Ohangaron Toshkent viloyatining yirik shaharlaridan biri. Ohangaron toponimi forscha-tojikcha – “ohangar” ‘‘temirchi” degani, - on - ko‘plik affiksi (“Ohangaron” “temirchilar”). Ohangaron toponimi dastlab Xoja Ahrorning vaqf hujatlarida (XV – XVI asr boshlari) – Soyi Ohangaron, Daryo Ohangaron shakllarida tilga olingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Ohangaron julg‘asi (vodiysi) deb yozgan. Mo‘g‘ullar kelmasdan oldingi manbalarda Iloq daryosi deb atalgan. Bu vodiyda qadimdan temirchilik rivojlangani uchun daryo Ohangaron – “temirchilar” deb nom olgan. Keyinchalik vodiyda tashkil topgan shaharga ham Ohangaron nomi berilgan.

Parkent – Toshkent viloyatining yirik shaharlaridan biri bo‘lib, Parkent tumani markazi. Mahalliy talaffuzi Parkat. Arab geograflari asarlarida (IX – XI asrlar)

Barskat shaklida tilga olishgan. Yoqut Hamaviyning “Mu’jam ul-buldon” lug‘atida (XII – XIII asrlar) qayd qilingan. Shuningdek, sharqshunos V.V. Bar’told o‘rta asrlarda tilga olingan Sarskat shahrini hozirgi Parkent bo‘lsa kerak, deydi. O‘z navbatida “Parkent” toponimi Bars (tog‘ yo‘lbarsi) nomidan olingan degan fikr ham bor. Parkent tarixiy manbalarda “Faraakas” holida ham uchraydi.

Toshkent viloyatining shaharlaridan yana biri **Piskent** hisoblanadi. Dastlab arab geograflari Istahriy, Ibn Halqal, Muqaddasiy (X – XI asrlar) asarlarida Biskat shaklida tilga olingan, mahalliy xalq hozir ham Piskat deydi. U “bis” (forscha) “yigirma” so‘zidan kelib chiqqan degan fikrlar ham bor. Bu xaqida mahalliy aholi orasida quyidagicha rivoyat bor: “Bobur Hindistonga yurishidan boshlashidan bir oz oldin qo‘shni Piskent tumaniga kelib to‘htaydi. Bu yerda 20 kanizagini 20 nafar xizmatkorga nikohlab beradi. Bobur Hindistonga yo‘l olgach, 20 nafar xizmatkor shu yerda qoladi va Piskent (forscha “bis” – “yigirma”, “kent” – “qo‘rg‘on”) vujudga kelishiga sababchi bo‘ladilar.

Bekobod shahri – Toshkent viloyati tasarrufidagi yirik shahar, iqtisodiy markaz. Bekobod shahri qadimda Begovot deb yozilar edi. Begovot nomli qishloqlar O‘zbekistonda bir nechta bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bek shaklida talaffuz qilinadigan so‘zning to‘g‘risida asli beg bo‘lgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bu so‘z beg shaklida yozilgan. Akademik V.V. Bar’told ham bu so‘zni beg shaklida yozish va talaffuz qilish to‘g‘riroq deb yozadi. Bu kabi misollar toponimlarning hozirgi o‘zbekcha yozilishi mukammal emasligini ko‘rsatadi. Umumiy olganda “Bekobod” – “Bek obod qilgan maskan” deb izohlanadi.

Angren – Toshkent viloyati tasarrufidagi yirik shahar, iqtisodiy markaz. Angren toponimi Ohangaron “temirchilar” so‘zining buzilgan shakli. Ko‘plar buni ruscha talaffuz oqibati deyishadi. Aslida quramalar shunday talaffuz qilganlar. Zomin tumanida xam Angren degan joy bor[40].

Toshkent viloyati tasarrufidagi shahardan biri – **Bo‘ka** hisoblanadi. Qadimgi turk tilida, hozirgi ba’zi bir turkiy xalqlar (qozoqlar, qirg‘izlar) tilida “bo‘ka” – “pahlavon” degan ma’noni anglatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning

“Boburnoma” asarida “Bo‘ka” toponimi xaqida quyidagicha ma’lumot keltirgan: Sulton Ahmad Mirzoning eshik og‘asi Jonibek Do‘ldoy g‘arib ahloq va atvorlik kishi bo‘lib, u haqida xalq orasida turli rivoyatlar yurar edi. Kunlarning birida Samarqandga Sulton Ahmad Mirzo qoshiga o‘zbek Shayboniyxondan elchi keldi. “O‘zbek zo‘r kishini bo‘ka der emish. Jonibek derkim: Bo‘kamusen. Bo‘ka bo‘lsang, kel kurashamiz”. Shuningdek, Bo‘ka degan unig‘ ham bo‘lgan. Masalan, qang‘lilarning bo‘ka-qangli urug‘i qayd qilingan. “Bo‘ka” toponimi “qudratli”, “paxlavon” ma’nolarini bildirib, qadimgi turkiy qabila nomidan kelib chiqqanligi xaqiqatga yaqinroq. Chunki, bu hududda Bo‘ka, Murotali, Achamayli kabi bir qator qabilalar yashagan. Xozir ularning nomi o‘zlari yashagan joy nomlari bilan ataladi. Ya’ni etnonimlar yillar o‘tishi bilan toponimga aylangan. Shuningdek, tarixchi Ye. Shavanin “Bo‘ka” toponimini “dono, bilimdon” deb tarjima qilgan bo‘lsa, taniqli rus olimi L.N. Gumelev va xitoy olimi M.V. Xvan bir qator turkiy unvonlarni birga o‘rganib, “Bo‘ka” toponimi ma’nosini “qudratli” deb tarjima qilgan.

Chinoz – Toshkent viloyatidagi sahardan biri. Arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan Jinanjkat (Chinochkat) shahrini V.V. Bar’told hozirgi Chinoz deb qayd etgan. Manbalarda Chinos varianti ham uchraydi. Shuningdek, “Chinos” degan urug‘ ham bo‘lgan (mo‘g‘ulchada “chin”– “bo‘ri”). Rashiduddin Fazlulloh (XIV - asr)ning “Jome – ut-tavorih” tarixiy asarida yozishicha “Chinoz” atamasi mo‘g‘ullarning tayjuit qabilasi tarkibidagi urug‘lardan birini anglatadi. Keyinchalik chinozlar tayjuitlardan ajralib, mustaqil qabila bo‘lganlar. XIII – XIV asrlarda Chinoz qabilasi ham boshqa bir qancha mo‘g‘ul qabilalari kabi Dashti Qipchoqning sharqiy tomoniga, so‘ngra Qarshi va Toshkent vohasiga kelib o‘troqlashganlar.

«Chinliklar shahri» – Chinoz Chinonchkat (hozirgi **Chinoz**) nomining ma’nosi tadqiqotchi tarixchi Andrey Kubatinga fikriga ko‘ra, «Chinliklar shahri» degan ma’no anglatadi.

O‘sha davrda Chin toponimi Sharqiy Turkistonga nisbatan ishlatilganini hisobga olsak, ushbu toponimni «Sharqiy turkistonliklar shahri» deb tushunish mumkin bo‘ladi.

Toshkent viloyatidagi shaharchalardan biri **Qibray** hisoblanadi. Qozoqlarning dulat qabilasining bir urug‘i qibiray deb atalgan. Bu urug‘ vakillari afsonaviy Qibiray botirdan tarqagan ekan. Sadir Sadirbekovning 1994 yilda “O‘zbekiston” nashriyotida qozoq tiiida bosilgan “Qozoq shajarasi” kitobida shu haqda gap boradi.

Qo‘yliq – Toshkent shahri mavzelaridan biri. H. Xasanov Qo‘yliqni “quyilik”, “pastlik” deb izohlagan. Yana shuni aytish mumkinki, o‘zbeklarda ham, qozoqlarda ham qo‘yli degan urug‘ bo‘lgan. Qo‘yli keyinchalik Qo‘yliq bo‘lib ketgan bo‘lishi ham mumkin.Bundan tashqari, mo‘g‘ul sarkardalaridan birining ismi Qo‘yliq bo‘lgan ekan. Mo‘g‘ul sarkardalarining nomlari O‘rta Osiyo toponimiyasida uchrab turadi (Chig‘atoy, Ko‘kcha, Bo‘ka va b.).

G‘azalkent – Toshkent viloyatidagi shahar, Bo‘stonliq tumani markazi. Ayrim olimlar arab geograflari asarlarida qayd qilingan Gazak shahri hozirgi G‘azalkent bo‘lsa kerak, degan fikr bildirishadi. Professor H. Xasanov G‘azalkent toponimi “g‘izol” – “ohu” so‘zidan tarkib topgan degan fikrni bildirgan.

Toshkent viloyatidagi mashhur hududlardan biri – **Chimyon** bo‘lib, Chimyon toponimi va umuman Toshkent viloyatining tog‘li qismidagi ko‘pgina joy nomlari Farg‘ona vodiysidan ko‘chib kelgan aholi tomonidan qo‘yilgan degan ma’lumot bor. Zarkat (Zarkent), Parkat (Parkent), Nanay, Burchmulla kabi nomlar shular jumlasidan. Farg‘ona tumanida Chimyon shaharchasi, Qo‘rg‘ontepa tumanida Chimyon qishlog‘i bor. Farg‘onadagi Chimyonni tojikcha talaffuz asosida ruslar Chimion, Bo‘stonliqdagi Chimyonni esa o‘zbekcha talaffuz asosida Chimgan yozib kelishadi. Chim-chem unsuri o‘zbekchada ko‘p marta takrorlanadi. Chem (chim) sug‘d tilida “g‘ov”, “to‘siq”, “ihota”, “qo‘rg‘on” degani. H. Xasanov Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “o‘tloq” ma’nosidagi “chimgan” so‘ziga nisbat berib, Chimyon toponimini “serchim joy” deb izohlagan.

To‘ytepa ham Toshkent viloyatining qadimgi turkiy toponimlaridan biri va ko‘pchilik o‘ylagani kabi uning marosim ma’nosidagi «to‘y» so‘ziga aloqasi yo‘q.

To‘ytepadagi «to‘y» so‘zi qadimgi turkiy «qal'a, qo‘rg‘on» ma’nosidagi, Mahmud Koshg‘ariy asarlarida tilga olingan «to‘y» so‘zi bilan bog‘liq. To‘ytepa esa «qo‘rg‘ontepa», degan ma’noni anglatgan.

Hozir bu shahar Toshkent viloyati markazi sanaladi va «nur taratuvchi», «nur sochuvchi» manosidagi Nurafshon nomini oldi. Demak, Toshkent viloyati markazi Nurafshon shahri ming yildan ziyod tarixga ega qadimiy shaharlarimizdan biri, deb hisoblashga asos bor.

10.3-§. Toshkent shahri toponimiyasi: Toshkent shahrining bir necha ming yillik tarixi, uning toponimiyasida ham o‘z aksini topgan. Mutaxassislarning yozishicha, shahar qadimiy Buyuk Ipak yo‘li ustida joy iashganligi tufayli, shaharga turli yurt vakillari kelib, ularning bir qismi shu joyda o‘rnashib qolgan. Shuning uchun, shahar toponimiyasi turli tilli joy nomlaridan tashkil topgan.

Toshkent shahri toponimiyasi tarkibida joyning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi nomlar ham ko‘p. Mahalliy xalq orasida "Toshkent yetti qiru yetti o‘rda joylashgan" degan ibora bor. Shuning uchun, shahar yer yuzasining bunday holati joy nomlarida aks etgan. Masalan, shaharning mikrotoponimlari tarkibida Jarariq, Jarko‘cha, Chuqursoy. Chuqurko‘prik, O‘rko‘cha, Zahariq, Pastak degan nomlar uchraydi. Bu nomlar shahar yer yuzasining past, soylik joylarida joylashgan geografik obyektlarga berilgan.

Shahar juda qadimdan sug‘orib dehqonchilik qilinadigan vohada joylashgan. Ma’lumki, Chirchiq daryosidan juda ko‘p ariqlar, kanallar chiqarilgan, aholini suv bilan ta’minlash maqsadida ko‘plab hovuzlar va quduqlar bunvod etilgan. Ularning farqlovchi xususiyatlari ayrim geografik obyektlarni nomlashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Nishabariq, Damariq, Yo‘lariq. Shofayziquloq, Shoshariq, Tarnovboshi, Jo‘nariq, Tersariq, Shirinquduq, Kattahovuz va boshqalar.

Toshkent shahri toponimiyasi tarkibida o‘simliklar bilan bog‘liq nomlar ham uchraydi. Ular qadimda aholi shahar atrofida dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi, turli mevali bog‘lar va bog‘- hovlilar ko‘p bo‘lganligidan darak beradi: Bodomzor, O‘rikzor, Olmazor, Chilonzor, Sebzor, Mingo‘rik kabi nomlar shular jumlasidandir. Hayvonlar nomi bilan bog‘liq nomlar: Bo‘rijar, Kaptarxona, Sagbon (Sag‘bon), Chivintepa va hokazo.

Toshkent uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan shahar. Shaharning ikki ming yillik tarixi geografik obyektlar nomlarida saqlanib qolgan. Shuning uchun, shaharda

tarixiy nomlar koʻp uchraydi. Chorsu, Jangob (Jangoh), Xadra, Namozgoh, Kamolon (Kamongaron), Eskijoʻva kabi nomlar tarixiy voqea-hodisalar bilan bogʻliq nomlardir. Masalan, Chorsu (fors-tojik tilida, chor - “toʻrt’’, soʻ(soʻy) - "tomon’") - chorraha, shahar markazidan toʻrt tomonga koʻchalar ketgan joy. Ana shunday koʻchalar kesishgan markaz joyda koʻpincha bozor qurilgan va joylashgan oʻrniga qarab chorsu deb atalgan.

Eski joʻva - Sebzor dahasi mahallaridan birining nomi. H.Hasanovning yozishicha, mahalla nomi eskirgan harbiy aslahalar (joʻva) ombori nomi bilan bogʻliq. Darhaqiqat, qadimda jang quroli hisoblangan sovutni jiba (juba) deyishgan. S.Qorayev boshqa xulosani bayon qilgan: joʻba (joʻva) soʻzining ma’nosi - bozor, rasta. Olimning yozishicha, oʻtmishda Buxoroda Joʻbai baqqolon - “baqqollar bozori” boʻlgan. Tarixiy nomlarning yana biri oʻrda - turkiy va moʻgʻul tillarga xos soʻz. Moʻgʻul tilida orda - qasr. Qadimgi turkiy tilda oʻrda xon qarorgohi, qasr, qoʻrgʻon.

Oʻzbek, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillari oʻtmishida viloyat boshligʻi, uning ma’muriy va harbiy boshqaruvi joylashgan joy - oʻrda deb atalgan.

Ma’lumki, Toshkent shahri juda qadimdan hunarmandchilik markazi boʻlib kelgan. Shu boisdan aholining kasb-hunari bilan bogʻliq holda paydo boʻlgan joy nomlari koʻp. Degrez, Taqachi, Oʻqchi, Kamongaron, Pichoqchilik, Zargarlik kabi nomlar misol boʻladi. Xususiy hunarmandchilik man etilgan va hunarmandlar ta’qib qilingan shoʻrolar davrida hunarmandchilik bilan bogʻliq boʻlgan jo y nomlarining koʻpi oʻzgartirildi. Mustaqillikdan keyin ularning koʻpchildigi qayta tiklandi.

Toshkentda kishilarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bogʻliq nomlar juda koʻp va ular xilma - xil. Oʻrta Osiyoni Chor Rossiyasi bosib olgandan keyin va xususan shoʻrolar davrida bunday nomlar soni keskin koʻpaydi. Mustaqillikdan keyin ularning koʻpchiligi oʻzgarliriIdi. Albatta, Oʻzbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomi bundan mustasno. Oʻzbek xalqining jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga kata hissa qoʻshgan, taniqli olim, yozuvchi, shoirlar, sarkardalar nomlarini geografik obyektlarga berish qonun bilan ruxsat berilgan. Toshkentda ularning nomlarini hurmat va gʻurur bilan e’tiro f qilishadi.

P. G‘ulomovning yozishicha, Toshkentda ma’nosini tushunish qiyin bo‘lgan “g‘aroyib" nomlar ham uchraydi. Ular qatoriga Jinko‘cha, O‘g‘riko‘cha, Alvasti ko‘prik, Xotinko‘prik.

Xo‘jatarashkan kabi nomlarni kiritish mumkin. Jinko‘cha - juda tor, zim-ziyo, odam kam yuradigan ko‘cha. Alvasti ko‘prik - tepalar orasida, pastak joy, qo‘rqinchli joy, alvastilar (jinlar) makoni bo‘lgan deyishadi. Xo‘jatarashgan nomli mahalla Toshkentning Sebzor dahasida bo‘lgan, nomning asl shakli «Xo‘jai tarozu shikan», ya’ni “tarozini sindirgan, ishdan chiqargan xo‘ja" degan ma’noga ega.

Toshkentda har xil chuchmal yoki ismi - jismiga to‘g‘ri kelmaydigan nomlar ham uchraydi. Ularga nazar solsangiz tushunarli, chiroyli, sharqona ko‘rinadi, ammo ular atoqli otlar emas, balki oddiy turdosh otlar. Visol, Vijdon, Jonon. Dadil, Intizom, Muloyim kabi mujmal nomlar misol bo‘la oladi. Ta’kidlash joizki, hamma so‘zdan ham jo y nomi yasalavermaydi, ya’ni nom so‘z tanlaydi. Boshqacha aytganda, real voqealikda, kundalik hayotda, mavjut tabiiy sharoitdan, ijtimoiy-iqtisodiy turmushdan kelib chiqib nom tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Toshkent shahar va viloyati toponimiyasi o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot to‘plang.

2. Toshkent shahar toponimiyasi tarkibidagi tarixiy nomlar va ularning etimologiyasi haqida referat tayyorlang.

3. Toshkent vohasi etnotoponimlari haqida gaprib bering.

4. Toshkent shahar va viloyati toponimiyasi haqida yozilgan asarlar va ularning mualliflari davriy ketmaketligini tuzib chiqing.

5. Mustaqillik yillarida Toshkent shahar va viloyatida olib borilgan toponimik tadqiqotlar haqida ma’lumot to‘plang.

11-mavzu. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati toponimiyasi.

Reja.

11.1-§. ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimiyasi.***

11.2-§. ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi etnotoponimlari.***

11.3-§. ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi oronimlari va gidronimlari.***

11.4-§. ***Xorazim viloyati toponimiyasi.***

11.5-§. ***Xorazm viloyati ba’zi toponimlari va etnotoponimlarining tavsifi, hududiy geografiyasi***.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *etnonim, etnooykonim, oronim, eneotoponim, xvarizm, neko‘z.*

11.1-§. ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimiyasi.***

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlarida yurtimizning ko‘plap qadimiy va navqiron shaharlari mavjud. Bu hududlarda shaharlar Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga nisbatan kamroq bo‘lsa-da o‘ziga xos suronli tarixga ega. Shuningdek, bu shaharlarni har birining toponomikasida o‘ziga xosliklar mavjud.

Xususan, Nukus shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytahti, muhim siyosiy va iqtisodiy markaz hisoblanadi. Nukus toponimiyasi xaqida aniq ma’lumotlar uchramaydi. Xususan, e’tibor beradigan bo‘lsak, nekuz degan urug‘ bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra Nukus (no‘kis) urug‘i surgun qilingan to‘qqizta qizning o‘g‘illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo‘lib, “to‘qqiz kishi” demakdir (tojikcha “no‘h” – “to‘qqiz”, “kas” – “kishi”). Bu rivoyat, xolos. Toponimning etimologiyasi hamon noma’lum.

Nukus qabilasi “neko‘z” shaklida turk-mo‘g‘ul urug‘lari tarkibida qadimgi tarixiy manbalarda, chunonchi, Rashid ad-dinning “Jome at-tavorix’ asarida ham tilga olingan. Nukus urug‘i nukas (“yangi qishloq”) degan ma’noni anglatadi degan fikr ham bor. Nrtus (Nikuz) degan joy nomlari Respublikamizning boshqa yerlarida ham uchraydi.

Qoraqalpog‘iston respublikasi hududidagi shaharlardan biri Mo‘ynoq hisoblanadi. Mo‘ynoq quyidagi tarkibiy qismdan iborat: “mo‘yin” – “bo‘yin”, “oq” kichraytirish qo‘shimchasi. Mo‘ynoq – “kichik bo‘yin”, “bo‘yincha” demakdir.

Taxtako‘pir – Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi shahar va shu nomdagi tuman markazi. “Taxtako‘pir” toponimining kelib chiqishini XX asrning boshlarida Quvonchyorma kanalining davomi bo‘lgan Bosay kanali ustida xashar yo‘li bilan qurilgan taxta (yog‘och) dan qurilgan ko‘prik (shevada ko‘pir) bilan bog‘laydilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri To‘rtko‘l shahri hisoblanib, hozirda To‘rtko‘l tumani markazi hisoblanadi. To‘rtko‘l Qoraqolpog‘iston Respublikasining birinchi poytahti hisoblanadi. To‘rtko‘l toponimi e`tibor beradigan bo‘lsak, shahar qa’tiy plan asosida to‘rtburchak (to‘rt gul – kvadrat) shaklda qurilganligi uchun shunday nom olgan. Shuningdek, mahalliy rivoyatlarning birida shahar nomi “Durgil” bo‘lib, forsiyda “Durri gil” – “serhosil, oltin tuproq” ma’nosida ham talqin etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining qadimiy shaharlaridan yana biri Xo‘jayli bo‘lib, shu nomdagi tuman markazi. “Xo‘jayli” atamasi XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida poydo bo‘lgan. XIX asr 70 – yillarida O‘rta Osiyoda bo‘lgan rus olimi A.L. Kunning ma’lumotlariga ko‘ra Xo‘jayli qal`asini Turkiston shahridan ko‘chib kelgan eshon Alamin Xo‘ja qurdirgan. Shuningdek, mahalliy aholi orasida shaharga so‘fiylarning Yassaviylik oqimiga mansub xo‘jalar tomonidan asos solingan degan rivoyat ham bor. Shahar atorofida miloddan avvalgi IV – III asrlarda aholi yashaganligini arxeologik qazishmalar tasdiqlaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi shaharlari toponimlari xaqida so‘z ketganda Orol dengizi toponimiga ham to‘xtalib o‘tish kerak deb hisoblaymiz. Orol dengizi nomining kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Nega dengiz (katta ko‘l) Orol deb atalgan? Orol suv o‘rtasidagi quruqlik-ku! Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg‘ozi Bahodirxon Amudaryo dengizga quyiladigan joyni, del’tani Orol deb atagan. Ana shu yerda orolliklar degan xalq yashagan. L. Berg o‘zining “Orol dengizi” degan asarida (1908) Orol o‘sha yerda yashagan xalq – orolliklar nomidan kelib chiqqan deb yozadi va Richkovning (1755) “Ko‘lda orollar ko‘p”

bo‘lganligidan u shunday atalgan” degan fikrini o‘rtaga tashlaydi. Chindan ham ushbu dengizda 300 dan ortiq orol bo‘lgan.

Tevarak-atrofdagi o‘zbeklar, qozoqlar dengizni Orol (Aral) deb atasa, qoraqalpoqlar Aral yoki Atau deb atashar ekan. Qoraqalboq toponimisti

Q. Abdimuratov Orol dengizi chindan ham orol “suv o‘rtasidagi quruqlik” so‘zidan kelib chiqqan degan fikrnl bildiradi.

11.2-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi etnotoponimlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy aholisini tashkil etuvchi turkiy tilli xalqlar bo‘lib asosan o‘zbeklar va qozoqlar ko‘p, turkmanlarning salmoqli guruhi ham uzoq vaqtdan beri yashab keladi.

Qoraqalpog‘istonda etnotoponimlar ancha keng tarqalgan. Bu o‘tmishda bu yerda turli qabila, urug‘, elat vakillari yashab, hozir istiqomat qilganidan joy nomlarnining etnoslar bilan bog‘liqligi ham dalolat beradi.

Qoraqalpog‘iston etnotoponimlarini maxsus tadqiqot ko‘rsatganidek, eng avvalo quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) O‘zbek qabila va urug‘ nomlaridan olingan toponimlar;

2) Qoraqalpoq qabila va urug‘lari nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar;

3) Qozoq qabila va urug‘ nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar;

4) Turkman qabila va urug‘lari nomlaridan olingan toponimlar;

5) Boshqa xalqlar nomlaridan olingan toponimlar.

Qoraqalpoq qabila va urug‘lari nomlaridan olingan toponimlar. Qoraqalpog‘iston toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri qoraqalpoq qabilalari, urug‘lari va ularning ko‘p sonli kichik urug‘ bo‘linmalari nomlarini o‘z ichiga olgan etnotoponimlarning, ya’ni joy nomlarning katta qismidir.

Qoraqalpoq xalqining bu ariqlari (tarmoqlari) o‘ziga xos o‘troq hududiga ega bo‘lib, u ma’lum darajada hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Qoraqalpoq xalqining qabilalarga, qabilalarning urug‘larga, urug‘larning o‘z navbatida kichchik urug‘ va boshqalarga bo‘linishi, ko‘plab etnonimlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Qoraqalpog‘istonda qipchoq etnonimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bir qancha toponimlar qayd etilgan. Qipchoqlar o‘tmishda nafaqat O‘rta Osiyo, balki Sharqiy

Yevropa tarixida katta rol o‘ynagan ko‘p sonli turkiy qabiladir. U qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning etnik nomiga aylandi.

Qoraqalpog‘iston hududida qipchoq etnonimi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘n yettita toponim mavjud. Bulardan ikkita toponim to‘g‘ridan- to‘g‘ri qipchoq etnonimi bilan atalgan: Qipchoq ovuli (Kegeyli, Qorauzyoq va Chimboy viloyatlari hududida), qipshoqjap (Chimboy viloyatida), qolganlari qipchoq qabilasining mayda tarmoqlaridan: bag‘anali ovuli, Jag‘altay ovuli, Maylibalta kanallari, Baybishe ovuli (Chimboy tumanida), Basar ovuli, Estek ovuli, Estekjap, Bag‘analiqum, Eshkili ovuli, Xonjig‘ali ovuli (Kegeyli tumanida), Ko‘psoqir ovuli, Ma’libalta ovuli, Shunaq ovuli, Yaby qipshak ovuli (Chimboy tumanlaridagi Kegeyliyda).

Qiyat — qadimgi qoraqalpoq urug‘laridan birining nomi. Qoraqalpog‘iston hududida bu etnonim bilan bog‘liq bo‘lgan beshta toponim mavjud: qiyat o‘yli (Qorauzyak, Qo‘ng‘irot, Taxyatos va Shumanay viloyatlarida), Qarjavobaras o‘yli, To‘g‘izoq o‘yli (Shumanay viloyatida) qiyat urug‘ining mayda tarmoqlaridan kelib chiqqan. Yuqoridagi faktlar Qoraqalpog‘iston toponimiyasida etnotoponimlarning salmog‘i katta ekanligidan dalolat beradi. Bu nomlar Qoraqalpog‘iston hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lar, qabilalar, elatlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

11.3-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oronimlari va gidronimlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakatimizning shimoli-g‘arbida, Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy qismida joylashgan. Hududi geografik jihatdan Qizilqumning shimoli-g‘arbiy qismi, Ustyurt platosi va Amudaryo deltasidan iborat. Amudaryodan ko‘pdan-ko‘p kanallar chiqarilgan, kichik-kichik ko‘llar ko‘p, botqoqliklar, changalzorlar, qamishzorlar ko‘p. Qoraqalpog‘iston tabiati o‘ziga xos, bu geografik joy nomlarida ham aks etgan. Qoraqalpog‘istondagi geografik joy nomlari Q.Seytniyazovning ilmiy ishlarida maxsus tadqiq etilgan.

O‘rtaqal’a, Arnabo‘yi, Yuqoriqishloq, Toryop, Daryobo‘yi (Amudaryo tumani), Qumboskan, Ullibog‘ (To‘rtko‘l tumani) kabi nomlar joyning geografik o‘rni, holati va xususiyatini aks ettiradi. Respublikada oronimlar ko‘p emas, ular

koʻproq tov (togʻ), shungil (chuqur joy, botiq), jar, oʻy (kichik botiq, chuqur joy) kabi terminlar yordamida hosil boʻlgan: Jumurtov, Oqtov, Poʻrlitov, Tozaqlatov, Qorajar, Qiziljar, Muratshungʻil, Dumaloqoʻy, Mamiroʻy, Tajenoʻy, Qoraoʻy, Qoraoʻyovul, Qoraoʻysolma kabi.

Xoʻjayli tumanidagi Oqshungʻil ovuli nomi qoraqalpoqcha shungʻil – “chuqurlik”, “botiq”, “daryoning chuqur qismi” degan ma’noni bildiradi.

Suv obyektlari bilan bogʻliq nomlar (gidronimlar). Bu guruhdagi joy nomlari Respublikada koʻp, zero, Amudaryo va undan chiqarilgan kanallar, ariqlar, kichik koʻllar serob.

Koʻllarning ayrimlari kishi ismlari bilan atalgan: Dovutkoʻl, Doʻsankoʻl, Zokirkoʻl; rangiga qarab nomlangan koʻllar ham bor: Koʻkkoʻl, Sarikoʻl, Qorakoʻl, Qoraaydin; suvda uchraydigan qushlarning nomlari bilan atalganlari ham bor: Birqozonkoʻl (birqozon – saqoqush), Quvlikoʻl (quv – oqqush), Qoʻtonkoʻl (qoʻton – uzun oyoqli suv qushi), Oʻyrekkoʻl (oʻyrek – oʻrdak); oʻsimliklar nomi bilan atalgan koʻllar: Jekenliaydin (jeken – yakan), Shilimkoʻl – (shilim, chilim – qamishga oʻxshash oʻsimlik), Qamislikoʻl (qamis – qamish); oʻxshatib qoʻyilgan nomlar: Oltinkoʻl (baliqqa boyligi uchun shunday nom berilgan), Gavmiskoʻl (katta, ulkan, yirik koʻl ma’nosida), Maqbalkoʻl (baxmalday tovlanib turganligi uchun shunday atalgan) va boshqalar. Bundan tashqari, bir necha oykonimlar tarkibida ham “koʻl” termini bor: Adaykoʻl, Naymankoʻl, Oqkoʻl, Turkmankoʻl, Uygʻurkoʻl, Shoʻrkoʻl, Qorakoʻl, Qoʻngʻirotkoʻl va boshqalar. Koʻl termini bilan birga aydin (oydin) soʻzi ham koʻp qoʻllaniladi: Uzunaydin, Uyreqayd in, Qoraaydin va boshqalar.

Qoraqalpogʻiston gidronimlarining koʻpchiligi xuddi Xorazm viloyati gidronimlariga oʻxshab arna, jap (yap, yop), solma, soy, buloq topoterminlari yordamida hosil boʻlgan. Masalan, Paxtaarna, Tentekarna, Shuqurariq (Chuqurariq), Yangiariq, Ashibuloq, Sutbuloq, Kanalsagʻa (sagʻa, saqa – kanalning boshi), Oʻrjapsagʻa, Uchyapsagʻa, Koʻkoʻzek (oʻzek – jilgʻa), Moylioʻzek, Qirqoʻzek, Uchsoy, Boʻzsolma (solma – kichik ariq), Dusenbayjap (jap, yap, yop – oʻrtacha

kattalikdagi ariq), Jalpaqjap, Qanlijapovul, Qorajap, Mayyap, Naymanjap, Qumyap va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin (rasmga qarang).

Shumanay tumanidagi Baqanlijap “baqanli urug‘i qazigan ariq, kanal” degan ma’noni beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi oronimlari va gidronimlarida topoterminlarning ulushi. Tog‘ jinslari, tuproqlari, o‘simliklari va hayvonot dunyosi hamda landshaft xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari. Bu guruhdagi nomlarga avvalo, “qumlik”, “qumli cho‘l” ma’nosidagi Jalg‘izqum, Jindiqum, Javanqum, Oqqum, Oqqumovul kabi toponimlarni kiritish mumkin. Chimboy tumanidagi Egizqum “baland qum tepaligi” (egiz so‘zining “qo‘shaloq”, “juft” ma’nosidan tashqari “baland, yuksak” ma’nolari hambor) degan ma’noda.

Sho‘rxok yerlar so‘r deb yuritiladi, Qoraso‘r nomi shunday joy nomi, taqirli yerlarda Qorataqir nomi hosil bo‘lgan. Qo‘ng‘irot tumanida Surja degan joy nomi bor, uning ma’nosi “sho‘r joy” demakdir.

Qo‘riq, haydalmagan, hosildor yerlarga nisbatan bo‘z yer deyiladi. Shunday yerlardagi kichik ariqlar yoki ovullar Bo‘zsolma, o‘rtacha ariqlar yoki ovullar Bo‘zyop deb yuritiladi.

Qo‘ng‘irot tumanida Boyterak degan joy nomi bor, bu “chinor, muqaddas daraxt” degani, shunday nomli urug‘ ham bor. Kegeyli tumanida esa Tarli nomli quruq o‘zan bo‘lib, uning ma’nosi “tariqli, tariqpoya”, haqiqatdan ham mahalliy aholi tariqni tari deyishadi. Amudaryo tumanidagi Olmazor, Gulzor fitonimlari ham shu hududdagi o‘simliklardan darak beradi. To‘rtko‘l tumanidagi Oqqamish, Paxtaobod, Paxtachi, Nukus tumanidagi Oqterek, Qo‘ng‘irot tumanidagi Almazar (Olmazor), Qoratol, Ellikqal’a tumanidagi Paxtachi, Oqoltin nomlari ham o‘simliklar bilan bog‘liq nomlardir.

Ustyurtning qirlar Qoplonqir deb yuritiladi. Bu yerlarda ilgari chindan ham qoplon bo‘lgan, hozirda esa nomi qolgan xolos. Chimboy tumanida Sazanjap degan ovul bor, bu sazan balig‘i nomi bilan bog‘liq, xalq orasida bu baliq zog‘ora baliq nomi bilan yuritiladi. Mo‘ynoq tumanidagi bir ko‘lning nomi – Suenarim, usach

(“mo‘ylovli”) balig‘ini mahalliy aholi suen (suvan, so‘gen) deb atashadi. Arim – qoraqalpoq tilida “pastlik, chuqurlik” degan ma’noni beradi.

Mo‘ynoq va Xo‘jayli tumanlarida Qoraboyli degan joylar bor. Ruscha baklan deb ataluvchi turnaga o‘xshash qush o‘zbekcha qoraboy, qoraqalpoqcha qarabay deyiladi. Bo‘zatov tumanidagi bir tog‘ning nomi Qulontaqir. Bu nom ilgarilari shu atroflarda qulon bo‘lganligidan dalolat beradi. Qulontaqir – qulonlar suv ichadigan ko‘lmak demakdir

11.4-§. Xorazm viloyati toponimiyasi. Xiva – O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shahar miloddan avvalgi V asrda barpo etilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xivaq) qudug‘i nomi bilan bog‘liq. Ba’zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tilga yaqin qadimgi asetin tilidagi “xiauv” – “qal`a” so‘zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o‘tgan Xeykaniq (xozirgi Polvonyop) kanalining o‘zgartirilgan (Xeykaniq – Xeyvaniq – Xeyvaq – Xiva – Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchi-solnomachi Xudayberdi Qo‘shmuhammad o‘zining 1831 yilda yozgan “Dili G‘aroyib” asarida Xorazmning qadimiy shaharlarini nomma-nom sanar ekan, “bu mamlakatning yana bir qal`ani Som ibn Nuh asos solgan, u hozirgi Xivaq nomi bilan mashhurdir” deb ma’lumot beradi.

Xalq rivoyatlarida ham Xiva shahrining bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunga Nuhning o‘g‘li Som bo‘lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Xaqiqatdan ham Xivaning Ichan qal`asida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudug‘i saqlanib qolgan.

Xiva shahri to‘g‘risidagi dastlabki ishonchli ma’lumotlar X asrdan boshlab arab-fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi. Istarxiy (930) Xivani o‘sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro‘yxatiga kiritgan. Yoqut Xamaviy (XIII), Nizomiddin Shomiy (XIV) asarlarida ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida tilga olingan.

Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o‘rni YUNESKO bosh konferentsiyasining (1995 yil oktyabr – noyabr) 28 – sessiyasida alohida qayd

qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 3 yanvardagi qarori bilan Xivaning 2500 yilligi 1997 yilda jahon miqyosida keng nishonlandi.

Urganch – yurtimizdagi qadimiy va navqiron shaharlardan biri hisoblanadi. Urganch (Gurganch) shahri qadimda joylashgan hudud hozirgi Turkmaniston (Toshxovuz viloyati) tarkibida bo‘lib, hozir Ko‘hna Urganch nomi bilan ataladi. Ko‘hna Urganch shahriga asos solinganiga 2000 yildan ortiq vaqt bo‘ldi. O‘zbekiston hududidagi Urganch shahriga 1646 yilda Xiva xoni Abdulg‘oziy Bahodirxon tomonidan asos solingan. XVI asr ikkinchi yarmida Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirib, Orol dengiziga oqa boshlaganidan so‘ng Gurganch shahri (hozirgi Ko‘hna Urganch) suvsiz qolgan. Abdulg‘oziy Bahodirxon Gurganch, Vazir qal`alarida va ularning atroflarida tarqoq holda yashagan aholini ko‘chirib Amudaryoning janubiy qismlarida joylashtirgan va aholi o‘rnashgan hudud atrofini qal`a devori bilan mustahkamlab, unga “Toza Urganch”, ya’ni “Yangi Urganch” deb nom bergan. Shundan so‘ng, Gurganch shahrining nomi Ko‘hna Urganch bo‘lib qoldi.

Urganch shahri nomini kelib chiqishi yuzasidan bir necha xil qarashlar mavjud. Shaharning paydo bo‘lishi miloddan avvalgi VII – VI asrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da Burunash (Orol) dengizi bo‘yida Urga (Urva) shahri bo‘lganligi qayd etiladi. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg‘oqchillik) tufayli shahar hozirgi Ko‘hna Urganch shahri hududiga ko‘chirilgan. Shahar VIII asrgacha “Gurganj” nomi bilan yuritilgan. 712 yilda arablar tomonidan bosib olinganch “Jurjoniya” deb atala boshlanadi. 1221 yilda mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinganidan so‘ng shahar Urganch shaklida yuritila boshlanadi. Shuningdek, Urganch shahri miloddan avvalgi I asr Xitoy yilnlmalarida Yue-Tan yoki Yue-Tsyan shaklida ham qayd etilgan. XIV asrga oid Yevropa manbalarida Urganch – Vrgant shaklida tilga olinadi.

Xorazm viloyatidagi shaharlardan biri Hazorasp juda qadimiy shahar bo‘lgan. Hazorasp X – XI asrlardagi arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida “mustahkam qal'a” deb tilga olingan.

“Hazorasp” toponimining kelib chiqishi yuzasidan ham turlicha qarashlar mavjud. Tarixchi, tilshunos va toponomist olimlar Yahyo G‘ulomov, S.T. Tolstov, F. Abdullayev, O. Madrahimov va boshqalar ta’kidlashlaricha “Xozorasp” qadimgi xorazmiy tilida “ming ot”, ya’ni “xozor” – “ming”, “asp”– “ot” yoki ming otliq degan ma’noni bildiradi.

O‘tmishda olimlar bu shaharni “Qal’ai Sulaymon” deb ham ataganlar. Tarixchi olim M. Isxoqov tahminiga ko‘ra, “Xozorasp” atamasi “Aturaspend” – “muqaddas olov manzili”, “otashdosh” ma’nolarini bildiradi.

“Xozorasp” toponimiyasiga oid afsona va rivoyatlar ham mavjud. Ma’lumotlarga ko‘ra, Xozorasp Xorazmning chekkasidagi himoya istihkomi bo‘lib, bu yerda mingga yaqin otliq qo‘shin Xorazmga sharqdan kelishi ehtimolda tutilgan dushmanlardan muxofaza etgan.

Boshqa bir rivoyatga ko‘ra, qal’ani bahaybat dev qurgan ekan. Dev bu yerga suv ichgani keladigan 1000 ta qanotli otni ushlab olib, qanotlarini kesib tashlagan emish. Otlar tufayli mashhur bo‘lgan qal’a Hazorasp “ming ot” (forscha-tojikcha) deb atalgan.

Bu rivoyatning haqiqatga to‘g‘ri kelmasiigi o‘z-o‘zidan ravshan. Hozirgi Hazorasp qishlog‘i nomini mahalliy xalq Hazaras shaklida talaffuz qiladi. Bu esa aslga yaqin. Qal’a milodning boshlarida Sharqiy Yevropada, jumladan Volganing quyi oqimida yashab xoqonlik barpo qilgan turkiy xalq – hazarlar nomi bilan atalgan bo‘lsa ajab emas, – as qo‘shimchasiga kelganda shuni aytish kerakki, etnograflardan R.G. Kuzeyev va B.X. Karmishevaning fikricha, tarkibida – as (az) komponenti bo‘lgan etnonimlar va toponimlar nihoyatda katta hududda – Oltoydari Uralgacha, Kavkaz va Qrimgacha uchraydi. Ba’zi bir olimlar – as II – IX asrlarda quyi Volga bo‘yi, shimoliy Kavkazda yashagan alan qabilasining ikkinchi nomi yoki qabila ajdodlari bo‘lgan deb hisoblasalar, boshqa bir tarixchilar as Orxon-Yenisey yodgorliklarida tilga olingan az (as) xalqi nomining in'ikosi bolishi mumkin deb taxmin qiladi.

Boshqird etnografi, tarix fanlari doktori R.G. Kuzeyev har ikkala holda ham azlar (aslar) VIII – IX asrlarda turkiy qabilalar bo‘lgan deydi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlarida O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan shaharlar kamroq. Bu hudud shaharlari toponimiyasida joylashgan geografik o‘rnidan kelib chiqqan xolda shu nom bilan atalgan shaharlar ko‘proq uchraydi.

Shuningdek, Qoraqolpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlaridagi shaharlar toponimiyasida turli urug‘lar nomi bilan ataluvchi shaharlar mavjud. Shuni alohida qayd etish mumkinki, O‘zbekistonning boshqa hududlari kabi Qoraqolpog‘istion Respublikasi va Xorazm viloyati shaharlari toponimiyasida turli chalkashliklar va noaniqliklar ham ko‘plab uchrab turadi.

11.5-§. Xorazm viloyati ba’zi toponimlari va etnotoponimlarining tavsifi, hududiy geografiyasi.

Avshar – qishloq, Hazorasp tumani. Avshar (Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida *afshar,* Rashidaddinning “Jome at-tavorix” asarida *avshar*) – qadimgi o‘g‘uz urug‘-qabilalardan biri.

Avsharbadoq –qishloq, Hazorasp tumani. *Avshor* – urug‘ nomi, *badoq* – o‘rtacha ariq.

Ayritom – qishloq, Xiva, Yangiariq, Shovot tumanlari. Turkmanlarning salar qabiylasining bir urug‘ *ayritom* (ayritamlar) deb atalgan.

Ardaxiva – o‘rta asrlarda Xorazmda bo‘lgan yirik qishloqlardan biri (qasoba). Daslab arab geograflaridan Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. *Arda, arta* qadimgi fors tilida “yaxshi”, “ajoyib” degan manoni bildirgan. Ardaxiva – “Yaxshi Xiva”.

Ardaxushmitan (Artaxushmitan, Raxushmitan, Xushmitan) – o‘rta asrlarda tilga olingan shahar. Dastlab Istaxriy, Muqaddasiy, sungra Yoqut Hamaviy asarlarida tilga olingan. *Arda* (arta) *xush* – “yaxshi” , “ajoyib”, **Ardaxushmitan** esa “o‘ta yaxshi qa’la, qurg‘on” demakdir.

Ardaquva – o‘rta asrlarda Xorazmda (Gurganj-Ko‘xna Urganch yaqinida) tilga olingan qishloq.

Ashaqqul – qishloq Xiva tumani. *Ashaq* Xorazmliklar tilida “etak”, “past”, “quyi” demakdir; **Ashaqqul –** “etakdagi qul”.

Bajanak – qishloq, Gurlan tumani. O‘rta asrlarda Volga buylarida yashagan pechenek qabilalari aslida *bajanak* deb atalgan. Pecheneglar VIII- IX asrlarda Sirdaryoning o‘rta oqimi bo‘lib va ndan Shimoliy hamda Janubiy chullarda kuchib yurgan.

Bag‘alan (Bog‘olon) – qishloq Gurlan tumani. Toponim milodning dastlabki asrlarida Azovbo‘y, Kavkaz oldida yashagan qadimgi *alan* qabiylalarining nomi bilan atalgan degan fkir bor (Bog‘i olon –“Alan bog‘i”). Aslida bu qishloq ming qabiylasining *bog‘lan* urug‘iyoki yuz qabiylasining *bog‘anali* urug‘inomi bilan atalgan bulsa kereak. Gurlan tumanidagi Mingbag‘alani, yani “ming qabilasining bag‘alan urug‘i” degan qishloq ham bor.

Bevatan - qishloq, Yangiariq, Qushkupir tumanlari. *Bevatan* – Xiva xonligida yer-suvdan mahrum eng qashshoq dehqon. Bevatan deganda uy-joysiz, oilasiz kishi, ijtimoiy manoda esa - davlat (podsholik) yerlarini ijaraga olib ishlagan kambag‘al dehqon tushinilgan; bevatanlarning ota-bobolari ham shunday kun kechirishgan, boshqacha aytganda, bevatanlik otadan bolaga meros qolgan.

Bekenchilar – qishloq, Urganch tumani. *Beken* –suv yollarida hafli joylarni belgilash va kemalar yura oladigan yollarni aniqlash uchun langarga bog‘lab qoyilgan so‘zg‘ich chirog‘; *bakancvh* (bekenchi) – beken chirog‘larini yoqib, uchirib turadigan ishchi; bu so‘z Amudaryo etagida kasb nomi va toponimga aylangan.

Bazorjiq – qishloq, Xiva tumani. *Bozorjiq* – “bozorcha”.

Burlaq – qishloq, Shovot tumani. Dashti-qipchoq O‘zbeklarida *burlaq nomli* urug‘i bo‘lgan.

Gurlan – shaharcha Gurlan tumani markazi. Xorazm viloyatida *gurlan* degan kichik urug‘ bo‘lgan.

Dishanqala – “tashqi shahar”, **Xiva** shahrining tashqi qismi.

Davdon, Devdon – Amudaryo etagidagi qadimgi daryo tarmoqlari. Dev (div, dov) va don – “joy, manzil, makon” so‘zlaridan, “devlar makoni”, “devxona” demakdir. Amudaryo qadimgi suv xudosi (malak) *vaxsh* deb atalgan. Vaxshning makoni bo‘lganidan daryo tarmoqlari **Devdon** deb atlgan.

Jalayil – qishloq, Yangiariq tumani. *Jaloyir* (qishloq) etnonimining shakli.

Qatqala – Beruniy tumanidagi joy. Qadimgi Xorazm poytaxti Kot shahrining xarobasi. **Kot (Kos) –** Xorazmning qadimgi poytaxti. Bu shahar tug‘risida Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy, shuningdek, Beruniy asarlarida mukammal ma’lumot berilgan. Yoqut Hamaviy yozishich, *kot* xorazmliklar tilida “chuldagi devor”, “choldevor” degani. Shaharning markaziy qismi – shahriston **Fil** yoki **Fir** deb atalgan. Qadimgi **Kot** shahari harobasi hozirgi Beruniy shahri yaqinidadir (qarang **Katqala**).

Ko‘nazey – qishloq, Qushkupir tumani, “ko‘hna zovur” manosida. Xorazmda zovurni *zeykash* (qisqartirilgan shakli - *zey*) deyishadi. Aslida *zey* adabiy tildagi zax so‘zining buzilgan shakli.

Ko‘paklar – qishloq, Urganch tumani. Turkmanlarning guken qabiylasining bir urug‘i *ko‘paklar* deb atalgan.

Mazdubast – Amdariyo yoqasida, tuyamyin yonidagi. Abu Rayxon Beruniy bergan malumotlarga kura, qadimda Amudaryo suvi Mazdubast o‘zani orqali Qoraqumga oqqan. Bu nom ikki qismdan iborat: *Mazda* –mazdaizm xudosining nomi; *bast* esa “istehkom”, “tug‘on”, “kanal” demakdir. Mazdubast “Mazda tug‘oni” degan ma’noni mildiradi.

Moshlaq – qishloq, Hozarasp tumani. Bu etnotoponim. Birinchi, kishilar jamoasini bildiradi; ikkinchi, kenagas qabilasi tarkibiga kirgan avaqli urug‘ining bir bo‘lagi mosh deb atalgan.

Multon – qishloq, yangiariq tumani. O‘rta Osiyo lo‘lilari multoni ham deyiladi. Multon – Pokistonning shimoliy-g‘arbidagi shahar; qadimda bu shahar Eron bilan Turon ortasidagi Karvon uyli yoqasida bo‘lgan va lo‘lilar shu yerdan O‘rta Osiyoga kirib kelishgan. Multon – “lo‘liqishloq”.

Navuryap –qishloq, Gurlan, Shovot, Yangibozor tumanlari. Turkmanlarning xojaeli qabilasining bir urug‘i naur (navur) deb atalgan.

Nukuslar – qishloq, Yangibozor tumani. **Nukusyop** – Gurlan tumani.

Nukusovuli – Bog‘ot tumani. O‘zbeklarning qung‘irot va boshqa qabilalari tarkibida *nukus* (nukuz) urugi bo‘lgan.

Oydin – qishloq, Xonqa tumani. Xorazmda oydin – ko‘l, ko‘lning chuqur joyi, ko‘lning o‘smliksiz ochiq joyi, o‘rtasi.

Olchinsolma – qishloq, Bog‘ot, Hozarasp tumanlari. **Olchinsolma** “olchin (qabilasi) arig‘i” (solma – Hozarasplar tilida kichik “ariq”).

Orolli – qishloq Hozarasp tumani. *Orolli* – urug‘ nomi.

Otaliqarbob – qishloq Hozarasp tumani. Xonliklar davrida butun bir tumanning sugorish ishlarini nazorat qilib turgan mansabdor shaxs – *arbob* deyilgan; mikroblar va boshqa suv ishlari bilan majg‘ul bo‘lgan boshqa amaldorlar arbobga buysingan. Tog‘li tumanlarda esa saylab qoyilgan qishloq oqsoqollari *arbob* deyilgan. Sudlov, yasovulchilik ishlarini amalgam oshirish, aholiga ma’muriy yul bilan tasir ko‘rsatish arbobning qulida bo‘lgan; arboblar yer sotish, meros taqsimlash paytlarida “inomlar” olib turgan.

Otaliqarna – Xorzimdagi Mangitarna kanalining ikkinchi nomi. *Otaliq* – Xorazm xonligida oliy mansablardan biri, eng etiborli kishi, biy.

Otashxalfa – qishloq Qo‘shko‘pir tumani. Otashparastlikda muqaddas olov oqsoqoli; **O‘tog‘azi.**

Oqsaroy – qishloq Hozarasp tumani. Amudaryoning irmoqlaridan biri ham **Oqsaroy** deb atalgan. *Oqsaroy* – saroy qabilasining bir tarmog‘i.

Sandiqli - qishloq, Bog‘ot, Hozarasp tumanlari. G.I. Karpov ma’lumotlariga kura, turkmanlarning ersari, S.Otoniyozov ma’lumotlariga ko‘ra esa, salar qabilasi tarkibida *sandiqli* urug‘i bo‘lgan. *Sandiqli* – turkman urug‘laridan birining nomi (Инструкция по русской передаче географических названий Туркменской ССР. –М., 1971. С. 35)

Saqachi – qishloq, Hazorasp tumani. Xorazmda kanalning bosh tug‘oni *saqa*, tug‘on ustasi *saqachi* deyilgan.

Sipoyob – Xorazm viloyatidagi ariq. Xonobod kanalidan boshlangan. Manosi *sipohi yop,* yaniy “oltiq askarlar arig‘i” demakdir. Chunkiy ariq atrofidagi yerlar qo‘shinlarga bo‘lib berilgan edi, deydi V.V.Bartold.

Tozabozor – qishloq, Bog‘ot tumani. **Tozayop** – Gurlan tumani;

Tozayorgan – Gurlan tumani; *toza* – “yangi”, *yop* – “katta ariq”, *yorgan* – “kanal, ariq”.

Tuzloq – qishloq, Yangiariq tumani. *Tuzloq* – “tuz kup joy”, “tuz koni”.

Ustalar – mahalla. Xorazm viloyati Bog‘ot tumani. Ustalar – forscha so‘z bo‘lib, jamiyatda biror kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi malakali mutaxassis, o‘rgatuvchi, muallimlar, usta duradgorlar ma’nosini ifodalaydi. Mazkur hududda kishilarning katta ko‘pchiligi biror-bir kasb-hunar egalari bo‘lganligi uchun ham mahalla nomi shunday atalgan.

Xarrotlar – qishloq, Hozarasp tumani. Yog‘ochdan har-xil asboblar yasaydigan usta *xarrot* deyiladi; masalan, taroq ustasi *taroqchi* yoki *xarrot* deyilgan. Buxoro shahrining **Xarroton** degan guzari (mahallasi) bo‘lgan.

Xandaxyop – qishloq, Gurlan tumani. Asli suv nomi (gidronim) bo‘lgan b so‘z “zovur” manosidagi xandak so‘zidan nom olgan bulishi mumkin; shu bilan birga *xandaqli* (xandikli) degan urug‘ nomi ham bo‘lgan. Xandakli urug‘i O‘zbek (qo‘g‘irot qabilasi), turkmanlar va qoraqolpoqlar tarkibiga ham kirgan. Etnonimlar tarkibidagi *–li, -chi* kabi affikslar ayniqsa boshqa component qushilib qushma so‘z (toponim) yasalganda tushib qolishi mumkin.

Xonobod – Xorazm viloyatidagi kanal. Kanal Xorazm xoni Muhammad Amin (1846-1855 yillari) davrida qurilgan va xon sharafiga shunday deb nomlangan.

Xonqa – shaharcha, Xonqa tumani markazi. **Xonqa** *xonaqoh* – “zikirxona” so‘zidan olinan; Xonqa X – asrda **Darxos** deb atalgan. V.V. Bartold *xonaqoh* forscha *xona* so‘zining sug‘diylar tilida talaffuz qilishidir degan.

Xujalik – qishloq, Xiva tumani. **Xujaliq** “xo‘jalar”. Yangiariq va Xiva tumanlarida **Xujalar** qishloqlari.

Chig‘irchiq – qishloq, Shovot, Yangiariq, Qushkupir tumanlari. *Chig‘ir* – quduqdan suv chiqaradigan gidroinshoot (qurilma), *chig‘irchi* – chig‘ir bilan suv tortib oladigan kishi.

Shirinlar - qishloq, Yangibozor tumani. *Shirinqo‘ng‘irot* – O‘zbeklar tarkibidagi urug‘ qabila.

Shig‘ovul – Xiva tumanidagi mavze. *Shig‘ovul* – elchini boshlab yurgan amaldor, shox yoki podsho saroyida tantana marosimlarni boshqarib va nazorat qilib turgan amaldor ham *shig‘ovul* – deyilgan.

Shovot – Xorazm viloyati tarkibidagi tuman va shaharcha nomi. Tuman hududi viloyatning shimoli-g‘arbida, Shovot kanalining sohilida joylashgan. Shovot so‘zi – Shohobod nomining mahalliy shevadagi talaffuzi natijasida paydo bo‘lgan. Tuman va shaharchaning nomi XVII asrning oxirlarida qurilgan Shohobod kanali va Shohobod qal’asining nomi bilan bog‘liq.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1681-yili Xiva xoni Anushaxon (1664–1686-yillar hukmronlik qilgan) Abulg‘oziy Bahodirxon o‘g‘li, Eski Vadoq arig‘i o‘rnida, yangi kanal qazdirgan va uni mahalliy aholi Shohobod kanali deyishgan. Kanalni bunday nom olishiga sabab, Anushaxon Mashhad shahrini qo‘lga kiritgandan keyin, shoh unvoniga sazovor bo‘lgan. Shoh – ayrim musulmon mamlakatlarida hukmdor (podshoh, qirol) unvoni. Shoh unvoni dastlab Sosoniylar davlatida qo‘llanilgan.

S. Qorayevning yozishicha, Shohobod kanali dastlab Purfayz (ya’ni Serfayz) deb atalgan. Purfayz so‘zi abjad hisobida kanalning qurilgan yilini (hijriy 1092-yil) ham ko‘rsatib turgan. Abjad – qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so‘zning birinchisi va shartli umumiy nomi.

O‘tog‘asi – 1) olov og‘asi, otashparastlik davrida muqadds olov boshlig‘i; 2) bosh kiyimga o‘tog‘a – qush patidan jig‘a sanchib yuradigan obruli kishi; 3) o‘tov og‘asi, katxudosi, qarang; MAHMUDO‘TOG‘ASI – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumani. Mahmud – atoqli ot; o‘tog‘asi termini bir necha ma’nolarga ega: *o‘tning kattasi*. Agarda bularni bo‘laklarga ajratsak, mazkur termin *o‘t+og‘a+si* ko‘rinishida bo‘ladi: *o‘t, og‘a* va -si – uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi; bu degani, “*oila o‘tining kattasi*” [12].

Qaraman – qishloq, Hozarasp, Qushkupir tumanlari; **Qaramanqala** – Qushkupir tumani. *Qaraman* (garaman) va *oqman* (akman) – turkman qabilalari.

[12] O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

Qaramanlar O‘zbeklar urug‘lari tarkibiga ham kirgan. Shu bilan birga qayrag‘och daraxtining bir turini Xorazmda *qaraman* (qoraeman) deyishadi.

Qiniq – qishloq, Xiva tumani. Xiva shahri yaqinida **Qiniqyop** degan kanal bor. *Qiniq* o‘g‘iz qabilalaridan biri bo‘lib, Mahmud Qoshg‘riy devonida, va Rashiduddining “Jome at-tavorix” asarida qayd qilingan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Qoroqalpog‘iston respublikasi toponimlari o‘rganislih tarixi o‘ziga xosligi va etnotoponimlari haqida referat tayyorlang.

2. Xorazim viloyati toponimlari o‘rganislih tarixi o‘ziga xosligi va etnotoponimlari haqida referat tayyorlang.

3. Qoroqalpog‘iston respublikasi va Xorazim viloyati toponimlari tarkibidagi tarixiy nomlar va ularning etimologiyasi haqida ma’lumot to‘plang.

4. Qoroqalpog‘iston respublikasi va Xorazim viloyai oronimlari va gidronimlari haqida gaprib bering.

5. Qoroqalpog‘iston respublikasi va Xorazim viloyai toponimlarining boshqa hududlar o‘rtasida oziga xos farqlovchi xsusiyatlari haqida tahliliy matn tayyorlang.

6. Xiva toponiminig kelib chiqish tarixi haqida tarixiy ma’nbalarda keltirilgan ma’lumotlarni izohlab bering.

12-Mavzu. Buxoro va Navoiy viloyatlari toponimiyasi.

Reja.

12.1-§. *Buxoro viloyati toponimiyasi.*

12.2-§. *Buxoro viloyati Oronimlar va gidronimlar.*

12.3-§. *Navoiy viloyati toponimiyasi.*

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Numijkat, buxoro, rud, etnonim, konimex, oykonim, oronim, "Xatirchi".*

12.1-§. Buxoro viloyati toponimiyasi. Buxoro viloyati maydoni jihdtidan mamlakatdagi eng katta viloyatlardan. O'zbekiston Respublikasining markaziy va janubiy g'arbiy qismlarida joylashgan.

Buxoro viloyati o'z tabiati, iqtisodiyoti, tarixi, aholisining milliy tarkibiga va binobarin toponimlariga kura Boshqalardan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Viloyat toponimiyasining asosiy tafovuti shundaki, viloyat geofafik nomlari tarkibida *asbob* (aspob), *aqor* (og'ar), *vaxim* (vakf), *de* (deh dey, di), *juy* (ju, ji, je), *juybor* (jibar), *zhkash, zagarkash, kom, reg, rud* (rud, rut), *rudbor, chordara* kabi arabcha yoki forscha geografik terminlar uchraydi. Arab, turkiy-o'zbek etnonimlaridan masalan saroy va urganji kabi urug'-aymok nomlari oykonimlar tarkibida anchagina bor. Viloyatda 1500 ga yaqin adoli punkti mavjud. Bu nomlardan barchasini izohdash mumkin.

Buxoro - O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri, Buxoro nomi ilk bor yunon astronomi Klavdiy Ptolemeyning "Geografiya" asarida (II-asr) uchraydi, Tojikistondagi Mug' tog'idan topilgan Sug'd dujjatlarida (VIII - asr boshlarida) esa **Puxar** shaklida tilga olingan.

Xozirgi Buxoro o'rnida islom dini tarqalishidan bir necha asr oldin shahar bo'lgan. Shahar xitoy manbalarida dastlab V-asrda **Nyumi** shaklida tilga olingan (bu Buxoro nomlaridan biri *Numijkat* shahrining xitoycha transkripsiyasi); shaharning dozirgi nomi xitoylik sayyoh, budda rodibi Syuan Szyan "xotiralar"ida (630 yillarda) **Budo** shaklida qayd qilingan. Ko'pchilik olimlar, jumladan, akademik V.V.Bartold, nemis olimi V.Tomashek **Buxoro** nomi sanskritcha *vixara* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "Budda ibodatxonasi" demakdir deb hisoblaganlar.

V.V.Bartold Balxda yoki Samarkandsagi kabi, Buxoroning yonginasida ham Budda ibodatxonasi bo‘lgan deydi. Bu olimlar Buxoro ana shu sanskritcha so‘zning turkcha-mugulcha shakli deb hisoblaydilar.

So‘nggi vaqtlarda eronshunoslar *vixara* so‘zi Sug‘d tiliga *parxar* shaklida kirgan va uning *buxara* tarzida o‘zgarib ketishi mumkin emas demoqda. Shuni aytish kerakki, shaharning nomi ko‘p bo‘lgan, tarixchi Narshaxiy (X-asr) Buxoroning **Numijkat** (Numijkat), **Bumiskat, Madinat us-sufriya** “Mis shahri”, **Madinat ut-tujjor** “Savdogarlar shahri” degan nomlari borligini aytgan; tarixchi davom etib, “Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir, Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko‘p nomga ega emas. Xalq orasida Buxoro bog‘lari ko‘pligidan **Bog‘oro** degan ma’noni bildiradi degan rivoyat ham bor. Tarixchi Xofiz Tanish Buxoriy (XVI-asr) yozishicha, “Buxoro” so‘zi - “buxor” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, otashparastlar tilida “ilm makoni” demakdir. Bu talaffuz uyg‘ur va xitoy butparastlarining tiliga yaqindir, chunki, (ularda) siginish joylarini “buxor” deb ataydilar. Buxoro shahrining nomi aslida “Numijkat” bo‘lgan.

Shunday qilib, Buxoro toponimining etimologiyasi aniq emas. Shahar nomi bordi-yu sanskritcha *vixara* “ibodatxona” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lsa, vixar-bexar komponentli nomlardan misollar keltirish mumkin. Masalan, X- XII asrlarda Balx shahri yonida **Navbexar** degan ibodatxona, Samarkand va Buxoro shaharlarida **Navbexar** degan darvozalar bo‘lgan; *Navbexar* “erta bahor” emas, balki “yangi ibodatxona” demakdir. Buxoro bilan Xindistonning Bixar shtatining etimologiyasi bir bo‘lib chikadi. Buxoro nomining Boshqa “adash”laridan keltiramiz: Sibirda **Buxara** degan daryo, janubiy Uralda **Buxarcha** nomli soy, Buxoro yaqinida **Dul Buxoro** (Jul Buxoro) degan soy, Qashqadaryoda viloyatida (Kitob, G‘uzor tumanlarida) **Buxorto‘por, Buxori, Xo‘jabuxori** nomli mahalla, joylar qayd qilingan.

Qadimgi turkiy runik yozuvda - Kulteginga bag‘ishlangan yodgorlikda **Buqaraq** degan joy nomi uchraydi (Buqaraq ulus - Buxoro eli). Bu joy nomiga turkshunos S.Ye. Malov *Buxoro* deb izoh bergan. Akademik B.Ya.Vladimirsov o‘sha yodgorlikda Sug‘d nomi ham uchrashini aytadi va *Buqaraq* chindan ham

Buxoro degan so‘z bo‘lsa, uyrat (oltoy) qaxramonlik eposlarida *Buxarin cherik* ya’ni “Buxoro qo‘shinlari” degan ibora qayd qilingan, deydi. Markaziy Rossiyada (Vologda, Tver viloyatlarida) ekilmay yotgan yoki kam unum yerlar *buxara* deb ataladi. Bular Buxoro toponimining qadimdan ma’lum va mashxur ekanini ko‘rsatadi.

12.2-§. Buxoro viloyati Oronimlar va gidronimlar. Buxoro viloyati hududi tekisroq bo‘lganidan relef ob’ektlarining nomlari ham ko‘p emas. Tog‘lardan Peshku, tumanidagi **Dung‘iztov tog‘ini,** Olot tumanidagi **Jilliqoya tog‘ini,** Jondor tumanidagi **Jusantepa,** Kogon tumanidagi **Olchin** tog‘larini, pastrok relef shakllaridan **Sandiqli** qumli cho‘lini, Qorako‘l tumanidagi **Kemirekqum** (Kampirakqum) cho‘lini, **Mo‘lali** sho‘rxogini, **Jigdaqandim** tepaligini aytib o‘tish mumkin. Bulardan Boshqa mayda tepaliklar, jarliklar, mavzelar ham bo‘lishi mumkin. Lekin, ilmiy, tarixiy, geografi va lisoniy jihatdan barchasi ahamiyatli nomlar bo‘lsa-da, yuqorida aytib o‘tilgan oronimlardan ba’zilarini tushuntirib o‘tishga xarakat qilamiz.

Dungaztovning o‘z ma’nosi o‘zida: yovvoyi cho‘chqa- qobon (to‘ngiz) ko‘p bo‘lganidan shunday atalgan.

Jilliqoya tog‘i - “silliq qoya” yoki uta isib ketadigan “jili qoya” bo‘lishi mumkin. Jusantepa tog‘i *jusan* o‘simligi ko‘p bo‘lganidan shunday nom olgan; jusan, extimol, yovshan o‘simligi nomining qozoqcha talaffuzidir.

Olchin oronimi etnonimdan nom olgan *olchin* ko‘pgina turkiy Xalqlar, jumladan, o‘zbeklar tarkibida uchraydigan qabilaardan biri. Demak bu tog‘da olchinlarning yaylovlari bo‘lgan; **Sandiqli** ham etnonim - turkmanlarning bir urugi *sandiqli* (Buxoro viloyatida turkmanlar bor). **Kempirekqum** esa *kampirdevor*, *kampirak* deb atalgan qadimiy mudofaa devorlarining qozoq tilida talaffuz etilishi; **Jigdaqandim** bo‘lsa qumli cho‘lda o‘sadigan baland bo‘yli qandim butasining jiydaga o‘xshab ketadigan bir turi. Buxoro viloyati, asosan, cho‘l zonasida bo‘lganidan va suv kamligidan hududda ko‘plab quduqlar qazilgan. Quduqlarning ko‘plari tarixan mashxur bo‘lmagan kishilar nomlari bilan atalganidan.Masalan Jondor tumanida **Ko‘rquduq** degan quduq bor. O‘zbekistonda **So‘qirquduq**

Ko‘rquduq So‘qirbuloq, Ko‘rbuloq degan gidronimlar uchraydi. Seryog‘in yillari suvi ko‘p bo‘lib, kam yog‘in yillari yoki jazirama yozda suvi qurib qoladigan quduq yoki buloq shunday deb atalgan.

G‘ijduvon tumanida yana bir quduq **Oqquduq** deyiladi. Suvi to‘lib ba’zan tashqariga oqib chiknb yotadigan quduq *oq kquduq* (oqma quduq) deyiladi.

Qorako‘l tumanida **Surxi** qudug‘i *surx* degan turkman urugi (ersari qabilasi) nomi bilan atalgan. **Chig‘irchi** qudug‘i haqida (Romitan tumani): *Chig‘ir* - quduqdan suv tortadigan moslama, *Chig‘irchi* - quduqdan suv tortib olib berib turadigan kishi. **Zarqum** qudug‘i (Peshku tumani) aslida Zeri qum shaklida bo‘lib, barxanli qum ostidan kovlangan degan ma’noni bildiradi. Buxoro shahrini suv bilan ta’minlaydigan ariqlardan biri Shaxrud, tug‘rirog‘i Shaharrud kanalidir. Ba’zan uni Shohrud - “podsho arig‘i” deb yozadilar; aslida **Rudi shahri Buxoro** - “Buxoro shahrining arig‘i” oldin **Rudi Zar** deb atalgan. Dastlab Rudi Zar arab geograflari asarlarida (X- asr) **Nahri Zar** shaklida tilga olingan.

Yana bir ariq **Komi Zar** deb atalgan. Buxoroda *kom* termini “ariq” ma’nosini anglatgan. Podsho Rossiyasining ofitseri N.F.Sitnyakovskiy XX-asr boshida Buxorodagi **Komi Zar** va **Jo‘i Zar** ariqlarini **Katta Zar** va **Kichik Zar** deb tarjima qilganda akademik V.V. Bartold bunga javoban mahalliy Xalq *kom* deganda jo‘yga nisbatan kattaroq ariqni tushunadi deb yozgan. Viloyatdagi qadimiy **Jilvon** kanali, masalan, Shofirkon yerlarini sug‘oradi. Bu kanalning nomini shunday izohlaymiz. Buxoro xonligida bir qancha mansab va martabalar orasida *jilvon* degan amal bo‘lgan. Jilvon kishilarni o‘g‘ri, qaroqchi, yo‘lto‘sar va boshqalardan himoya qilib turgan. Kanalni shunday jilbonlardan biri kazdirgan bo‘lsa kerak. Jilbon-jilvon talaffuz shaklidir. Shofirkon tumanida **Jilvon** degan qishloq ham bor.

Naqib - Buxoro xonligidagi harbiy mansabdorlardan biri - *naqib* tomonidan qazilgan ariq o‘rnida paydo bo‘lgan. **Badoq arig‘i** (Olot tumani) - kattaroq ariqning tarmog‘i *badoq* Buxoro atroflarida ko‘proq *afdoq* - kichik ariq deb atalgan.

Mohon ko‘li (Qorakul tumani) nomi “baliqlar” degani, (moh - baliq on - ko‘plik qo‘shimchasi). Mohon nomi mox - “oy” so‘zining ko‘pligi bo‘lishi ham mumkin. Masalan, ilk o‘rta asrlarda Buxoro shahrida **Moh** ibodatxonasi bo‘lgan va

Oy ma’jusiylarning xudosi hisoblangan. Qozoqlarda Mahan (Mohon) degan ism ham bor. **Kishtuvon** artezian qudug‘ining nomi ham, G‘ijduvon toponimi ham *kishtivon* (“kema xaydovchisi”, “darg‘a”) so‘zi bilan izohlanadi. Aslida Kishtuvon-Xashtukon, G‘ijduvon - Kajdukon shakllarida ham talaffuz etilgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas.

12.3-§. Navoiy viloyati toponimiyasi.

Navoiy viloyati − yosh va navqiron viloyat bo‘lsada, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan qadimiy va boy tarixi bor.

Navoiy viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1982-yil 20-aprelda Buxoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil etilgan. 1988-yilda ma’muriy birlik sifatida tugatilib, 1992-yil boshida qayta tiklandi. Navoiy viloyati O‘zbekiston Respublikasi hududining o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, Qizilqum sahrosi viloyatning kattagina qismini egallaydi. Uning maydoni 110,8 ming km² ga teng, bu bilan Navoiy viloyati O‘zbekistondagi eng katta viloyat sanaladi. Navoiy viloyati g‘arbda Qoraqalpog‘iston, shimolda Qozog‘iston, sharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari bilan chegaralanadi.

Navoiy viloyati Nizomiddin Mir Alisher, 1441-1501 yillarda yashagan byuk mutafakkir va shoir nomiga shu nom bilan atalgan.

Navoiy viloyati mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta viloyat bo‘lib, yer maydoni Qoraqalpog‘istondan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Navoiy viloyati tarkibida qishloq tumani mavjud bo‘lib, jumladan: Xatirchi, Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Nurota, Konimex Uchquduq, Tomdi kabi tumanlari hisoblanadi.

Xatirchi tumani haqida. Xatirchi tumani viloyatning yirik tumanlaridan biri bo‘lib, u Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Tuman unumdor yerlari, serhosil bog‘`lari, so‘lim maskanlari bilan hamda Langar, Sangijumon, Oqsoqolota kabi sirli toshli joylari bilan alohida ajralib turadi va kishilar e’tiborini tortadi. “Xatirchi” atamasining adabiy-badiiy manbalarda ilk bor uchrashi bundan qariyb 300 yil muqaddam yashagan Boborahim Mashrabning 1697-1709-yillar orasida Xatirchida bo‘lishi va bu yerda avliyo Gadoy Selkin ota maqbarasini ziyorat qilishi tilga olingan. “…Sen aytmasang men aytay Miyonqol! Qovunning shirini,

uzumning sarasi shu vodiyda yetiladur. Qoradaryo bilan Oqdaryo oralig‘idagi bu vodiyning tuprog‘i uzoqdagi tog‘lardan uchib kelgan gardlardan hosil bo‘lgan. Ana shu oraliq nihoyatda obod, sersuv, ekinzor bo‘lib, bu yerda Xatirchi, Payshanba, Qal’ayi Dabusiya kabi ko‘pgina qishloq hamda shaharlar bo‘lgan”.

Navoiy viloyati Xatirchi tumanida yashab o‘tgan, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etgan shaxslardan biri, marhum Mirzaazim Abduqodirovning shaxsiy arxividan chiqqan bir hujjatda Xatirchining nomlanishi 1677-milodiy yildan boshlanadi. Abdurazzoq xo‘ja ibn Abduvahhob xo‘ja Badr ota tomonidan savdosotiq va bozor munosabatlari qonun qoidalariga bag‘ishlab hijriy 1277-1278- yillar (milodiy 1861-1862-yy) da yozilgan “Kitobi bay’ya” asarida o‘zlari tug‘ilgan yerni “joy mavludash qishlog‘i Qoracha az sho‘bayi Xatirchiga bexatar” deb tilga olgan. Bundan tashqari keksa kishilarning og‘zaki hiqoyalariga, ba’zi bir tarixiy voqealarga asoslanib shuni dalil qilib aytish mumkinki, bu nom “xatarchi”, “xatarli” so‘zining davrlar o‘tishi bilan talaffuz tarzining o‘zgarishi tufayli hozirgi holatga yetib kelgan ko‘rinishidir.

Birinchidan, bir vaqtlar tuman markazining janubiy tomonlari botqoqli, qamishzor, to‘qayzor, chakalakzorlar bo‘lib, unda yovvoyi hayvonlardan to‘ng‘iz, bo‘ri, tulki, to‘qay mushugi va hatto Turkiston yo‘lbarsi ham uchrashi mumkin bo‘lgan. Ikkinchidan esa ba’zi yillari bahor erta va issiq kelib qor va muzlarning ko‘plab erishi oqibatida Oqdaryo va Qoradaryo suv toshqinlari bo‘lib, ikki daryo qo‘shilish joyi o‘zanini o‘zgartirib, ko‘p joylarga suv bosish xavf-xatari borligi tahlikasi bo‘lgan. XIX asr o‘rtalarida Buxoroga kelgan rus sayyohi N.Xaniqov bu qishloq nomini “Xatircha” deb yozgan, xalq asli “xatirchi”, “xachir sotuvchi” deb izohlaydi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asarida xachir so‘zi “qatir”, “xatir” shaklida uchraydi. Baxmal tumanida Xatirchi (Katirchining beli) degan dovon bor. Qiziltepa tumani o‘tmishda ma’lum va mashhur, ulkan So‘g‘d tarixiymadaniy mintaqasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan. Bu hududdan Katta O‘zbekiston trakti o‘tgan. Qiziltepa - Navoiy yo‘nalishida, shuningdeQ G‘ijduvon, Shofirkon. Vobkent shaharlariga avtobus va marshruti taksilar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Me’moriy yodgorliklardan Toshmasjid majmuasi (XVI-asr), Xoja

Boyazid Bistomiy maqbarasi va boshqalar bor. Tarixchi olim Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy (XIX-asr), ulamo Xoja Hasan Andoqiylar (XI -XII-asrlar) shu tuman hududida tug‘ilgan.

Karmana tumani Navoiy viloyatining eng kenja va shu bilan birga qadimiy tumanidir. Bu tuman 2003 yilda qayta tashkil etilgan. Karmana arab geograflaridan ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida uchraydi. Karmanaya, Karmina shakllarida ham qayd qilingan. Yozma manbalarda Xarimankat (“katta manzilli shahar”) shaklida ham keladi. Rivoyatlarda keltirilishicha, arablar Buxoroga kelganda Karmana atroflaridagi yerning unumdorligi, suvining sifatiga ko‘ra “Armanistonga o‘xshar ekan deganlari uchun, Ki-Armaniya” deb nom olgan emish. A. Muhammadjonovning fikricha Karmana Xarmana shaklida talaffuz etilgan va “Katta saroy” ma’nosini anglatgan.

Navbahor tumani Navoiy viloyatining yuksalib borayotgan va yuksak dovon sari intilayotgan istiqboli porloq tumanidir. Navbahor tumani Zarafshon daryosining shimoli-sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan.. Shu o‘rinda aytish kerakki, Navbahor tumani Toqi 1980 yilgacha Karmana tumani tarkibiga kirgan va “Leningrad” deb atalgan. Keyinchalik 80-yildan alohida tuman sifatida ajratilganidan so‘ng unga tumanda yashovchi faxriylarning takliflari inobatga olinib “Navbahor” deb nom berildi. “Nav” so‘zi “yangi” degan ma’noni bildiradi. Nurota shahridan Bo‘yuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tgan. Bu yerda antik davrga oid Nur qal’asi qoldiqlari joylashgan, qal’ada “Nur chashmasi” nomli buloq bor. 6 S. Qorayev “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari”.

E’tibor berilsa bu hududdagi juda ko‘p nomlar “nur” so‘zi bilan bog‘`liq. Hatto bu yerdagi tog‘` tizmasi ham shu nom bilan atalgan va atalib kelinmoqda. Rus adabiyotida Nurota nomi mo‘g‘ulcha nuru - “tizma tog‘`” va turkiycha “tog‘`” so‘zlaridan olingan degan gaplar uchrardi. Aslida Nurota mo‘g‘ullar kelmasdan ancha oldiroq Nur nomi bilan ma’lum bo‘lgan. Tarixchi Narshaxiy Nur qishlog‘i Buxoro shahri vujudga kelmasdan oldin ham mavjudligi to‘g‘risida yozgan: “Nur katta joy. Unda masjidi jom’e bor; u ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun bu yerga boradilar. Bu No‘rni boshqa

viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar”. Nur degan boshqa joylar ham bor masalan, Qoradaryo bilan Oqdaryo oralig‘ida Nuri Mioikol degan qishloq tilga olingan. Mahalliy rivoyatlarda shaharning paydo bo‘lishi Iskandar Maqduniy davriga borib taqaladi. Keyinchalik shahar bu yerda yashab o‘tgan mashhur Shayx Abulhasan Nuriy sharafiga “Nurota” deb atala boshlangan. Uchquduq tumani 1982 yilda tashkil etilgan. Tuman va shaharga “Uchquduq” nomining berilishi shahar markazi joylashgan hududda XX asrning boshida mavjud bo‘lgan uchta quduqdan kelib chiqqan. 1958 yilgacha bu uchta quduq hududida yoki atrofida mol chorvachiligi bilan shug‘ullanadi tirikcilik qilgan va keyin jamoa xo‘jaliklari chorva mollari boqib, mehnat qilgan chorvadorlar yashagan.

Konimex tumani xalq orasida Eron podshohining o‘g‘li Shopur Turan shu o‘lkada yashagan Mehribonu go‘zalga oshiq bo‘ladi va sevgilisiga uylanadi. Sevgilisi Zarafshon daryodan suv yo‘li kanal qazdirib, unga Konimexr deb nom beradi. Asrlar davmida Konimexr so‘zi o‘zgarishga uchrab Konimex deb atalib ketgan degan rivoyat bor. Boshqa bir rivoyatda esa Mex ota koni degan ma’noni beradi: “Kon” so‘zi fors tilida “daryo tarmog‘i yoki anhor va suv yo‘li oriq” degan ma’noga ega. Shu sabab Konimex deb nom olgan deyiladi. Bu ikki rivoyat bir-biriga yaqin ma’no kasb etmoqda. Ikkalasida ham anhor ma’nosi kelib chiqmoda. Uchinchi bir rivoyatda esa ilk o‘rta asrlarda Buxoroda otashparastlarning ibodatxonasi bo‘lgan va u “Masjidi Mox” deb yurtilgan. Ibodatxona qarshisida butlar yasab sotiladigan bozor ham bo‘lgan. Uni “Bozori Moxruz” ya’ni buning ma’nosi “Zardo‘shtiylarning hayit bozori” deb yuritilgan. Bu bozor yiliga bir marta, Navro‘z kuni bo‘lgan. Shu kuni bozorda yog‘och va sopoldan yasalgan butlar sotilgan. Favqulotda haykalchalari sinib qolgan yoki eskirgan kishilar faqatgina shu kuni yangi but sotib olish imkoni bo‘lgan. Shu sababli musulmonchilik qaror topgan o‘rta asrlarda yozilgan salnomalarda Movarounnahrning qadimiy aholisiga “Mug” yoki “Mugon” ya’ni otashparast, budparast nomi bilan tilga olinadi. Keltirilgan tahlilga asoslanadigan bo‘lsa “Konimex” atamasi “Mug‘daryo” ya’ni “Zardo‘shtiylar anhori” degan ma’nolarni anglatadi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, “Konimex” atamasi tilshnoslik jihatdan tahlil etilsa, “Kon” va “Mex” kabi ikki so‘zdan kelib chiqqan. Atamaning birinchi bo‘g‘inidagi “Kon” so‘zi “arna, daryo tarmog‘i yoki anhor” kabi ma’noni anglatadi. Ikkinchi bo‘g‘in “Mex” atamasi “mox” yoki “mug” shaklida bo‘lib, u “otashparast, o‘tparast, butparast” ma’nosini anglatgan. “Tabiiy geografik joy nomlarining hiyla turg‘unligi, davrlar o‘tishi bilan ham o‘zini saqlab qolishi toponimistlarga ma’lum. Faqat ayrim fonetik o‘zgarishlar yuz berishi yoki boshqa tilga aynan tarjima qilinib, ishlatilaverishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Buxoro toponiminig paydo bo‘lishi haqida man’balarda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilib bering.

2. Buxoro va Navoiy viloyatida olib borilgan toponomik tadqiqotlar haqida gaprib bering

3. Buxoro viloyati oykonim, gidrotoponimlariga haqida referat va lug‘at tayyorlang.

4. Navoiy viloyati oykonim, gidrotoponimlari haqida referat va lug‘at tayyorlang.

5. Buxoro va Navoi viloyati toponimlarining o‘xshash va farqli tomonlarini tavsiflab bering?

13-Mavzu. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimiyasi

Reja:

13.1-§. *Qashqadaryo viloyati toponimiyasi.*

13.2-§. *Surxondaryo viloyati toponimiyasi.*

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Kesh, surxob, Dehnav, indikator termin, oykonim, etnooykonim, etnotoponim.*

13.1-§. Qashqadaryo viloyati toponimiyasi.

Qashqadaryo viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning janubi-g‘arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-Oloy tog‘ tizmasining g‘arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog‘lari orasida joylashgan. Shimoli-g‘arbdan Buxoro va janubi-sharqdan Surxondaryo viloyatlari, janubi-g‘arb va g‘arbdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Tojikiston Respublikasi hamda Samarqand viloyati bilan chegaradosh.

Qashqadaryo toponimi haqida mashxur sharqshunos Vasiliy Vladimirovich Bartold, bir qator nomlar daryolar bilan bog‘liqligiga e'tibor qaratdi. Masalan, “rud” so‘zi “daryo” degan ma’noni anglatadi; Kesh yaqinidan oqib o‘tuvchi Jajrud kanali manbalarda qayta-qayta tilga olinadi; Xuzorrud — G‘uzordaryo yoki Katta O‘radaryoning qadimda bo‘lgani aniq. Asrud daryosi bo‘yidagi hudud Suruda deb atalgan. Shuningdek Sanggardak daryosining nomi hozirgacha saqlanib qolgan. Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy yo‘laklaridan boshlanib, Surxondaryo viloyati chegarasidan oqib o‘tadi. Kesh tarkibiga shu daryoning yuqori oqimida joylashgan hududlar kirganligi aniq. Vohaning bosh daryosi Qashqadaryoning nomi “Keshk” so‘zi bilan bog‘laydi[13]. Kesh, hozirgi Shahrisabz nomining fonetik o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan, deb yozgan edi. Olimning yozishicha, bu daryo avval Kesh (Kash), temuriylar davrida Xashqa (Xashqarud), keyinchalik Qashqarud, nihoyat Qashqadaryo shakliga o‘zgargan.

O‘zbekiston viloyatlari toponimiyasi orasida Qashqadaryo joy nomlari nisbatan mukammal o‘rganilgan. Bu ishda qashqadaryolik taniqli nomshunos olim

[13] С.Лунина. Древние города Попоне Кашнадарьи,;Ташкент «Узбекистан» 1988 г

Ilk o‘rta asrlarda Qashqadaryo vohasining yuqori qismi Kesh quyi qismi Naxshab deb atala boshlaydi. Milodning VI-VII asrlarida qadimgi shaharlar tanazzulga yuz tutib, yangi shaharlar vujudga keladi. Milodiy 1220-1221 yillarda Qashqadaryo vohasidagi shahar va qishloqlar mo‘g‘ullar istilosi natijasida vayron qilindi. 1318-26 yillarda mo‘g‘ul xonlaridan Kepakxon qurdirgan saroy yaqinida Qarshi shahriga asos solindi. XIV-XV asrlarda Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrlarida Shahrisabzda bir qancha monumental binolar – saroy, masjidlar, maqbara va boshqalar qurildi. Qashqadaryo aholisining asosiy qismi o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, turkmanlar va boshqalar tashkil etadi. XX-asrning boshlarigacha hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida yashagan aholining ko‘pchili urug‘-aymoqlarga bo‘linar edi. Masalan, Qarshi shahri va uning atroflarida mang‘it, saroy, qovchin, qatag‘on, qutchi, qipchoqlar, xitoy, qirq, yuz qabilalari, Shahrisabz va uning atroflarida kenagan, saroy, qutchi, turk, qatag‘on, qalmoq, qangli, chuyut, qiyot, qo‘ng‘irot, mojor, mang‘it, mitan, mo‘g‘ul, nayman, sayot qabilalari, G‘uzor va uning atroflarida qo‘ng‘irot, mang‘it va boshqa urug‘larning vakillari yashaganlar

To‘ra Nafasovning xizmatlari beqiyos. Olim butun umrini janubiy O‘zbekiston, jumladan Qashqadaryo viloyati toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlagan. Viloyat Qashqadaryo havzasida va Pomir-Oloy tog‘larining g‘arbiy chekkasida joylashgan.

Har bir hudud o‘zining tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, aholisining urf-odatlari, etnografiyasi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tabiiyki, bu joy nomlarida ham aks etadi. Qashqadaryo viloyati ham o‘zining tabiati, aholisi, xo‘jalik faoliyati bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Viloyatning relefi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, bu joy nomlarida ham o‘z aksini topgan. Geografik joy nomlari tarkibida oronimlarning va u bilan bog‘liq gidronimlarning ko‘pligi shundan dalolatdir. Shunisi diqqatga sazovorki, oronimlar orasida asosiy oronimik termin hisoblangan tog‘, tepa termini ber necha marta takrorlanadi. Shu bilan birga, tog‘da yashovchi aholi ko‘proq tosh so‘zini ishlatadi. Bundan tashqari, past tog‘larga nisbatan tepa termini ham qo‘llaniladi. Dovonda esa bel, oshuv terminlari ko‘proq ishlatiladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida zov, dapsan, oshuv kabi mahalliy

terminlar koʻp ishlatiladi, baland togʻlarga nisbatan oq, past togʻlarga nisbatan esa qora soʻzlari koʻp qoʻllaniladi

Relefining katta qismini tekislik va choʻli-biyobonlar tashkil qiladi. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan Zarafshon tizmasining (Qoratepa. Chaqalikalon) tarmoqlari hamda llisor tizmasining (Yakkabogʻ, Chaqchar, Koʻkbuloq, Qorasirt, Dehqonobod) tarmoqlari oʻrab turadi.

Viloyat hududidagi relefning turli shakllari nomlar sonini ham koʻpayishiga xizmat qilgan. Viloyat oronimlari tarkibida tov - Yetimtov (Qamashi tumani), (Yakkabogʻtumani), Kosontov (Koson tumani), Oqboshtov, Oqqoʻltov, Oqrabottov, Sakirtov, Seypiltov, Qaypaltov, Qiziltov, Qoʻngʻirtov (Dehqonobod tumani), Choltov (Qamashi tumani), Qirqtov (Kitob tumani), Qoʻngʻirtov (Chiroqchi tumani), togʻ termini faqat ikki oronim – Qoratogʻ va Qoʻrgʻontogʻ (Shahrisabz tumani) tarkibida uchraydi. Ayrim turgan “togʻ” yoki “qoya” maʼnosidagi tosh termini Tuyatosh (Dehqonobod tumani), Ugurtosh (Chiroqchi tumani), Yaktosh (Kitob tumani) oronimlarini hosil qilgan; Oqbuloqgaza, Soʻrigaza, Qizilgaza (Qamashi tumani) oronimlari tarkibidagi gaza indikatori “togʻ qirrasi” maʼnosida respublikada koʻp uchraydi. “Kemtik” (kamtik) maʼnosida kam termini togʻ tizmasining koʻpincha tizmasining yoʻl oʻtadigan pastroq qismini bildiradi: Darvozakam dovoni, Egarkam togʻi (Shahrisabz tumani), shu tumandagi Kam togʻlari. Bel termini “dovon” maʼnosida bir necha marta takrorlanadi: Muzbel, Qorabeltov (dovon, Shahrisabz tumani), Oʻrtabel (dovon, Mirshikor tumani). Aqba (arabcha) “dovon”, “togʻ yoʻli” demakdir: Kalonaqba “katta dovon” (Kitob tumani), Oqboykalon dovoni (Qamashi tumani) ham aynan oʻsha maʼnoda, bunda faqat oldin termin, keyin sifat kelgan: Aqban kalon. Oronim indikatorlardan “togʻ orqasi”, “togʻ yelkasi” maʼnosidagi sirt (Qorasirt togʻi, Dehqonobod tumani), “pastroq togʻlarning chagʻirtoshli oftobroʻy yonbagʻri” maʼnosidagi chagat (Qorachagʻat togʻi, Dehqonobod tumani), “uzunasiga choʻzilgan balandlik”ni bildirgan qir (Qoraqir togʻi, Nishon tumani), “togʻ tarmogʻi”, “dara” maʼnosidagi qoʻl Oqqoʻltov togʻi, Dehqonobod tumani, Uchqoʻlsoy jarligi – Gʻuzor tumani terminlarini aytib oʻtish mumkin.

S.Qorayevning yozishicha, viloyat oronimlari takibida qoq termini ham indikator vazifasini bajaradi. Geografik adabiyotlarda ko‘pincha cho‘l hududida yog‘indan keyin to‘planib qolgan ko‘lmaklarni “qoq” deb ta’riflangan. Togiarda ham qoya bo‘shliqlarida, o‘yiqlarida qor-yomg‘ir suvlari to"lib qoladigan chuqurlik qoq (tosh qoq) deyilgan. Ayrim tog‘lardagi chuqurroq qoqlarning suvi yozning chillasigacha turishi mumkin.

Viloyat oronimlari orasida majoziy ma’noda qo‘llanilgan nomlar ham topiladi. Masalan, Ichaksoy jarligi, Jahonnamo tog‘i, Yetimtov, Belisiniq tog‘i, Xarkush dovoni ana shunday nomlar sirasiga kiradi. Geograf olim A.Mamatovning yozishicha, Dehqonobod past tog‘larining shimoli-g‘arbiy qismi Xontaxti nomi bilan ataladi. Uning bunday nomlanishiga tog‘ning g‘arbiy yonbag‘rida supasimon relef shakli sabab bo‘lgan. Olimning yozishicha, tabiiy geogralik jarayonlar mahsuli bo‘lgan supa hukimdorlar taxtiga bir oz o‘xshaydi.

Oronimlar tarkibida etimologiyasi aniq bo‘lmagan, qo‘shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladigan, sinchiklab o‘rganilishi lozim bo‘lgan nomlar uchraydi. Ana shunday morfema tarkibi va tuzilishi murakkab bo‘lgan oronimlardan biri Taxtaqoracha dovoni nomidir. Dovon Samarqand va Shahrisabz shaharlari oralig‘ida joylashgan va ko‘plab tarixiy voqea-hodisalarni guvohi bo‘lgan. Rus olimi V.V.Bartoldning yozishicha, dovon Amir Temurning 1398 yilda qurilgan Taxtaqoracha degan saroy nomi bilan atalgan.

Qashqadaryo toponimlarini chuqur o‘rgangan T.Nafasovning talqinicha, dovon nomining ilk shakli so‘g‘dcha - Taxtig‘ara, uning o‘zgargan shakli Taxtaqora, -cha qo‘shimchasi kichiklikni bildiradi. Sug‘dcha g‘ar - tog‘, nom oxiridagi -cha unsurining qadimiy shakli zoy - yer, kichik maydon. Tatig‘ara - Taxtaqoracha - ust qismida kichik tekis maydon bo‘lgan dovon nomi. Hozirgacha dovon nomining etimologiyasi haqida mutaxassislar orasida yagona xulosa yo‘q. Bunday nomlarni sinchiklab o‘rganish, ilmiy etimologiyasini aniqlash soha mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Viloyatda o‘simlik va hayvonlar nomlari ham toponim hosil qilgan. Fito va zootoponimlarning ko‘pchiligi turli topoformantlar birikishi natijasida paydo

bo‘lgan. Viloyatning tog‘li hududlarida Zirkbuloq. Andizli, Yong‘oqli, Zarangli, tekislik va cho‘l qismida Burganli, Qamishoq, Jingilli, Qo‘g‘ali kabi fitotoponimlar uchraydi. Hayvon nomlari bilan atalgan geografik obyektlarga: DoMtali tog‘i, Zag‘chaxona tizmasi, Chivirtkali tog‘i, Eshakmaydon dovoni kabi nomlar misol bo‘ladi.

Gidronimlar tarkibida qashqa, daryo, soy, buloq, quduq, sho‘r, shirin, suv kabi gidronimik indikatorlar ko‘p takrorlanadi. Qashqabuloq, Achchisuv, Shirinquduq, Sho‘rsuv, Qizilbuloq, G‘uzordaryo kabi nomlar misol bo‘ladi. Ayrim suv obyektlari (Arabband, Mirishkor, Po‘loti, Chimboy va boshqalar) urug‘- qabila nomlari bilan atalgan. Viloyat gidronimlari orasida majoziy nomlar ham bor: Jinnidaryo. Yo‘tansoy, Tirnasoy, Jahannamariq.

Viloyatda bir ming ikki yuzga yaqin oykonimlar bor. Ular orasida urug‘-qabila nomlari asosida shakllangan etnooykonimlar katta o‘rin tutadi. Shuning uchun, respublikaning boshqa hududlariga qaraganda Qashqadaryo viloyati toponimiyasi tarkibida o‘zbeklarning ko‘pchilik urug‘-aymoqlarining nomlari saqlanib qolgan. Nomshunos olim To‘ra Nafasov viloyatdagi etnik birliklarning nomi va semantikasini lisoniy qiyosiy jihatdan batafsil tadqiq qilgan.

Olim viloyatdagi tarkibida -li qo‘shimchasi bo‘lgan bir qancha qadimiy qishloq nomlarini (Bolg‘ali, Qaychili, Avoqli, Qanjig‘ali, O‘roqli va boshqalar) tahlil qilib, ularning paydo bo‘lishida tamg‘alar bosh omil, sabab bo‘lgan)igini aniqlagan. Umuman olganda. etnomadaniy jarayonlarni aks ettiruvchi qishloq nomlari xalqning ko‘chishi, milliy va etnik tarkibi kabi enik, sotsial va ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi.

Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig‘ini o‘z ichiga oladi, shimol, sharq va janubisharqdan Zarafshon hamda Hisor tog‘lari bilan o‘ralgan. Qashqadaryo - ilk bor daryo nomi sifatida paydo bo‘lgan va gidronimining kelib chiqishini mutaxassislar turlicha izohlaydilar.

Qashqadaryolik taniqli nomshunos olim To‘ra Nafasovning yozishicha, nom tuzilishiga ko‘ra turkiy qashqa va tojikcha daryo so‘zlaridan iborat. Barcha turkiy tillarda hayvonlar peshonasidagi belgi. nishona yoki kinoyali ma’noda hamma

biladigan, dong‘i chiqqan, taniqli, ma’lum va mashhur ma’nolarini anglatadi. Belgi bildiruvchi qashqa so‘zining areali ancha keng, bu so‘zning qadimiyligini bildiradi.

O‘rta Osiyodan tashqari Ural, Sibir. Kavkaz. Volgabo‘yi va boshqa hududlarning joy nomlari tarkibida qashqa so‘zi uchraydi.

Qashqa so‘zli nomlar O‘zbekistonning barcha mintaqalarida uchratish mumkin. Ularning aksariyatini gidronim va oronimlar, ayrim hollarda oykonimlar tashkil qiladi. E'tiborli tomoni shuki, hududda suv va relef shakllarining nomlari birlamchi, aholi punktlari nomlari ikkilamchi hisoblanadi. Bu tur nomlar Qashqadaryo viloyatida ham ko‘plab topiladi, Qashqaariq (Chiroqchi), Qashqabuloq (Shahrisabz), Qashqatcpa (G‘uzor). Qashqaqum (Dehqonobod) va boshqalar.

T.Nafasovning fikricha, qashqa yasalmasi qadimda qosh o‘zagiga -qa qo‘shimchasining qo‘shilishidan yasalgan, -qa yasovchisi XI asrgacha ot yasovchi serunum grammatik qo‘shimcha hisoblangan. S.Mutallibovning ta’kidlashicha, bu qo‘shimcha XI asrdayoq iste'moldan chiqqan. O‘zbek tilining o‘tmishida bu yasovchi yordamida bir qancha so‘zlar yasalganki, hozirgi vaqtda bu yasovchi qo‘shimcha so‘zlarning tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Joy nomlari tarkibidagi qashqa so‘zi arxaiklashgan koshka so‘zining tovush o‘zgargan ko‘rinishidir. Toponimlar tarkibidagi qashqa so‘zini sifat, belgi bildiruvchi qashqa so‘zining ma’no xususiyatlari bilan izohlash va unga nisbat berish xatodir. Toponimikada ma’nosi unitilgan, tilning hozirgi holati bilan izohlash qiyin bo‘lgan so‘zlarni, ularga o‘xshash boshqa so‘zlarga nisbat berib izohlash toponimik illyuziya deyiladi. Toponimik illyuziva - bu xalqona etimologiya va u ilmiy haqiqatdan yiroqdir.

Qashqadaryo gidronimi va qashqa komponentli toponimlarni etimologik jihatdan quyidagicha izohlash kerak deydi, nomshunos olim: Qashqadaryo - tog‘ daryosi. Qashqaariq - balandlik yonidan boshlangan ariq. Qashqatepa - baland tepa, yirik tepa. Qashqaqum - yonida qumlik bo‘lgan tepa, Qashqabuloq - balandlik joyidagi buloq. Obiqashqa - baland joydagi buloq va hokazo.

13.2-§. Surxondaryo viloyati toponimiyasi. Janubidan Amudaryo bo‘ylab Afg‘oniston, shimoliy, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Surxondaryo viloyati hududi O‘rta Osiyodagi qadimgi madaniyat markazlardan biri. Muallifi noma’lum “Hudud ul olam” asarida viloyat hududi Chag‘oniyon nomi bilan tilga olingan. Bosh shahri ham Chag‘oniyon (hozirgi Denov shahri yaqinida), arab manbalarida Sag‘oniyon deb atalgan. Nomining etimologiyasi haqida bir necha talqinlar mavjud, ammo ular ishonarli emas. Binobarin, joy nomining haqiqiy ma’nosini aniqlash uchun qo‘shimcha toponimik tadqiqotlar zarur bo‘ladi. Denov (tojikcha, Dehinav - “deh - qishloq, nav – yangi”) shahrining nomi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ilk bor tilga olingan.

Viloyatdagi tarixiy shaharlar orasida Termiz nomi o‘zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda Termiz shahriga sayohatchilarning soni ko‘paymoqda. Termiz shahrini ziyorat qilishni niyat qilgan sayyohlarga albatta, bu muazzam shahar nomi haqida gapirish kerak. Aytishadiki. tanishuv nomdan boshlanadi. Shahar nomining qachon paydo bo‘lganligi, ma’no - mazmuni, qaysi tilga mansubligi haqida ko‘plab izohlar mavjud bo‘lsa ham, ammo nomning ilmiy etimologiyasi haligacha uzil-kesil hal qilinmagan.

Toponimist olim H.Hasanov. Termiz - bu shaharning eng qadimgi mahalliy nomlaridan biri bo‘lib, janub tomondagi xalqlar tomonidan aytilgan taromata - “nargiyoqdagi qishloq” ma’nosidagi so‘zlardan olingan (Avesto yozuvlarida bor), ya’ni Amudaryoning narigi yog‘i - shimoli degan ma’noni anglatadi, Dastlab Tarmita, Tarameta deb talaffuz etilgan. Bir vaqtlar Dematrias, Yevkrotid, Aleksandriya deb ham yuritilgan. Hindlarning “Ramayana” dostonida Dandamutra shaklida tilga olingan. Shahri Somoniy ham deyilgan. X asrdan boshlab Termiz bo‘lib qoldi, deb yozgan edi.

Tarixchi va geograf Hofizi Abruning yozishicha, Termiz - Iskandar Zulqarnavn tomonidan qurilgan va dastlab Taramastha (baktriycha, - “narigi sohildagi manzil”) deb nomlangan. Tarixiy shaharga Iskandar Zulqarnayn asos solgan va nomi grekcha,

termos – “issiq” so‘zidan olingan degan fikr ham mavjud. Shahar, ko‘p asrlik tarixi davomida Tarmad, Termed. Tarmid. Termid, Tarmiz, Tirmiz, hatto Domat kabi nomlar bilan ham qayd qilingan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha. Termiz shahri dastlab Surxondaryo yoqasida bo‘lgan va mo‘g‘ullar istilosi davrida Chingizxon buyrug‘i bilan shahar butunlay yer bilan yakson qilingan. Undan keyin ham qurilgan shahar buzilib ketgan. Hozirgi Termiz - XIX asrning oxirlarida (1897 yili) barpo etilgan rus istehkomi oTnida 1928 y iIda paydo bo‘lgan. Yevropa tarixiy manbalarida shahar nomi Demitras. Aleksandriya. Yevkrovtediyaniy shaklida yozilgan. Rus tadqiqotchisi J.V.Mushketov Termizning qadimiy vayronalari orasidan yunon tangalari ko‘p topilganini aytgan.

XIV asr va undan keyingi davrlarga oid yozma manbalar va tangalarda shaharning nomi “Madinat ur-Rijol”, ya’ni “mardlar shahri” tarzida uchraydi. Shunday qilib, shahar o‘z nomlarining soni jihatidan dunyodagi har qanday m a’lum va mashhur shaharlardan qolishmaydi. 2002 yili YUN ESKO tashkilotining shafe’ligida Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Termiz shahridagi tarixiy obidalar. arxitektura yodgorliklari, qadimgi daryozalari. ko‘cha, xivobonlari. mahalla va guzarlarning nomlari alohida ta’rifga loyiq.

Surxondaryo toponimlari tarkibida joy nomlari yasashga "ixtisoslashgan” - qapchig‘ay (Qapchig‘ay, Oqqapchig‘ay), - gaza (Gaza, Gazarak), -novur (Novur, Qizilnovur), -tall (Talimoron, Talioshiqon) kabi viloyatga xos bo‘lgan terminlar uchraydi. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi majoziy-metaforik nomlarga Jindibuloq, Hangisuv, Xotinsuv, Kuyovsuv, Ayg‘irko‘l kabi o‘xshatma nomlar misol bo‘ladi. S. Qorayev talqinida xotinsuv – toshmaydigan, yerga singib ketadigan kam suvli ariq, kuyovsuv - oshib toshmaydigan. “iymanibgina” oqadigan soy, ayg‘irko‘l - katta ko‘l.

Surxondaryo viloyati joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Viloyat hududida Arg‘in. Achamayli, Jaloyir, Tortuvli, Xidirsho, Chig‘atoy, Oybek, Qo‘ng‘irot kabi ko‘plab urug‘-qabila

nomlari asosida paydo bo‘lgan etnotoponimlar uchraydi. Ularning har biri alohida ta’rifga loyiq.

Surxondaryo viloyati o‘zbek xalqini tashkil etuvchi yirik elatlardan biri qo‘ng‘irotlardir. Professor B.X. Karmishevaning ta’kidlashicha, Janubiy O‘zbekistonda yashovchi qo‘ng‘irot qabilasi beshta asosiy guruhga bo‘linadi: vaxtg‘ali, qo‘shtamg‘ali, qo‘njig‘ali, oyinli va tortuvli. Ularning har biri o‘z navbatida yana bir necha urug‘larga bo‘linadi.

Qo‘ng‘irot nomni toponimist olim T.Nafasov shunday izohlaydi: “qo‘ng‘irot qadimiy turkiy qabila nomi va unga turkiy, mo‘g‘ulcha, xunkereyt – “qarg‘a” so‘zi asos bo‘lgan”. Demak, urug‘ning totemi qarg‘a bo‘lgan, ya’ni qarg‘a qushiga topinuvchilarni - qo‘ng‘irot deyishgan.

Ikkinchi yirik etnik guruh — yuz qabilasi, ya’ni juz. O‘zbek urug‘lari tarkibiga kirgan yuz qabilasining nomi viloyatimizdagi bir qancha qishloqlarning nomlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Denov hududidagi Juzlar toponimlari ana shu etnonim orqali yaratilgan. O‘zbekistonning barcha hududlari, xususan, Surxondaryo viloyati toponimiyasida urug‘ va qabilalarga oid toponimiya keng tarqalgan. Surxondaryo viloyati etnotoponimiyasi o‘zining boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Uni professor S.Tursunov o‘rgangan. Uning hisob-kitoblariga ko‘ra, viloyatda 70 ga yaqin etnik nomlar va ularning shakllari uchraydi. Ulardan qo‘ng‘irotlar, chig‘atoylar, mang‘itlar, jaloirlar va boshqa ko‘plab xalqlar bor. Mavjud etnotoponimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek etnonimlari, asosan, turkum va qabila nomlari asosida shakllangan bo‘lib, turdosh nomlarning kelib chiqishiga hayvonlarning, xususan, urug‘ vakillarining muqaddas uy hayvonlari, o‘ziga xos ramzi bo‘lgan hayvonlar nomlari kiradi. Denov tumanida Kiyikchiovul, Ovulkiyikchi kabi toponimlar mavjud. Bu etnotoponim qishloq aholisining etnik tarkibiga qarab nom olgan.

Ayrim etnonimlarning ko‘rsatilishi shaxs ismlari va unvonlari bilan bog‘liq: chig‘atoy, fozil, jobu kabi. Chag‘atoy etnotoponimi Surxondaryo viloyatidagi shaxs nomlari bilan bog‘langan etnonimlarning ko‘p qismini tashkil qiladi. B.X.Karmisheva “Chag‘atoy” haqida ilmiy ma’lumot bergan bo‘lsa, “Chig‘atoy”

soʻzi Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoyga Movarounnahrga hukmronlik qilganida berilgan, yaʼni oʻsha zamin aholisi, deb atalgan. “Chigʻatoy”, “Ulusi” - Chigʻatoy xalqi. Chigʻatoy qabilasi hududida turkiy va fors xalqlari yashagan va ularning barchasi bir xil, yaʼni “chigʻatoy” deb atalgan. Mahalliy aholi keyinchalik ularni oʻz sharafiga va yashash joyi Chigʻatoy deb atashgan. Chunki ular Chigʻatoy podshosi Chigʻatoy urugʻi taʼsirida ekanliklarini hisobga olganlar. Keyinchalik Chigʻatoy soʻzi qisman saqlanib qolgan. Hozirda bu etnotoponim Boysun, Jarqoʻrgʻon, Termiz va Sherobod viloyatlarida mavjud. Bu nom XIII asrning ikkinchi yarmida shakllangan.

Surxondaryo viloyati etnonimlarining maʼlum bir qismi qabila nomlari asosida shakllangan. Masalan, Jaloir etnotoponimi. Jaloir — bir qancha turkiy xalqlar, jumladan, oʻzbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibiga kiruvchi yirik qabilalardan birining nomi. Manbalarda keltirilishicha, oʻzbeklar tarkibiga kirgan jaloirlar oʻtmishda Toshkent va Buxoro vohalarida, Nurota togʻi etaklarida, Jizzax, Kattaqoʻrgʻon viloyatlarida, Qashqadaryo, Surxondaryo va Fargʻona vodiylarida yashagan.

Blardan tashqari viloyatda bevosita shu nomdagi etnonimlar asosida shakllangan Kenagas, Doʻrmon, Nayman, Kovchin, Barlos, Xitoy, Argin, Jobu, Musobazori, Ovchi va boshqa etnotoponimlar mavjud. Etnotoponimlar orasida respublikamiz hududida boshqa turli xalqlarning mavjudligini bildiruvchi toponimlar ham mavjud. Bularga arab etnonimiga aloqador arablar, arabqishloq, arabxona, arabmazor va boshqalar kiradi. Qozoq etnonimidan Qazoqovul, Qozoqqoʻrgʻon, Qozoqariq, yaqqol misol qilib afgʻon etnonimi boʻlgan Avgʻonqishloq, Avgʻonmahalla, Avgʻonguzar toponimlarini keltirish mumkin.

Shuningdek dashtiqipchoqdan kelgan yirik oʻzbek qabilalaridan biri togʻchi (togʻlik) deb atalgan. Taqchi asli tagchi soʻzining oʻzgartirilgan shakli boʻlib, “togʻli” degan maʼnoni bildiradi. Bu etnonim Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Takchiguzar, Sariosiy viloyatidagi Takchiyon kabi joy nomlarida oʻz oʻrnini topgan.

Surxondaryo viloyatining umumiy etnonimlaridan biri xitoy qabilasi nomidir. Janubiy O‘zbekistonda xitoylar Sherobodda va asosan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Chiroqchi, Muborakning ayrim qishloqlarida yashagan. Xitoy qabilasi vakillari yashagan ba’zi joylar ularning nomi bilan atalgan. Surxondaryo viloyati Denov tumani Sherobod tumani Shinon qishlog‘ining nomi mana shunday tug‘ilgan. Tadqiqot davomida viloyatning Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Sariosiy, Oltinsoy, Denov va Boysun hududlarida etnonimlar bilan bog‘liq toponimika alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Surxondaryo viloyati etnotoponimlari tarix taqozosi bilan yaratilgan bo‘lib, ular ma’lum ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, tarixiy davrda qaysi xalq va urug‘lar qayerda yashaganligi, ularning etnik tarkibi va kelib chiqishi, millatlararo munosabatlari, integratsiya va migratsiya xususiyatlarini ko‘rsatuvchi muhim manba hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining umumiy etnonimlaridan biri xitoy qabilasi nomidir. Xitoylar 3 katta uruqqa bo‘lingan: qanjig‘ali xitoy, qo‘shtamg‘ali xitoy va o‘tarchi. Janubiy O‘zbekistonda xitoyliklar Sherobodda va asosan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Chiroqchi, Muborakning ayrim qishloqlarida yashagan. Xitoy qabilasi vakillari yashagan ba’zi joylar ularning nomi bilan atalgan. Surxondaryo viloyati Denov tumani Sherobod tumani Shinon qishlog‘ining nomi mana shunday tug‘ilgan. Tadqiqot davomida viloyatning Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Sariosiy, Oltinsoy, Denov va Boysun hududlarida etnonimlar bilan bog‘liq toponimika alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Surxondaryo viloyati etnotoponimlari tarix taqozosi bilan yaratilgan bo‘lib, ular ma’lum ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, tarixiy davrda qaysi xalq va urug‘lar qayerda yashaganligi, ularning etnik tarkibi va kelib chiqishi, millatlararo munosabatlari, integratsiya va migratsiya xususiyatlarini ko‘rsatuvchi muhim manba hisoblanadi.

Surxodaryo viloyati oronimlarning ko‘pchiligi hamma uchun tushunarli turkiy nomlardir. Oronimlar orasida qadimiy so‘g‘d va fors-tojik tiliga mansub nomlar ham ko‘p uchraydi. Xo‘jaikon, Kuhitang, Aqbaikalon. Xarkush dovoni, Selgoh, Hisor kabi nomlarni fors-tojik tilida izohlasa bo‘ladi. Viloyat hududida ko‘plab katta-kichik suv obyektlari mavjud, ularning har biri o‘z nomiga ega.

To‘palangdaryo, Sangardakdaryo, Sheroboddaryo, Xo‘jaipok daryolari eng yirik suv man’balari hisoblanadi.

Sangardakdaryo - Hisor tizmasining janubiy-g‘arbiy yonbag‘ridan (3800 m) boshlanadi. Daryo yuqori oqimida juda tor va yon bag‘irlari tik vodiydan tez oqib, yo‘lidagi tog‘ jinslarini pastga qarab yuvib ketishi daryoni nomlanishiga asos bo‘lgan. Sangardak - fors-tojik tilida sang –“tosh”, gardak – “dumalaydi”. ya’ni “toshni dumalatib olib ketadigan” daryo degan ma’noni anglatadi.

Umuman olganda. Surxondaryo viloyati toponimlari O‘zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi sanaladi. Viloyat hududida turkiy tillar yordamida tushunishi mumkin bo‘lgan toponimlar boshqa viloyatlarga qaraganda ancha kam. Viloyatda tarixiy (substrat) nomlar ko‘p. ular qo‘shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat nomi. Daryo nomi viloyatga nom bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni gidronim gidrooykonimga aylangan. Viloyat respublikaning janubi-sharqida. Surxon - Sherobod vodiysida joylashgan. Surxodaryo viloyati ko‘hna tarixi, qadimiy madaniyatiö yodgorliklari bilan mashhur.

Professor Suyun Qorayev daryo nomi asli Surxobdaryo, ya’ni Qizilsuv bo‘lib, keyinchalik o‘zgarib kctgan bo‘lishi mumkin deydi. Olimning bunday xulosaga kelishiga sabab shuki, daryoning yuqori qismi Denov shahrigacha Qizilsuv deb ataladi. Nomshunos olim bundan tashqari, daryo urug‘ nomi bilan atalgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas deydi. Chunki turkmanlarning bir urug‘i surx (i) deb atalgan, -on esa tojikcha ko‘plik affiksidir.

Surxondaryoni juda loyqa daryolardan biri ekanligi, oqim yo‘nalishida qizil tuproqlarni mavjudligi, bahorda suvi ko‘payganda suvida qizillik belgi larini paydo bo‘lishi daryoni Surxobdaryo (Qizildaryo) deb atashga asos bo‘lgan deyish, haqiqatga yaqin. Bundan tashqari, nom foydalanish jarayonida qisman o‘zgarishga uchragan. Ya’ni mahalliy aholi “b” tovushini qo‘llashda nisbatan qulayroq bo‘lgan “n” tovushiga almashtirgan bo‘lishi mumkin.

Sayrob, Panjob, Sang‘ardak, Nikhomrud, Chagonrud, Bobotog‘ (Bobotog‘) (Denov, Sho‘rchi, Sariyosiyo tumanlari hududidagi tog‘ tizmasi nomi), Bodi havo (Denovdagi qishloq nomi), Govurg‘on, Uzun tumanidagi tog‘li hudud, Asrud, Oqdaryoning qadimgi nomi, uning nomi X-XI asrlarda arab sayohatchilarining geografik risolalarida qayd etilgan. Al-Maqsidiy va Ibn Havqala, Asrud so‘zi os va tojikcha rud (daryo) qismlaridan iborat bo‘lib, tuzilishi jihatidan murakkab, lug‘aviy ma’nosi “tegirmon suvi, oq suv”, ya’ni, As – yer, oq, tegirmon va rūd – daryo, suv, turkiy-o‘zbek tilida oqsu (oqsu) shaklida qo‘llaniladi.

Shuningdek qadimdan Surxon hududi chegarasida tarixiy manbalarga tayangan holda quyidagi yirik va kichik daryolar qayd etilgan: Anhor, Darband, Zarkamar, Duoba, Nihomrud, Obizarang, Oqsuv, Panjob, Sayrob, Sanggardak, Sangbuloq, Sangchak, Sardoba, Surxon-Surxondaryo.

Surxon vohasi toponimikasining tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, bu hududning geografik joy nomlarida aholining etnik tarkibi, moddiy va ma’naviy madaniyatida o‘z iz qoldirgan murakkab tarixiy jarayonlar o‘z aksini topgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati etnotoponimlarini mustaqil tarzda qiyosiy va taxliliy o‘ganing.

2. Qashqadaryo viloyati oykonim, gidronimlarini tarixiy manbalar asosida referat tayyorlang.

3. Surxondaryo viloyati oykonim, gidronimlarini tarixiy manbalar asosida referat tayyorlang.

14-Mavzu. Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari toponimiyasi.

Reja:

14.1-§. *Samarqand viloyati toponimiyasi.*

14.2-§. *Samarqand toponimi kelib chiqish tarixi haqida.*

14.3-§. *Jizzax viloyati toponimiyasi.*

14.4-§. *Jizzax toponimining kelib chiqish tarixi.*

14.5-§. *Sirdaryo viloyati toponimiyasi.*

Tayanch ibora va atumalar: *etnooykonim, gidronim, aqha, qiya, nahr, juyntksoy, tangi, agronim, semizkent, dizak, Sirdaryo (Sirt-daryo).*

14.1-§. Samarqand viloyati toponimiyasi. Samarqand viloyati joylashgan vodiy shimoldan Nurota tog‘i va
Oqtog‘, janubdan Zarafshon tizma tog‘lari bilan o‘ralgan. Vodiy sharqdan g‘arbga pasayib boradi va shimoli-sharqda Qizilqum cho‘liga, janubi – g‘arbda Qarnabcho‘lga tutashibketadi. Aholisining to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘i o‘zbeklar, qolgani oz sonli boshqa millat vakillariga mansub.

Vodiy toponimlarining aksari qismi o‘zbekcha nomlardir. Shu bilan birga sug‘dcha, forscha toponimlar ham katta o‘rin tutadi. Samarqand viloyati hududi qadimgi Sug‘diyonaning “yuragi” bo‘lganidan bu yerda O‘zbekistonning boshqa hududlariga qaraganda sug‘dcha nomlar ko‘proq uchraydi Samarqand toponimiyasi deganda, viloyatning hozirgi hududi bilan bog‘liq nomlarni tushunamiz (tarixan viloyatning hududiy-ma’muriy chegaralari turlicha bo‘lgan). Ma’lumki, o‘rta Zarafshon vodiysi qadimiy Sug‘dning markaziy qismini tashkil qilib, jahon svilizatsiyasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ammo turli tarixiy davrlarda Samarqand va unga tegishli regionlar hududi o‘zgarib turgan. Siyosiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq bu holat viloyat toponimiyasini o‘rganish, material tanlash, ularni qiyosiy tadqiq qilishda muhimdir.

Samarqand shahri va tumanlarga aloqador tarixiy, geografik asarlar va boshqa manbalarni o‘rganish viloyat tarixiy geografiyasini tiklashda yordam beradi.

O‘rta asr tarixchilari Istaxriy (X asr), Ibn Xavqallarning (X asr) ma’lumotlarida Samarqand viloyatiga qarashli 12 ta rustoq (tuman) tilga olinadi. Bular Bunjikat yoki

Panjakent, Varag‘sar, Maymurg‘, Sanjarfig‘on, Darg‘am, Abg‘ar, Yarket, Burnamed, Buzmadjen, Kabudanjaket, Vedar va Marzbonlardir.

Keyingi asrlarga kelib Samarqand viloyati hududining ma’muriy bo‘linishida yana bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Viloyat geografik nomlari bilan shug‘ullangan V.L.Vyatkin temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davridagi Samarqand tumanlari haqida gapirar ekan, ularning nomlari va chegaralari haqida batafsil to‘xtaladi. Chunonchi, Shovdor tumaniga Maschodan Qunduzso‘fi qishlog‘igacha (keyinchalik Ayimobodgacha) bo‘lgan hududlar, janubda esa Shahrisabz tog‘lariga qadar bo‘lgan yerlar kirganligini ko‘rsatadi.

Shovdor tumanidan Buxoro chegaralarigacha Anhor tumaniga qarashli bo‘lgan. Qoradaryo va Oqdaryo oralig‘ining yuqori qismi Nimsug‘ud yoki Sug‘udixurd tumani deb atalgan, Zarafshonning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab past tomonda Cho‘ponotaga qadar Kabud tumani, undan sharq tomonga qarab yo‘nalishda Sangzor vodiysiga qadar Yoryayloq tumani joylashgan. Kabud tumanidan shimol tomonda Yangianhor tumani chegaralari bo‘lib, bu tuman shayboniylar davriga kelib tugatilgan. So‘nggi temuriylar davrida Sheroz va Aliobod tumanlari tashkil etilgan edi. Ofarinkent tumani esa shimolda Sog‘arj viloyati bilan chegaradosh bo‘lgan. Bu viloyat Sog‘arj yoki Dushanbeqo‘rg‘on nomi bilan ashtarxoniylar davrida Samarqand viloyatiga qo‘shib olindi. (Vyatkin 1902: 14-15)

Rus istilolari va sho‘rolar davrida ham viloyat chegaralari, tumanlari soni bir necha bor o‘zgardi. Jumladan, 1904-05 yil ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda uezd, pristavlik, volost, qishloq va ovul jamoalari bo‘lgan. Chunonchi, *Samarkand uezdida* Xoja Ahror, Siyob mahalla, Angor, Jumabozor, Urgut, Yangi Qozonariq, Dovul, Qoratepa, Chashmaob, Qoraqalpoq, Ishimoqsoq, Halvoyi, Jo‘yidevona, Kabut, Polvonariq, Panjakent volostlari; *Kattaqo‘rg‘on uezdida* Jom, Damariq, Yarboshi, Navqa, Chimboy va boshqa volostlar nomi qayd qilingan va hokazo. (Virskiy 1906: 1-117)

1926 yilgi aholi ro‘yxatida hozirgi viloyat hududi doirasidagi (qisman qo‘shni viloyatlar hududi ham kiradi) *Zarafshon* va *Samarqand okruglari* haqida

ma’lumotlar beriladi. *Zarafshon okrugiga* Nurota, Karmana, Xatirchi, Narpay, Qoradaryo, Damariq, rayonlari, *Samarqand okrugiga* esa Mitan, Poyariq, Oqdaryo, Past Darg‘om, Bulung‘ur, Yuqori Darg‘om, Yangi Qozonariq, Jizzax, Yangiqo‘rg‘on, Zomin rayonlari kirgan.

Viloyatga aloqador ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar keyingi yillarda chop etilgan xaritalarda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, 1971 va 2002 yillarda nashr qilingan viloyat xaritalari quyidagi o‘zgarishlarga uchragan:

1971 yilda Samarqand viloyati (oblast) hududida 13 ta rayon bo‘lgan bo‘lsa, 2002 yilda xuddi shu viloyatda 12 ta tuman tilga olinadi. Birinchi xaritada mavjud bo‘lgan Nurota, Xatirchi, G‘allaorol rayonlari qo‘shni viloyatlarga (Jizzax, Navoiy) o‘tkazilgan. Bugungi kunda viloyatimizda Samarqand, Tayloq, Urgut, Jomboy, Bulung‘ur, Poyariq, Oqdaryo, Past Darg‘om, Ishtixon, Qo‘shrabot, Nurobod, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Paxtachi, jami o‘n to‘rtta tuman mavjud.Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, o‘tmishda mintaqada etnooykonimlar soni bundan ham ko‘p bo‘lgan. XIX asr oxirida Zaral’shon vodiysiga kelgan rus tadqiqotchisi

N.F.Sitnyakovskiy 2800 dan ko‘proq qishloqlarni ro‘yxatga olgan va ularning 1/3 qismi etnik guruh nomlari bilan atalgan. Etnooykonimlar soni jihatidan Samarqand viloyati respublikada Janubiy O‘zbekiston vilovatlaridan keyin turadi.

Mutaxassislar viloyat tarkibidagi ma’muriy tumanlar nomini ham turlicha talqin qilishgan. Masalan, ana shunday munozarali nomlardan biri Buyuk Ipak yo‘lining ustida, Miyonkomning markaziy qismida joylashgan Ishtixon oykonimidir. Ishtixon nomi qachon paydo bo‘lgan va qanday ma’noga ega degan savolga hozirgacha uzil-kesil javob yo‘q. Shahar markazida joylashgan Ishtixontepa tarixiy yodgorligi, qadimgi shahar o‘rni boiganligini deyarli barcha olimlar e'tirof etishgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ishtixon shahri ilk o‘rta asrlarda mustaqil hokimlik markazi hisoblangan. X-asrda Ishtixon qal’a, shahriston va rabotdan iborat katta shaharga aylangan. Keyingi asrlarga kelib shahar atrofida ko‘plab mevali bog‘lar paydo bo‘lgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan birga dehqonchilik ham yaxshi rivojlangan.

Nomshunos olimlar Ishtixon so‘zini turlicha talqin qilishgan. Mahalliy xalq orasida nomning turli rivoyatlarga asoslangan xalqona etimologiyasi ham mavjud. Ulardan birida. Samarqanddan Ishtixongacha quvurda oqizilgan qimizni podsho tatib ko‘rganda xalq “qimizni ichdi xon, xon ichdi” deganidan buyon joy nomi Ichdi xon (keyinchalik Ishtixon) deb atalgan emish.

Boshqa bir rivoyatga ko‘ra VIII- asr boshida Samarqandni arablar bosib olgach, So‘g‘d ixshidlari poytaxtni Ishtixonga ko‘chirishga majbur bo‘lishgan. Binobarin, Ishtixon so‘zi Ixshitxon so‘zining o‘zgargan shakli boi ishi mumkin. Chor Rossiya davrida Miyonkomga ekspeditsiya tarkibida kelgan rus tadqiqotchisi L.Vyatkinning yozishicha, Teng‘iz arig‘i qadimda jo‘yi Shayxon deb atalgan va uning transformatsiyalashuvi natijasida Ishtixon nomi paydo bo‘lgan.

Taniqli arxeolog olima G.A.Pugachenkovaning fikricha, Ishtixon nomi Xitoy tarixiy manbalarida Sindixon, arab manbalarida esa Ishtixon shaklida qayd qilingan. Ayrim mutaxassislar, nomning ikkinehi qismidagi “xon” so‘zi. joy nomini Turk hoqonligi davri paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi deyishadi. Chunki o‘sha davrda So‘g‘d va uning tarkibida bo‘lgan Ishtixon ham hoqonlik tarkibiga kirgan.

O.I.Smirnovaning yozishicha, Ishtixon so‘zi sug‘dcha, isht - “hasht, ya’ni sakkiz”, xon – “kan, kanal” ma’nosini anglatadi. Olimaning keltirgan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Ishtixon nomi V-VI asrlarda paydo bo‘lgan. E'tiborli tomoni shuki, Ishtixon so‘zi ko‘p marta izohlangan bo‘lsa ham, ammo mutaxassislar orasida yagona xulosa yo‘q.

Samarqand viloyati oronimlari tarkibida ushbu hududga xos geografik terminlar ko‘p uchraydi. Mintaqada Avg‘a, aqba - (Avg‘a dovoni), bel - (O‘rtabel), guzar - (Qoraguzar), gaza - (Qumgaza), qiya - (Qoraqiya), -qir - (Jalqir), tov - (To‘ratov) kabi terminlar joy nomlari yasashda ancha sermahsul. Oronimlar mahalliy shevalarda ham yaralilgan. Ularga Jaylov, Jalpaqteva. Shishmo‘la, Bolqontov kabi nomlar misol bo‘ladi. Viloyatdagi mahalliy o‘zbek shevalarida tog‘ oronimik termini k o‘proq tov shaklida talaffuz qilinadi.

Oronimlar orasida hayonot olami, o‘simliklar, urug‘-qabila nomlari bilan atalgan oronimik obyektlar ham uchraydi. Ularga Irg‘ayli tog‘lari, Gujum tog‘i,

Qarchig‘ay tog‘i, Alqortepa. Mirishkor tog‘i, Chig‘atoytov kabi nomlar yaqqol misol bo‘ladi. Viloyatda ayrim metaforik-majoziy nomlar ham bor. Ular qatoriga Ayg‘irtepa (ulkan, katta), Qatormoya (moya - “urg‘ochi tuya", ko‘pincha tuya karvoniga o‘xshash qator qoyalar shunday atalgan) kabi nomlarni kiritsa bo‘ladi.

Viloyat gidronimlari orasida Zarafshon nomini alohida ta’kidlash kerak. Daryo XVIII asrdan boshlab Zarafshon (tojikcha, “zar sochuvchi”) deb ataladi. Tarixiy manbalarda daryo Politimet, Namiq, Ro‘di Mosaf, Haromkom, Nahri Buxoro, Obi Ko‘hak nomlari bilan tilga olingan. Qadimiy gidronimlarga hozirgi Narpay, Payariq, Darg‘om kanallarini kiritish mumkin. Narpay - (arabcha, nahr - “katta ariq”, “kanal”). Payariq nomi esa Narpay nomining turkiy varianti hisoblanadi.

Zarafshon daryosidan boshlanadigan qadimiy suv inshoatlaridan yana biri Bulung‘ur kanalidir. Mutaxassislarning aniqlashicha. Bulung‘ur so‘zi mo‘g‘ul tilida “loyqa suv” ma’nosini bildiradi. S.Qorayevning yozishicha, viloyatda mahalliy shevalarda yaratilgan gidronimlar ko‘p. Ular qatoriga Juyruksoy - "tezoqar", Bitovsoy – “boshi berk”, Toshovut – “tosh hovuz” kabi gidronimlarni kiritish mumkin. G‘aybot, Parandas, Lexana kabi mavhumlashgan nomlar maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati toponimiyasi ko‘p asrlik tarixga ega va ular orasida so‘g‘d, fors-tojik tillariga tegishli nomlar salmoqli o‘rin egallaydi. Xususan Samarqand shahri urbonimlarining asosiy qismini tojikcha nomlar tashkil qiladi. Ular qatoriga yuzga yaqin mahalla va guzarlar nomlarini kiritish mumkin. Samarqand shahridagi mahalla va guzarlar nomlari tarkibida kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lgan tojikcha nomlar ham ko‘p. Masalan, Sharbatdor - qandolatchilar. Zardo‘zon - zardo‘zlar, Kulolon - kulollar, Charmgaron - ko‘nchilar va hokazo. Umuman olganda, Samarqand viloyati toponimlari O‘zbekiston toponimiyasining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Hozirda viloyat toponimiyasining asosiy qismini o‘zbekcha nomlar tashkil qiladi. Viloyatda yangi tashkil qilinayotgan geografik obyektlarga berilayotgan nomlarning asosiy qismini amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan zamonaviy nomlar tashkil qiladi.

14.2-§. Samarqand toponimi kelib chiqish tarixi haqida. Samarqand shahri O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. 1925-1930 yillari O‘zbekiston poytaxti bo‘lgan. Uning bunyod etilgan vaqti va nomining etimologiyasi aniq emas. Shahar Iskandar Zulqarnaynning harbiy yurishlari munosabati bilan yunon solnomalarida miloddan avvalgi 329 yilda Marokanda nomi bilan ilk bor qayd qilingan.

Turli davrlarga tegishli tarixiy manbalarda shahar nomining Samariana, Saramanka, Shamirkent, Sakanna, Sanmangen, Samakiyan. Sumron, Samaran, Simroyat shaklida tilga olingan. VIII asr boshlariga tegishli so‘g‘d hujjatlarida Sniarakansa, venetsiyalik sayyoh Marko Polo (XIII asr) kitobida nom Sanmarkan shaklida uchraydi.

S.Qorayevning yozishicha, shahar nomining deyarli bareha variantlari “s" harfi bilan boshlangan, faqat Marokanda bundan mustasno. Demak, yunonlar shahar nomini noto‘g‘ri eshitganlar, tishlar orasidan sirg‘anib chiqadigan “s” tovushini yunonlar ilg‘amaganlar desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu fikrni grek filolog olimi Yu. Ivanoglipolus ma’qullagan.

Ayrim Yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha Samariyaga yaqin, ya’ni “yig‘in”, “anjuman” so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Ba’zi olimlar shahar nomining birinchi qismi Samar - shaharga asos solgan yoki uni bosib olgan shaxsni ismi bo‘lsa kerak deganlar. Lekin, tarixiy manbalarda bunday kishi nomi qayd qilinmagan. Samarqand – “Semizkent”, ya’ni “semiz shahar”, “katta shahar” ma’nosini bildiradi degan fikr Mirxondning “Ravzat us safo” asarida, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklarida qayd qilingan. Biroq Semizkent shaharning asl nomi emas balki sifati, ta’bir joiz bo‘lsa laqabi deyish mumkin.

Samarqand shahrining qadimiy vayronasi hozirda Afrosiyob nomi bilan mashhur. O‘tmishda bu joy Hisori ko‘hna. Qo‘rg‘oni qadim deb atalgan. XVII-XVIII asrlarda Tali Afrosiyob

(Afrosiyob tepaligi) deyilgan. Ba’zi olimlar tepalikni sug‘deba nomi Parshavap bo‘lgan, tojikchada esa Afrosiyoh-ob, ya’ni “Siyob ustidagi tepalik” deb atalgan,

keyinchaalik nom qisqarib, talaffuzda soddalashib Afrosiyob, ya’ni “Siyob bo‘ylari” shaklini olgan deyishadi.

Tarixiy yoz.ma manbalarda Samarqandning yoshi qadimiyligi to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar topish mumkin. Shu bois, o‘rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida “g‘arbda Rim, sharqda Samarqand” deyilgan. Samarqand shahri insoniyat tamaddunidagi buyuk xizmatlari uchun “Boqiy shahar” nomini olgan.

14.3-§. Jizzax viloyati toponimiyasi. Jizzax — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning markaziy qismida joylashgan. 1973-yil 28-dekabrda viloyat sifatida tashkil etilgan. Shimoliy-sharqda Qozog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubi-g‘arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Viloyatning ma’muriy-hududiy bo‘linishi kesimida joy nomlari tahlil qilinganda tumanlar toponimiyasining shakllanishida ham leksik, ham semantik jihatdan muayyan tafovutlar borligi aniqlandi. Masalan. Zomin, Yangiobod, Baxmal tumanlari aholi punktlari nomlari tarkibida turkiy toponimlar bilan birga qadimiy sug‘diy va eroniy substrat toponimlar ham uchraydi. G‘allaorol, Jizzax va Forish tumanlari toponimiyasi tarkibida etnotoponimlar va joyning geografik xususiyatiga qarab nomlangan geografik obyektlar ko‘proq. Viloyatning shimoliy cho‘l mintaqasidagi Paxtakor, Do‘stlik.Zafarobod, Arnasoy, Mirzacho‘l, Zarbdor tumanlarining oykonimiyasi tarkibida antroponimlar va agroonimlar ko‘pchilikni tashkil etadi.Viloyatning janubiy tog‘li qismida joylashgan qishloqlarda aholi qadimdan yashab kelgan, shimoliy cho‘l hududlarida esa aholi punktlari asosan, Jizzax cho‘lining o‘zlashtirilishi natijasida bunyod etilgan. Shu sababdan viloyatning janubiy tog‘li hududlaridagi substrat (tubjoy) oykonimlar ko‘p asrlar davomida shakllangan bo‘lsa, tekislik qismidagi nomlarning asosiy qismini keyingi davrlarda yaratilgan sun’iy nomlar tashkil qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, viloyatning tabiiy sharoiti, iqtisodiy- ijtimoiy ko‘rsatgichlari, etnografiyasi, geografik terminlari, aholining etnik tarkibi kabi omillar oykonimlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, viloyatning

shimoliy tekislik qismida Jizzax cho‘lining o‘zlashtirilishi natijasida paydobo‘lgan oykonimlar asosan dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq.Cholquvar, Paxtakor, Gulzor, Chamanzor. Navbahor. Yangidala kabi oykonimlar o‘sha davr ruhini aks etadi.Bu nomlar xalqning qaqrab yotgan cho‘lni obod qilib, dehqonchilikda erishgan yutuqlarining natijasi, ya’ni inson qo‘li bilan o‘zlashtirilib obod qilingan ma’noni anglatuvchi nomlardir. Bu tur nomlarning pavdo bo‘lishi xalqning yangi yerlarni o‘zlashtirishi, yangi qurilishlar majmuini bunyod qilishi kabi ijodkorlik, cho‘lquvarlik, yangi dehqonchilik manzillari yaratishi bilan bog‘liq.

Viloyatning tog‘ oldi hududlarida xalqning tabiatga bo‘lgan munosabati, tabiiy hodisalarni anglash darajasi, turli xil landshaftlardan foydalanish imkoniyatlari kabi omillar joy nomlarining yaratilishida moddiy, ijtimoiy va lisoniy asos vazifasini bajargan. Natijada, mahalliy aholining moddiy ishlab chiqarish munosabatlarini belgilaydigan Lalmikor, G‘allakor, Adirobod, iqlimi va tuproq sharoitlariga munosibati natijasida Dovul, Loyqa, Yoyilma kabi nomlar paydo bo‘lgan.

Tog‘li hududlarda joylashgan aholi punktlari nomlari ko‘pincha, mahalliy xalqning o‘troq hayotga, turg‘un turmush kechirishga o‘tish jarayonini o‘zida aks etgan. Bunday oykonimlar ko‘pincha tarixiylik maqomiga ega, bunga ularning qachon paydo bo‘lganligi, nom yaratgan xalqning ma’lumligi, shu turdagi nomlarning boshqa hududlarda ham uchrashi, tilning zamonaviy holali bilan izohlab bo‘lmasligi kabi dalillarni ko‘rsatish mumkin. Chunonchi, Jizzax viloyatining bir qancha tumanlarida tangi (tor dara), gaza (tog‘ qirrasi), zov (tik qoya), qashqa (yo‘l o‘tgan tepalik, tog‘ suvi), tagob (takob - suv yoqasi, o‘zani, dara), shiver (botqoqlik), aqba- ovg‘a (tog‘ dovoni) kabi geografik atamalar xalq shevalarida juda faol ishlatiladi va ayni vaqtda bu tumanlarda ana shu so‘zlar asosida paydo bo‘lgan toponimlar uchraydi.

Shu narsa e’tiborga molikki, yuqorida qayd qilingan so‘zlarning ko‘pchiligi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy “Devoni”da, “Boburnoma”da uchraydi. Demak, bu atamalar ilgari vaqtlarda hozirgiga nisbatan ancha keng doirada ishlatilgan.

O‘zbekiston toponimiyasining xarakterli xususiyatlaridan yana biri unda etnotoponimlarning, ya’ni turli millat, xalq, elat, qabila va urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlarning nihoyatda keng tarqalganligidir Mintaqa joy nomlari xususan mikrotoponimlar ichida antropotoponimlar, ya’ni kishilarning ismi, familiyalari hamda laqablari bilan ataladigan toponimlar son jihatidan etnotoponimlardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Ba’zi bir kishi ismlarini bilib olish oson emas. Kishi ismlari orasida sarimsoq, piyoz, hatto yovshon (shuvoq) kabi o‘simlik nomlari, yo‘lbars, sher, bo‘ri, to‘ti, qo‘zi, to‘qli, xo‘roz kabi hayvon nomlari uchraydi.

Kishilarning laqablari ayniqsa, xilma-xil bo‘lgan. Laqab ko‘pincha, familiya rolini o‘tagan deyish mumkin. Bir xil ismli (adash) kishilarda har birining o‘z laqabi bo‘lgan. Zomin tumani Tamtum qishlog‘idagi kishilar laqablaridan misollar keltiramiz: Boy, Sariboy-Sarimesh (semiz kishi bo‘lgan), Sariboy do‘shi keng (ko‘kragi keng kishi ekan), Sulton dev - Sulton qayqi, Bo‘ronboy beparvo - Bo‘ronboy ko‘zi yomon (shilpiq ko‘z), Musa teshik (oqma) - Musa it etmas (chopqir), Abdi yo‘g‘on (o‘jar odam bo‘lgan) - Abdi devona (bechoragina kishi bo‘lgan) - Abdi zarang (garang - qulog‘i og‘ir kishi o‘tgan).

O‘zbekiston tomonlarining grammatik xususiyatlari to‘g‘risida shuni aytish kerakki, toponimlarning ko‘pchiligi ikki va uch komponentdan tuzilgan. Bob,Yom, So‘x, Pop kabilar bir komponentli elliptik, ya’ni qisqargan toponimlardir. Antropotonimlar, ayniqsa, etnotoponimlar ham bir komponentli bo‘lishi mumkin. Qo‘ng‘irot, Chinoz, Boyovut, Beruniy, Navoiy ana shunday nomlar jumlasidan.

Boshqa turkiy toponimlar kabi, o‘zbekcha toponimlar orasida ham fe’l shakllari keng tarqalgan. Kuyganyor, Qolgan Sir, Qolgan Chirchiq, Shomurot yorgan. Fe’llar mikrotoponimlar tarkibida ayniqsa, ko‘p uchraydi: G‘ajiruchti, Takasakragan, Qatiqto‘kildi va hokazo.

O‘zbekcha toponimlarda geografik atama (indikator, nomenklatura atama, turdosh so‘z) toponim oxirida, aniqlovchi esa so‘z boshida keladi: Toshkent, Mirzacho‘l, Dehqonobod, Oyoqquduq va hokazo. Geografik nomlar, ayniqsa, mikrotoponimlar ba’zan butun-bir gaplardan iborat bo‘ladi: qozoqoldi kalonyuqori,

qozoqoldi kalono‘rta, Mulla qoraning eri, Yo‘ldoshning oti yiqilgan (qoya) va hokazo. Boshqird olimi J.G.Kiekboev ana shunday toponimlarga Amin Mulla besen sapkan — “Mulla Amin pichan chopgan (er)” degan toponimni misol qilib keltiradi.

14.4-§. Jizzax toponimining kelib chiqish tarixi. Jizzax - O‘rta Osiyodagi qadimiy shaharlardan biri. Shahar Sangzor daryosi bo‘yida joylashgan. Jizzax shahri VII asrdan buyon m a’lum, arablar kelmasdan oldin o‘z ahamiyati jihatidan Ustrushonaning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lgan. Yunon solnomachilari Kiropol va Gazo shaharlarini alohida tilga olishgan.

Arxeologlar olimlar Gazo shahri Samarqand va Toshkent oralig‘ida joylashganligini ta’kidlashgan. Olimlar Gazoni qadimiy Jizzax deb taxmin qiladilar.Jizzax kichik qal'a sifatida bir necha qadimiy karvon yo‘lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Jizzax vohasidagi ilk qadimiy shahar, hozirgi Jizzax shahrining sharqiy qismida joylashgan Qaliyatepa o‘rnida miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllangan. Milodning boshida, taxminan ikki ming yil avval shaharning umumiy maydoni 50 gektarga yetgan, shahriston, ark qudratli mudofaa devorlari bilano‘rab olingan, uning atrofida suv toidirilib qo‘yilgan muhofaza xandaqlari bunyod etilgan.

Arab istilosi natijasida, ya’ni VIIIasrning ikkinchi yarimida qadimgi Jizzax vayron etiladi.Kcyinchalik shahar hayoti Qaliyatepadan 6 km shimoli-g‘arbda joylashgan hozirgi O‘rdadeb nomlangan tepaga ko‘chib o‘tadi.Jizzax yozma manbalarda ilk bor islom dunyosi geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Havkal, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olingan. Shahar IX-X asrlarda Somoniylar, XI-XIII asrlarda Qoraxoniylar. X1V-XV asrlarda Temuriylar davlati. keyinchalik Buxoro amirligi tarkibiga kiritilgan. Shahar bir necha marta inqirozga uchrab, yana qayta tiklangan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Jizzax yana ham obodonlashib. savdo - sotiq va strategik ahamiyatni kasb eta boshlagan.XIX asrning 60-yillarida, ya’ni Rossiya istilosi arafasida Jizzax (O‘rda) 100 gektarga yaqin maydonni egallagan, ikki qator mudofaa devorlariga ega, Buxoro amirligi tasaruffidagi Jizzax hokimining ma’muriy markazi, harbiylashgan qal’a-shahar hisoblangan. Rossiya istilosidan

keyin, Turkiston generalgubernatorligiga qo‘shib olingan Jizzax shahri yangi tashkil topgan Jizzax uyezdining markaziga aylangan.

Nom davr, zamon, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli. Nom paydo bo‘lgan davr tarixini yaxshi bilmasdan, uning zamiridagi ma’noni anglash qiyin. Bu uchun kamida nomlashga asos bo‘lgan ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlab olish zarur. Joy nomlangan paytlarda uning ma’nosi va nomlanish sabablari shu nomni qo‘ygan aholiga aniq ma’lum bo‘lmgan.

Qadimgi Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan hozirgi Jizzax shahri, muhim strategik ahamiyatga ega kichik bir qal’a sifatida ilk o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan va dastlab Dizak deb nomlangani ham shu fikrni tasdiqlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” sida Jizzaxni “*Dizak*” deb ta’riflab, shahar to‘g‘risida shunday yozgan: “Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon”.

Jizzax oykonimining kelib chiqishi to‘g‘risida turli fikr va mulohazalar mavjud. Masalan, H.Hasanov yozishicha, Jizzax qadimda Dizak deb atalgan. M a’nosi -diz - qadimgi so‘g‘d tilida “qal'a, istehkom, qo‘rg‘on”, -ak esa kichkina, ya’ni kichraytirish affiksi, bizdagi -cha qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Dizak - «qafacha» degan Ma’noni beradi. Dizak so‘zini Jizzax shakliga o‘zgarishini S.Qorayev “z, d, j- tovushlarining o‘zaro almashishi va munosabati toponimiyada katta ahamiyatga ega. Dizak nomining Jizzax shaklini olishi ham shu qonuniyat mahsulidir” degan xulosaga kelgan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida islomgacha va islom dini tarqalgan dastlabki asrlardagi tarixiy yozma manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ushbu hududda kelib chiqishi turkiy bo‘lgan nomlar keng tarqalgan.va mintaqa toponimiyasining salmoqli qismini tashkil etgan. Bundan tashqari so‘ngi asrlar yozma manbalarda va hozirgi davrdagi mintaqa turkiy toponimiyasi tarkibida kelib chiqishi qadimgi turkiy tillar bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar ham ko‘pligini tasdiqlaydi. Ushbu nomlar ilk o‘rta asrlardagi tarixiy yozma manbalarida qayd qilinmagan bo‘lsa ham, ammo ular qadimgi turkiy tillar negizida shakllanganligini inobatga olib, turkiy toponimlar mintaqa toponimiyasida ancha qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan degan xulosaga

kelish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, yuqorida bayon qilingan etimologiyalar uzul - kesil o‘z yechimini topgan deyish qiyin. Ammo, shubhasiz kelajakda O‘zbekiston, jumladan Jizzax viloyati qadimgi turkiy toponimiyasini tadqiq etish jarayonida muayyan qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar kiritiladi va taklif qilingan etimologiyalar o‘z tasdig‘ini topadi. Shu bilan birga qayd qilish kerakki, hali ma’no-mazmuni aniqlanmagan yoki mavhum bo‘lgan geografik nomlar mintaqa toponimiyasi tarkibida ko‘plab topiladi. Ular kelajakda tadqiqotchilar tomonidan turkiy tillar asosida har tomonlama o‘rganilib etimologiyasi aniqlanadi. Mintaqa toponimiyasi tarkibidagi ayrim genezisi aniqlamnmagan, shubhali, bahstalab toponimlarni hisobga olmagan taqdirda ham, son jihatdan turkiy toponimlar katta ustunlikga ega ekanligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi.

Jizzax viloyati oronimlari va gidronimlari. Viloyatning tog‘li hududlarida oronim yoki gidronim sifatida shakllangan nomlarning oykonimga o‘tishi ko‘proq kuzatiladi. Bunday joy nomlari tarkibida tosh, tog‘, bel, dovon, ag‘ba, chaqir, tangi, soy, buloq, chashma, quduq kabigeografik terminlar ko‘p uchraydi. Suv havzalari nafaqat cho‘l, balki tog‘ oldi va tog‘li hududlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular inson faoliyati va hayotida katta ijtimoiy, moddiy ahamiyatga ega bo‘lganligi bois tog‘li hududlardagi aholi punktlari nomlari orasida azaldan alohida maqomga ega.

Gidroobyektlarning mahalliy aholi hayotida naqadar muhim ahamiyat kasb etganligini Varg‘in, Band, Darg‘at. G‘o‘lba, Koriz kabi aholi punktlari nomidan ham ilg‘ab olish mumkin. Masalan, Varg‘- qadimiy sug‘d tilida «to‘g‘on», «band» ma’nosini ifodalagan. Qishloq - to‘g‘on, band yonida jovlashganligi sababli unga shunday nom berilgan.

Viloyatda boshqa hududlarda kam uchraydigan va joy nomining turidan darak beruvchi baraz — (Takabaraz), beles - (Belesmozor), zayak - (Oqzayak), aydar - (Aydarko‘l), zov - (Zovqo‘ton), tangi - (Chortangi), chag‘at - (Qizilchag‘at), jo‘na - (Suluvjo‘na), g‘o‘l - (Jillig‘o‘li) kabi indikator terminlar mavjud.

Viloyat toponimiyasiga aloqador bo‘lgan eng qadimiy ma’lumotlar ikki ming yildan ko‘proq tarixga ega bo‘lgan yozma manbalarda uchraydi. Viloyatdagi tarixiy

toponimlarining shakllanishida sharqiy eroniy tillar (so‘g‘dcha. fors-tojik) muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi kunda viloyat toponimiyasida turkiy (o‘zbekcha) qatlam alohida o‘ringa ega. U barcha avvalgi toponomik qatlamlar ustida joylashganligi, eng baquvvat qatlam ekanligi va hududning hamma joyida keng tarqalganligi bilan alohida ajralib turadi.

Viloyatda hozirgacha aniqlangan joy nomlarining eng quyi qatlami milodiy yilning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ular qatoriga (Baxmal), Andagin, Porasht (Forish), Naxrach (G‘allaorol) kabi maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan substrat nomlarni kiritsa bo‘ladi. Qadimiy so‘g‘d tiliga mansub bu nomlar, ko‘pincha asl holda yoki qisman trasformatsiyalashib bizgacha yetib kelgan.

Viloyatda ruscha nomlarning paydo bo‘lishi XIX asrning oxirida Rossiya tamonidan O‘rta Osiyoni bosib olishi bilan bog‘liq. O‘sha davrda chor hukumati qarori bilan temir yo‘l o‘tkazilgan va temir yo‘l stansiyalarga Obruchevo (Dashtobod), Lomakino (Zarbdor), Milyutinskava (G‘allaorol), Bogarnoye (Lalmikor) kabi rasmiy nomiar bo‘lgan. Sobiq Sho‘rolar davrida viloyatda tub joy xalqqa yot bo‘lgan. o‘zga tilning qonun qoidalariga asoslangan Rassvet, Parts’ezd, Ulyanovo, Kommuna, Ivanovskiy kabi “qizil" nomiar ko‘paydi.

O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida Jizzax cho‘li o‘zlashtirildi va ko‘plab yangi geografik obyektlar paydo bo‘ldi. Ularga hukmron mafkura va siyosat ta’sirida kommunistlar partiya va Sho‘rolar hokimiyatini tarannum etuvchi nomiar berildi. Kommunizm, Lenin. Marks, Engels. Oktabr kabi nomiar ko‘payib ketdi. O‘sha vaqtda yangi tashkil qilingan Arnasoy tumani hududidagi barcha aholi punktlariga sobiq Sho‘ro davlatining harbiy sarkardalari nomlari (Jukov, Timoshenko. Grechko, Rokossovskiy, Konev, Vasilevskiy va boshq.) berildi.

Oronimlar orasida “tog”, “tepa”, “jar” topoteminlari ko‘p uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko‘satadiki, joy dengiz sathidan balandlashgan sari tabiiy xususiyatlar bilan bog‘liq nomlar soni ortib boradi. Demak, toponimlarning shakllanishiga joyning dengiz sathidan mutlaq balandligi ancha ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, balandlik oshgan sari relef shakllari, gidrografik to‘r, joyning o‘ziga xos hayvonot dunyosi va o‘simliklarining turlitumanligi ham ortadi. Bu hol tabiiy xususiyatlar bilan bog‘liq

toponimlar salmog‘ining ortishiga ham olib keladi. Umuman olganda, Jizzax viloyati toponimiyasi boshqa mintaqalarga nisbatan oraliq maqeini egallaydi. Mavjud mahalliy shevalar toponimiyada ham o‘z aksini topgan.

Viloyatda boshqa hududlarda kam uchraydigan yoki uchramavdigan, joy nomining turidan darak beruvchi mahalliy indikator terminlar ko‘p.

Viloyatda o‘zbekcha toponimlar barcha avvalgi toponimik qatlamlarning ustida joylashgan, hudud bo‘ylab keng tarqalgan, eng baquvvat qatlam hisoblanadi.

14.5-§. Sirdaryo viloyati toponimiyasi. Viloyat hududi asosan cho‘l zonasida joylashgan. Maydoni janubdan shimoli-g‘arbga tomon pasayib boradigan to‘lqinsimon tekislikdan iborat. Mutaxassislarning aniqlashicha, suv obyektlari oz, tog‘ii-toshlar yo‘q, relefi asosan tekislik, tabiiy chegaralar bo‘lmagan hududda toponimlar soni ham kam bo‘ladi. Bu holat viloyat toponimiyasida o‘z aksini topgan.

Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida Mirzacho‘lni o‘zlashtirish bilan bog‘liq va bunyodkor xalqimizni qo‘lga kiritgan zafarlarini aks etgan nomlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun S.Qorayevning yozishicha, Oqoltin, Paxtazor, Paxtaobod, Paxtachi, Paxtadala kabi sun’iy nomlar “bayraq” qilib olingan. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan geografik obyektlarning nomiga qarab, mahalliy aholini qayerdan ko‘chib kelganlarini aniq bilsa bo‘ladi. Ular qatoriga Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Nurota, Zomin, Forish, Baxmal kabi nomlarni kiritish mumkin, Ularning har biri nomlarning “ko‘chish” qonuniyatiga ya’ni toponimik transomizatsiya hodisasiga misol bo‘ladi.

Viloyat hududida kam bo‘lsa ham tarixiy toponimlar uchraydi. Ularning asosiy qismi mintaqaning janubi-g‘arbiy tog‘oldi hududida joylashgan. Bunday nomlarga Xovos, Bovovut, Sardoba, Sho‘razak kabi nomlar misol bo‘ladi. Ular orasida Xovos nomi o‘zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida ajralib turadi. Xovos shahri avtomobil va temir yo‘l chorrahasida joylashgan.

O‘rta Osiyodagi eng kuchli shamollardan biri Xovos shamoli nomi bilan yuritiladi. Xovos qadimiy shahar, u dastlab X-asr arab geograf va sayyohlari Istahriy, Ibn Flavqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Hozirgi Xovos shahri 1899 yili chor Rossiyasi tomonidan Ursatevskaya temir yo‘l stansiyasi sifatida barpo

etilgan. Tuman 1955 yildan - 1966 yilgacha Boyovut. 1966 yildan - 1975 yilgacha Yangiyer tumani nomi bilan yuritilgan. Tuman hudiidi asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan, relefi notekis. Mutaxassislar tomonidan Xovos nomi turlicha talqin qilingan, ammo ular ishonarli emas va qo‘shimcha etimologik tadqiqotlar talab qiladi.

E'tibor berib qarasangiz, joy nomlari asrlar osha yashab, ko‘p hollarda o‘tmish “guvohlari” sifatida tarixiy voqea-hodisar haqida “hikoya qilib beradi”. So‘nggi vaqtlarda, Xovos so‘zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan aniqlandi. Bobiiriylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 – Agra, 1756 - Dehli) “Charog‘i hidoyat” lug‘atida mahalliy forsiy tilli xalq xavos - so‘zini avom, xizmatkor ma’nosida qo‘llashini ta’kidlagan.

Hozirgi o‘zbek tilida avom so‘zi (arabcha) quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi: birinchisi, omma, barcha kishilar, oddiy xalq ma’nosini bildiradi; ikkinchisi. ba’zan o‘qimagan, bilimsiz kishi ma’nosida ham ishlatilgan. Bu talqin qanchalik haqiqatga yaqinligini vaqt ko‘rsatadi.

Viloyat oykonimlari arasida kam bo‘lsa ham ayrim etnooykonimlar uchraydi. Boyovut, Mirishkor, Nayman. Puchug‘oy, Uvoq, Tojikovul. Turkovul kabi aholi punktlari nomlari etnooykonimlarga misol bo‘ladi. Tuman nomi bo‘lgan Boyovut viloyat hududidagi kam sonli etnonimlardan biridir. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida. Mirzacho‘lning janubida joylashgan.

Tuman nomiga aylangan boyovut - O‘zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan turkiy urug‘lardan birining nomi. Rashiddinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabililar orasida boyovut urug‘i tilga olingan. Mutaxassislarning yozishicha, boyovut so‘zi –“boy”, “boylar” degan ma’nolarni anglatadi. Qozoqlaming arg‘in qabilasi tarkibida ham bayaut urug‘i qayd qilingan. Ba’zi mutaxassislar, jumladan, boshqird etnolog olimi R.G.Kuzeyev boyovut bilan bavot aslida bir qabila deb hisoblaydi.

Rashiddinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo‘lgan va bir necha tarmoqqa bo‘lingan. XIII-XIV asrlarda boyovutlarning katta bir qismi o‘zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Ayrim qo‘lyozma nasabnomalarda boyovut qadimiy 92 bovli o‘zbek urug‘larining biri sifatida ko‘rsatilgan.

Boyovut so‘zining kelib chiqish tarixiga oid rivoyatlarga asoslangan boshqa talqinlar ham bor. Masalan, rivoyatlardan birida qadimda bu yer otlarga boy bo‘lgan va “otga boy”, “boy ot” so‘zlaridan kelib chiqqan deyilsa, boshqa rivoyatda bu yerlar o‘tga boy jovlar bo‘lgan, boyovut - “boy o‘t" so‘zidan kelib chiqqan deyiladi. XVI asrda yashagan farg‘onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu-at-tavorix” asarida boyovut 92 bovli o‘zbek urug‘laridan biri sifatida qayd qilingan.

Sirdaryo viloyati hududining asosiy qismini egallagan tekislik Mirzacho‘I deb ataladi. Mirzacho‘l - O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar (Qazog‘iston, Tojikiston) hududidagi tekislik nomi. Mirzacho‘l so‘zini taniqli o‘zbek toponimist olimi H.Hasanov shunday izohlagan: “Mirzacho‘l - ruschada boshqa nom olgaty. Yujnaya Golodnaya step (“Yalang dala"), Severnaya Golodnaya step Qozog‘iston hududida bo‘lib, Betpakdala deyiladi. Mirzacho‘l turlicha izohlab kelinmoqda, bu nom bir Mirzaning ismidan olingan degan fikr ham bor. Agar bu nomga marza va marzak so‘zlari asos qilib olingan bo‘lsa, mantiqli izoh tug‘iladi; masalan; “Qizilqum chekkasidagi kichik cho‘l”, marza – “chekkadagi yer”; arabcha marzak – “kichik” so‘ziga dahldor”.

Boshqa taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha. XVI asrgacha bu hudud Jizzax - Chinoz cho‘li deb atalgan. XVI asr oxirida hukm surgan Buxoro xoni - Abdullaxon dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-tijorat ishlarini, umuinan obodonchilik ishlarini ancha avj oldirgan. U o‘z amaldori - mirzosiga Jizzax - Chinoz orasidagi cho‘lda karvonsaroylar, ravotlar, machitlar, sardobalar qurdirgan.

Hozirgi Jizzax viloyati hududidagi Tuyatortar kanali qazilib, cho‘lning janubiy va markaziy qismlarida katta maydonlarga suv chiqarilgan. Jizzax - Chinoz cho‘lida bir qancha irrigatsiya ishootlari ham qurilib dehqonchilik birmuncha rivojlangan.

Ana shu davrdan, 1583-1598 yillardan e'tiboran Jizzax - Chinoz cho‘li Mirzoning cho‘li (Mirzacho‘l) deb atala boshlagan.

Soha mutaxassislari orasida Mirzacho‘l nomining ilk shakli Marzacho‘l bo‘lgan. keyinchalik xalq talafluzida Mirzacho‘l bo‘lib o‘zgargan, degan talqinlar ham bor. Masalan, P.G‘ulomovning yozishicha, marza - relef shakli, tepasi qabariq shakldagi uzun cho‘zilgan balandlik. Marzalar tektonik yo‘l bilan hosil bo‘lshi, daryo, dengiz to‘lqini keltirgan qumlardan vujudga kelishi. morena jinslarining to‘planishidan paydo bo‘lishı kishilar tomonidan bunyod etilishi mumkin.

Ayrim mutaxassislar Mirzacho‘l so‘zining kelib chiqishi Mirzo Ulug‘bekning mamlakatda olib borgan obodonchilik ishlari bilan bog‘liq, cho‘l nomidagi Mirza so‘zi Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq deb hisoblaydilar. Mirza so‘zining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu so‘z mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan.

Vilovatdagi suv obyektlaridan nom olgan aholi punktlaridan Sayxunobod va Sho‘razak kabi nomlar diqqatga sazovor. Sho‘razak - o‘zak jarlik, chuqurlikdagi jilg‘a. Suyun Qorayev o‘zak so‘zi qadimiy turkiy tildagi o‘kuz – “daryo”, ak – “kichik”, ya’ni daryocha so‘zining o‘zgargan shakli deb hisoblaydi. Mirzacho‘lda o‘zak suv jildirabgina oqib turgan jilg‘a, sho‘razak - sho‘r suvli jilg‘acha.

Vilovatdagi antropotoponimlar orasida Usmonobod nomini izohlash maqsadga muvofiq. Aholi punkti mashhur davlat va siyosat arbobi Usmon Yusupov (1900-1966) nomi bilan atalgan. Usmon Yusupov 1937-1950 yillari O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimida ishlagan. 1953-1955 yillari O‘zbekiston Ministrlar Soveti raisi bo‘lgan.

1955-1960 yillari Boyovut tumanidagi Boyovut xo‘jaligida director bo‘lib ishlagan. U.Yusupov respublika rahbari bo‘lgan yillarda xalq hashari yo‘li bilan yirik suv inshootlari Katta Farg‘ona kanali va Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyati toponimiyasi boshqa mintaqalardan katta farq qiladi. Viloyatda toponimlar soni nisbatan kam, ularning asosiy qismini Mirzachoini o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq “sun'iy” nomlar tashkil qiladi. Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda butun respublika qatnashgan, uni viloyat toponimlari tarkibidagi ko‘chma nomlardan bilsa bo‘ladi.

Sirdaryo gidronimi haqida. Sirdaryo - o‘tmishda turli nomlar bilan atalgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida Yaxartes (Yaksart), ba’zan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” da Danu, Yaosha, xitoy transkripsiyasida Yaosha, X-asrda yozilgan geografik asar “Hudud ul-olam” kitobida Xashart, runiy (turkiy) yozuvlarda Yenchuo‘g‘iz, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” sida va Hamdulloh Qazviniyning “Nuzhat ul-qulub” asarida Gulzarriyun, arablar kelgandan keyingi ko‘pgina solnomalarda Sayxun deb tilga olingan.

Arab geogratlaridan Ibn Xurdodbeh asarlarida (IX-X asrlar) Xashart va Qanqar, Abu Rayhon Beruniy asarlarida Xasart shakllarida qayd qilingan. Ayni vaqtda, daryo qaysi hududdan oqib o‘tishiga qarab Obi Farg‘ona (Farg‘ona suvi), O‘zgan daryos, Obi Hujand (Hujand suvi), Nahr ash-Shosh (Shosh daryosi). Banokat daryosi kabi nomlar bilan ham atalgan.

Hozirgi Sirdaryo nomi qachon paydo bo‘lganligi haqida Suyun Qorayev shunday yozgan: “Rim tarixchisi Pliniy (milodiy I asr) daryoni skiflar (saklar) Silis deydilar. Ba’zi olimlar Silis - Sir so‘zining o‘zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq o‘rta va yuqori oqimida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan”.

Ta’kidlash joizki, sir – “rang, buyoq” , “sariq daryo”, “serob daryo”, “sirt daryo” degan ma’noni bildiradi degan xulosani noto‘g‘ri ekanligini H.Hasanov alohida ta’kidlagan. Shu bilan birga, S.Qorayevning "bu azim daryo shu atroflarda yashagan sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish aneha haqiqatga yaqin”, degan fikriga ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Demak, daryo nomi qanday ma’noga ega degan savol hozirgacha javobsiz qolmoqda.

Ma’lumki O‘rta Osiyo sharoitida azaldan inson suv manbalarga vaqin joyni o‘ziga yashash makoni sifatida tanlagan. Chunki suv obycktlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Binobarin suv obyektlarini bildiruvchi nomlar sekin - asta ular yashagan joylarni, maskanlarni ham iloda etgan. Gidronimlarning boshqa geografik obyektlarga nom bo‘lib o‘tishi hodisasi bor havotiy voqelik sanaladi.

Savol va topshiriqlur:

1. Samarqand toponimining paydo bo‘lish tarixi haqida tahliliy matin tayyorlang.

2. Jizzax toponimining paydo bo‘lish tarixi haqida tahliliy matin tayyorlang.

3. Samarqand viloyati toponindari tarkibida so‘g‘diy nomlarning ko'pligi sababini izohlang.

4. Jizzax viloyati hududidan boshqa joylarda kam uchraydigan indikator terminlar haqida yozma ma 'lumot to‘plang.

5. Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida “sun'iy” nomlarning ko‘payishiga qanday omillar ta’sir ko'rsatgan?

6. Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyat toponimlarining o‘zaro farqlovchi jihatlarini qiyosiy tahlil qiling.

15-Mavzu. Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari toponimiyasi.

Reja:

15.1-§. *Farg‘ana toponimining etimologiyasi.*

15.2-§. *Farg‘ana viloyati toponimiyasi.*

15.3-§. *Namangan viloyati toponimiyasi.*

15.4-§. *Namangan toponimining etimologiyasi va tarixi.*

15.5-§. *Andijon toponimi va uning etimologik tavsifi.*

15.6-§. *Andijon viloyati toponimiyasi.*

Tayanch ibora va atamalar: etnik tarkib, qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha, parkona, namakkon, arashan, andigon, qur’a (chek), tepa.

15.1-§. Farg‘ona toponimining etimologiyasi haqida. Farg‘ona toponimi haqida ma’lumotlar turkiy va boshqa xalqlar leksikasida qadimdan mavjud bo‘lib, bu so‘z Zahiriddin Muhammad Bobo‘rning mashhur “Boburnoma” asarida keltirilgan, ammo uning lug‘aviy ma’nosi ko‘rsatilmagan. Farg‘ona so‘zi asli forscha bo‘lib, juda qadimgi davrda Gerodot asarlarida ham qo‘llanilgan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “tog‘lar o‘rtasida joylashgan vodiy” ma’nosini bildiradi. Farg‘ona so‘zi asli eron-afg‘on tili dialektlarida “Parg‘ona” skif qabilalarida esa “Pariqan” tarzida qo‘llangan. Farg‘ona so‘zi urdu tilida “Pargana”shaklida uchrab, viloyatning bir bo‘lagi, bir necha qishloqni o‘z ichiga olgan hudud ma’nosini bildiradi. Tarixiy asarlarni kuzatish orqali Farg‘ona nomining yana boshqa ko‘plab joylarda uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan: qadimda Farg‘ona Samarqand va Chin o‘rtasida joylashgan shahar, Kalkuttaga yaqin joyda joylashgan hududga nisbatan ham aytilgan. Farg‘ona so‘zi ham forscha “Parigo‘zal, xona-uy” bo‘lib, “Parixona – go‘zallar uyi” deb ko‘rsatilsa, ayrimlar uning ma’nosi Uzum – tokni yerga ko‘mish bilan uni boshqa joyga olib o‘tish, ya’ni parxish qilish (shevada parxona qilish), shahar va tumanning uzumzor, tokzor bo‘lganligi uchun nisbat berilgan deb aytadilar. Farg‘ona so‘zining turli etimologiyalariga tayangan holda shunday xulosa chiqarildi, u forscha so‘zdan olingan bo‘lib, chiroyli, go‘zal joy, go‘zal maskan degan ma’noni bildiradi. Hozirda Farg‘ona so‘zining asl forsiy variant Parg‘ona hozir ham to‘liq saqlangan, sheva vakillari tilida buni kuzatish mumkin. Bugun

Farg‘ona turkiy xalqlarda turlicha talaffuz qilinadi. Qozoq tilida Fergana, qirg‘iz tilida Ferg‘ana, tatar tilida Firg‘ana, urdu tilida Pargana, uyg‘ur tilida Parig‘ana va h.z

Farg‘ona juda qadimiy nomlardan biri. V.V. Bartold ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi Farg‘ona shahrining qurilishi 1877 yili boshlangan. Shahar 1907 yilgacha Yangi Marg‘ilon (mahalliy xalq orasida Sim) deb atalgan. 1907-1924 yillarda podsho Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishda va keyingi yillarda ko‘plab qirg‘inbarotlar uyushtirgan generali M.D. Skoblev sharafiga shaharga Skoblevo (mahalliy aholi talaffuzida Iskobil) nomi berilgan.

1924 yili shaharga juda qadimiy tarixga ega bo‘lgan Farg‘ona nomi berilgan. Taniqli nomshunos olim H.Hasanov Farg‘ona so‘zining etimologiyasiga oid o‘ndan ortiq talqinni keltirgan va ularning birontasini ham qatiy izoh deb hisoblamagan.

Mutaxassislar ular orasidan qadimiy so‘g‘d tiliga tegishli bo‘lgan parkona – “har tarafi tog‘, bir vog‘igina ochiq bo‘lgan vodiy”, “atrofi berk vodiy” so‘zini haqiqatga yaqin deb hisoblashadi. Bu talqin vodiyning geografik o‘rnini aniq belgilashi bilan ham diqqatga sazovor.

Tarixchi A. Xodjayev milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy manbalaridagi ma’lumotlarni chuqur o‘rganib qadimiy Farg‘ona mamlakati bilan uning ilk poytaxtining nomi bir xil bo‘lganligi va ular xitoycha atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan tekislik ma’nosini bildiruvchi bitta Yuan iyeroglifi bilan ifodalanganligini aniqlagan. Olimning yozishicha, chalkashliklarning oldini olish maqsadida qadimdigi xitoy tarixchi lari mamlakat nomiga day - "buyuk, katta" so‘zini qo‘shish orkali uni Dayyuan - Buyuk Farg‘ona yoki Katta Parkona deb atashgan.

Qadimgi xitoy tarixiy manbalarini o‘rgangan rus olimi N.Ya. Bichurin Dayyuan toponimini ruscha transkripsiyada ”Davan” shaklida yozgan va uni Farg‘ona ekanligini yaxshi bilgan. Rus olimi o‘z tarjimalarida Davan so‘zini Farg‘ona vodiysining qadimiy xitoy manbalaridagi nomi sifatida qo‘llagan bo‘lsa ham, ammo uning ma’nosi va kelib chiqishi haqida ma’lumot bermagan. Dayyuan toponimining paydo bo‘lishi va etimologiyasi keyincha Yevropa olim larini ham

qiziqtirgan. X V III asrda yashagan fransuz olim M. Degin birinchi bo‘lib uning Farg‘ona nomi bilan bog‘liqligini aniqlagan.

O‘zbek olimi A.Xodjayevning yozishicha, Dayyuan toponimini birinchi bo‘lib Xan sulolasing elchisi Chjan Chyanning hisobotnomasi orqali xitoy manbalarida paydo bo‘lgan. Faqat milodiy VII - asrdan keyin yozilgan xitoy manbalarida Farg‘ona nomi Faxanna shaklida tilga olingan.

Mutaxassislar Faxanna - Farg‘ona toponimining xitoycha transkripsiyasi ekanligini aniqlashgan. Demak, milodiy VII - asrdan keyin qadimiy Parkona nomi Farg‘onaga aylangan.

A.Xodjayev mantiqiy tahlil asosida Dayyuan toponimi, aslida Parkona so‘zining xitoycha tarjimasi ekanligini aniqlashga mo‘sharraf bo‘lgan. Olim fikrining isboti uchun quyidagi ma’lumotlarni dalil sifatida bayon qilgan:

- birinchidan, qadimgi xitoyda “yuan” iyeroglifi ko‘pincha atrofi balandlik yoki tog‘lar bilan o‘ralgan, relef shakli kosasimon hududga nisbatan qo‘llanilgan. Farg‘ona vodiysi aynan shunday relefga ega ekanligi, bu fikrni tasdiqlaydi. O‘sha davrda Xitoydan kelgan sayyohlar ham Farg‘ona vodiysining geografik o‘rniga alohida e’tibor berishgan. Masalan, 629-646 yillari O‘rta Osiyo orqali Hindistonga borgan xitoy budda rohibi Shyuan Zang kundaligida Farg‘onani to‘rt tomoni tog‘lar bilan o‘ralgan deb yozgan.

- ikkinchidan, atoqli geograf olim S.Qorayev - V.A.Livshits va M.Isxakov tadqiqotlariga ishora qilib, Parkona toponimi par – “aylanma shaklidagi balandlik”. kan - “joy” ma’nosi borligi va hozirgi Farg‘ona nomi ana shu ikki so‘zdan tashkil topganligini aytgan. Rus geograf olim E.Murzayevning yozishicha, “pargona”

so‘zi pomir tillarida hozir ham atrofi balandliklar bilan o‘ralgan tckislik joy ma’nosini anglatadi. Ma’lumki. ayrim shevalarda ***“f”*** bilan ***“p”*** tovushi almashtirib talaffuz qilinadi. Masalan, Farg‘onani Parg‘ona shaklida talaffuz qilish tez-tez uchrab turadi.

Xitoy olimi Shyuy Shyuyyaning yozishicha, sharqiy eroniy tillarda Pargona so‘zi – “atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan va faqat bir tomoni ochiq bo‘lgan joy”

ma’nosida qo‘llanilgan. Arablar kelganidan keyin ularning tili xususiyatlariga ko‘ra “p” tovushi “f”ga o‘zgarib, Pargona nomi Farg‘ona deb talaffuz qilingan.

A.Xo‘jayevning yozishicha, xitoylarning yana bir e’tiborga molik odati - bu qadimdan o‘zgalar yurtidagi nomlarni xitoychaga tarjima qilib olganlar. Miloddan avvalgi 128-127-yillarda Farg‘onaga kelgan xitoy elchisi Chjang Chyan vodiy nomi bo‘lgan Pargona so‘zini tarjima qilib, kundaligiga uning xitoycha sinonimi Yuan so‘zini vodiy nomi sifatida yozib qoldirgan. Hozirgi xitoy tilida ushbu iyeroglif ro‘zg‘or buyumi bo‘lgan kosa ma’nosini ifodalaydi.

Yuqorida bayon qilingan flkrlardan quyidagi xulosa kelib chiqadi, xitoycha “Yuan” atamasi mahalliy xalq qo‘llab kelgan Parkona toponimining xitoycha tarjimasi hisoblanadi. Demak, qadim zamonda geografik joylashuviga ko‘ra, atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan, o‘rta sathi tekis va nisbatan pastroq vodiyni mahalliy xalq “parkona” deyishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Farg‘ona vodiysining geografik o‘rnini juda aniqlik bilan tasvirlagan: “Girdo girdi tog‘ voqe’ bo‘lubtur. G‘arbiy tarafldakim...tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘i kela olmas”.

15.2-§. Farg‘ona viloyati toponimiyasi. O‘zbekistonning qadimiy madaniyat o‘chog‘laridan biri bo‘lgan Farg‘ona viloyati hududi asosan tekisliklardan iborat. Binobarin, oronimlar va gidronimlar soni nisbatan kamroq uchraydi. Shuning uchun, viloyat toponimiyasini o‘rganishda aholi punktlari nomi - oykonimlarga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, aholi soni jihatidan ham, viloyat respublikada yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Demak, aholi zich joy lashgan hududda oykonimlarning soni ham ko‘p bo‘ladi.

Taniqli geograf olim Yu.Ahmadaliyev viloyat oykonimlarini ikki yirik guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qilgan: tabiiy geografik omillar va iqtisodiy-ijtim oiy omillar asosida shakllangan oykonimlar. Olim tabiiy geografik omillar asosida shakllangan oykonimlar qatoriga gidrooykonimlar, orooykonimlar, fitooykonimlar va zoooykonimlarni kiritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar guruhiga antropooykonimlar.

Etnooykonimlar, savdo, transport va diniy e’tiqodlar hamda kasb-hunar turlari bilan bog‘liq oykonim larni kiritgan.

Farg‘ona viloyati toponimiyasi boshqa viloyatlardan geografik obyektlarni nomlashda asos bo‘lgan tabiati, tarixi, aholisining etnik va lisoniy tarkibi ko‘ra qisman bo‘lsa ham farq qiladi.

Viloyat toponimiyasining farqlovchi xususiyatlaridan biri shuki, geografik joy nomlari tarkibida urug‘- qabila nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan etnotoponimlar nisbatan kam. “Farg‘ona viloyati toponimlari” nomli qo‘llanma muallifi

Yu. Ahmadaliyevning yozishicha, aholi punktlari nomlari orasida etnotoponimlar kam bo‘lsa ham qipchoq, nayman, kenagas, do‘rmon, jaloyir, qatag‘on kabi urug‘-qabila nomlari saqlanib qolgan.

Farg‘ona viloyati toponimlarining tuzilishi, tarkibi, yasalishini chuqur o‘rgangan olim N. Oxunov, viloyat oykonimlarini tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘lgan: sodda va qo‘shma. Sodda nomlar tarkibida -chi (Sandiqchi), -li (Yong‘oqli), -liq (Quduqliq), -lik (Misgarlik), -obod (Amirobod). -zor (Bodomzor) singari topoformantlar qatnashadi. Olimning yozishicha, sodda nomlarning bir qismi tub so‘zlar, asosiy qismi esa yasama so‘zlarning toponimlashuvi bilan vujudga kelgan.

Qo‘shma nomlar asosan sintaktik-leksik usul vositasida yasalgan. Viloyatdagi qo‘shma nomlarning asosiy qismini ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan. Qo‘shtepa, Oltiariq, Turkravot, Kattaqo‘rg‘oncha kabi qo‘shma nomlar misol bo‘ladi. Ba’zi bir oykonimik terminlar mintaqada joy nomlari yasashga ixtisoslashgan. Qo‘rg‘oncha, chek, oyim kabi terminlar boshqa hududlarda geografik nomlar tarkibida deyarli uchramaydi.

Professor Suyun Qorayev chek so‘zini vodiv viloyatlarida bir necha ma’noni anglatishini aniqlagan: a) bir tanobni uchdan bir qismi; b) jamoa yerlari taqsimlanayotganda qur'a (chek) tashlash vaqtida yutilgan yer maydoni; v) xon yerlaridan olinadigan ulush; g) xonning o‘g‘li, bek va boshqa amaldorlarning chek yeri (cheki xos); d) bir paykal sholipova. Yusufxo‘jachek, Qo‘shchek, Yuziyachek, Cheki Nasriddin va boshqalar chek komponentli toponimlarga misol bo‘ladi.

Viloyat toponimiyasi tarkibida qadimiy va hozirgacha etimologiyasi noma'lum qolayotgan, va qo‘shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladigan nomlarni ham uchratish mumkin. Ulardan biri Quva oykonimi hisoblanadi. Quva so‘zi dastlab muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" da, so‘ngra arab geograflari Istahriy, Ihn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Qubo shaklida tilga olingan. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko‘ra, o‘rta asrlarda Qubo shahri alohida viloyatning markazi bo‘lgan va Farg‘ona vodiysida Axsikatdan keyin, ikkinchi yirik shahar hisoblangan.

Quva shahrning paydo bo‘lishi va uning nomi haqida turli rivovatlar mavjud. "Farg‘ona tarixi" asarining muallifi Is'hoqxon Ibratning yozishicha. Quva qadimda Qubod (yoki Qubo) deb atalib, keyinchalik Quva shaklini olgan. Tarixchi Abduxoliq Abdurasul o‘g‘li ma'lumotiariga ko‘ra, Quva va Davan davlati to‘g‘risida dastlabki ma' lumotlar miloddan avvalgi ikkinchi asrga mansub Xitoy manbalarida keltirilgan. Olimning yozishicha, o‘sha davrda Quva kengayib ko‘handiz, shahrislon va rabod kabi uch qismdan iborat bo‘lgan.

Islom dini tarqalishidan oldin Quvada budda ibodatxonasi bo‘lgan. Ibodatxona VIII asr boshlarida arablar tomonidan vayron qilingan. IX-XII asrlar davomida Quva yirik, ko‘rkam va obod shaharga aylangan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida shahar yer bilan yakson qilingan. Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asariga ilova qilingan xaritada shahar ko‘rsatilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur shaharda bo‘lgan. "Boburnoma" da Quvasoyni - Qubo suvi nomi bilan tilga olgan.

Akademik A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi "Qaviybod", "Qavobod", yoki "Qaybod" shaklida talaffuz qilingan va qaviylarning qarorgohiö tojdor hukmdorning kayoniy taxti o‘rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri - poytaxt ma'nosini anglatgan. Keyinchalik nom o‘zgarib Quva shaklida talaffuz qilingan.

Ba'zi mutaxassislar, o‘zbeklarning qipchoq va qo‘ng‘irot qabilalari hamda qirg‘izlarning cherik qabilasi tarkibida quba (quva) urug‘i borligiga ishora qilib, shahar nomiga etnonim asos bo‘lgan deyishadi. Masalan, ozarboyjonlik A.Guseynzade Ozarboyjondagi Quba, Qubali, Qubaderesi, Turkmanistondagi Qubadog‘, O‘zbekistondagi Quva kabi toponimlar quba etnonimidan nom olgan deb

yozgan. Xulosa qilib aytganda, shahar nomining turlicha izohlari mavjud, ammo ularning barchasi ilmiy etimologik tahlilga muhtoj desak to‘g‘ri bo‘ladi.

15.3-§. Namangan viloyati toponimiyasi. Namangan viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941-yil 11-martda tashkil etilgan (1960-yil 25-yanvarda Andijon va Farg‘ona viloyatlari tarkibiga qo‘shib yuborilgan. 1967-yil 18-dekabrda qayta tashkil etildi). Namangan viloyati respublikaning sharqida, Farg‘ona vodiysining shimoli-g‘arbiy qismida, Tyanshan tog‘ tizmasi tarmoqlari Qurama va Chatqol tog‘larining yon bag‘rida joylashgan. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-sharqdan Andijon, janubidan Farg‘ona, shimoliy va shimoli-g‘arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug‘d viloyati bilan chegaradosh.

Is’hoqxon Ibratning “Farg‘ona tarixi” asari Namangan viloyati qadimiy joylariga oid tarixiy manbalardan biridir. Namangan viloyati hududi eng qadimgi aholi yashagan va joylashgan maskanlardan biri hisoblanadi. Aholining o‘troq hayot kechirishi va dastlabki sug‘orma dehqonchilik to‘g‘risidagi ma’lumotlar miloddan avvalgi VI-VII asrlarga borib taqaladi. Bu vaqtlarda Farg‘ona vodiysida siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markaz rolini Koson shahri (hozirgi Kosonsoy) o‘ynagan. Eramizning birinchi asridan boshlab Farg‘ona Buyuk Qushon imperiyasi tarkibiga kirgan va uning markazi Koson shahri bo‘lgan. Rus istilolari va sho‘rolar davrida ham viloyat chegaralari, tumanlari soni bir necha bor o‘zgargan. Jumladan, 1920-yillardagi ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda uezd, pristavlik, volost, qishloq va ovul jamoalari bo‘lgan. Namangan uezdi Farg‘ona viloyati tarkibidagi muhim ahamiyatga ega hudud hisoblanib, 1925-yilgi ma’lumotlarga qaraganda quyidagi volostlar (bo‘lislar)ni o‘z ichiga olgan: Olmos, Axsi – Shaxand, Asht, Bobodarxon, Varzik, Koson, Kapa, Qirg‘izqo‘rg‘on, Nanay, Pop, Pishqaron, Tergachi, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Xonobod, Chodak, Chortoq, Chust va Yangiqo‘rg‘on.

Viloyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan Namangan uezdi dastlab 26 ta volost, 131 ta qishloq jamoalariga bo‘lingan. 1897-yili unga Chust uezdi ham birlashtirilib, Namangan uezdi tarkibidagi volostlar soni 29 taga, qishloq jamoalari esa 151 taga yetdi.

1924 yilga oid arxiv hujjatida ko‘rsatilishicha ular quyidagilar edi: Arim, Qiziljar, Qirqugul, Saroy, Susamir, Mustur, Chotqol, Qutlug‘ Said, Bag‘ish, Boyaston, Olmos, AxsiShahand, Asht, Bobodarxon, Varzik, Koson, Kapa, Qirg‘izqo‘rg‘on, Nanay, Pop, Pishqo‘rg‘on, Tergachi, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Xonobod, Chodak, Chust, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on kabi. Dalillardan ko‘rinadiki, yirik ma’muriy hududlar, ayni o‘tmishdagi volost va uezdlar, hozirdagi viloyat va tuman aholi maskanlari: qishloq va shaharlarning nomlari bilan atalgan. Chunonchi, hozirda Namangan viloyatining 11 ta tumanidan 9 tasi oykonimlar bilan atalgan: Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on, Kosonsoy, Chust, Namangan, Uchqo‘rg‘on kabi. Bu toponimiyada keng tarqalgan holat. Yurtimiz toponimiyasida, xususan, Namangan viloyati oykonimiyasida an’ana mavjud. Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari aynan vodiy tarixiga bag‘ishlanganligi, o‘zida keng ko‘lamli materiallarni jamlaganligi bilan tarixiy va ilmiy nuqtai nazardan diqqatga molik. Shu bois “Tarixi Farg‘ona” asari Farg‘ona vodiysi, xususan, Namangan viloyati tarixiy toponimiyasini o‘rganishda ham alohida ahamiyatga ega. Asarning “Ta’rixi Namangon” nomli bobida Namangan polisonimi, Sardoba, Labbaytog‘a, Degrezlik, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on kabi oykonimlar xususida tarixiy nuqtai nazardan fikr yuritilgan.

S.Qorayevning yozishicha, Namangan viloyati toponimiyasining ichki xususiyatlaridan biri shuki, joy nomlari tarkibida qo‘rg‘on va qo‘rg‘oncha so‘zlari ko‘p uchraydi. Olimning ta’kidlashicha, yer sathidan ko‘tarilgan joyda tevaragi devor bilan o‘rab olingan, darvozali qal'a, istehkomni qo‘rg‘on deyishgan.

Ta’kidlash joizki, qo‘rg‘on qurish xalqimizning o‘troq hayotga ko‘chish ma’naviyati va shaharsozlik qadriyatlari bilan bog‘liq. Dasilab atrofi devor bilan o‘ralgan aylana, to‘rtburchak tarzidagi imorat qo‘rg‘on deyilgan. So‘ngra devorini baland, qalin, mustahkam va mahobatli, bir darvozali qilib qurishgan. Viloyat hududida takroriy nomlarni hisobga olmaganda qo‘rg‘on nomi 20 ta oykonim tarkibida uchraydi. Toshqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Xo‘jaqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on va boshqalar. Qo‘rg‘oncha - katta qishloq kengayib undan ajralib chiqqan kichikroq qishloqni qo‘rg‘oncha deyishgan.

Namangan viloyati toponimiyasi tarkibida hududga xos va joy nomlari yasashga "ixtisoslashgan" indikator terminlar ko‘p. Ana shunday darakchi - indikator terminlardan biri “-obod”. “Obod” - termini ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib, ba’zan mustaqil holda joy nomi yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, go‘zal, chiroyli, tartibga solingan ma’nosidagi affiks so‘z. Obod - asli ob – “suv” so‘zidan kelib chiqqan degan fikr mavjud. Zafarobod, Sohilobod, Xo‘jaobod, Yangiobod, Fayzobod va boshqalar. Zafarobod - g‘alabalar, yutuqlar, nuivaffaqiyatlar evaziga obod etilgan maskan, joy demakdir.

Viloyat oykonimlari tarkibida buloq, ariq, soy, ko‘prik, ravot, mazor, masjid, bog‘, bo‘ston, kapa, chek, tepa kabi terminlar ham uchraydi. Viloyat hududidagi relef shakllarini aks etuvchi Ungurtepa, Isiriqsoy, Qarovultepa. Betagalik kabi oronimlar izohsiz ham tushunarli bo‘lsa kerak. Hozirgi jonli tilda Qamchiq dovoni deb yuritilayotgan oronimik obyekt, respublika miqyosida alohida ahamiyatga ega. Mutaxassislar dovon nomiga kamtik, kemiik so‘zi asos bo‘lgan deb hisobiaydilar.

Viloyat toponimiyasi tarkibida oronimlarga nisbatan gidronimlar soni ko‘proq. Ko‘pchilik suv obyektlarning nomlari izohga muhtoj emas, ularni hozirgi o‘zbek tili yordamida tushunsa bo‘ladi. Ammo, gidronimlar orasida alohida e’tiborni talab qiladigan nomlar ham bor. Arashon gidronimi ana shunday diqqatga sazovor nomlar sirasiga kiradi. Arashon so‘zini P.G‘ulomov “issiq suvli mineral buloq. Hozir asosan geografik nomlar tarkibida saqlanib qolgan” deb ta’rillagan.

Mutaxassislar, arashan, arshan, arason shaklida uchraydigan bu terminning geografiyasi ancha kengligini aniqlashgan. O‘rta Osiyodan Uzoq Sharqqacha, Sharqiy Sibirdan Tibetgacha bo‘lgan katta hududda tarqalgan. Sanskrit tilida – “obi hayot”, “xudolar ozig‘i” ma’nosini anglatadigan bu termin ko‘pincha shifobaxsh. issiq mineral suvlarga ega buloqlar ma’nosini anglatgan.

Viloyat toponimlari orasida etnotoponimlarning kamligi ham viloyat toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Hisob-kitoblarga ko‘ra, viloyat hududida 650 dan ko‘proq oykonimlar mavjud, ulardan faqat kirq beshtasi etnooykonimlar hisoblanadi. Demak, viloyatdagi jam i oykonimlarning taxminan

sakkiz foizini tashkil qiladi. Bu respublika viloyatlari orasida eng past ko‘rsatgich hisoblanadi. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi Qo‘g‘ay, Qoramurut, Qayqi, Yettiqashqa, Qurama, Nayman, Dumar kabi nomlar etnotoponimlarga yaqqol misol bo‘ladi.

Viloyatda qadimiy substrat nomlar ham uchraydi. ularning asosiy qismini sug‘d tiliga tegishli nomlar tashkil qiladi. Ana shunday qadimiy nomlarning biri Nanay. Suyun Qorayevning yozishicha, nanay juda qadimiy so‘z. Mesopotamiyada ilohni nomi Nanay (Nanayya, Nani) bo‘lgan deyishadi. Keyinchalik O‘rta Osiyo zardushtiylari uni unumdorlik xudosi deb tan olganlar. So‘g‘dda Nanidat degan ism ham bo‘lgan. Toshkent viloyatidagi Nanay qishlog‘ining nomi ham xuddi shunday ma’noga ega.

Chust qadimiy nomlardan biri, shahar o‘rta asrlarda harbiy qal’a sifatida rivojlandi. Bobo‘rning otasi Umarshayx Mirzo 1480 yilda Chustni o‘z qarorgohiga aylantirgan. XVI asr boshida Chust bir necha qo‘rg‘onlardan bo‘lib, ular umumiy devor bilan o‘ralgan. Chust shahar nomi sifatida paydo bo‘lgan, keyincha tumanga ham berilgan, nom ko‘chish hodisasi yuz bergan.

Shahar nomining kelib chiqishi to‘g‘risida mutaxassislar turlicha fikrlar bayon qilishgan. Tarixiy manbalardan shahar qadimdan Chust va Tus nomlari bilan ma’lum bo‘lganligi aniqlangan. Ko‘pchilik izohlar mahalliy xalq orasidagi rivoyat, afsona va taxminlarga asoslangan xalqona talqinlardir. Mahalliy toponimist olimlarning fikricha, chust so‘zi fors-tojik tilida “tez”, “tezkor” ma’nosini bildiradi. S.Qorayev chust so‘zini qandaydir termin bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Nomning asl ma’nosi aniq emas, u qo‘shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Chust shahri qadimdan Farg‘ona vodiysining hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lgan. Chustlik temirchilar, to‘quvchilar, kulollar, zargarlarning mahorati shuhrat qozongan, xususan, chust pichoqlari va do‘ppilarining dongi keng tarqalgan. Chust shahridagi Kulolon, Zargaron. Toqado‘zon, Bofanda, Pichoqchi kabi mahalla va guzar nomlari mahalliy xalqning kasb-hunari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

Umuman olganda, viloyat toponimiyasi ancha murakkab toponimik landshaftga ega. Viloyat toponimiyasi haqida toponimik adabiyotlarda, tarixiy

manbalarda, arxiv hujjatlarida ko‘plab ma’lumotlar topish mumkin. Shuning uchun. Hozirgacha etimologiyasi noma’lum bo‘lgan geografik nomlarning o‘rganish va ilmiy asosda tadqiq qilish yaqin kelajak ishidir.

15.4-§. Namangan toponimining etimologiyasi va tarixi. Namangan - Respublika tarkibidagi viloyat, shahar va tuman nomlari ham shunday ataladi. Namangan aholi soni bo‘yicha Farg‘ona vodiysida eng yirik shahar hisoblanadi. Namangan viloyati toponimikasi tarixiylik ahamiyati hozirgi davr tadqiqotchilari e’tibor markazida bo‘lib keladi. Muallifi noma’lum ilmiy manbalarda qisqacha “Hudud ul-olam” shaklida tanilgan “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib” (982-983) asari ham Namangan viloyati toponimikasining tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikat (Axsikent) 1620 yildagi qattiq zilzila natijasida vayron bo‘lganligi sababli, uning aholisi hozirgi Namangan shahri hududiga ko‘chib o‘tgan. Namangan tuz koni (“namak kon”) yaqinida vujudga kelgan bo‘lib, shahar nomi o‘rta asrlarga oid tarixiy hujjatlarda birinchi marta tilga olinadi”, deb yozilgan.

Taniqli toponimist olim H.Hasanov Namangan nomiga izoh berib shunday yozgan: Bu nom dastlab “Boburnoma” da tilga olingan bo‘lsa kerak. Unga bir qancha izoh berilmoqda: Namakkon – “tuz koni”; Nomiygan - “aziz va nomdor kishilar shahri”; Namang – “marjon”, shundan Namangan – “marjon koni”. Biz - gon formatini “suv, daryo” deb tahmin qilganimiz tufayli bu nomda ham Namakgon – “sho‘rsuv”, “mineral suv”, “moyli suv” (ehtimol neft) deb izohlaydi. Naman asosi biron etnonimga (nayman?) bog‘liq bo‘lib chiqishi ham ehtimol”.

Nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, nomga birinchi marta “Boburnoma” da ta’rif berilgan. Olim nomni quyidagi “nav+man+gon” so‘zlar birikmasidan paydo bo‘lgan deydi. Nav - “yangi”, man - “saroy", gon – “suv yoki soy” demakdir. S.Qorayev talqinida nomilgari Navmangon deb talaffuz qilingan va “suv (soy) bo‘yidagi yangi sarov” ma’nosini anglatadi. Mahalliy aholi tomonidan shahar nomi Nomongon shaklida talaffuz qilinadi.

Namangan nomining etimologiyasi haqida turli izohlar mavjud, ammo mutaxassislar orasida mushtarak xulosa yo‘q. Shuning uchun, nom qo‘shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

15.5-§. Andijon toponimi va uning etimologik tavsifi. 1. Boshqa bir rivoyatga ko‘ra, bu toponimning paydo bo‘lishi turkiyzabon “adok”, “azok” va “andi” etnoslari bilan bog‘liq. Afsonaga ko‘ra, qadimgi davrlarda bu hududlarda “Andn” qabilasi, ya’ni hindular yashagan va shuning uchun bu hudud “Andukan”, ya’ni “hindlarning boshpanasi” deb atala boshlagan.

Rivoyat va afsonalardan olinib, alohida mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan bu ma’lumotlar “Andijon” toponimining xalq etimologiyasini o‘rganishda ma’lum qiymatga ega bo‘lsa-da, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bo‘lsa-da, faqat folklor hisoblanadi, tabiatga ega va o‘rganilayotgan masalani ilmiy hal etishda ishonchli manba bo‘la olmaydi. Ta’kidlash joizki, tarixiy ma’lumotlarning, ayniqsa, tarixiy-toponimik tadqiqotlarga oid kamligi bizdan, eng avvalo, “Andijon” toponimining barcha shakl va variantlari tarkibiy qismlarini har tomonlama tarixiy-morfologik tahlil qilish va sharhlashni taqozo etadi. Farg‘ona vodiysining bu shahri birinchi marta arab geograflari Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida “Andukon” shaklida tilga olingan.

Tojik-fors yozma manbalarida esa “Andigon”. Zahiriddin Muhammad Bobur solnomasida uning ona shahri “Andijon” shaklida uchraydi. “Farg‘ona tarixi” tarixiy asari muallifi Junaydulloh o‘g‘li Ishoqxon Ibratning yozishicha, arab yozuvida dastlab “Andijon” deb berilgan shahar nomi avval “Andigon” nomi bilan mavjud bo‘lib, u yerda o‘zbeklarning Andi qabilasi yashagan.

Demak, bu shahar nomi o‘rta asr yozma manbalarida uch ko‘rinishda uchraydi: “Andukon”, “Antigon” va “Andijon”. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, O‘rta Osiyo tarixiy geografiyasining ayrim ma’lumotlari ko‘rsatganidek, o‘rganilayotgan toponimlarning bu uch shakli nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki O‘rta Osiyo mintaqasining boshqa dehqonchilik vohalarida ham uchraydi. Chunonchi, XIX-asr oxiri – XX-asr boshlaridagi “Buxoro amiri qushbegi devoni” hujjatlari reestrida,

Depau viloyatining Dauri Qo‘rg‘on qishlog‘ida joylashgan Andijon aholi punkti qayd etilgan va tumanda.

XII-asrda yashagan mashhur o‘rta osiyolik tarixchi olim, “Kitob al-ansab” (“Nisb kitobi”) kitobining muallifi Abu Sa’l Abdalkarim ibn Muhammad as-Sam’oniy al-Marvaziy (1113-1167 yillar) yozishicha, Hirot vodiysida, Seraxs yaqinida Andukan qishlog‘i joylashgan[14].

Yoqub al-Hamaviyning mashhur “Mujam al-buldan” jug‘rofiy lug‘atida Marvdan 5 farsax (30 – 35 km) uzoqlikda joylashgan Andagon qishlog‘i tilga olingan.

Turli dehqonchilik vohalari, xususan, O‘rta Osiyoning vodiy rayonlari haqidagi birlamchi manbalardan olingan yuqoridagi faktik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “Andijon” toponimining barcha ko‘rinishlarida paydo bo‘lishi alohida afsonaviy shaxslarning nomlari yoki birontasining nomi bilan bog‘liq bo‘lmagan. etnik guruhlar, balki umuman olganda, bu toponim va uning etimologiyasi ma’lum hududlarning tabiiy sharoitlari belgilari bilan chambarchas bog‘langan va o‘ziga xos izini bor.

O‘rta asrlarda ham toponim, ham gidronim ma’nosini anglatgan “Andukon”, “Andigon”, “Andijon” yoki “Andijan” sinonimik nomlari ikki komponentdan: “aidu” yoki “andi” leksemalaridan iborat va “kan”, “gon” yoki “jon” toponimning substrati hisoblanadi. So‘g‘dcha “kanta” yoki “kanda” so‘ziga borib taqaladigan “kan” leksemasi va unga bog‘liq “gon” so‘zi “qazmoq”, “kovlamoq” ma’nolarini bildiradi. Xalq lug‘atidagi “kon” yoki “kan” shaklidagi leksemaning bosh “***k***” harfi odatda “***g***” yoki “***j***” harfi bilan almashinadi. Shu bois O‘rta Osiyoning tarixiy geografiyasida, dehqonchilik vohalarining aholi punktlari nomlarida “kon”, “gon” va “jon” yoki “jan” qo‘shimchalari ishtirok etgan toponimlar ko‘p uchraydi. Masalan: Konimex, Kumishkon, Haydarkon, Mchgkon, Vobkan, Barkan, Savakon, Gondara, Andagon, Anjirfagon, Buzgon, Sagon, Jondar, Samjon, Arbinjon, Robinjan, Obizhaya, Xuzxon va boshqalar.

[14] Камолиддинов Ш.С. «Китаб ал-Ансаб» Абу Саъда Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Ташкент, 1993. С.43

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik aholi punktlari nomlari keng ma’noga ega bo‘lgan va suv manbalari va hudud gidrografiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan gidronimlar asosida paydo bo‘lgan. Demak, “kon”, “gon” va “jon” yoki “jan” topoformantlari, eng avvalo, “daryo”, “kanal”, “ko‘l”, “ko‘l” kabi suv resurslarining umumiy tushunchasini bildirgan. magistral kanal” va hokazo.Bulardan kelib chiqib, “kon”, “gon” va “zhon” yoki “zhan” substratlari sinonimik morfemalar bo‘lib, yagona umumiy tushuncha – “daryo” yoki “say”, ya’ni, degan xulosaga kelishimiz mumkin. tog‘ daryosi leksema affiksi sifatida “aidu”, “andi” yoki “aida” so‘zlari bilan qo‘shilib “Andukon”, “Andigon”, “Andagan” toponimlarini hosil qilgan. O‘zbek adabiy tilida “andi” leksemasi “anda”, masalan, “kuda-aida” yoki “quda-andali” shaklida so‘z yasovchi affiks sifatida saqlanib qolgan, qaysi individual sinonimik terminlar yordamida hosil qilingan. Demak, o‘zbek tilidagi “kuda-aida” yoki “quda-andali” iboralarida “ana” atamasi “kuda” – “to‘qmoq” so‘zining sinonimi sifatida sovchining yaqin qarindoshini bildiradi.

O‘zbek ismlarining izohli lug‘atida “anda” leksemasi ishtirok etgan bir qancha otlar sanab o‘tilgan, deylik, Anda, Andaboy, Andagul, Andalib, Andam, Andahol.

15.6-§. Andijon viloyati toponimiyasi. Andijon viloyati shimoliy-sharqdan va Janubdan Qirg‘iziston Respublikasi bilan, garbdan Farg‘ona viloyati va shimoliy-garbdan Namangan viloyati bilai chegaradosh.Viloyat Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan, hududi asosan tekisliklar hamda qisman Farg‘ona va Oloy tog‘ tizmalarining adirliklaridan iborat. Andijon viloyati toponimlari O‘zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi bo‘lib, shakllanishi, grammatik tuzilishi, ma’no mazmuni jihatdan boshqa viloyatlardan keskin farq qilmaydi.

Viloyatda o‘simlik va hayvonot turlari bilan atalgan geogralik obyektlar bor, ammo ularning soni ko‘p emas. Viloyat toponimlari orasida kishilarning ismi, laqabi, taxallusi bilan ataladigan nomlar ham uchraydi. Zulliqor, Sultonmurodbek. O‘rmonbek kabi nomlar antropotoponimlarga misol bo‘ladi.

Jig‘achi- Chang‘aroqchi kabi oykonimlarga kishilarning kasb-hunari asos bo‘lgan deyishadi.

Jig‘achi - jig‘a yasovchi ustalar yashaydigan qishloq. Sallaga taqiladigan bezakni jig‘a deyishgan va uni hunarmandlar xon va xonzodalar uchun yasashgan. Jig‘a yasash hunarmandlardan katta mahorat va mas'uliyat talab qilgan. Uning tuzilishini professor S.Ibrohimov quyidagicha ta’riflaydi: jig‘a bir-biriga yopishtirilgan, ikki palla yupqa kumushdan iborat bo‘lgan, ustiga bosma naqshlar ishlangan, tilla suvi yuritilgan, marvarid, feruza kabi asl toshlar qadalgan ustiga ukki pari qistirilgan, ichiga mum to‘ldirilgan bezak.

Viloyatda geografik nomlar hosil qilishda faol qatnashgan terminlar qatoriga tepa (Jartepa, Toshtepa), qo‘rg‘on (Qoraqo‘rg‘on, Qoziqo‘rg‘on), qo‘rg‘on cha (Qo‘rg‘oncha, Eski Qo‘rg‘oncha), jar (Jarboshi, Jartepa), yor (Kuyganvor. Oqyor. Yorqishloq), kabi qo‘shimchalarni kiritish mumkin. O‘tmishda joy nomlari hosil qilishda "yor” ancha sermahsul qo‘shimcha hisoblangan va uning yordamida ko‘plab joy nomlari hosil qilingan. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘atit lurk” asarida (XI -asr) qadimiy turkiy tillarda jar so‘zi – “yar”, “yor” shaklida talaffuz qilingan deb yozgan.

Andijon viloyati toponimlari tarkibida darakchi-indikator terminlardan chek - (“bo‘lib berilgan xususiy yer maydoni”) termini ko‘plab joy nomlari hosil qilgan. Buning asosiy sababi, XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xoni Xudoyorxon hozirgi Baliqchi lumani hududida Qoradaryodan ariq chiqarib yangi yerlarni o‘zlashtirgan va ularni farzandlari, yaqin qarindoshlari, amaldorlariga chek qilib bo‘lib bergan. Sheralichek, Oftobachichek, Mallachek, Mirzaboshichek kabi nomlar ana shu davrda paydo bo‘lgan.

Andijon viloyati toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, mintaqada leksik, semantik jihatdan sof forsiy nomlar kam uchraydi. S.Qorayevning yozishicha. Bo‘ston, Guliston. Navro‘zobod, Sohibkor, Chorvador kabi nomlar genetik jihatdan forsiy tillar mahsuli bo‘lsa ham, yasalishi jihatdan sof o‘zbekcha toponimlardir. Bunday nomlar o‘zbek tilining leksik fodidan allaqachon joy olib bo‘lgan leksik birliklardan yasalgan.

Mintaqada aholi zich joylashganligi sababli boshqa toponimlar turlariga qaraganda oykonimlar yetakchilik qiladi. Ularning bir qismini urug‘-qabila nomlari

bilan atalgan etnooykonimlar tashkil qiladi. O‘zbek urug‘-qabila nomlari bilan birga, qo‘shni turkiy xalqlarning etnik guruh nomlari ham etnooykonimlar tarkibida uchraydi. Viloyat hududida toponimlar shaklida uchraydigan etnonimlarga Arg‘in. Bahrin, Do‘rmon. Yovkesak, Marqayuz, Nayman, Oqtumor, Sulduz, Qo‘g‘ay kabi etnik guruh nomlari misol bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, sho‘rolar davrida viloyat toponimlari tarkibida o‘sha davr mafkurasi va dohilari nomi bilan atalgan geografik obyektlar juda ko‘p bo‘lgan. Istiqlol yillarida viloyatda amalga oshirilgan mustaqil toponimik siyosat natijasida. barcha sho‘ro hokimiyati mafkurasi bilan bog‘liq “qizil” nomlar o‘zgartirildi.

O‘zbekiston avtomobilsozlari “poytaxti” bo‘lgan hozirgi Asaka shahri. 1937-1991 yillari V.I.Lenin sharafiga Leninski deb atalgan. 1991 yili shaharning tarixiy Asaka nomi qayta liklandi. Asaka juda qadimiy nom, lining etimologiyasi haqida ko‘plab mutaxassislar fikr-mulohazalarini bildirishgan. Mutaxassislar **Asaka** nomining kelib chiqishini turlicha talqin qilishgan. Ayrim ladqiqotchilar asaka nomining paydo bo‘lishini O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi Vl-V asrlarda yashagan sak qabilalari nomi bilan bog‘lashadi. Chunki bu qabila ba’zi tarixiy manbalarda “assakenlar” nomi bilan ham tilga olingan. Unda “asvaka” – ot, “assaka” - otliqlar ma’nosini bildirgan. Qadimshunoslar vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan o‘z fikrlarni asoslashga harakat qilishgan va shu hududda qadimda nasldor ollar boqilgan degan xulosaga kelganlar.

Rus tarixchisi B.A.Litvinskiy Asaka tarixini Farg‘onada miloddan avvalgi Vl-V asrlarda yashagan sak qabilalar bilan bog‘laydi. Taniqli olim qadimgi yunon va hind manbalariga asoslanib, o‘tmishda Pomirda yashovchi sak qabilalarining yurti Assakana, xalqi esa assake(n) lar deb atalganligi- A.Makedonskiy O‘rta Osiyodan keyin, ana shu yo‘l orqali Hindistonga o‘tganligini ta’kidlaydi.

Arxeolog olim B.X.Matboboyev esa Asaka tarixini Dayyuan (qadimgi Farg‘ona) davlati tarixi bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Uning talqinicha, Asaka so‘zi jonli hind tilida “asvaka" ot, “assaga, assaka” otliqlar, ehavandozlar degani, ya’ni assaka - otliqlar yurti deb e’tirof etadi. Shu xulosaga asoslanib, 1997 yili Asaka shahriga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykali qo‘yilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, ba’zi nasabnomalarda o‘zbek urug‘lari orasida asaka va qirg‘izlarning sayaq qabilasi tarkibida asake urug‘i qayd qilingan. Oltinko‘l tumanidagi Asakalik qishlog‘i va Ustyurt platosining janubidagi Asakaovdon botig‘ining nomi ham shu etnik guruh nomi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tarixchi akademik A.Muhammadjonov fikricha, Asaka aslida Asikal shaklida talaffuz etilib, as - turkiy urug‘, kal - suv yoki soy demakdir.

Ammo bir qator olimlar borki, ular Asaka nomi va uning tarixini ilk o‘rta asrlar bilan bog‘laydi. Masalan. Professor A.Teshaboyev Asaka so‘zini o‘zgacha talqin qilgan. Olim qadimgi turkiy tilda “ass” burgut, lochin degan ma’nolarni anglatgan va o‘tmishda turk urug‘lari ichida “ass" - burgut (totemi) urug‘i ham bo‘lganligi to‘g‘risida ayrim tarixiy manbalarda ma’lumotlar bor deydi.

Shu o‘rinda B.Ahmedovning Asaka nomini “ass” urug‘i bilan bog‘liq degan xulosasini ham aytish mumkin. Olimning fikricha, hozirgi Asaka va uning atrofidagi adir va vodiylarda ilk o‘rta asrlarda “ass” etnik guruh vakillari yashaganlar. Bu mulohazani tarixchi A.Muhammadjonov ham tasdiqlaydi va uning fikricha, Asaka aslida Assikal shaklida talaffuz etilib, ass - turkiy urug‘, kal - suv yoki soy demakdir.

Shuningdek mashxur toponomist olim S.Qorayev o‘zasarlarida Andijon viloyati bilan bog‘liq bir qator toponim va etnotoponimlarini keltirib o‘tgan.

Ariqmahalla - qishloq, Asaka tumani. “Ariq bo‘yidagi mahalla” ma’nosida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga *ariq* umumturkiy etnonim: o‘zbeklarning yuz qabilasi, qozoqlarning arg‘in, bo‘yuli, kang‘li qabilalari, qirg‘izlarning adigine, mungush, sayaq qabilalari, turkmanlarning qarqin, teke, ersari qabilalari tarkibida *ariq* urug‘lari bo‘lgan.

Baliqchi - qishloq, Baliqchi tumani markazi. Baliqchi degan toponimlar, xususan oykonim ko‘p. *Balqchi* degan umumturkiy etnonim bor. Bunday nomlarni ikkiga bo‘lish mumkin: 1). Suv bo‘yida (Amudaryo, Sirdaryo va boshqa yirik daryolar sohillarida) baliq ovlash bilan shug‘ullangan kishilar yashaydigan qishloqlar Baliqchi, Baliqchilar deb atalgani. 2). *Balqchi* urug‘i nomi bilan atalgan aholi punktlari: o‘zbeklarning bir urug‘i, turkmanlarning ersari, boshqirdlarning tanil, qozoqlarning aday, qirg‘azlarning saruu qabilalari tarkibida *Balqchi* degan

urug‘lar bo‘lgan. Bu urug‘larning nima uchun *Balqchi* deb atalganini etnograf R.G. Kuzeev bunday izohlaydi: tarkibida baliqchi etnonimi bo‘lgan boshqirdlar ham, qozoqlar ham, qirg‘izlar ham qadimda baliqchilik bilan umuman shug‘ullanmagan. Ana shularni dalil qilib, olim urug‘ nomi “shahar” ma’nosidagi qadimgi turkiy *baliq* so‘zidan kelib chiqqan, ya’ni “shaharni atrofdan qo‘riqlab turuvchilar” degan ma’noni anglatgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas.

Bo‘taqora - qishloq, Izboskan tumani. *Butaqora* degan urug‘ nomidan.

Voxim - qishloq, Asaka tumani. Voxim “vasiyat qilingan, in’om qilingan, bag‘ashlangan” ma’nosidagi arabcha *vasf* so‘zining jonli tilda buzilgan shaklidir.

Gurunchmozor - qishloq, Jalolquduq, tumani. 12-asrdan buyon *Kulijmozor* deb atalib kelgan. Keyingi vaktlarda *Gurunchmozor* shaklida o‘zgargan. Etimologiyasi noma’lum.

Yomonsaroy - qishloq, Baliqchi tumani. Yomonsaroy-saroy qabilasining bir bo‘limi.

Yerqishloq - qishloq, Qo‘rg‘ontepa tumani. Bu yerda *yor* so‘zi “jar” ma’nosidadir. **Yorboshi, Kuyganyor** kabi toponimlar ham shu ma’noda.

Zulfiqor - qishloq, Baliqchi tumani. Zulfiqor xalifa Xazrati Alining afsonaviy qilichi. **Zulfiqor** degan ism ham bor. Qo‘qon yaqinidagi Zulfiqor qishlog‘i Qo‘qon xoni Xudoyorxon davrida Zulfiqor ismli kishining chek yerida paydo bo‘lgan.

Kalamush - qishloq, Bo‘z tumani. Uchko‘prik, O‘zbekiston tumanlarida ham **Kalamush** degan qishloq bor. *Kalamush* urug‘ nomi.

Mallachek - qishloq, Baliqchi tumani. Qo‘qon xoni Xudoyorxonning ug‘li Mallaxonning chek yerida paydo bo‘lgan qishloq.

Marhamat -shahar, Marhmat tumani markazi. 1898 yildagi Andijon qo‘zg‘olonida ishtirok etgani uchun buzib tashlangan bir necha qishloq o‘rniga 1899 yilda boshqa joydan bir oz yer ajratiladi, u joyda *Marusshat* (“in’om”) qishlogi bunyod etiladi.

Musulmonqulariq - Baliqchi tumanida Koradaryodan chikarilgan ariq. Ariqni 1842-1852 yillarda Qo‘qon xoni Xudoyorxonning kaynotasi Musulmonkul kazdirgan.

Oqbo‘yra - qishloq, Asaka tumani. O‘zbek qipchoqlarning bir urug‘ *oqbo‘yra*, qozoqlarning arg‘in, nayman, suvan qabilalari, qirg‘izlarning adigine qabilasi tarkibida *oqbo‘yra* urug‘i bo‘lgan.

Poloson - qishloq, Asaka, Andijon, Oltiariq tumanlari. Mug‘ulshunos olim S.D.Nominxanov poloson (palasan)- Mug‘ulcha balg‘as (un) - “shahar” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lsa kerak deydi. Farg‘ona vodiysida g‘alvirning bir turini *poloson* deydilar.

Ponsot - qishloq, Marhamat tumani. *Ponsad* - xonliklar davridagi lavozim, asli *ponsadboishi.* Qo‘qon xonligida – qo‘mondon, polk (dasta) komandiri; forscha *panjsad* - “beshyuz”.

Puchug‘oy - qishloq, Baliqchi tumani. *Puchug‘ot* - Farg‘ona qipchoqlarining bir urug‘i.

Savoy - qishloq, **Qo‘rg‘ontepa**tumani. Prof. S.Ibroximov va S.Jalilov ma’lumotlariga qaraganda**,** bu nom **Isavoy** degan kishi ismidan olingan; shu bilan birga *savoy* (isavoy) degan urug‘ ham bo‘lgan.

Segaza - qishloq, Asaka tumanida qayd qilingan qishloq. *Gaza* **“tog‘ tepasi**”, **“tog‘ qirrasi**” degan so‘z. Tog‘larda lochin, qarchig‘ay kabi ov qushlarini to‘rga tushirish uchun pisinib yotishga mo‘ljallangan kapa ham *gaza* (asli forscha koza) deyilgan. “Gaza tutib yuribsanmi” degan ibora bor (tog‘da sang‘ib yurgan kishilarga nisbatan aytiladi).

Sirmoq - qishloq, Baliqchi tumani. Farg‘ona vodiysidagi qipchoqlarning bir urug‘ *sirmoq,* deyilgan. Norin, Uchqo‘rg‘on tumanlarida ham **Sirmoq** degan qishloqlar bor.

Sulduz - qishloq, Andijon tumani. Sulduz **XIII-XIV** asrlarda Ozarbayjon, Eron, Xuroson va Movarounnaxrda yashagan turklashgan Mug‘ul qabilasidir. **Sulduz** urug‘ 92 bovli o‘zbek “qavmlari” tarkibida qayd qilingan. Sulduz Mug‘ulcha *suldes* “bayroqdorlar” so‘zidan olingan: *sulde* “bayroq”, “s” -ko‘plik affiksi. **Suvyulduz** shaklida yozish tug‘ri emas.

Sultonmurodbek - qishloq, Baliqchi tumani. XIX-asrning 60-yillarida Mazgilsoy arigi kazilgach, ariq bo‘yida o‘zlashtirilgan yerlardan bir qismini

Xudoyorxon o‘z ukasi Sultonmurodbekka chek qilib bergan; ana shu yerda paydo bo‘lgan qishloq **Sultonmurodbek** deb atalgan.

Toshkechik - qishloq, Izboskan, Xo‘jaobod tumanlari. Daryoning shu yeridan kechib o‘tilishiga ishora.

Tuvadoq - qishloq, Asaka tumani. Ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibida *tuvados-tuudak,* urug‘i qayd qilingan. *Tuvadok, tuvalok,* (tuvdok) - urug‘ing muqaddas jonivori (totem). Bag‘dod tumanida ham **Tuvadok** degan qishloq bor.

Tulkiobod - qishloq, Baliqchi tumani. O‘zbeklarning qatag‘on, qo‘ngarot qabilalari tarkibida ***tulkichi*** degan urug‘ bo‘lgan; ko‘pincha -*chi* qushimchasi tushib qoladi. Qirg‘izlarda ***tulki*** degan urug‘ qayd qilingan**.**

Tumor - qishloq, Baliqchi, Asaka tumanlari. *Tumor* (dumor)- qipchoqlarning bir urug‘i.

Turang‘il - Buz tumanidagi mavze. Aslida **Turang‘ili** bo‘lib, daryo bo‘ylarida o‘sadigan “mayda bargli terak turang‘i ko‘p joy” demakdir.

Tuyachi - qishloq, Izboskan, Marhmat, Xo‘jaobod tumanlari. Tuya haydab kun ko‘rgan kishi-sarbon *tuyachi* deyilgan. Shu bilan birga laqay qabilasining bir urug‘i, O‘zbekiston turkmanlarining va Dashti qipchoq o‘zbeklarining bir urug‘i *tuyachi* bo‘lgan.

Ulyuz - qishloq, Marhamat tumani. Asli Ulu(g‘) yuz bo‘lsa kerak. Ba’zan etnograflar o‘zbeklar ham qozoqlarga o‘xshash uchta katta qisimga – ulug‘ yuz, o‘rta yuz, kichik yuz (kenja yuz) ga bo‘lingan deyishadi (asli arabcha juz - “qisimm”). Respublikamizda **Kenjayuz** degan qishloqlar bor.

Ungut - qishloq, Asaka tumani. O‘zbek qavmlari tarkibiga kirgan qabilalardan biri *ungut* (o‘ngut-o‘ng‘ut) deb atalgan.

Xadirsha - qishloq va ariq (Qo‘rg‘ontepa tumani). *Kidirsha* degan qirg‘iz urug‘i **Xidirshox** degan kishidan tarqalgan ekan; shuning uchun ham bu qabila *qidirsha* ham, *xidirsha* ham deyiladi (xidirsha gilamlari mashxur bo‘lgan); xidirsha Xadirsha shaklida toponimga aylangan.

Xalfaqishloq, - qishloq, Baliqchi tumani. Qishloq Xudoyorxon xokimligi davrida qaynotasi Musulmonkqulning ishonchli kishilaridan Berdiqul xalfaning chek yerida vujudga kelgan.

Xonqo‘riq - qishloq, Asaka tumani. Farg‘ona vodiysida Qo‘qon xonlarining jumladan, Xudoyorxonning ov qiladigan maxsus joylari - qo‘riqxonalari bo‘lgan. Bu qishloq shu qo‘riqxonalardan biri yaqinida vujudga kelgan.

Xo‘tanariq - Andijon viloyatidagi ariq, Andijonsoydan boshlanib Andijon shahri o‘rtasidan o‘tgan. XVIII-asr oxirida Sharqiy Turkistondagi Xo‘tan shahridan ko‘chib kelgan kishilar oldingi kichik bir ariqni kengaytirib, shaharga suv keltirganlar, ana shu ariq **Xo‘tanariq** deb atalgan.

Chang‘aroqchi - qishloq, Izboskan Tumani. Chang‘aroqo‘tov (bo‘z uyning) tepasidagi yogoch do‘ngalak - tuynuk. Chang‘aroqchi - “chang‘aroq ustasi” demakdir. Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida *chang‘aroqchi* degan qipchoq, urug‘i bo‘lgan.

Charchaman - qishloq, Asaka tumani. O‘rta asrlarda bog‘dorchilik san’atida boy zamindorlarning boglari, ya’ni chorboglari xdr xil daraxtlar va gullar bilan bezatilgan kvadratlarga bo‘lingan edi. Ana shu kvadratlar *chorchaman* deyilgan.

Chilon - qishloq, Izboskan, Asaka tumanlari. Ma’nosi aniq ma’lum emas. Lekin, *chilon* degan o‘simlik bor (chilonjiyda - shu o‘simlikka nisbat berib qo‘yilgan nom bo‘lsa kerak). Toshkentdagi **Chilonzor** mavzesi nomi o‘sha o‘simlikdan nomidan olingan. N.G. Malliskiy fikricha, Toshkentdagi Chilonzor aslida Chinorzor, ya’ni “Chinor bog‘i”dir. Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida ham *Chilonzor* degan joyler bor.

Chog‘rak - Andijon shahri mahallalaridan biri. Zahiriddin Muhammad Bobur bunday deydi: “Andijon viloyatining sahronishinlaridan biri chakrak Qoshg‘ar orasidagi tog‘lardadir”. Tarixchi S.Gubaeva Andijon mahallasi o‘sha qabila nomi bilan atalgan bo‘lsa kerak deydi. Etnograf S.M.Abramzon fikricha, *chakrok* (chagrak) qabilasi qirg‘izlar tarkibiga kirgan va ichkilik qirg‘izlarning chogorok urug‘ini x.osil kdlgan. Bu urut *chakrak, chog‘rak, chegerek* deb ham atalgan.

Cho‘ja - qishloq, Asaka tumani. Farg‘ona vodiysida Cho‘ja degan joy ko‘p va shevada *juja* deyish o‘rniga *choja’* deyishadi. Birok bu toponimlarning juja so‘ziga x,yech alokasi yuk. Asaka tumanidagi **Cho‘jaariq, Cho‘jayuziya, Cho‘jaarab** toponimlari tarkibidagi *cho‘ja* komponenti etnonimlar, ya’ni bir ajdoddan tarqalgan qardosh oilalardir. Aslida choja’ juyicha - “ariqcha” ma’nosida. Choja’yuzi - yuz qabilasining ariga, choja’rab - arablar arigi ma’nolarini anglatgan.

Sherdan - qishloq, Asaka tumani. O‘zbeklarning qo‘ngarot qabilasining bir urug‘i *sherdan tug‘an* “sherdan tug‘ilgan, sherdan tarqalgan” deb atalgan urug‘ bo‘lgan.

Yuziya - qishloq, Asaka tumani. Ba’zan **Yuzuya** shaklida yozadilar va talaffuz kiladilar. *-iya* arabcha ko‘plik va jamlik qushimchasi: *O‘zbekiya* - “o‘zbeklar”, “o‘zbek xalqi”, “o‘zbekchilik” degani. **Yuziya** - “yuz qabilasi vakillari yashagan qishloq”.

Yangiko‘rpa - qishloq, Qo‘rg‘ontepa tumani. O‘zbek turkmanlarning bir urug‘i *ko‘rpa* deb atalgan. **Yangiko‘rpa – Ko‘rpa** qishlog‘i yonida paydo bo‘lgan yangi qishloq.

O‘lmas - qishloq, Baliqchi, Izboskan tumanlari. Qipchoqlarning *o‘lmas* degan urug‘i bo‘lgan.

O‘rmonbek - qishloq, Baliqchi tumani. Qo‘qon xoni Xudoyorxon uz ugli O‘rmonbekka bergan chek yerda paydo bo‘lgan qishloq dastlab **Chek O‘rmonbek,** keyin **O‘rmonbek** deb atalgan.

Qandi - qishloq, Andijon tumani. Qirg‘azlarning bagash, saruu qabilalari va qirg‘iz qipchoqlarning bir urug‘i *qandi* (qang‘li) deb atalgan. Qandi - qandiz - istehkomli qishloq, qo‘rg‘onli maskan ma’nolarini ham anglatgan.

Qarmish - qishloq, Qo‘rg‘ontepa tumani. Qirg‘azlarning adigine va dulus qabilalari, qirg‘iz qipchoqlar, boshqirdlarning yurmati va qipchoq qabilalari tarkibida **qarmish** urug‘i bo‘lgan.

Qashqar - qishloq, Andijon viloyatidagi bir necha qishloq. Dastlab uygurlar kelib urnashgan qishloqlar **Qashqarqishloq** deb atalgan. Qashqarda o‘rta

osiyoliklarni millatidan qatiy nazar *andijonlik* deyishgani kabi, qashqardan ko‘chib kelganlarning hammasini O‘zbekistonda s*ashsarlik* deb atashgan.

Qiziloyoq - qishloq, Jalolquduq, Marhamat, Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa tumanlari. Qirg‘iz qipchoqlarning bir urug‘i, shuningdek, qirg‘izlarning kesek, d‘o‘ls qabilalari, qoraqalpoqlarning qo‘ldovli qabilasi, turkmanlarning ersari qabilasi tarkibida *qiziloyoq* urug‘i qayd qilingan. *Oyoq* so‘zining “idish-tovok” ma’nosi ham bor, shevalarda ityaloqni *itoyoq*, deyishadi. Qizil so‘zining bir ma’nosi “tilla”. Tojikistondagi Qorategin qirg‘izlari idishtovog‘igacha oltindan bo‘lgan boylarni qiziloyoq deyishgan. *Toshkentda* tillasi ko‘p Abdulla qizil degan boy bo‘lgan.

Qiyali - qishloq, Baliqchi tumani. I. Magidovich ***qiyali*** urug‘ini tilga olgan.

Qovoqto‘pi - qishloq, Asaka tumani. Qozoqlarda va Qirg‘izlarda s*abuq* (qoboq) urug‘i bo‘lgan; kabak *os sabsuq* (oq qoboq) va s*ora sabuq* (kora qoboq) degan bo‘limlarga bulingan. *Qobosto‘pi* - urug‘ing kichik bir tarmog‘i.

Qorasadok - qishloq, Xo‘jaobod tumani. Qirg‘izlarning Qandi, kesek, no‘yg‘ut, sayaq qabilalari tarkibida *qorasaq* urug‘i qayd qilingan (sadoq - yoy o‘qi solinadigan to‘rvacha, o‘qdon; urug‘ tamg‘asi sadoq shaklida bo‘lgan).

Qorateginchi - qishloq, Jalaquduq tumani. *Qorateginchi* - “Qorateginlik” (“Qorategindan ko‘chib kelgan” ma’nosida; oloychi - “olaylik”, tog‘chi - “tog‘lik”, dalachi - “daladan kelgan”).

Qo‘gay - qishloq, Izboskan tumani. Farg‘ona vodiysidagi qipchoq urug‘laridan biri *qug‘ay* deb atalgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. *Farg‘ona toponimining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi haqida ma’nbalarni davriy ketma ketlikda qiyosiy tahlil qiling.*
2. *Farg‘ona, Andijon va Namangan toponimiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning asrlarini qizqacha izohlab bering*
3. *Andijon va Namangan toponimlarrining kelib chiqish tarixi bo‘yicha manbalar asosida ma’lumot to‘plang.*

4. *Farg‘ona vodiysi etnotoponimlarining hududiy geografiyasini tavsiflab bering.*

5. *Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyati gidrotoponimlari haqida so‘zlab bering.*

6. *Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyati tumanlari toponimlari izohli lug‘atini tuzing.*

XULOSA.

Jahon ilm-fani rivojlanishining hozirgi bosqichi chegaraviy pozitsiyani egallagan soha va bo‘limlarning eng jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi, ya’ni, ular chorrahasida paydo bo‘lgan bir nechta ilmiy yo‘nalishlarning elementlari va metodologiyasini birlashtiradi. Bunday fanlararo soha toponimika bo‘lib, u tarix, geografiya va tilshunoslik fanlari chorrahasida shakllangan.

Toponimik tadqiqotlarning birqator mustaqil yo‘nalishi: tarixiy, nazariy, tavsifiy, va amaliy yo‘nalishlar vujudga keldi. Yo‘nalishlarning har biri tadqiqotning o‘ziga xos tomonlarini: tarixiy, leksikologik, leksikografik, semasiologik (semantik), terminologik, tipologik, geografik, madaniy tomonlarini ilgari suradi. Hozirgi vaqtda tarixiy hujjatni toponimik tadqiq qilishda N.V.Podolskayaning xulosasiga ko‘ra, toponimlarni lokalizatsiya qilish, berilgan toponimni zamonaviy xaritadan topishga urinish, har xil turdagi analoglari va variantlarni aniqlash kabi jihatlar ko‘rib chiqiladi. Boshqa yozma yodgorliklarda toponimik tiplarni aniqlash va ularni zamonaviylari bilan solishtirish, toponimik tizim va uning alohida bo‘g‘inlarini tiklash, turli toponimik qatlamlarni, toponimik etimologiyalarni aniqlash, toponimika va antroponimiya o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va ba’zi boshqa masalalarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston hududida O‘rta Osiyoning ko‘plab eng qadimiy madaniyatlari markazlari joylashgan, ko‘pgina o‘zbek shaharlari ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu ko‘plab toponimlarning birlamchi manbalarini aniqlashni sezilarli darajada murakkablashtiradi. V.A.Juchkevichning fikricha, O‘zbekiston toponimiyasida lingvistik to‘rtta qadimgi (aralash kelib chiqishi) , Eron, Turk, Rus guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin, ammo ular real toponimik qatlamlar xarakteriga ega emas va mamlakat toponimiyasining butun xilma-xilligini qamrab olmaydi: Eng qadimiy toponimlar qatoriga Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Termiz, Farg‘ona va hokazo toponimlar kiradi. Shu bilan birga, ko‘pgina qadimiy toponimlar to‘g‘risida ularning tilga mansubligini aniqlashga imkon beradigan haligacha aniq baho berib bo‘lmaydi (bular, masalan, Buxoro, Samarqand, Amul, Xiva va boshqalar.

Xususan O‘rta Osiyo va uning geografik joy nomlari to‘g‘risidagi eng qadimgi ma’lumotlar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da uchraydi. “Avesto” ning turli qismlari qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog‘lar, ko‘llam ing nomlari, qadimgi mamlakatlar ro‘yxati, hududiy, etnik qabilalar va viloyatlaming nomlari, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy lu/um, qadimgi qabilalar o‘rtasidagi siyosiy kurashlar, zardushtiylaming diniy liilsafasi kabi ko‘plab ma’lumotlami O‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston joy nomlarining o‘rganilishiga “arab geograflari” nomlari bilan mashhur olimlar katta hissa qo‘shgan. Arab geografiyasi, ayniqsa, X asrda keng rivojlandi. Bu davrda Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Havqal, Ibn Rusta, Ibn Xurdodbeh kabi olimlar yetishib chiqdi. Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, Arab xalifaligi bir qismi sifatida yoritganlar;

- Abu Rayhon Beruniy asarlari, muallifi noma’lum “Hudud ul-Olam”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma va Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarlari o‘rta asrlardagi yurtimiz toponimlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Turkiy tilli xalqlar onomastikasini o‘rganishning Mahmud Qoshg‘ariyning Osiyodagi barcha o‘ziga xos nomlar etimologiyasini ilmiy talqin qilish bilan alohida shug‘ullangan asariga juda qimmatli man’badir. Mahmud Qoshg‘ariyning “Divanu lug‘oti-turk” asari A.N.Kononovning ta’kidlashicha: “XI asr turkiylari hayoti, ...etnonim va toponimlar, qabila bo‘linishlari, qarindoshlik atamalari, unvonlar haqidagi yagona ma’lumot manbai bo‘ldi. va turli mansabdor shaxslarning ismlari, unvonlari oziq-ovqat, ichimlik, uy va yovvoyi hayvonlar, qushlar, chorvachilik atamalari, ... geografik terminologiya va nomenklatura, shaharlar, kasalliklar va dori-darmonlar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallar, harbiy, sport, ma’muriy terminologiya , turli tarixiy va mifologik qahramonlarning nomlari, diniy va etnik terminologiya va boshqalar”. “Divoni lug‘ot-i turk” turkiy tillarning katta onomastik makonini aks ettirganini ta’kidlashimiz mumkin. Lekin ular orasida tarixiy-geografik meros juda qimmatli ko‘rinadi. Muallif jiddiy e’tibor bergan “Devoniy”ning geografik ma’lumotlari turkiylarning geografik adabiyotidir.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug‘-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o‘rganishda Ya. G‘. G‘ulomov, R. N. Nabiyev,

A.R. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimov. O‘zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H.T. Zarifov, etnograflar - E. Fozilov, M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo‘ng‘irov, geograflar - H.Hasanov,

S. Qorayev kabilaming ishlari diqqatga sazovordir;

Etnografllk tadqiqotlarda va xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda geografik nomlarning ham salmoqli o‘rni bor. Sababi, nomlar ham xalq ijodini mahsuli, xalq uni xuddi maqol, rivoyat, doston kabi tilida, tafakkurida saqlab keladi. Nomlarning katta qismi xalq xotirasi orqali hozirgacha yetib kelgan. Shu bois, xalq og‘zaki ijodini joy nomlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ular xalq og‘zaki ijodida tayanch nuqta, aniq manzil, voqeliklar sodir bo‘lgan joy, yurt, manilakat nomidir.

Toponomika tilshunoslik nuqtai nazardan ham geografik joy nomlar katta ahamiyatga ega. Joy nomlari til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar) dan kelib chiqqan. Toponimlar til lug‘at tarkibini bir qismi bo‘lishi bilan birga, joy nomlari yasashda muayyan til uchun xos bo‘lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalanadi.

Tarixiy toponimlar ilmiy va tarixiy matnlarning axborot mazmunini belgilaydi, bu esa boshqa vaqtinchalik belgilar bo‘lmagan taqdirda ham tahlil qilinayotgan voqealar davrini aniqlash imkonini beradi. Bu nafaqat davlatlar tarixiy nomlarining ekvivalent mos kelishining barqaror tizimini yaratish, balki ularning tarixini birlamchi manbalardan olingan ma’lumotlar va ilmiy tarixiy asarlar asosida o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, toponimika ilmiy fan sifatida rivojlanishda davom etmoqda va geografik nomlarning tsivilizatsiya ma’naviy hayotining eng muhim elementlari sifatidagi ilmiy, tarixiy va madaniy qiymati ushbu fanning o‘rganish ob'ekti bo‘lib qolmoqda.

GLOSSARIY.

Toponimikada qo‘llaniladigan tayanch so‘z va iboralarning qisqacha sharhi.

Agroonim		(yunoncha. agros – “dala, ekinzor, shudgor”) - toponimning bir turi. Masalan. Tutzor, Olmazor. Makkapoya.
Antroponim		(yunoneha. antropos – “odam”) Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir Ko‘ragoniy,
Atoqli ot		Biron obyektni boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasi, onim. Masalan, Orolbo‘yi, Kavkazorti, Farg‘ona, Chorsu, markaziy Osiyo va boshqalar
Gironim		(yunoncha, gidro - suv, onim - nom, ism) - toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tamonidan bunyod etilgan har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, quduqlar va boshqalar. Masalan, Amudaryo, Oqsuv, Baykal, Sangzor, Sirdaryo, Aydarko‘l, Tuzkon.
Makrotoponim		Ma’lum va mashhur bo‘lgan tabiiy geografik obyektning atoqli oti, materiklar, qifalar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog‘lar, tabiiy geografik o‘lkalar nomi. Masalan, Amerika, Turkiston, Afrika, Osiyo, Oltoy.
Mikrotoponim		Toponimlarning turlaridan biri, odatda geografik joy yoki aholi punkti ichida joylashgan kichik mahalliy ob'ektning atoqli oti (o‘tloqlar, dalalar, to‘qaylar, ko‘chalar, yerlar, uchastkalar, pichanzorlar, yaylovlar, botqoqlar, kesilgan

		maydonlar, yaylovlar, quduqlar, buloqlar, hovuzlar va boshqalar). Mikrotoponimlar uchun onionatlik. o‘zgaruvchanlik, harakatchanlik xosdir. Har qanday hududdagi mikrotoponimlar majmui mikrotoponimiya deyiladi. Odatda mikrotoponimlar faqat ma’lum bir hududda yashovchi odamlarning cheklangan doirasiga ma’lum. Mikrotoponimlar mikrotoponimiya (toponimiya bo‘limi) deb nomlangan ilmiy fan tomonidan o‘rganiladi.
Oykonim	-	(yunoncha, oykos - uy, turar joy, makon) - toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Qo‘qon, Qarshi, Jizzax, Denov, Salimbuloq.
Oronim		(yunoncha, oros - «tog‘») - tog‘lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, daralar va boshqa bir qator orograflk obyektlarning nomi. Elbrus, Oloy, Hisor, And.
Toponim		(yunoncha, topos - joy, makon, onima- nom, ism.) - har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan. gidronim, oykonim, urbonim, agroonim.
Etnonim		(yunoneha, etnos - «xalq». onim - «ism, noni») - urug‘, qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug‘, qabila, xalq nomi o‘zi tamonidan tanlangan yoki o‘zgalar tamonidan berilgan bo‘lishi mumkin. Masalan. Qo‘g‘rot, juz, qarluq, olchin, kenagas va boshqalar.
Fitotoponimiya		yunoncha fitas - o‘simlik, o‘t va topos - joy, o‘simlik va o‘tlar nomlaridan olingan geografik

		nomni anglatadi. Fitotoponimiya - o‘simliklar va o‘tlar nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar to‘plami odatta ikki kompanentli bo‘adi. Masalan. Archatut, Beshtut, Boytetak, Paxtaqo‘g‘on, Sarqamish.
Zootoponim	-	Yunoncha - zoo - hayvon, qush va topos - joy so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “qush va hayvonlarning nomlaridan hosil bo‘lgan geografik nom” degan ma’noni anglatadi. Zootoponimiya hayvonlar va qushlarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar to‘plami. Masalan. Jayraxona, Ilonsoy, Tuyaguzar, Pushti O‘rdak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI RO‘YXATI.

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari.

I. 1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.50.

I. 2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.59.

I. 3. Mirziyoev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.–B.107.

I. 4. Mirziyoev Sh. M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.491.

I. 5.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.56.

I. 6. Mirziyoev Sh.M.Niyati ulug‘ halqning ishi ham ulug‘,hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.– Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –B.205

I. 7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 1.

I. 8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.

I. 9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

I. 10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent. O‘zbekiston, 2011.

I. 11. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T., O‘zbekiston. 2015.

I. 12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2003.-b 40.

II. Asosiy adabiyotlar.

(**Monografiya, maqola, patent va ilmiy to‘plamlar**).

II. 1. Абдимуратов К.А. Топонимика Каракалпакии. АКД. Нукус, 1966.

II. 2. Агеева Р.А. Страны и народы: Нроисние названий. — М.: 1990.

II. 3. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. - Farg‘ona. 2018. 136 -b.

II. 4. Басик В.Н. Общая топонимика. -Минск, 2006. -200 с.

II. 5. Begaliyev N.B. O‘zbek etnonimlari tarixidan. - Samarqand, 2004.

II. 6. Begaliyev N.B. Samarqand viloyati toponimiyasi. Maqolalar to‘plami SamDCHTI, nashri. 2010 128 b.

II. 7. Begaliyev N.B., Turobov A.M. **Samarqand toponimiyasi.** Samarqand – 2015

II. 8. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. -T.: «O‘zbekiston», 2014.

II. 9. Bobur ensiklopediyasi. -T.: “Sharq", 2014. 743 b.

II. 10. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 279 b.

II. 11. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. -T.: «Fan». 1985. -104 - b.

II. 12. Enazarov T. O‘zbek nomshunosligi. -T.: 2015. 225 b.

II. 13. Enazarov T. O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik

II. 14. Жучкевич В. А. Общая топонимика. -Минск, 1980. - 288 с.

II. 15. Isxoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. – Toshkent: Meros, 1991. – B. 285.

II. 16. Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. АКД. -М.: 1992.

II. 17. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. АКД. -Т.: 1970.

II. 18. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. -Т.: “Шарк", 2006. -192 с.

II. 19. Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарём. -Т.: “Фан". 2015. -530 с.

II. 20. Karimov S.A., Bo‘riyev S.N. O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. -T.: “Fan", 2006. -132 b.

II. 21. Kilichev Bayramali / Onomastika: o‘quv qo‘llanma– Buxoro: 2023. – 180 b.

II. 22. Лунина С.Б. Древние города Попоне Кашкадарьи,; Ташкент “Узбекистан” 1988 г.

II. 23. Madrahimov Zohid. O‘zbekiston toponimlar tarixi, (o‘quv qo ‘llanma) «Navro‘z» nashriyoti. Toshkent, 2017 b 128.

II. 24. Mahmud Qoshg‘ariy. (Devonu lug‘otit turk). - T.: Fan, 1963. - 547 b.

II. 25. Mammadov N.G. Toponimika. Baki. 2007. 408 -b.

II. 26. Mirakmalov M.T. Tabiiy geografik terminlarning shakllanishida xalq (mahalliy) atamalarining o‘rni. AKD. -T.: 1998.

II. 27. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. -T.: 2009.

II. 28. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. - Г.: 2008.

II. 29. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. -М.: "Мысль".1974. -382 с.

II. 30. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.: "Наука". 1979.-166 с.

II. 31. Найимов С.Н. Бухоро области топонимияси. -Т.: 1984.

II. 32. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. -T.: 2009. -432 b.

II. 33. Nizomov A. Toponimika. -T.; "Sharq", 2012. -120 b.

II. 34. Nizomov A. “Toponimika” *(O‘quv Qo‘llanma) (To‘ldirilgan qayta nashir)* “Sharq” Toshkent -2013. -120 b.

II. 35. Никонов В.А. Введение в топонимику. -М.: “Наука". 1965.-178 с.

II. 36. Oxunov N. O‘zbekiston toponimiyasi. - Qo‘qon. 2005. - 90 b.

II. 37. Поспелов *Е.* М. Географические названия мира: Топонимический словарь. - М.: ООО “Издательство АСТ", 2001. -512 с.

II. 36. Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. АКД. Ташкент, 1973.

II. 37. Saidniyozov K.M. Amudaryo etagi o‘ng sohil toponimlari. AKD. -T.: 1998.

II. 38. Сапаров К.Т. Егинбаева А.Е. Топонимика региона как основа восстановления и развития ландшафтов. - Алмагы, 2017. -168 с.

II. 39. Стамп Л.Д. Словарь общегеографических терминов. I- 2 том. -М.: “Прогресс". 2005,

II. 40. Суперанская А.В. Что такое топонимика? -М.: "Наука", 1985.

Суиеранская А.В. Теория и методика ономастических исследований.-М., “Наука". 1986.-е. 15-25

II. 41. Супруненко П.П., Супруненко Ю.П. Топонимика. -М.: «Терра», 2004.

II. 42. Топонимика в региональных географических исследованиях. - Москва, «Наука», 1984. -110 с.

II. 43. Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. // Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. -T.: 1994. -92 b.

II. 44. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари :-Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. -152 б

II. 45. Ханмагомедов Х.Л. Географический фактор в топонимии. //Вести.

II. 46. Петрушевский И. П. Рашид-ад-дин и его исторический труд. С. 17. II. II. 47. Прикарпат. ун-та. Сер. филол. -2011. № 2 9 . - с. 31-35.

II. 48. Хромов А. Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. -Душанбе. “Ирфон". 1975. - 85 с. 43.

II. 49. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jild. -T.: 2000 - 2007.

II. 50. O‘zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 2011 yili 12 oktyabrdagi № o‘R Q - 303 - sonli Qonuni.

II. 51. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi № 295-sonli Qarori.

II. 52. O‘rinboyev B. Jizzax toponimlarining ta’biri. -Samarqand. 2007.

II. 53. Qorayev S. O‘zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so‘zlar lug‘ati. -T.: 2001.-176 b.

II. 54. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. -T.; 2005.

II. 55. Qorayev S. Toponimika. -T.: “O‘zb faylasuflar jamiyati", 2006.

II. 56. G‘ulomov P.N. Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2005.

II. 57. G‘ulomov P.N. Toponimlarni turlari va joy nomlarini rayonlashtirish haqida mulohazalar. O‘z.GJA. 42-jiid. -T.: 2013.

II. 58. Hakimov Q.M. Toponimika. -T.: “Mumtoz so‘z". 2016

II. 59. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. -Jizzax, 2014.

II. 60. Hakimov Q.M. Kartadagi so‘z. -T.: "Glam". 2019. -228 b.

II. 61. Hakimov Q.M. Mirakmalov M.T Toponomika darslik. – T.: «Tafakkur avlodi», 2020. -352 b.

II. 62. Hasanov H. O‘rtaosiyolik geograf va sayyohlar. -T.: 1964. -252 -b.

II. 63. Hasanov H. Tanlamjan asarlar. -T.: “Vneshinvestprom” , 2019.

II. 64. Gelling. Margaret, *Ann* Cole. The landscape of placenames. Shaun Tyas / Paul Watkins, new edition, 2014.

II. 65. Kerfoot Helen. Role of the United Nations in the standardization of geographical names. Utreht. Netherlands. 2002.

II. 66. Natali Kadmon. Toponymy: The lore. Laws of Language of Geographical Names. Vantage Press, 2001.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar.

III. 1. Bo‘tayarova G.S. Angor tumani onomastikasining sistem-struktur xususiyatlari 70230101- Lingvistika: (o‘zbek tili) mutaxasisligi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya. Termiz – 2023.

III. 2. Valiyeva Sh.I. “Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari” 11.00.01-tabiiy geografiya geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2023.

III. 3. Vaxobov B.M. “Farg‘ona vodiysida an’anaviy etnointegratsion jarayonlar” 07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya. Termiz – 2023.

III. 4. Jumaniyozova D.X. “Xorazim vohasi tarixiy onomastikasi” 5A 120102-Lingvistika: (o‘zbek tili) mutaxasisligi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya. Urganch – 2019.

III. 5. Mamataliyeva R.R. “Ozbek tilida gidronimlar hosil bo‘lishinig lingvomadaniy asoslari” (Boysun tumani misolida) 70230101– Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Termiz – 2023.

III. 6. Турсунова М.А. Лингвистическое исследование топонимии оазис Сурхона Специальность: 10.02.01 – таджикский язык. Автореферат,

диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Душанбе –2019

Internet manbalari:

wikipediya.uz

dic.academic.ru

www.ziyo.net.

https://n.ziyouz.com.

MUNDARIJA

Kirish……..... 3

1-mavzu: O‘zbekiston toponimlar tarixi faniga kirish, fanning maqasadi vazifasi.

1.1-§. O‘zbekiston toponimlar tarixi fani haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifasi……. 6

1.2-§. Toponimlarning shakilanishi unlarning o‘ziga xosligi……..... 8

1.3-§. Fanlar tizimida toponimikaning o‘rni va ahamiyati, boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi..... 12

2-mavzu. Toponomikaning rivojlanish va o‘rganilish tarixi.....

2.1-§. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlar olimlari asarlarida toponimik ma’lumotlar..... 19

2.2-§. Ilmiy toponimikaning paydo bo‘lishi. ……. 24

2.3-§. O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishi..... 31

3-mavzu. Markaziy Osiyolik olimlar asarlarida toponimlar......

3.1-§. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit Turk” asarida etnonimlar va toponimlar.……..... 35

3.2-§. Abu Rayhon Beruniy asarlari va “Hudud ul-Olam” asari – muhim tarixiy manba..... 39

3.3-§. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida toponimik ma’umotlar……..... 45

4-mavzu. O‘rta asrlar O‘rta Osiyo tarixiga oid geografik joy nomlari toponomikasi.

4.1-§. O‘rta asrlarda toponimika va joy nomlarining tasnifi O‘rta asrlarda toponimika va joy nomlarining tasnifi …… 59

4.2-§. O‘rta asrlarda toponimika va joy nomlarining tasnifi……..... 67

4.3-§. O‘rta Osiyo o‘lkasidagi geografik nomlarni o‘rganishda O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari 69

5-mavzu. Toponimikaga oid ma’lumotlar yig‘ish, tadqoqot olib borish va o‘tkazish .

5.1-§. Toponomikaning tarixiy tadqiqotlar olib borishdagi o‘rni..... 78
5.2-§. O‘zbekiston etnotoponimlarining o‘zbek xalqi etnik tarixini o‘rganishdagi o‘rni..……..... 80
5.3-§. Toponomikaga oid ma’lumotlarni yig‘ish 82
6-mavzu. O‘zbekiston etnotoponimlar.
6.1-§. O‘zbekiston etnotoponimlarining shakllanish qonuniyatlari …….. 90
6.2-§. Toponimlar va etnotoponimlarning paydo bo‘lishi 95
6.3-§. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi va geografik toponimlar ma’nosi……... 99
7-mavzu. O‘zbekiston Antropotoponimlari.
7.1-§. Antropotoponimlarning shakllanish qonuniyatlari 110
7.2-§. Antropotoponimlar haqida umumiy tushuncha .....……..... 111
7.3-§. O‘zbekiston antropotoponimlarining hududiy tafovutlari..... 112
8-mavzu. Buxoro amirligi toponimlarining tarixiy tarkibi tahlil, aholi manzillari nomlarining shakllanishi.
8.1-§. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida amirlik aholi manzillarining tarixiy nomlanishi va joy nomlari yasalishida etnik komponentlarning ishtiroki..... 116
8.2-§. Buxoro amirligining qishloq va mavzelarida etnik mansublik asosida joy nomlari..... 124
8.3-§. Toponimlar amirlikda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot va etnik munosabatlar tarixining manbai sifatida..... 127
9-mavzu. Qo‘qon va Xorazim toponimlarining paydo bo‘lishi va etimologiyasi. .
9.1-§. Qo‘qon toponomining paydo bo‘lish tarixi va etimologiyasiga doir ma’lumotlar..... 133
9.2-§. Xorazm toponimi paydo bo‘lishi tarixiy asoslari haqida……... 139
10-mavzu. Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimiyasi.
10.1-§. Tashkent toponimining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi……. 145
10.2-§. Toshkent viloyati toponimiyasi…….. 150

10.3-§. Toshkent shahar toponimiyasi ……... 159

11-mavzu. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati toponimikasi.

11.1-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimiyasi…… 163

11.2-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi etnotoponimlari. …… 165

11.3-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oronimlari va gidronimlari..... 166

11.4-§. Xorazim viloyati toponimiyasi..... 169

11.5-§. Xorazm viloyati ba’zi toponimlari va etnotoponimlarining tavsifi, hududiy geografiyasi..... 172

12-mavzu. Buxoro va Navoiy viloyatilari toponimiyasi.

12.1-§. Buxoro viloyati toponimiyasi…… 179

12.2-§. Buxoro viloyati Oronimlar va gidronimlar…… 181

12.3-§. Navoiy viloyati toponimiyasi..... 183

13-mavzu. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatilar toponimiyasi

13.1-§. Qashqadaryo viloyati toponimiyasi..... 207

13.2-§. Surxondaryo viloyati toponimiyasi..... 213

14-mavzu. Samarqand, Sirdaryo va Jizzax viloyarlari toponimiyasi.

14.1-§. Samarqand viloyati toponimiyasi..... 188

14.2-§. Samarqand toponimi kelib chiqish tarixi haqida…… 192

14.3-§. Jizzax viloyati toponimiyasi..... 194

14.4-§. Jizzax toponimining kelib chiqish tarixi..... 197

14.5-§. Sirdaryo viloyati toponimiyasi..... 201

15-mavzu. Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari toponimiyasi

15.1-§. Farg‘ana toponimining etimologiyasi…… 220

15.2-§. Farg‘ana viloyati toponimiyasi…… 223

15.3-§. Namangan viloyati toponimiyasi…… 226

15.4-§. Namangan toponimining etimologiyasi va tarixi…… 230

15.5-§. Andijon toponimi va uning etimologik tavsifi…… 231

15.6-§. Andijon viloyati toponimiyasi…… 233

Xulosa ……….... 244

Glossariy ..……..... 247

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati……... 250

Maqsud Abdirasulovich Bebitov, Dilorom Tajiyevna Yaqubova,

Jurayev Boxodir Turdaliyevich.

O‘ZBEKISTON TOPONIMLAR TARIXI

(*O‘quv qo‘llanma*)

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2024

Bosh muharrir: S.N.Tursunov
Muharrir: B.S.Nazirov
Sahifalovchi: A.X.Mengliboyev

Nashriyot litsenziyasi № 013751
Bosishga 07.05.2024 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 84x108$^{1}/_{32}$ Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasida offset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 2,5 Adadi 100.
Shartnoma 32-36

“Bekshox print servis” nashriyoti.
Manzil: Termiz shahri “Navbog‘” ko‘chasi, 20-uy.
Tel: (+99891) 972-77-03